



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
X. SULAYMONOVA NOMIDAGI  
RESPUBLIKA SUD EKSPERTIZA MARKAZI


# O'ZBEKISTON SUD EKSPERTIZASI



Huquqiy, ijtimoiy, ilmiy-amaliy

JURNAL

2024 №4(15)



**O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi  
Rayosatining 2022-yil 30-apreldagi 315/5-son qarori bilan  
“O'zbekiston sud-ekspertizasi” ilmiy jurnali yuridik va  
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori  
(DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari  
asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy  
nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.**

**MUNDARIJA**

Sobirov F.B. Sud ekspertiza xulosalarini baholash amaliyoti.....	2
Мамян Т.С., Шахвердин Г.Д. Некоторые особенности судебно-психологической экспертизы способности потерпевшего оказывать сопротивление при насилистенных сексуальных действиях.....	7
Saitova N.S. O'zbekistonda molekulyar genetik ekspertizasini tayinlash va o'tkazishda kuzatilayotgan muammolar.....	11
Normatov A.E. Next-generation sequencing tahlillari asosida uzoq biologik qarindoshlikni aniqlash.....	17
Yaxyayev B.Y. Sudga oid fonografik ekspertizasini tayinlashda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar.....	21
Mansurov A.A. Fotosuratlarda aks etgan qo'l barmoq va kaft izlari papilyar naqshlari tadqiqotlari.....	24
Mansurova Sh.Z. Sud ekspertizasining yangi turkumlari va turlarini ekspertlik prognozlash masalalari.....	31
Musulmonova K. Lingvistik ekspertizada siyosiy nutq va uning sotsial xususiyatlari .....	37
Muxamedjanova M.M. Zamonaviy sud ekspertiza metodlari.....	42
Fazilova N.S. Qalbaki banknotalar va ularning soxtakorlari bilan kurashish tarixi.....	49
Yeshmuratov Sh.B. Jinoyatlarni prognozlashtirish tizimini takomillashtirish masalalari sharhi.....	60
Mansurov O.O. Jinoyat ishlari bo'yicha maxsus bilimlardan foydalanishning sud ekspertizaga oid jihatlari.....	64
Nasilloyev A.A. Ichki ishlar organi xodimining qonuniy tahlibiga bo'yusunmagani uchun javobgarlikni belgilovchi qoida va normalarning retrospektiv tahlili .....	68
Sirojov O.O. O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari.....	75
Qolqanov N.T. Siyosiy yetakchi imijini takomillashtirish usullari.....	83
Акмалов III. Особенности современной судебной системы Исламской Республики Ирана .....	91
Xolmaxmatova Sh. Gender jihatlarga asoslangan siyosiy liderlikning qiyosiy tahlili .....	95
Murodullayeva N.A. Advokatning iqtisodiy, fuqarolik va ma'muriy sud ishlarini yuritishdagi ishtiropi.....	99
Atajanov A. Sudyalar mustaqilligi institutining shakllanishi va rivojlanishi.....	106
Maxamatumarova M. Elektron tijoratda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish masalalari .....	112
Rasulbekova R. Sud-ekspertlik faoliyatida yangilik va yengilliklar .....	117

**Muassis:**

**O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi  
huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi  
Respublika sud ekspertiza markazi**

**Bosh muharrir:**

Akram XALILOV

**Bosh muharrir o'rinosari:**

Uchkun UZAKOV

**Mas'ul kotib:**

Nuriddin QOLQANOV

**Tahrir hay'ati:**

Akbar TASHKULOV

Sherzod RABIYEV

Jamshidxon NURITDINOV

Istam ASTANOV

Narzulla JO'RAYEV

Odil MUSAYEV

Oybek SIROJOV

Eshmuxamad KADIROV

Shuhrat RAXMANOV

Saidillaxodja SAIDXODJAYEV

Shuxrat OTAQULOV

Nilufar XALILOVA

Nadejda KORABLYOVA

Murodjon MAXKAMOV

Sanjar KUDRATOV

Niyyora SAITOVA

**Mas'ul muharrir:**

Husan NISHONOV

**Dizayner:**

Faxriddin RAHIMOV

**Sahifalovchi:**

Malohat TOSHOVA

“O'zbekiston sud ekspertizasi” huquqiy,  
ijtimoiy, ilmiy-amaliy jurnali

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligida 2021-yil 4-iyunda  
1185-soni guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

**Tahririyat manzili:**

100105, Toshkent shahri, Mirobod tumani  
Farg'onasi yo'li ko'chasi.

Telefonlar: (71) 209-11-55  
(153 ichki), (93) 171-37-74

web-site: [www.sudex.uz](http://www.sudex.uz)  
e-mail: [info@sudex.uz](mailto:info@sudex.uz)  
[facebook.com/sudex.uz](https://facebook.com/sudex.uz)  
[telegram.me/sudex.uz](https://telegram.me/sudex.uz)

Jurnal 19.12.2024-yilda bosmaxonaga topshirildi.

Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Ofset usulida bosildi.

Shartli 6,75 bosma taboq. Buyurtma № 001. Adadi 100.

“Reliable Print” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Qushbegi ko'chasi, 6-uy.

# SUD EKSPERTIZA XULOSALARINI BAHOLASH AMALIYOTI

**SOBIROV**

*Furkat Baxromboy o'g'li,  
IIV Akademiyasi Kriminalistik  
ekspertizalar kafedrasi boshlig'i  
o'rinnbosari, y.f.b.f.d.(PhD)*

## ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada jinoyat ishini sudga qadar yuritish bosqichida sud ekspertiza xulosalarining ilmiy asoslanganlik masalasini baholashning o'ziga xos xususiyatlari sud-xatshunoslik eksperitzasi misolida atroficha tahlil qilingan bo'lib, bunda sud-xatshunoslik eksperitzasi bo'yicha tuzilayotgan eksperitziza xulosalarini baholashning huquqiy asoslari, mazkur jarayonni amalga oshirishda yuzaga kelayotgan muammoli holatlar va ularni bartaraf etish yuzasidan asoslantirilgan takliflar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** xatshunoslik eksperitzasi, ekspert xulosasi, tadqiqot, xulosalarni baholash, ichki ishonch.

## АННОТАЦИЯ

В статье подробно анализируются особенности оценки научной обоснованности выводов судебной экспертизы на стадии передачи уголовного дела в суд на примере судебно-почерковедческой экспертизы. При этом упоминаются правовые основы оценки заключений судебной экспертизы, проблемные ситуации, возникающие при осуществлении этого процесса, и обоснованные предложения по их устранению.

**Ключевые слова:** почерковедческая экспертиза, экспертное заключение, исследование, оценка заключения, внутренние убеждения.

## ANNOTATION

This article, at the stage of transferring a criminal case to the court, analyzes in detail the features of assessing the scientific validity of the conclusions of a forensic examination using the example of a forensic handwriting examination, while mentioning the legal basis for assessing the conclusions of a forensic examination, problematic situations arising during the implementation of this process, and reasonable proposals for their elimination.

**Key words:** handwriting expertise, expert opinion, research, assessment conclusion, inner beliefs.

Xatshunoslik ekspertizasi xulosalari bugungi kunda jinoiy, ma'muriy va fuqarolik ishlari bo'yicha olib borilayotgan tekshiruv jarayonlari uchun juda muhim bo'lgan faktik ma'lumotlarni beruvchi an'anaviy ekspertiza tadqiqot turi hisoblanadi [1]. Garchi hayotimizga elektron hujjatlar kundan kunga tobora ko'proq kirib kelayotgan bo'lsa-da, xatshunoslik ekspertizasi o'zining an'anaviy kriminalistik ekspertizalar ichida yetakchilik mavqeyini haligacha saqlab kelmoqda [2; 81-85-b].

Yuqorida keltirib o'tilgan fikrlarning nechog'lik haqiqatga yaqinligini o'tgan oxirgi 2 yil (2022 va 2023-yil)ning 12 oyi mobaynida IIV EKBM va uning hududiy IIO EKM ekspertlari tomonidan bajarilgan an'anaviy kriminalistik ekspertizalar yuzasidan statistik ma'lumotlarni o'rganish jarayonidagi tahlilda ko'rish mumkin. 2022-yilda xatshunoslik ekspertizasi xulosalari jami bajarilgan an'anaviy turdag'i ekspertiza xulosalari ichida 33,4%ni, 2023-yilda esa 34,8%ni tashkil etdi [3]. Mazkur ko'rsatkich bilan xatshunoslik ekspertizasi o'z tarkibiga daktiloskopik, trasologik, ballistik, portret, sovuq qurollar, xatshunoslik va hujjatlarning texnik kriminalistik ekspertizalari kabi jami 7 ta ekspertiza tadqiqotlarini olgan an'anaviy kriminalistik ekspertizalar ichida yaqqol yetakchi hisoblanadi.

Ma'lumki, huquqni qo'llash amaliyotida vujudga keladigan murakkab savollarga javob topish maqsadida turli ekspertizalar tayinlanadi. Mazkur maqolada bugungi kunda xatshunos-ekspertlar tomonidan shakllantirilayotgan xulosalarning ishni sudga qadar yuritish bosqichida ilmiy asoslanganlik darajasini baholash bilan bog'liq bo'lgan bir qator bahsli holatlar ko'rib chiqiladi. Buning uchun dastlab sud ekspertiza tayinlashning protsessual asoslarini o'rganib tahlil qilish lozim.

H.X.Boltayev, S.O.Urozbayev, Q.K.Bayzakov, I.R.Astanovlar tomonidan tayyorlangan "Jinoyat ishini yuritishda ekspertiza: mazmuni, ahamiyati, tayinlash va o'tkazish asoslari" nomli

uslubiy qo'llanmada sudekspertizasi tayinlashning protsessual asosiga nisbatan quyidagicha ta'rif keltirib o'tilgan: sud ekspertizasi tayinlashning protsessual asosi bu – vakolatli davlat organining uni tayinlash haqida asoslantirilgan qarori(ajrimi) hisoblanadi [4; 26-b].

O'zbekiston Respublikasi "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonunining 17-moddasasi hamda JPKning 180-moddasiga asosan sud ekspertizasini tayinlash vakolati tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi hamda sudlarga berilgan. Mazkur jarayonda dastlabki nomi ko'rsatilgan organ (shaxs)lar ekspertiza tayinlash uchun qaror, oxirgisi, ya'ni sud esa ajrim chiqaradi [5,6].

Bugungi kunda dastlabki tergov jarayonida ekspert xulosasini baholash masalalari jinoiy dalillar nazariyasining muhim muammosidir [7; 3-b]. Shu nuqtayi nazardan ekspert xulosasini baholash jarayoni har doim o'zining dolzarbigini saqlab kelmoqda. Xatshunoslik ekspertizasi xulosalari mazmunidan qat'i nazar, ekspertiza tayinlagan organ (shaxs) tomonidan baholanishi lozim [8]. Quyida ekspert xulosasining baholanish tartibi to'g'risida qisqacha to'xtalib o'tiladi.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 187-moddasida ekspert xulosasini tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan jinoyat ishi yoki tergovga qadar tekshiruv materiallari bo'yicha to'plangan boshqa dalillar bilan birlgilikda uning ilmiy asoslanganligi va ekspertiza o'tkazish uchun belgilangan barcha protsessual qoidalarga rioya etilganligi nuqtayi nazaridan baholaydi deb aniq ravshan keltirib o'tilgan [5].

Ushbu moddaga berilgan sharhda har qanday dalil singari ekspertiza xulosasi ham dalillarni baholashning umumiyligi prinsipi asosida tahlil qilinadi va tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, sudyaning ichki ishonchi asosida baholanadi deb qo'shimcha qilingan. Shu o'rinda "ichki ishonch" nima ekanligiga to'xtalib o'tsak.

**Ichki ishonch** – bu dalilning maqbulligi, yetarliligi, ishonchliligi yuzasidan qaror chiqarishi mumkin bo'lgan shaxslarning o'zi amalga oshirayotgan harakatlarning adolatli ekanligiga ishonchi yig'indisidir [9; 369-b].

H.X.Boltayev, S.O.Urozbayev, Q.K.Bayzakov, I.R.Astanovlar tomonidan tayyorlangan “Jinoyat ishini yuritishda ekspertiza: mazmuni, ahamiyati, tayinlash va o‘tkazish asoslari” nomli uslubiy qo‘llanmada ham sud ekspertining xulosasiga baho berish dalillarga baho berishning umumiy qoidalariga ko‘ra amalga oshirilishi keltirib o‘tilib, ushbu jarayon quyidagi ikkita bosqichdan iborat ekanligi ko‘rsatilgan:

- Ekspertiza tayinlash va o‘tkazish tartibiga doir protsessual talablarga rioxaya etilganligini tekshirish;
- Ekspert xulosasining ilmiy asoslanganligini tekshirish [4; 68-b].

Yuqorida keltirib o‘tilgan ikkita bosqichning birinchi bosqichi, ya’ni “*Ekspertiza tayinlash va o‘tkazish tartibiga doir protsessual talablarga rioxaya etilganligini tekshirish*” jarayonining bevosita ekspertiza tayinlagan organ mansabдор shaxsi tomonidan amalga oshirilishi tabiiy va bu borada ortiqcha hech qanday savol bo‘lishi mumkin emas. Biroq ikkinchi bosqich bilan bog‘liq bir qator aniqlik kiritilishi lozim bo‘lgan holatlар mavjud. Ma’lumot uchun, sud ekspertining xulosasiga baho berishning ikkinchi bosqichi bu “*Ekspert xulosasining ilmiy asoslanganligini tekshirish*”dir.

Rossiyalik tadqiqotchi olim G.L. Bordyugov o‘zining “Jinoyat protsessida sud ekspertining xulosasi va uning baholanishi” nomli maqolasida ekspert xulosasining baholanishi g‘oyat murakkab va ko‘p pog‘onali jarayon ekanligi hamda xulosaning baholanish bosqichi nafaqat tergovchi (sudya), balki ekspertning o‘zi uchun ham nisbatan murakkab ekanligini ta’kidlab o‘tgan [7; 370-b].

H.X.Boltayev, S.O.Urozbayev, Q.K.Bayzakov, I.R.Astanovlar tomonidan tayyorlangan “Jinoyat ishini yuritishda ekspertiza: mazmuni, ahamiyati, tayinlash va o‘tkazish asoslari” nomli uslubiy qo‘llanmada quyidagi fikrlar ilgari surilgan: ekspert xulosasining ilmiy jihatdan to‘liq asoslanganligini tekshirish jarayonida xulosada bayon etilgan faktlar, ekspertlar tomonidan qo‘llanilgan tadqiqot uslublari, xulosaga ilova qilingan materiallar tekshiriladi va baholanadi. Bunda ekspertiza tayinlagan organ mansabдор shaxsiga quyidagi savollarga olinadigan javoblar ko‘mak beradi:

1) Tergovchi tomonidan qo‘yilgan savollar ekspertning bilimlari doirasida hal etilganmi, ekspertiza xulosasi uning maxsus bilimlariga asoslanganmi?

2) Ekspertiza to‘xtamlarini asoslash uchun ekspert tomonidan foydalanilgan ilmiy qoidalar to‘g‘rimi?

3) Ekspert tomonidan tadqiq etilgan obyektlar maqbulmi?

4) Ekspert xulosasi haqqoniymi?

5) Ekspertga taqdim etilgan boshlang‘ich materiallar to‘g‘rimi?

6) Ekspert tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot to‘liqmi?

7) Ekspert to‘xtamlari o‘tkazilgan tadqiqot bilan tasdiqlanganmi?

8) Ekspert tadqiqoti natijasida olingan faktik ma’lumotlar ishda bo‘lgan dalillarga mos keldimi? [4; 69-b].

Yuqorida kabi savollarga javob topish ekspertiza tayinlagan organ mansabдор shaxsi ekspert xulosasining boshqa dalillar bilan taqqoslanishi ga hamda ekspertiza xulosasi bilan boshqa dalillar o‘rtasida muvofiqlik yoki ziddiyatlar mavjudligini o‘rganishga ko‘mak beradi.

Basharti ziddiyatlar aniqlansa, tergovchi ekspertni so‘roq qilishi yoki qayta ekspertiza tayinlashi mumkin. Shu o‘rinda qayd etish kerakki, ekspertiza xulosasi va boshqa dalillardagi faktik ma’lumotlar o‘rtasida ziddiyat yoki qarama-qarshilikning aniqlanishi darhol ekspert tomonidan bergen xulosaning noto‘g‘riligi haqidagi fikrga kelish uchun asos bo‘lmasligi lozim [10; 123-b]. Bunda tergovchining vazifasi ishdagi qarama-qarshi dalillarga tanqidiy baho berish va haqiqatni aniqlashdan iboratdir.

Tergovchi ekspert xulosasiga baho bera turib, quyidagi fikrlardan biriga keladi:

1) ekspert xulosasini to‘liq va asosli, undagi faktik ma’lumotlarni ishga aloqador va maqbul xususiyatga ega deb topish;

2) ekspert xulosasini yetarli darajada aniq va to‘liq emas deb topish, zarur hollarda qo‘sishma ekspertiza tayinlash yoki ekspertni berilgan xulosasini tushuntirib berishi yoxud qo‘sishchalar bildirishi uchun so‘roq qilish;

3) ekspert xulosasini asossiz yoki to‘g‘riligi shubha tug‘diruvchi deb topish, zarur hollarda qayta ekspertiza tayinlash yoki ekspert to‘xtam-

larini tekshirishga qaratilgan boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirish [4;69-b].

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan adabiyotdan ma'lum bo'lishicha, tergovchi tomonidan ekspert xulosasiga baho berish natijasida qabul qilgan qarorlar ichida xulosa ilmiy asoslangan yoxud ilmiy asoslanmagan degan fikrga kelishi aniq va ravshan ko'rsatib o'tilmagan.

Fikrimizcha, ma'lum bir tadqiqot yo'nalishi bo'yicha tuzilgan ekspert xulosasini ilmiy asoslanmagan deb topish uchun ekspertiza tayinlagan vakolatli organ mansabdor shaxsida ushbu tadqiqot turi bo'yicha maxsus bilimning mavjud bo'lishi maqsadga muvofiq.

Biroq yuqoridagi talab, bir so'z bilan aytganda, imkonsizdir. Sababi, bugungi kunda ekspertiza turlari ko'p bo'lishi bilan birga mazkur turlar kundan-kunga ortib bormoqda. Bularning barchasi bo'yicha bilimlarning bo'lishi esa imkonsizdir. Fikrimizning isboti tariqasida mazkur jarayonni bevosita mavzu doirasida, ya'ni xatshunoslik ekspertizasi yo'nalishida ko'rib tahlil qilamiz. Ma'lumki, xatshunoslik ekspertizasi an'anaviy kriminalistik tadqiqotlar ichida eng murakkab bo'lган ekspertiza tadqiqoti hisoblanadi [11; 75-b]. Ushbu ekspertiza tadqiqoti bo'yicha shaxsda maxsus bilim bo'lishi uchun belgilangan ma'lum bir minimal o'quv kurslaridan va yakuni bo'yicha imtihonlardan o'tishi lozimdir [12; 152-b]. Shunday bo'lган taqdirda shaxsda xatshunoslik ekspertizasi mutaxassisligi bo'yicha maxsus bilim shakllanishi mumkin.

Shu o'rinda o'rinali bir savol: barcha tergovchilarda xatshunoslik ekspertizasi yo'nalishida maxsus bilim mavjudmi? Javob: albatta yo'q. Bunday bo'lishi mumkin ham emas. Mazkur javob bilan tanishar ekanmiz, tabiiyki quyidagi: agar ekspertiza tayinlagan organ mansabdor shaxsida ushbu yo'nalishda maxsus bilim mavjud bo'lmasa, u qanday qilib xatshunoslik ekspertizasi tadqiqo-

ti yakuni bo'yicha tuzilgan ekspert xulosasining ilmiy asoslanganlik masalasini baholashi mumkin degan o'rinali bir savol tug'ilishi tabiiy.

O'zbekiston Respublikasi JPK 176-moddasida qayta ekspertiza tayinlanganda ekspert(ekspertlar komissiyasi) oldiga ilgari qo'llanilgan ekspert tekshiruvi usullarining ilmiy asoslanganligi to'g'risidagi masala qo'yilishi mumkinligi aniq ravshan ko'rsatib qo'yilgan [5]. Ushbu moddada ko'rsatilgan qoida va JPKning 187-moddasida ko'rsatib o'tilgan ekspert xulosasining ilmiy asoslanganligiga baho berish masalasi o'rtasida ozgina nomutanosiblik borday ko'rinishi tabiiy. Shu sabab ham ushbu ikkita moddani bir-biriga moslashtirish lozim.

Zero, O'zbekiston Respublikasi JPKning 176-moddasida ekspert xulosasining ilmiy asoslanganlik masalasiga oydinlik kiritish uchun aynan ushbu yo'nalishda maxsus bilimga ega bo'lган mutaxassis ekspert tomonidan qayta tadqiqot olib borish orqali javob berish mumkinligi nazarda tutilgan.

Nazarimizda, bu har tomonlama to'g'ri qaror. Sababi, ma'lum bir ishdagi xato yoxud kamchilikni topish uchun albatta shu yo'nalishdagi mutaxassis bo'lгани har tomonlama ma'qul. Zero, mutaxassis bo'lмаган kishi ayrim holatlarga yetarlicha ahamiyat bermasligi mumkin.

Shundan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi JPKning 187-moddasi birinchi qismi quyidagi ko'rinishda yangidan tahrirdan o'tkazilishi maqsadga muvofiq:

Ekspert xulosasi tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan jinoyat ishi yoki tergovga qadar tekshiruv materiallari bo'yicha to'plangan boshqa dalillar bilan birgalikda ekspertiza o'tkazish uchun belgilangan barcha protsessual qoidalarga rioya etilganligi nuqtayi nazaridan baholanadi.

**ADABIYOTLAR**

1. УРЛ:<http://femida-science.ru/index.php/home/vypusk-9/item/277> особенности-составления-заключения-эксперта-почерковеда-и-рекомендации по оформлению-результатов-исследования.
2. Петрова Б.И. Предмет, задачи и объекты судебно-почерковедческой диагностической экспертизы по установлению психологических свойств исполнителя рукописи / Б.И.Петрова // Вестник Южно-Уральского государственного университета. Серия: Право. – 2016. – Т. 16. – № 2. – С. 81-85. – DOI 10.14529/law160213.
3. IV EKBMning 2023-yil yakunlari yuzasidan qilingan hisobot – Toshkent. 2024.
4. Boltayev H.X., Urozbayev S.O., Bayzakov Q.K., Astanov I.R. “Jinoyat ishini yuritishda ekspertiza: mazmuni, ahamiyati, tayinlash va o’tkazish asoslari” uslubiy qo’llanma // Toshkent, 2016. – S.68-70.
5. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi. 22.09.1994 // URL <https://lex.uz/docs/111460>.
6. O‘zbekiston Respublikasining Sud ekspertizasi to‘g‘risidagi qonuni 01.06.2010 // URL: <https://lex.uz/docs/1633102>.
7. Бордюгов Г.Л. Заключение судебного эксперта в уголовном процессе и его оценка / Г.Л. Бордюгов // Социально-гуманитарные проблемы современности: сборник научных трудов по материалам международной научно-практической конференции: в 5 частях, Белгород, 30 сентября 2017 года / Под общ. ред. Е.П.Ткачёвой; Агентство перспективных научных исследований. – Белгород: Общество с ограниченной ответственностью “Агентство перспективных научных исследований”, 2017. – С. 24-27. – EDN ZPJZPZ.
8. URL: <https://cyberpedia.su/9xb5d0.html>
9. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga sharhlar umumiyligida qism(ilmiy-amaliy sharh) // Toshkent, 2014. – S.369-370.
10. Орехова Е.П. Тактика оценки заключения эксперта / Орехова Е.П.// Социально-гуманитарные проблемы современности: сборник научных трудов по материалам международной научно-практической конференции: в 5 частях, Белгород, 30 сентября 2017 года / Под общ. ред. Е.П.Ткачёвой; Агентство перспективных научных исследований. – Белгород: Общество с ограниченной ответственностью “Агентство перспективных научных исследований”, 2017.
11. Диденко О.А. Проблемы производства судебно-почерковедческих экспертиз в современных условиях / О.А.Диденко // Теория и практика судебной экспертизы в современных условиях: материалы VIII международной научно-практической конференции, Москва, 28-29 января 2021 года. – Москва: Общество с ограниченной ответственностью Издательство “Проспект”, 2021. – С. 74-78.
12. Россинская Е.Р. Классификации судебных экспертиз и проблемы компетенции судебных экспертов// В сборнике: Судебная реформа в России: прошлое, настоящее, будущее (Кутафинские чтения) Сборник докладов VII международной научно-практической конференции. 2015. – С. 154-158.

## АННОТАЦИЯ

# НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ СУДЕБНО- ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ СПОСОБНОСТИ ПОТЕРПЕВШЕГО ОКАЗЫВАТЬ СОПРОТИВЛЕНИЕ ПРИ НАСИЛЬСТВЕННЫХ СЕКСУАЛЬНЫХ ДЕЙСТВИЯХ

**МАМЯН**  
**Татевик Суреновна**  
*психолог-эксперт отдела  
психологических экспертиз  
Национального бюро экспертиз  
Национальной академии наук  
Республики Армения*

**ШАХВЕРДЯН**  
**Гаяне Давидовна**  
*психолог-эксперт отдела  
психологических экспертиз  
Национального бюро экспертиз  
Национальной академии наук  
Республики Армения*

Целью статьи является изучение в рамках судебно-психологической экспертизы особенностей сексуального насилия и установление способности несовершеннолетнего оказывать сопротивление при насилии. Проанализировано понятие беспомощного состояния несовершеннолетнего при производстве судебно-психологической экспертизы. Статья подводит некоторые итоги по изучаемой тематике, позволяющие классифицировать данный вид насилия, с акцентом внимания на характеристиках и последствиях сексуального насилия. Авторами выделяются и описываются характерные психологические особенности способности оказывать сопротивление при сексуальном насилии. Хотя данная проблема достаточно изучена, однако требует дальнейших исследований.

**Ключевые слова:** судебно-психологическая экспертиза, насилие, сексуальное насилие, несовершеннолетний, противоправные действия, способность оказывать сопротивление, беспомощное состояние, потерпевший.

## ANNOTATION

The purpose of this article is to study, within the framework of forensic psychological expertise, the peculiarities of sexual violence and assess the ability of a minor to resist such violence. The concept of helplessness of minors during forensic psychological examinations is analyzed. The article summarizes the findings on the topic under study, allowing the classification of this type of violence, and emphasizes the characteristics and consequences of sexual violence. The authors identify and describe the characteristic psychological features of the ability to resist sexual violence. It is noted that although this issue has been sufficiently studied, further research is still needed.

**Key words:** forensic psychological expertise, violence, sexual violence, minor, illegal actions, ability to resist, helpless state, victim.

Количественное преобладание в судебных процессах дел по насилию (в том числе по делам несовершеннолетних) является своеобразной “лакмусовой бумагой”, как по вскрытию идеологических, социальных и воспитательных проблем в обществе, так и по выявлению сложившихся политических, социальных, экономических, нравственных норм. Следовательно, актуальность рассматриваемого вопроса не вызывает сомнений.

В специализированной литературе насилие определяется как физическое, психологическое, социальное воздействие на человека (ребенка) со стороны другого человека (ребенка или взрослого), семьи, группы или государства, вынуждающее его прерывать значимую деятельность и исполнять другую, противоречащую ей, либо угрожающую его физическому или психологическому здоровью и целостности [1].

При классификации различных видов насилия отметим в первую очередь физическое, сексуальное, психическое насилие, а также финансовую эксплуатацию. Однако, в настоящей статье в качестве исследовательской задачи в рамках судебно-психологической экспертизы (СПЭ) по делам несовершеннолетних рассмотрим именно сексуальный вид насилия и аспекты способности оказания сопротивления.

Сексуальное насилие – это насильственные действия, вследствие которых человека силой, угрозой, а также обманом, вопреки его желанию, призывают к какой-либо форме сексуальных отношений. Обобщая практический опыт последних лет при производстве СПЭ в Национальном бюро экспертиз Республики Армения, можно отметить, что все чаще встречаются дела, которые следует отнести к исследованию фактов сексуального насилия, касающиеся несовершеннолетних. Поэтому, с учетом особенностей и важности проведения полноценного и качественного экспертного исследования данного вопроса в настоящей ста-

тье рассмотрены особенности и характерные признаки способности несовершеннолетнего оказывать сопротивление, а также факторы, которые влияют на способности сопротивления со стороны несовершеннолетнего при насильственных сексуальных действиях.

В задачи психологов в рамках судебно-психологической экспертизы потерпевших по фактам сексуального насилия прежде всего входит определение вопросов, касающихся проблем индивидуально-психологических особенностей потерпевшего, уровня его интеллектуального и личностного развития. Также в рамках СПЭ важно исследовать душевное состояние потерпевшего и природу расследуемой ситуации, а также его/ее способности понять характер и значение предпринятых против него действий, способности оказывать сопротивление, которые могут существенно повлиять на его/ее поведение в изучаемой ситуации.

В правовом аспекте при обсуждении проблемы беспомощного состояния, которое необходимо изучать в рамках СПЭ по делам насилия, в первую очередь следует особое внимание уделить именно психологическим показателям неоказывания сопротивления.

В юридической литературе предлагаются три варианта классификации беспомощного состояния потерпевшего:

- состояние, которое может возникнуть в связи с психическим заболеванием, когда потерпевший не отдает отчета своим действиям и не может ими руководить;
- состояние физической беспомощности (болезнь);
- состояние, при котором беспомощность обусловлена обстановкой, например, групповое изнасилование [2].

Детализируя беспомощное состояние потерпевшего, рассмотрим неспособность несовершеннолетнего понимать смысл и значение происходящего в период, когда против его/ее личности совершаются противоправные действия, насильственные действия сексуального характера, а также неспособность оказывать сопротивление.

В специализированной литературе по теме беспомощного состояния потерпевших насилие, в том числе сексуального характера, авто-

ры в основном различают 4 уровня понимания потерпевшим характера и значения совершаемых с ним/ней сексуальных действий. В частности в рамках:

- первого уровня рассматривается такое качество, как понимание, осмыщенное восприятие внешней стороны событий;
- второго уровня рассматривается понимание внутреннего содержания событий и явлений, в частности общежитейские представления сексуальных отношений;
- третьего уровня рассматривается понимание социальных значений событий, а именно моральных, нравственно-этических значений противоправных действий и их последствий;
- четвертого уровня рассматривается личностное осмысление социального значения криминальной ситуации.

Следует иметь в виду, и это на наш взгляд очень важно, что наличие любого из трех перечисленных компонентов юридических критериев - непонимание характера, непонимание значения, невозможность оказывать сопротивление - является достаточным основанием для констатации психической беспомощности [3].

Учитывая важность проведения экспертизы сексуального насилия необходимо отметить, что в некоторых случаях целесообразнее проводить комплексную судебно-медицинско-сексолого-психологическую экспертизу. С учетом данного обстоятельства, считаем необходимым подчеркнуть, что вопросы, поставленные в рамках упомянутой комплексной экспертизы, могут касаться нарушения психического развития лица, страдающего психическим заболеванием. Следовательно, экспертиза такого рода должна быть также в компетенции психиатров и их специальных знаний, а экспертизу необходимо проводить комплексно: психолого-психиатрическую.

С учетом данного обстоятельства необходимо обратить особое внимание на то, что в результате сексуального насилия могут проявляться:

- физические последствия – психосоматические боли (чаще всего, в области гениталий);
- социальные последствия – страх перед группами людей; сексуализированное пове-

дение: путанице близости с сексуальностью, исходящий из этого промискуитет (с каждым/ каждой сразу же пытаться переспать) или же тяжкая “закомплексованность”; состояние неуверенности в собственной сексуальной ориентации; сексуально-агрессивное поведение;

- психические последствия – возвращение к поведению младенца (недержание мочи, сосание пальца...), расстройство сна (страх при засыпании, сняющиеся кошмары), страх при прикосновении, зависимость самой разной выраженности [4].

Отметим также психологические проявления у несовершеннолетних, подвергшихся насилию: отказ ходить в школу из-за опасения, что кто-нибудь может узнать о случаях насилия; проявление заботы о других больше, чем о себе самом; возможность быть чрезмерно агрессивными или наоборот слишком пассивными; реакция оскорблений, издевательскими фразами на любые реплики в их адрес; поведение таким образом, чтобы привлечь внимание к себе; намеренное причинение боли другим детям или животным; употребление алкоголя, наркотиков или дурманящих веществ; размышления про самоубийство; ведение активной общественной деятельности с целью уменьшения нахождения дома и т.д.[5].

Как было отмечено выше, СПЭ по делам сексуального насилия несовершеннолетних считается одним из основных, она широко применяется при рассмотрении уголовных дел и для полноценного и объективного исполнения. Считаем важным обратить внимание на изучение способности оказания несовершеннолетним сопротивления при проведении экспертизы, что в свою очередь предоставляет информацию об исследуемом субъекте, исследуемой ситуации насилия и является важным фактором для дальнейшего судебного разбирательства.

Накопленный опыт экспертных исследований, проведенных в отделе судебно-психологических экспертиз Национального бюро экспертиз Республики Армения касательно сексуального насилия в отношении несовершеннолетних, позволил систематизировать важные составляющие:

- противоправные действия со стороны референтного по отношению к несовершеннолетней личности;
- социально-культурная среда, в которой находится несовершеннолетний;
- особенности индивидуального сексуально-психического развития личности;
- задержка развития, проблемы, связанные с психическим здоровьем;
- отсутствие сексуального образования и/или дезинформация;
- фактор, доминирующий над страхом, а именно любопытство несовершеннолетнего в исследуемой ситуации сексуального насилия;
- сложность и динамика исследуемой ситуации насилия.

Подводя некоторые итоги изучения сексуального насилия в отношении несовершеннолетних, особо следует отметить, что перечисленные выше факторы действуют главным образом в совокупности, играя значительную роль в понимании характера совершенных насильственных половых актов.

В подтверждение вышеизложенного, приведем пример из экспертной практики отдела. Так, в рамках проведенного судебно-экспертного исследования были проанализированы акты сексуального насилия по отношению к 16- и 11-летним сестрам, которые проживали в сельской общине, в социально неблагополучной семье. В отношении них в течение нескольких лет были совершены различные

действия сексуального характера 3 людьми разного возраста, живущими в той же сельской общине. По результатам экспертного интервью и психолого-экспериментального исследования у сестер бы выявлен низкий уровень осведомленности об общих социокультурных, ценностных, морально-этических нормах. Был отмечен как низкий уровень образования, так и низкий уровень осведомленности о праве на половую неприкосновенность. К тому же была отмечена ориентация родителей на удовлетворение чисто материальных потребностей в семье, непоследовательный подход к аспектам обучения, воспитания детей и т.д. По результатам выполненной судебно-психологической экспертизы и анализа полученных результатов, было подготовлено заключение, в котором было отмечено: хотя сестры и могли частично воспринимать и воспроизводить внешнюю описательную сторону важных для дела обстоятельств (например, место, личность правонарушителя, действия и другие внешние факторы), однако они не могли по существу и в полной мере понять характер и значение совершаемых действий. Следовательно, в условиях недостаточного осознания ими норм морали и системы ценностей был сделан вывод о том, что последние в сложившейся ситуации не могли оказать сопротивление насильственным по отношению к ним действиям.

## ЛИТЕРАТУРА

1. Насилие в семье: особенности психологической реабилитации [Текст]: учеб. пособие для вузов / под ред. Н.М.Платоновой, Ю.П.Платонова. – Санкт-Петербург: Речь, 2004.
2. Мамайчук И.И. Экспертиза личности в судебно-следственной практике. Учебное пособие. – СПб, Речь, 2002. – 255 с.
3. Ткаченко А.А., Яковлева Е.Ю. Комплексная сексолого-психиатрическая экспертиза беспомощного состояния потерпевших-жертв сексуальных правонарушений / Методические рекомендации. – М.: 2008. – 44 с.
4. Определение понятия и элементы сексуального насилия: URL: [https://sexueller-gewalt-begegnen.de/fileadmin/fachbeirat/downloads/13137\\_Missbrauch-Broschu\\_re\\_Inhalt\\_RU2013\\_web.pdf](https://sexueller-gewalt-begegnen.de/fileadmin/fachbeirat/downloads/13137_Missbrauch-Broschu_re_Inhalt_RU2013_web.pdf).
5. Шульга Т.И. Работа с неблагополучной семьей [Текст]: учеб. пособие / Т.И.Шульга. – Москва: Дрофа, 2005.

## ANNOTATSIYA

# O'ZBEKISTONDA MOLEKULYAR GENETIK EKSPERTIZASINI TAYINLASH VA O'TKAZISHDA KUZATILAYOTGAN MUAMMOLAR

*SAITOVA*

*Niygora Sobirjonovna,*

*X.Sulaymonova nomidagi Respublika  
sud ekspertiza markazining Sud  
ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti  
bo'lim boshlig'i, 3-darajali adliya  
maslahatchisi*

Yarim asr oldin DNK birinchi marta genetik material sifatida aniqlanganda, DNK tahlili jinoiy tergov tizimida shunchalik katta rol o'ynashini kim ham tasavvur qilgan? Yigirma yil oldin, sud ekspertlari faqat qon namunasi hayvonga yoki odamga, erkak yoki ayolga tegishli ekanligini va agar u insonniki bo'lsa, qaysi qon turiga tegishli ekanligini aniqlashlari mumkin edi.

Jinoiy tergov tizimi hozirgi ko'rinishida, ehtimol, sud dalillariga juda bog'liq va 1984-yilda Aleks Jeffrisning genetik profilini kashf etishi bilan u eng og'ir jinoyatlarni tergov qilish uchun DNK dalillariga tobora ko'proq bog'liq bo'lib qoldi. DNK tahlililing ochilishi bilan uning daliliy qiymati tufayli tergov maqsadlarida, shu bilan birga sud zalida kriminalistik yo'llarda qo'llanilishi keskin oshdi. DNK profilini aniqlash sud ekspertizasining o'ta yuqori natijadorlikka ega vositasi bo'lib, odamlarni oqlash va qoralash vakolatiga ega bo'lib qoldi.

Ammo shu o'rinda bir masalaga e'tibor qaratilishi lozim. Ya'ni ayrim hollarda molekulyar genetik ekspertizasini tayinlash va uni o'tkazishda bir qancha muammoli holatlar yuzaga kelishi mumkin. Bu kabi muammolar DNK ekspertizasi xulosasining ishonchlilikiga ham ta'sir qilishi mumkin.

Ushbu maqolada DNK ekspertizasini tayinlash va uni o'tkazishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bir qancha muammoli holatlarga to'xtalib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** molekulyar genetik tadqiqotlar, tayinlashdagi xatolar, natjalarning ishonchlilik.

## АННОТАЦИЯ

Когда полвека назад ДНК была впервые идентифицирована как генетический материал, кто бы мог подумать, что анализ ДНК сыграет такую большую роль в системе уголовных расследований и общественном восприятии закона? Двадцать лет назад судебно-медицинские эксперты могли только определить, принадлежал ли образец крови животному или человеку, мужчине или женщине, и к какому виду он принадлежал,

если это был человек.

Система уголовных расследований в ее нынешнем виде зависит от судебных доказательств. С открытием генетического профиля Алеком Джеффрисом в 1984 году доказательная ценность анализа ДНК резко возросла в следственных целях, а также его применение в криминалистике. Профилирование ДНК стало чрезвычайно эффективным инструментом судебно-медицинской экспертизы, позволяющим оправдывать или осуждать людей.

В некоторых случаях при назначении и проведении молекулярно-генетической экспертизы может возникнуть ряд проблемных ситуаций, которые могут повлиять на достоверность заключения ДНК-экспертизы.

В статье рассмотрен ряд проблемных ситуаций, которые могут возникнуть при назначении и проведении ДНК-экспертизы.

**Ключевые слова:** молекулярно-генетические исследования, ошибки назначения, достоверность результатов.

was a human.

The criminal investigation system in its current form is likely heavily dependent on forensic evidence, and with the discovery of Alec Jeffries' genetic profile in 1984, it became increasingly dependent on DNA evidence to investigate the most serious crimes. With the discovery of DNA analysis, its evidentiary value for investigative purposes has increased dramatically, as well as its use in criminology. DNA profiling has become an extremely effective forensic tool for exonerating and condemning people.

But here it is worth paying attention to one question. That is, in some cases, a number of problematic situations may arise during the appointment and conduct of a molecular genetic examination. Such problems can also affect the reliability of the DNA examination report.

This article will consider a number of problematic situations that may arise during the appointment and conduct of a DNA examination.

**Key words:** Molecular genetic studies, assignment errors, reliability of results.

## ANNOTATION

When DNA was first identified as genetic material half a century ago, who would have thought that DNA analysis would play such a big role in the criminal investigation system and public perception of the law? Twenty years ago, forensic experts could only determine whether a blood sample belonged to an animal or a human, male or female, and to which species it belonged, if it

Ilm-fan va huquq – bu inson hayotiga eng chuqur va mazmunli ta'sir ko'rsatadigan ikkita fan; jamiyatdagi deyarli hamma narsa, birinchi navbatda, haqiqat va adolatning ushbu mujassam-lanishlari bilan belgilanadi [1].

Aynan shu nuqtada ilmiy qadriyatlar raqobat tizimiga duch keladi. Mavjud dalillarga asoslangan qarorlarda albatta aniqlik talab qilinadi.

Biroq texnologiya va ilm-fan sohasidagi ishlamalar va yutuqlarning jozibadorligini hisobga olsak, ilm-fan sud zallari orasida doimiy panoh topgani ajablanarli emas[1]. Shunday qilib, DNK tahlili kabi usullarning ko'lami va talabi keskin o'sib borishi, bu "hech qanday shubha yo'q" huquqiy doktrinasining yuqori talablariga va jinoiy sudlar tomonidan talab qilinadigan dalillarning yangi, xatosiz shakllariga javob berishga intilish bilan bog'liq.

"Ilm-fanning yangi usullari va yutuqlarini qo'llashdan olinadigan foydalarni inkor etish mutlaqo noto'g'ri bo'lar edi" [3]. Shu kabi ilm-fanning yangi usullaridan biri bu molekulyar genetik tadqiqotlar asosida DNK profilini aniqlashdir.

Molekulyar genetik ekspertiza hozir fuqarolarning hayoti, so'glig'i va jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyatlar, shuningdek, noma'lum jasadlarning shaxsini aniqlashda qo'zg'atilgan jinoiy ishlarni tergov qilishda sud-ekspertiza mutaxassislarining eng zamonaviy va samarali vositalardan biridir. Ushbu ekspertizaning terroristik jinoiy ishlarni tergov qilishda ham ahamiyati kattadir. Shu bilan birga, so'nggi paytlarda ushbu turdag'i ekspertizadan mulkiy jinoyatlar – o'g'irlik, talonchilik, firibgarlikni tergov qilishda ham tobora ko'proq foydalanimoqda.

DNK ekspertizasi yana bir xususiyati bilan qiziq – ya'ni, D NK belgilari to'g'risidagi ma'lumotlarni elektron shaklda saqlash va ulardan foydalanish imkoniyati, keyinchalik esa bu D NK ma'lumotlar bazalarini shakllantirish uchun asosning belgilanishi.

Bundan tashqari, shuni ta'kidlash kerakki, ma'lum xromosomalarining (STR lokuslarning) alohida sohalarini o'rganish molekulyar gene-

tik tekshiruvni taqozo etadi. Molekulyar genetik ekspertizaning asosini tashkil etuvchi DNKnning STRlarini o'rganish orqali shaxsni aniqlash 100% ga yaqin aniq natija berishi mumkin[4]. Standart lokuslarni o'rganish solishtirma material yoki ma'lumotlar mavjud bo'lganda shaxsni aniqlashga olib keladi, albatta. Ammo DNK tekshiruviziz, odamning individual fiziologik parametrлari, masalan, ko'z rangi, qon guruhi, jinsi, yoshi haqidagi ma'lumotlarni olish mumkin bo'ladi, xolos.

Kriminalistikada jinoyat sodir etgan shaxsni, jabrланuvchini yoki noma'lum jasadni aniqlash sud ekspertizasining asosiy vazifalaridan biri ekanligi ta'kidlangan. Albatta, shaxsni aniqlash uchun hozir ko'plab usullar mavjud: bosh suyagi ko'rinishini tiklash, barmoq izlari va boshqalar, ammo DNK tekshiruvi yoki molekulyar genetik tekshiruv ustuvor ekanligini inobatga olish zarur.

Mavjud test tizimlari bo'yicha genomni o'rganish uchun ishlab chiqilgan metodologiya o'zini yaxshi oqlaydi. Ammo genomik ma'lumotlarning "ma'lumotlar bazasi" hali shakllanish bosqichida bo'lganligi bois shaxsni to'g'ridan to'g'ri identifikatsiya qilishni har doim ham amalga oshirib bo'lmaydi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, genetikaning rivojlanishi tufayli biologik namunalarni tekshirish orqali insonning jinsi, irlari, kasalliklarning mavjudligi, terining, ko'zning, sochlarning rangi ishonchli tarzda aniqlanishi mumkin [5].

Darhaqiqat, D NK profilini aniqlash paydo bo'lganidan beri, u og'ir jinoyatlarga qarshi kurashda ajralmas vositaga aylandi. Bu jinoyat joyida qoldirilgan biologik materialning iz miqdori bo'yicha shaxsni aniq aniqlashni va aybislarni oqlashni ta'minlashi mumkin [6].

Shuni inobatga olish lozimki, D NK ekspertizasi xulosasi ayblov yoki oqlovni ta'minlash yo'lidagi daliliy maqomga ega bo'lishi mumkinligini inobatga olib, uni o'tkazishda xatoga yo'1 qo'yish katta muammolarga olib kelishi mumkin.

Ba'zi xatolar, agar ular tegishli protsessual hujjatlarda mavjud bo'lsa, jinoiy ishlarni materiallarini sinchkovlik bilan o'rganish va taqqoslash orqali aniqlanishi mumkin: ekspertizalarni tayinlash to'g'risidagi qarorlar, solishtirma tadqiqotlar uchun namuna olish bayonnomalari, tergov harakatlari bayonnomalari, ekspert xulosalari va boshqalar. Masalan, ekspertning ruxsati uchun barcha kerakli savollar berilganmi yoki yo'qmi,

solishtirma tadqiqotlar uchun zarur namunalar tanlanganmi, qo'shimcha tergov harakatlari olib borilganmi, ushbu tergov sharoitida zarur bo'lgan so'roq taktik usullaridan foydalanilganmi va hokazo.

Jinoyat ishi materiallarini tergov qilishda oddiy tahlil qilish orqali aniqlash qiyin va ba'zan imkonsiz bo'lgan noaniq xatolar yanada xavflidir. Bunday xatolar mavjudligini ko'pincha ularning salbiy oqibatlari orqali aniqlash mumkin. Shuning uchun ularni bartaraf etish yoki hech bo'lma-ganda ushbu xatolarning istalmagan oqibatlarini kamaytirish uchun o'z vaqtida choralar ko'rish juda qiyin.

Yuqoridagilarni tahlil qilib, biz ekspert xatolarini tergov xatolaridan alohida ko'rib chiqish mumkin emas deb hisoblaymiz, chunki ular ko'pincha bir-biri bilan bog'liq; ba'zida tergov xatolari ekspert xatolariga va aksincha ekspert xatolari tergov xatolariga olib kelishi mumkin.

Shuni inobatga olib, genetik tekshiruvlarning imkoniyatlardan kelib chiqqan holda tergov-chilarni quyidagi muhim nuqta haqida ogohlantirish kerak: "Ba'zi tergovchilar birinchi navbatda serologik tekshiruvni tayinlashni afzal ko'rishadi va uning natijalariga qarab DNKnii tekshirish zarurligini hal qilishadi. Ushbu pozitsiyani o'rganilayotgan obyektlardagi biologik materiallar yetarli miqdorda bo'lgan va tergov vaqt bilan cheklanmagan holatlarda oqlash mumkin. Biologik xususiyatga ega izlarni olishda, va eng muhimi, oz miqdordagi qon, ter, so'lak, sperma va boshqa moddalar topilgan hollarda, ushbu obyektlar guruhg'a mansublikning serologik tekshiruvlar asosida aniqlanishini chetlab o'tib, darhol genetik tekshiruvga yuborilishi kerak", deb ta'kidlaydi I.N.Gorbulskaia [7].

Ushbu fikrni qo'llab-quvvatlab, shuni ta'kidlash joizki, genetik ekspertizaning maqsadi nafaqat o'rganilayotgan obyektlarda identifikasiya ma'lumotlarining xavfsizligi to'g'risida g'amxo'rlik qilish bilan asoslanadi. Vaqt omili bir xil darajada muhimdir: ekspertiza natijalarini o'z vaqtida olish ushbu ma'lumotdan jinoyatchini qidirish va fosh qilish uchun tezroq foydalanishga imkon beradi. Ammo bir jihatga e'tibor qaratish lozimki, to'g'ridan to'g'ri molekulyar genetik ekspertizasini tayinlashda ish holati bo'yicha hodisa sodir bo'lgan joyda yoki ashyoviy dalilda biologik material kam

miqdorda aniqlangan yoki unda oldindan biologik namuna kam va birlamchi serologik tekshiruvlar davomida sarflanib yuborilishi ehtimoli mavjud yoki yo'qligini inobatga olish lozim. Misol uchun, hodisa sodir bo'lgan joyda sigareta qoldiqlari yoki bir tomchi qon namunasi aniqlansa, tirnoq osti biologik materialni tekshirish lozim bo'lgan holatlarda to'g'ridan to'g'ri molekulyar genetik ekspertizasini tayinlash mumkin. Agarda ashyoviy dalil katta yuzali, biologik material aynan qayerda joylashganligi haqida aniq ma'lumot mavjud bo'lmasa oldindan serologik tekshiruvlarni o'tkazish maqsadga muvofiq.

Ekspertizalarni tayinlash va o'tkazishdagi xatolar tergovchi hamda ekspertning o'zarotasiiga ham tegishli. Shuning uchun, tavsiya sifatida biz quyidagilarni taklif qilamiz: ekspertizani tayinlashda, hech bo'lma-ganda, ishning toifasi to'g'risida ekspert-mutaxassisni xabardor qilish kerak, agar bu keyingi tergovda qiyinchilik tug'dirmasa, albatta. Bu yerda, xususan, ekspert tomonidan tadqiqot davomida olingan natijalarga tayanmasdan, sodir etilgan jinoyat(lar)ning allaqachon ma'lum bo'lgan holatlariiga asosan ma'lum (kerakli bo'lgan) ekspertiza xulosasini chiqarish orqali tergovga qarshi chiqish mumkin. Ish holatidan xabardorlik, ekspert tomonidan ekspertiza o'tkazishda, shu jumladan hal etishga qo'yilgan masalalarni aniqlashtirish va yangi qo'shimcha savollarni qo'yish uchun hisobga olinishi mumkin.

Shu bilan birga, ish tayinlagan organ xodimi tomonidan ekspert oldiga to'liq bo'lman yoki noto'g'ri savollarning qo'yilishi ham bir qancha noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Misol uchun, tergovchi ekspertdan taxmindagi shaxslar o'rtasida qanday qarindoshlik munosabatlari haqidagi savol qo'yilishi.

Muammo shundaki, ekspert oldiga aniq savol qo'yilsagina aniq tadqiqot o'tkazilib, aniq javob olinishi mumkin. Shuning uchun umumiylar qarindoshlik haqidagi savoldan ko'ra aniq biologik otalik yoki onalik, aka-ukalik, opa-singillik kabi savollarni qo'yish maqsadga muvofikdir.

Ayrim hollarda esa ekspertiza xulosalarining sud yoki gumondagi shaxs tomonidan tekshirilayotgan shaxslarning ism-shariflaridagi mavjud tafovutlar sababli rad etilish holatlari ham uchrab turadi. Bunga sabab ekspertiza tadqiqotlari

o‘tkazish uchun taqdim etilgan hujjatda tergovchi tomonidan ishning protsessual ishtirokchilarining (gumonlanuvchi, ayblanuvchilar) ism-shariflari asl holatidan farq qilgan holda bayon etilishi. Bittagina harf ham bir shaxsni boshqa shaxsga aylantirib qo‘yishi mumkin. Ba’zi hollarda esa ekspertiza tayinlash haqidagi qarordagi ism-familiya namuna joylashtirilgan qadoqdagi ma’lumotlar bilan to‘g‘ri kelmasligi yoki umuman aks ettirilmasligi ham mumkin. Bunday holatlarda ekspertiza tekshiruvi uchun aynan kimning namunasi taqdim etilganligini, ushbu shaxs tekshirilishi lozim bo‘lgan shaxsmi yoki yo‘qligini bilish imkonni bo‘lmaydi. Ushbu namuna tegishli ish bo‘yicha yoki boshqa ish bo‘yicha olingan namuna ekanligiga ham hech kim javob bera olmay qoladi.

Shu sabab ekspertiza tekshiruvi uchun taqdim etilayotgan namunalarning qadoqlariga ushbu namunalar kimdan, qanday namuna, kimlar ishtirokida olinganligi haqida ma’lumotlar keltirilishi zarur hamda ushbu ma’lumotlar ekspertiza tayinlash haqidagi qarorga va asl holatga mos kelishini nazorat qilish lozim. Aks holda bunday holatlarga aniqlik kiritgunga qadar ishning vaqtinchalik ijrodan to‘xtatilishiga, tergov muddatining cho‘zilishiga, tekshirilayotgan shaxslar haqidagi ma’lumotlarning no‘tog‘ri ko‘rinishida ekspertiza xulosasi rasmiy lashirilishiga olib kelishi mumkin.

Ko‘p hollarda ekspertiza tekshiruvlari davomida natija olinmaslikka yoki ekspertiza muddatining cho‘zilishiga tadqiqot uchun taqdim etilayotgan namunalarning qadoqlash talablariga rivoja etilmaganligi ham sabab bo‘lishi mumkin. Misol uchun, ekspertiza tekshiruvlari uchun tekshiruv obyektlarining qadoq butunligini ta’minlamagan holda taqdim etilishi. Bu esa o‘z navbatida ulardagi mavjud biologik

namunalarning tashqi muhit tomonidan turli moddalar, shu jumladan ishga aloqasi bo‘lmagan biologik material bilan ifloslanishiga yoki yaroqsiz holga kelishiga olib kelishi mumkin.

Molekulyar genetik ekspertiza tekshiruvlari uchun tadqiqot obyektlarini imkon qadar havo o‘tkazadigan qog‘oz o‘ram va qutilarga qadoqlash maqsadga muvofiqdir. Ya’ni namunalarning havo o‘tkazmaydigan polietilen paketlarda taqdim etilishi man etiladi. Ekspertiza tekshiruvlari uchun tekshiruv obyektlarining havo o‘tkazmaydigan polietilen paketlarda taqdim etilishi ushbu namunalarning DNA ekspertizasi tekshiruvlari uchun yaroqsiz holga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shu bilan birga, bir qancha ashyoviy dalillarning bir qadoqda olib kelinishi ularning biologik namunalarining aralashuviga olib kelish ehtimoli ham mavjud. Bu esa to‘g‘ridan to‘g‘ri ekspertiza xulosasiga ta’sir etishi mumkin. Shu bilan birga, bu kabi muammolar molekulyar genetik ekspertizasi o‘tkazilishi lozim bo‘lgan namunalarning maxsus qo‘lqop, niqoblarsiz olinishida ham kuzatiladi. Natijada ishga aloqador bo‘lmagan shaxslarning genetik materiallari tekshiruv obyektlarida aniqlanishiga va tergov jarayonida tuzatib bo‘lmas muammolarga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun ham ashyoviy dalillarni qadoqlash tartib-qoidalariga rivoja etilishiga katta urg‘u qaratish lozim.

Yuqorida berilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, tergov jarayonida yoki ekspertiza tekshiruvlari uchun tekshiruv namunalarini taqdim etish yoki ekspertiza tadqiqotlarini olib borishda yo‘l qo‘yilgan arzimagan xatolik ham tergov jarayonini noto‘g‘ri yo‘lga boshlashi mumkin. Shuning uchun tergov jarayonida protsess ishtirokchilaridan o‘z ish faoliyatlarining har bir qadamida sinchkovlik talab etiladi.

**ADABIYOTLAR**

1. Joseph L. Peterson (ed), *Forensic Science: Scientific Investigation in Criminal Justice* (AMS Press 1975) 5; Susan Haack, ‘A Match Made on Earth: Getting Real About Science and the Law, A’ (2013) 36 Dalhousie Law Journal 39, 52; Susan Haack, *Evidence matters: Science, proof and truth in law* (Cambridge University Press 2014) 79.
2. Science and Technology Committee, *Forensic Science on Trial* (HC 2004-05, 96-I) para 15; National audit office, ‘The Home Office’s oversight of forensic services: Briefing for The House of Commons Science and Technology Committee’ (National Audit Office, December 2014) accessed 28 November 2017 para 16, the National Audit Office highlights the limited data available publicly on forensic spending and the often incomplete, inconsistent, and inaccessible nature of such data; See also Science and Technology Committee, *Forensic Science* (HC 2013-14, 610) for concerns surrounding the forensic market in England and Wales and more generally Science and Technology Committee, *Forensic Science Strategy* (HC 2016-17, 501).
3. Science and Technology Committee, *Forensic Science on Trial* (HC 2004–05, 96–I) paras 177-182; Law Commission, *The Admissibility of Expert Evidence in Criminal Proceedings in England and Wales: A New Approach to the Determination of Evidentiary Reliability* (Law Com CP No 90, 2009), paras 1.15(3) and 6.72-6.74.
4. Popov V.V. Establishing the age by traces of biological origin // *Yurist-Pravoved*. 2020. №4, 86-bet.
5. Popov V.V. Identifikation of personality by molecular genetic methods // *Yurist-Pravoved*. 2018. №3, 101-bet.
6. National research council, *The Evaluation of Forensic DNA Evidence* (The National Academies Press 1996) at v.
7. Горбулинская И.Н. Использование специальных познаний в процессе расследования серийных убийств : первоначальный этап расследования. 2007.

## ANNOTATSIYA

# NEXT-GENERATION SEQUENCING1 TAHLILLARI ASOSIDA UZOQ BIOLOGIK QARINDOSHLIKNI ANIQLASH

## **NORMATOV**

*Asilbek Ermuxammadovich,  
X. Sulaymonova nomidagi Respublika  
sud ekspertiza markazining Odam  
DNKsi sud-biologik ekspertizasi  
laboratoriysi mudiri*

Ushbu maqolada Next-Generation Sequencing (NGS) texnologiyasining zamonaviy bioinformatica va genetika sohalarida qo'llanilishi va uning yordamida uzoq qarindoshlikni aniqlash imkoniyatlari batafsil o'rganilgan. Maqola davomida NGS texnologiyasining asosiy tamoyillari, amaliy jihatlari va uning sud ekspertiza, antropologiya, tibbiyot kabi sohalardagi qo'llanilishi tahlil qilin-gan. Tadqiqotning maqsadi biologik qarindoshlikni aniqlash uchun yangi usullarni ishlab chiqishdan iborat. Ushbu texnologiya yordamida genetik ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish va ma'lumotlarni tezkor va aniq qayta ishlash imkoniyati o'r-ganilgan. Shu bilan birga, uzoq qarindoshlikni aniqlash usullari, ularning afzalliklari va cheklov-lari, shuningdek, GISNP9K kabi maxsus genetik to'plamlarning ahamiyati muhokama qilingan. Tadqiqot natijalari sud-ekspertiza, klinik tadqiqotlar va boshqa ilmiy sohalarda foydalanish uchun katta amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** Next-Generation Sequencing (NGS), uzoq biologik qarindoshlik, texnologiya.

## **АННОТАЦИЯ**

В этой статье подробно изучено применение технологии Секвенирования следующего поколения (NGS - Next-Generation Sequencing) в современной биоинформатике и генетике для определения дальнего родства. В статье рассматриваются основные принципы технологии NGS, её практические аспекты и применение в судебной экспертизе, антропологии и медицине. Цель исследования – разработка новых методов для идентификации биологического родства. Особое внимание уделено анализу генетической информации, её точной и оперативной обработке с использованием NGS. Кроме того, обсуждаются методы определения дальнего родства, их преимущества и ограничения, а также значение специализированных генетических наборов, таких как GISNP9K. Результаты исследования имеют большое практическое значение для судебной экспертизы, клинических исследований и других научных областей.

**Ключевые слова:** NGS, родство, технология.

1 Next-Generation Sequencing (NGS) – Sekvenirlashning yangi avlodи

## ANNOTATION

This paper thoroughly examines the application of Next-Generation Sequencing (NGS) technology in modern bioinformatics and genetics for identifying distant biological relationships. The study discusses the fundamental principles of NGS technology, its practical aspects, and its applications in forensic expertise, anthropology, and medicine. The research aims to develop new methods for identifying biological relationships. The analysis highlights the ability of NGS technology to process genetic data accurately and efficiently. Additionally, the paper explores methods for determining distant relationships, their advantages and limitations, and the importance of specialized genetic kits like GISNP9K. The study's findings hold significant practical value for forensic expertise, clinical research, and other scientific domains.

**Key words:** NGS, relatives, technology.

NGS texnologiyasi hozirgi zamon bioinformatica va genetika sohasida yangi imkoniyatlar yaratib, genetik ma'lumotlarni tahlil qilishning samarali usuli sifatida tan olinmoqda. Bu texnologiya nafaqat yuqori tezlikda ma'lumotlarni yig'ish, balki ularni chuqur tahlil qilish imkoniyatini ham beradi. Uzoq qarindoshlik masalasini aniqlash, genetik tadqiqotlarda muhim o'rinn egallagan sohalardan biri bo'lib, u insonlar o'rtasidagi biologik aloqalarni tushunishga imkon yaratadi.

Maqolaning maqsadi – NGS – texnologiyasining uzoq qarindoshlikni aniqlashdagi ahamiyatini yoritib berish va uning sud-ekspertiza tadqiqotlarida qo'llanilishini tushuntirishdan iborat.

### **NGS – texnologiyasi: Asosiy tushunchalar va usullar**

Sekvenirlashning yangi avlodni (NGS) – bu DNK<sup>1</sup> yoki RNK<sup>2</sup> ketma-ketligini aniqlash texnologiyasi bo'lib, u kasalliklar yoki boshqa biologik hodisalar bilan bog'liq genetik o'zgarishlarni o'rganishda foydalaniladi. Bu metod 2005-yilda tijorat maqsadlarida foydalanish uchun taklif etilgan bo'lib, dastlab "ommaviy-parallel sekvenirlash" deb nomlangan, chunki u DNKnинг ko'plab zanjirlarini bir vaqtida sekvenirlash imkonini bergen. Bu esa kapillyar elektroforez (CE) yordamidagi an'anaviy Sanger usulidagi sekvenirlashdan farq qiladi, chunki unda har bir zanjir alohida sekvenirlanishi lozim edi.

NGSning tezligi, ishlab chiqaruvchanligi va aniqligi genetik tahlilda inqilob yaratib, uning genomik va klinik tadqiqotlar, reproduktiv salomatlik, shuningdek, atrof-muhit, qishloq xo'jaligi va sud-ekspertiza fanlarida qo'llanish imkoniyatlari ni ochdi [4(1)] [6(5)].

#### Asosiy bosqichlar:

Namuna tayyorlash: DNK yoki RNK namunalarini ekstraksiya qilish va ularni sekvenirlashga tayyorlash, bibliotekalarni yaratish;

Sekvenirlash jarayoni: Genetik ma'lumotlarni raqamli ko'rinishga keltirish;

1 DNK – Dezoksiribonuklein kislota

2 RNK – Ribonuklein kislotasi

Ma'lumotlarni tahlil qilish: Bioinformatik dasturlar yordamida ma'lumotlarni inson uchun tushunarli tilga o'girish.

NGS orqali genom, ekzom va RNK-sekvenirlash ma'lumotlari olinadi, bu esa qarindoshlik darajasini aniqlashda katta ahamiyatga ega[1(2)].

### **NGS – texnologiyasidan tibbiyot va antropologiyada qo'llanilishi**

NGS texnologiyasi tibbiyotda keng qo'llaniladi, ayniqsa, irsiy kasallikkarni erta aniqlash va individual terapiyani rejalashtirishda muhim o'rinni tutadi. Ushbu texnologiya yordamida irsiy kasallikkarni aniqlashda avloddan-avlodga o'tadigan genetik o'zgarishlar aniqlanadi, bu esa kasallikkarni davolash strategiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, monogenetik kasallikkarni aniqlash, saraton turlarini tasniflash va genetik mutatsiyalarni aniqlashda NGS texnologiyasi inqilobiy rol o'ynaydi. Bundan tashqari, prenatal skrining yordamida homiladagi genetik kasallikkarni erta bosqichda aniqlash imkoniyati mayjud [5(37,39)].

Antropologiyada NGS texnologiyasi insonlarning evolyutsion jarayonlarini, genetik xilma-xilligini va populyatsiyalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, qadimiy DNK namunalarini o'rganish orqali insonlarning migratsion yo'llari, ularning tarixi va madaniyati haqida ko'proq ma'lumot olish mumkin. Bu esa insoniyat tarixini genetik nuqtai nazardan qayta tiklashga yordam beradi [7(23)].

### **Qarindoshlik tushunchasi va genetik tadqiqotlar**

Qarindoshlik masalalari tarixiy, yuridik va tibbiy sohalarda muhim ahamiyatga ega. Genetik tadqiqotlarda qarindoshlik darajasini aniqlash uchun turli usullar qo'llaniladi. Odatda, qarindoshlikni aniqlashda quyidagi testlar ishlataladi:

Yaqin qarindoshlik uchun STR tahlili: Qisqa tandem qaytarilishlar (Short Tandem Repeats) asosida genetik o'xhashliklarni tahlil qilish;

Umumiy ajdodlarni aniqlash uchun SNP tahlili: Yakka nukleotid polimorfizmlari asosida genetik aloqalarni baholash.

Uzoq qarindoshlikni STR markerlari orqali aniqlashda bir qancha qiyinchiliklar ko'zatiladi. Misol uchun genetik ma'lumotlarning yetarli darajada bo'lmasligi. Ya'ni, uzoq qarindoshlarda

20-30 ta STR lokuslarini aniqlab, har doim ham yuqori aniqlikdagi qarindoshlik masalasini belgilash juda qiyin. Ba'zi holatlarda, qarindoshlar o'rtasidagi uxshash genlar noyob, ya'ni populyatsiyadagi uchrash chastotasi juda past bo'lgan holatlarda bu yuqori ko'rsatgik berishi ham mumkin. Va aksincha, o'rganilgan uxshash belgilar tekshirilayotgan populyatsiyada ko'p uchrasha, qarindoshlik darajasi juda pasayib ketadi. Bunday holatlarda ekspert yanada ko'proq genetik tahlillar olib borib, Y-xromasoma, mitoxondrial, X-xromasoma tahlillarini ham o'tkazishga majbur bo'ladi. Shu bilan birga, uzoq qarindoshlikni aniqlashda ma'lumotlar bazasining cheklanganligi, ya'ni genetik belgilarning populyatsiyada uchrash chastotalarining yo'qligi, STR yoki SNP ma'lumotlaridagi mutatsiyalar va rekombinatsiyalar tufayli tahlilning murakkabligi ortib boradi.

Biologik nuqtayi nazardan uzoq qarindoshlikning tushunchasi genetik gomologik aloqalarga asoslanadi, ya'ni umumiy ajdodlarni aniqlash uchun o'xhashliklarni izlanadi.

### **NGS-texnologiyasi asosida uzoq qarindoshlikni aniqlash**

NGS texnologiyasi orqali qarindoshlik darajasini aniqlashda quyidagi usullar qo'llaniladi:

Genom darajasidagi o'xhashliklarni tahlil qilish: Bir shaxsnинг genom ma'lumotlarini boshqasi bilan taqqoslash [2(1)].

SNP ma'lumotlaridan foydalanish: Umumiy genetik variantlarni hisoblash orqali qarindoshlikni baholash [1(18)].

Ma'lumotlar vizualizatsiyasi uchun filogenetik daraxtlar va PCA (Principal Component Analysis) usullari qo'llaniladi.

### **DNBSEQ-G99 uskunasi va uning o'ziga xosligi**

Laboratoriya 2024-yilning boshidan DNBSEQ-G99 (BGI-kompaniyasi) uskunasi amaliyot uchun joriy etilgan bo'lib, genetik sekvenirlash uchun ishlatiluvchi ushbu zamonaviy uskuna quyidagi xususiyatlarga ega:

Yuqori tezlikda sekvenirlash: Birinchi natijalarni 12 soat ichida olish mumkin;

Ikki mustaqil potok hujayrasi: Bir vaqtda ikki xil sekvenirlash jarayonlarini amalga oshirish imkoniyati;

Avtomatlashtirilgan bioinformatik modul: Natijalarni tez tahlil qilish uchun uskunaning alo-

Xususiyatlari	STR markerlari	GISNP9K
Lokuslar soni	20-30 lokus	9858 SNP lokus
Aniqlik	Yaqin qarindoshlik uchun yuqori aniqlik	1-3 daraja: >100%; 4 daraja: >99%; 5 daraja: >98%
Qiyin namuna tahlillari	To‘liq va toza DNK talab qiladi	Kam toza va qisman buzilgan DNKda ham ishlaydi
Iqtisodiy samaradorlik	Cheklangan	Yuqori samarador

hida serveri va dasturiy ta’minotlari mavjud[3(9)].

DNBSEQ-G99 uskunasi kichik va o’rtalagi sekvenirlash ishlari uchun moslashtirilgan. Ushbu uskuna ishlov berish jarayonini soddalashtiradi va tezlikni oshiradi.

### GISNP9K genetik to‘plami

Laboratoriya ekspert amaliyotida qo’llash uchun GISNP9K (Forensic Genealogy Interpretation Kit) to‘plami harid qilingan bo‘lib, bu uzoq qarindoshlikni aniqlash uchun maxsus ishlab chiqilgan genetik tahlil to‘plami hisoblanadi. U 9858 SNP lokusini bir vaqtda aniqlaydi va yuqori aniqlikdagi qarindoshlikni aniqlash imkonini beradi. Asosiy afzalliklari:

Yuqori aniqlik: 1-3-daraja qarindoshlik uchun >100%, 4-daraja uchun >99%, 5-daraja uchun >98%;

Iqtisodiy samaradorlik: ma’lumot hajmini qisqartirib, ko‘pnamuna bilan ishlash imkoniyatini beradi;

Universallik: STR ma’lumotlari yetarli bo‘lmagan hollarda ham ishlaydi.

### GISNP9K va STR markerlari o‘rtasidagi farqlar

Short Tandem Repeat (STR) markerlari qarindoshlikni aniqlashda keng qo’llaniladigan texnologiyalardan biridir. Lekin GISNP9K, STRga nisbatan bir qancha ustunliklarga ega:

GISNP9K nafaqat yuqori darajada aniqlikka ega, balki genetik ma’lumot yetarli bo‘limgan namuna bilan ham ishlash imkonini yaratadi. Bu uni jinoyat ishlari va oilaviy daraxt tahlillarida alohida ajratib turadi [2(2)].

### Xulosha

NGS texnologiyasi genetik tadqiqotlarda inqilobiy yangilik olib kirib, uzoq qarindoshlikni aniqlash masalalarini samarali hal etish imkonini bermoqda. Bu texnologiya yordamida genetik ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish, ilmiy tadqiqotlarda aniqlikni oshirish va huquqiy hamda tibbiy masalalarini tezkorlik bilan yechish mumkin. DNBSEQ-G99 uskunasi asosida GISNP9K genetik to‘plami bilan bu jarayonlarni yanada tezlashtirib, tadqiqotlarning natijadorligi oshirildi. Ushbu imkoniyatlar nafaqat sud ekspertiza sohasida, balki antropologiya va tarix kabi sohalarda ham katta ahamiyatga ega. Qarindoshlikni aniqlashdagi yangi texnologiyalar kelajakda yanada katta yutuqlar uchun zamin yaratadi.

## ADABIYOTLAR

FGI. 9K Genealogy Product Introduction.

GISNP9K Forensic Genealogy Interpretation Kit Flyer.

DNBSEQ-G99 Product Brochure.

<https://www.thermofisher.com/ie/en/home/life-science/sequencing/sequencing-learning-center/next-generation-sequencing-information/ngs-basics/what-is-next-generation-sequencing.html>

Смирнов А.М., Зайцева М.А., Павлов А.Е. Перспективы применения метода секвенирования следующего поколения (NGS) в клинической практике скрининга новорожденных. – Россия.: Российский Вестник Перинатологии и Педиатрии, 2013.

Рыжкова О.П. и другие. Руководство по интерпретации данных последовательности ДНК человека, полученных методами массового параллельного секвенирования (MPS). (редакция 2018, версия 2). – Россия.: Медицинская генетика, 2019. №2.

Шестак А.Г., Румянцева В.А. Родство и родословные в генетике и антропологии. – Россия.: Горизонты гуманитарного знания, 2021.

## ANNOTATSIYA

# SUDGA OID FONOGRAFIK EKSPERTIZASINI TAYINLASHDA YO‘L QO‘YILAYOTGAN KAMCHILIKLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH BO‘YICHA TAVSIYALAR

**YAXYAYEV**  
*Baxromjon Yusufovich,*  
*10002-harbiy qism mas’ul xodimi*

Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi organlarining amaliy faoliyatida uchrab turadigan, sudga oid fonografik ekspertizani tayinlashda xatolar va ularning oldini olish orqali jinoiy ishlarni tez va aniq ochish bo‘yicha berilgan tavsiyalarni ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan.

**Kalit so‘zlar:** sud fonografik ekspertizasi, magnitofon, diktafon, videokameralar, uyali telefonlar, xotira kartalar, kompakt disklar.

**АННОТАЦИЯ**

Статья посвящена рассмотрению рекомендаций по оперативному и точному раскрытию уголовных дел путем предотвращения ошибок при назначении судебной фонографической экспертизы, встречаемых в практической деятельности правоохранительных органов Республики Узбекистан.

**Ключевые слова:** судебно-фонографическая экспертиза, магнитофон, диктофон, видеокамеры, сотовые телефоны, карты памяти, компакт-диски.

**ANNOTATION**

This article is dedicated to consideration of recommendations in operational and accurate detection of criminal crimes by preventing mistakes in assignment and conduction of legal phonograph expertise which law enforcement agencies of the Republic of Uzbekistan face in their practice.

**Key words:** forensic phonographic examination, tape recorder, recorder, video cameras, cell phones, memory cards, CDs.

Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha sohadagi islohotlar qatorida sud-huquq tizimini isloh qilish borasidagi barcha sa'y-harakatlar odil sudslovni amalga oshirishda hamda, fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi asosida huquq va erkinliklarini muhofaza qilishga yordam bermoqda. Jinoyat ishiga taalluqli bo'lgan ovoz yozuvlari orqali gumonlanuvchilarning ushbu jinoyat ishiga aloqadorligi yoki uning aybsiz ekanligini isbotlashda sudga oid fonografik ekspertizaning ahamiyati juda katta.

Sud fonografik ekspertizasining maqsadi – tadqiqot qilinuvchi fonogramma yozib olingen magnitofon, diktofon, videokameralar, uyali telefonlar, xotira kartalar, kompakt disklar va hokazolarga yozilgan suhabatni tekshirish, u orqali shaxslarni aynanlashtirish (identifikasiya), uning mazmuni, unda ishtiroy etgan shaxslar soni, jinsi, suhabat sharoitlari va boshqalarni aniqlashga qaratilgan. Ushbu ekspertiza o'zida kompleks (akustik va lingvistik tahlillar) tadqiqotini mujassamlashtirgan bo'lib, uni o'tkazish katta vaqt talab etadi. Biroq ekspertiza tayinlaydigan tergovchi, surushtiruvchi, prokuror va sudyalar tomonidan yo'l qo'yiladigan xato va kamchiliklar oqibatida ekspertiza o'tkazish muddatlari cho'zilishi hamda ekspert oldiga qo'yilgan masalalarni qat'iy shaklda hal qilishi qiyinlashishi mumkin.

Sud fonografiya ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etadi[1]:

- ekspertizaga taqdim etilgan stenogrammaning tadqiq qilinuvchi fonogramma mazmuniga mos kelishi yoki kelmasligini aniqlash;

• ekspertizaga taqdim etilgan suhabatda nechta shaxs ishtiroy etganligi, ularning jinsi, suhabat qayerda (xonada, ko'chada, avtomashina salonida va h.k.) yozib olingani;

- suhabat yozib olingen xotira qurilmasida mexanik yoki elektroakustik montaj belgilari mavjudligini tekshirish;

• ekspertizaga taqdim etilgan fonogramma asl yoki nusxa ekanligini aniqlash;

- ekspertizaga taqdim etilgan fonogramma aynan qaysi moslamada yozib olingenligini aniqlash;

• ekspertizaga taqdim etilgan fonogramma ovoz va nutqi kimga tegishli ekanligini aniqlash va shu kabi boshqa masalalar.

Ushbu vazifalarni aniqlash uchun bugungi kundagi huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan tayinlangan sudga oid fonografik ekspertizalarning qaror va obyektlarida quyidagi kamchiliklar uchramoqda:

- tergovchining qarori (sudning ajrimi)da tadqiqot obyektlari to'liq va aniq ifodalanmaydi;

• ekspertizaga birlamchi (original) fonogramma o'rniga uning nusxasi jo'natiladi;

- ovoz nutqlari (fonogramma)ni yozib olgan texnik qurilmaning taqdim qilinmasligi;

• tadqiqotga taqdim qilingan audiofayllarga tegishli stenogrammalar to'liq emasligi;

- tadqiqotga taqdim qilingan audiofayllar uchun har bir shaxsning ovoz va nutq differensiatiyasidan tashkil topgan stenogrammalar mavjud emasligi;



- audiofayllardagi ovoz va nutq mazmuni ularning stenogrammalardagi mazmuniga mos kelmasligi;
- taqdim qilinayotgan obyetlarning ochiq va muhrlanmagan holatda taqdim etilishi;
- taqdim etilayotgan obyektlarga zarar yetkazmaslik maqsadida belgilangan tartibda saqlash, tashish qoidalariga rioya qilinmasligi;
- taqdim qilingan stenogrammalartekshirilayotgan shaxsning o'z shevasida yozilishi o'mniga adabiy tilda tuzilishi;
  - sifat darajasi past va juda qisqa vaqt uzunligidagi ovoz namunalarining taqdim etilishi;
  - taqdim qilingan ovoz namunalarini olishda (mutaxassis jalb qilinmagan holda) adabiy matnlarni o'qitish natijasida, solishtiriluvchi shaxsning sheva, lajhasi yo'qolib ketishi va shu kabi xatoliklar uchrab kelmoqda.

Yuqoridagi kamchiliklardan kelib chiqib, ularni bartaraf etish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish tavsiya etiladi [2]:

- tadqiqot uchun ovoz namunalarini mutaxassis ishtirokida olib, belgilangan tartibda rasmiylashtirish;
- tadqiqot uchun olinadigan ovoz namunalari sifatli (tashqi shovqinlarning nisbati hisoblanganda) hamda 30 daqiqadan kam bo'lmasligi;
- tadqiqot uchun olinadigan ovoz namunasi tekshirilishi (solishtirilishi) lozim bo'lgan fonogramma bilan bir xil tilda bo'lishi;
- tekshirilishi (solishtirilishi) lozim bo'lgan fonogrammadagi ajratilgan so'zlarining umumiyyig'indisi 30 soniyadan kam bo'lmasligi;
- taqdim qilinayotgan stenogrammalarni so'zlashuvchilarining talaffuzi bo'yicha tuzish;
- tadqiqot uchun fonogrammalardagi har bir shaxsning ovoz va nutq differensiatsiyasidan tashkil topgan to'liq stenogrammalarni tuzish;
- tadqiqot o'tkazish uchun taqdim etilgan ovoz namunalarini erkin suhbat ko'rinishidagi eksperimental usul orqali olish;

- tergov (sud) ixtiyorida diktofonga yozib olingan fonogrammalar mavjud bo'lsa, ular bexosdan o'chirib yuborilishining oldi olinishi, shuningdek, ovoz namunalari mavjud bo'lgan kompakt disklar har xil turdagi shikastlanishlardan saqlanishi lozim;
- ekspertga tekshirilishi lozim bo'lgan obyektlar va ashovyiy dalillar o'ralgan va muhrlangan holda taqdim etilishi;
- tadqiqot o'tkazish uchun taqdim etilgan katta hajmdagi fonogramma va stenogrammaning mazmunini solishtirish uchun, tashabbuskor jinoyat ishi bilan bog'liq va o'zini qiziqtirgan qismlarni aniq belgilab ko'rsatishi ekspertiza tadqiqotini o'tkazish muddatining qisqarishi hamda uning samaradorligi oshishiga yordam beradi.

Ekspertizaning nazariy asoslari nafaqat ekspert muassasalarining faoliyati uchun, balki tergovchi, surishtiruv organlari uchun ham alohida ahamiyatga ega. Shu bois, tergovchi, surushtiruvchi, prokuror va sud xodimlari sud ekspertizasining asosiy prinsiplarini mustahkam egallashi, uning imkoniyatlardan foydalishni bilishi talab etiladi. Bu bilimlar ularga ekspert xulosalarini baholashning to'g'ri mezonlarini belgilash hamda ekspert nima sababdan ayrim holatlarda aniq xulosaga kelganligi, boshqa holatda esa taxminiy (ehtimoliy) fikrga kelishining asoslarini idrok etishga yordam beradi. Shuning uchun ularning sud ekspertizasi, maxsus bilimlarni qo'llash bo'yicha kasbiy tayyorgarligini muntazam oshirib borish lozim. Chunki maxsus bilimlarning ayrim shakllari asossiz qo'llanilishi, noto'g'ri baho berilishi qonuniylikning buzilishiga, tergov va sud muhokamasining xolisligi, buning oqibatida esa shaxsning huquq va erkinliklari buzilishiga olib keladi[3].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni bartaraf etgan taqdirda sudga oid fonografik ekspertiza tadqiqotini o'tkazish muddatining qisqarishi hamda ekspert xulosasining qat'iyligini ta'minlashga erishish mumkin.

## ADABIYOATLAR

- Рисунков Н.К. Криминалистика: проблемы и тенденции развития. – Москва, 2006.
- Орлова В.Ф. Проблемы унификации правовой основы судебной экспертизы и пути их решения // Теория и практика судебной экспертизы.
- Xasanov Sh.X. Kriminalistik ekspertizalarni o'tkazishdagi xatolar. O'quv-metodik qo'llanma. – Toshkent 2015.

## ANNOTATSIYA

# FOTOSURATLARDA AKS ETGAN QO'L BARMOQ VA KAFT IZLARI PAPILYAR NAQSHLARI TADQIQOTLARI

*MANSUROV*

*Arslon Askarovich,*

*Toshkent shahar ichki ishlar bosh  
boshqarmasi Ekspert-kriminalistika  
markazi Kriminalistik ekspertizalar  
bo'limi eksperti, kapitan*

Ushbu maqolada axborot tizimlari orqali sodir etilayotgan jinoyatlarda, shuningdek, tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlari natijasida axborot tashuvchi vositalarda aniqlanadigan fotosuratlarda aks etgan shaxslarning qo'l barmoq va kaft izlari papilyar naqshlarini tadqiq qilish orqali ishonchli, xolisona, ilmiy asoslantirilgan, xalqaro standartlarga javob beradigan daktiloskopik ekspertiza va tadqiqotlar o'tkazishda to'qnash kelinayotgan muammolar hamda ularning yechimlari bo'yicha shaxsiy fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** ashyoviy dalillar, daktiloskopiya, daktiloskopik ekspert xulosasi, axborot texnologiyalari sohasida sodir etilayotgan jinoyatlar, fotosuratlarda aks etgan qo'l barmoq va kaft izlari papilyar naqshlari.

## АННОТАЦИЯ

В статье путем исследования папиллярных узоров отпечатков пальцев и ладоней лиц, изображенных на фотографиях, которые выявляются в информационных носителях при преступлениях, совершенных с использованием информационных систем, а также в результате следственных действий и оперативно-розыскных мероприятий, достоверные, объективные, научно обоснованные, соответствующие международным стандартам, обсуждаются личные мнения о проблемах, возникающих при проведении дактилоскопических исследований и исследований, и их решениях.

**Ключевые слова:** вещественные доказательства, дактилоскопия, дактилоскопическое экспертное заключение, преступления в сфере информационных технологий, папиллярные узоры отпечатков пальцев и отпечатков ладоней, изображенные на фотографиях.

## ANNOTATION

In this article, by researching the papillary patterns of fingerprints and palm prints of the persons shown in the photographs, which are detected in information media in crimes committed through information systems, as well as as a re-

sult of investigative actions and quick-search activities, reliable, objective, scientifically based, meeting international standards personal opinions on the problems encountered in conducting dactyloscopic examination and research and their solutions are discussed.

**Key words:** physical evidence, dactyloscopy, dactyloscopic expert opinion, crimes committed in the field of information technology, papillary patterns of fingerprints and palm prints shown in photographs.

Daktiloskopik ekspertizasi fan sifatida to'liq o'r ganilgan va ilmiy asoslantirilgan ishlar bilan qamrab olinib, amalda ishlab chiqilganligiga qaramasdan, bugungi kunda amaliyotda fotosuratlarda aks etgan qo'l barmoq va kaft izlari papilyar naqshlarini tadqiq etish kabi obyektlarning daktiloskopik ekspertizalarini o'tkazish jaronida ekspertlar oldida bir qator ilmiy asoslantirilmagan muammolar vujudga kelmoqda.

Hammaga ma'lumki, XXI asr texnologiya asri deb bejiz aytilmaydi, kundan kun rivojlanib borayotgan texnologiyalar biz uchun oddiy va odatiy hisoblangan buyumlarni ham noodatiy ko'ri-nishga keltirmoqda: telefon o'rnida foydalansa bo'ladigan oyoq kiyimlaridan tortib to sensorli dazmollargacha bu asrning rosmana texnologiya asri ekanligini ko'rsatadi. World Wide Webning afzalliklari haqida gapirganda, axborot manbayi sifatidagi qiymatini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi.

Kompyuter texnologiyalari va internet bugungi jamiyatimizga to'liq kirib keldi desak yolg'on bo'lmaydi. Eski davrlarda insonlar qandaydir mahsulot(oziq-ovqat, xo'jalik buyumlari, texnika va boshqalar)ni sotib olish uchun shu mahsulotni sotishga mo'ljallangan bozorga borishi talab etilardi. Bugungi kunda "OLX.uz", "Uzum Market", "MediaPark" kabi internet-do'konlar hamda Telegram, Facebook, Instagram kabi ijtimoiy tarmoqlardagi internet-do'kon sifatida ochilgan guruh va kanallar mavjud. Bular orqali insonlar o'z uylarida o'tirib o'zlariga kerakli mahsulotlarni sotib olish imkoniyatiga ega bo'lmoidalar.

Biroq bizga ko'rsatilayotgan qulayliklarga qaramasdan, ayrim g'araz niyatli hamda buzg'un-chilik g'oyasiga to'yingan internetda joylashtirilgan ma'lumotlar orqali tez-tez axborot makonida insonlarga, jamiyatga va mamlakat rivojiga haqiqiy xavf tug'diradigan jinoyatlarning ham sodir etilishi uchramoqda.

So'nggi yillarda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni sotish bilan shug'ullanadigan turli internet saytlari(sotuvchining kim ekanligi qat'iy yashiringan holda)ning faoliyati keskin

oshib ketganligi huquqni muhofaza qilish organlari uchun jiddiy muammo tug‘dirmoqda. Bugungi kunda buning bir qancha ko‘rinishlari bor. Eng keng tarqalgani sotuvchi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni sotish uchun o‘zining qo‘lida mavjud ekanligini ko‘rsatish maqsadida mijozga jo‘natadi hamda sotib olish uchun kelishilgan pullarni asosan chet el kartasiga tashlab berilishi so‘raladi. Shundan so‘ng ushbu moddani ixtiyoriy joyga yashirib, uning yashirilgan(zakladka) joyi fotosuratini va joylashuvin-

i(lokatsiyasi) ijtimoiy tarmoqlar orqali tashlab beriladi.

Sodir bo‘lgan huquqbuzarliklarga bog‘liq bo‘lgan ashayoviy dalillarni aniqlash, olish, qayd etish hamda ularni mustahkamlash orqali huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslar sonini, ularning shaxsini aniqlash har qanday huquqbuzarliklarni ochish, tergovga qadar tekshirish va dastlabki tergov jarayonida juda katta ahamiyatga egadir.



**1-fotosurat.** Sotuvchi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni sotish uchun o‘zining qo‘lida mavjud ekanligini ko‘rsatish maqsadida mijozga jo‘natadigan ko‘rinishi.

Amaliyotda, ekspertlar daktiloskopik ekspertrizalar va ularning tadqiqotlarini o'tkazish jarayonida quyidagi obyektlarga duch keladilar:

- Qo'l barmoq va kaft izlari mavjud bo'lishi taxmin qilingan buyumlar yoki ularning qismlari;
- Qo'l barmoq va kaft izlari mavjud bo'lgan va aniqlangan, ammo sirtidan ushbu izlar hali olinmagan buyumlar yoki ularning qismlari;
- Qo'l barmoq va kaft izlari nusxalari ko'chirilgan daktiloskopik tasmalar(skotch-tasmalar) yoki boshqa yopishqoq va polimer materiallar;
- Qo'l barmoq va kaftlarning hajmiy izlari yoki daktiloskopik kukunlar yordamida aniqlangan barmoq izlarining gipsli quyma nusxalari;
- Qo'l barmoq va kaft izlarining tasviri tushirilgan fototasvirlar, videotasma va reproduksiyalar;
- Tezkor-qidiruv tadbirlari va tergov harakatlari o'tkazishda aniqlangan va olingan, qo'l barmoq va kaft izlari mavjud bo'lgan buyumlar;
- Jinoyat ishi materiallari;
- Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish bayonnomasi va fotojadvali;
- Hodisa sodir bo'lgan joy va qo'l barmoq va kaft izlari qayd etilgan fotonegativlar va videotasmalar;
- Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda kriminalistlar tomonidan o'tkazilgan dastlabki tadqiqotlar natijasi aks etgan, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish bayonnomasining rejalar, chizmalar va suratlari hamda axborotli-qidiruv xaritalari(hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish bayonnomasiga ilovalar);

• Tadqiqot obyektlari va qo'l barmoq va kaft izlarini aniqlash, qayd etish va olish bilan bog'liq bo'lgan tergov harakatlarining materiallari: so'roq, tintuv(oib qo'yish), tergov eksperimenti, taqqoslash tadqiqotlari uchun namunalar olish;

• Birlamchi (ba'zida takroriy) ekspertrizalarning materiallari: ekspertning xulosasi, shuningdek, fotojadvallar, fotonegativlar, turli ishlammalar va ularning ilovalari, birlamchi va takroriy ekspertrizalarning obyektlari.

Bundan tashqari, ekspertlar ixtiyoriga fotosuratlarda aks etgan qo'l barmoq va kaft izlarining Papilyar naqshlari ham ekspertiza va tadqiqot obyekti tariqasida taqdim etilishi

mumkin. Bu kabi obyektlar ekspertrarni qiyin vaziyatga solib qo'yishi kerak emas.

Tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirish jarayonida olingen telefon va boshqa gajetlarning xotirasida, shuningdek, mas'ul xodimlar tomonidan ijtimoiy tarmoqlarni kuzatish jarayonida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni yoki boshqa turdag'i savdosi taqilangan buyumlar qo'lida ko'rsatilgan holatidagi fotosuratlarda aks etgan qo'l barmoq va kaft izlarining papilyar naqshlarni ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Fotosuratlar orqali maxsus bilim(daktiloskopik ekspertrizaga oid)ga ega bo'lgan ekspert-kriminalistlar tomonidan ushbu fotosuratda aks etgan qo'l barmoq va kaft izlarining egasi shaxsini aniqlash kerak bo'ladi.

Chunki, daktiloskopiya – kriminalistikating alohida bir mustaqil tarmog'i bo'lib, uning doirasida odamlarning qo'l barmoq va kaft teri qatlamidagi papilyar chiziqlar naqshlari asosida huquqbuzarlar shaxsini aniqlash, ro'yxatga(hisobga) olish va qidirish maqsadida o'rganiladigan fan.

Daktiloskopik ekspertrizalar va tadqiqotlar quyidagi holatlarga oydinlik kiritishda qo'l-laniladi:

- Jinoyat sodir etilgan joyda topilgan papilyar naqsh izi yordamida gumonlanuvchilar ichidan jinoyatchini aniqlash;
- Boshqa jinoyatlar sodir etganligi uchun ushlangan gumondorlar orasidan qo'lning papilyar naqshlari orqali ochilmagan jinoyat bo'yicha jinoyatchi shaxsini aniqlash;
- Tergov qilinayotgan jinoyat ishi bo'yicha jinoyatchi shaxsini aniqlashda daktokartoteka materiallaridan foydalanish;
- har xil jinoyatlarning bir shaxs tomonidan sodir etilganligini qo'l izlarining tadqiqoti orqali asoslab berish;
- Hodisa sodir bo'lgan joydagi papilyar naqshlar izlarining vujudga kelish mexanizmini aniqlash.

Fotosuratlarda aks etgan qo'l barmoq va kaft izlarining sifatiga, undagi umumiyligini va xususiy belgilarning ko'rinish darajasiga e'tibor bergan holda, avvalambor, fotosuratlarda aks etgan qo'l barmoq va kaft izlarining identifikatsiya(aynanlashtirish) tadqiqoti uchun yaroqli yoki yaroqsiz ekanligini aniqlab olish maqsadga muvofiq bo'ladi.


Fotosuratlarda aks etgan qo'l barmoq va kaft izlari tadqiqotida ham daktiloskopik ekspertizalarda bo'lgani kabi teri naqshlarining barcha elementlari, ularning aynanlikni aniqlovchi(identifikatsion) ahamiyati darajasiga ko'ra guruhiy va alohida(individual) ahamiyatli belgilarga bo'linadi hamda ular mos ravishda umumiy va xususiy belgilari deb ataladi. Papilyar naqshlarning belgilari tizimi quyidagicha:

- Papilyar naqshlarning umumiy belgilari;
- Papilyar naqshlarning xususiy belgilari;
- Papilyar chiziqlarning xususiy belgilari(poroskopik va ejeoskopik);
- Teri qoplami patalogik o'zgarishlarining xususiy belgilari.

Yana bir narsani unutmaslik kerakki, fotosuratlarda aks etgan qo'l barmoq va kaft izlari negativ(papilyar chiziqlar oq rangda, aslida qora yoki boshqa to'q rangda bo'lishi kerak) hamda aks holatda(zerkalno) bo'ladi. Shularni inobatga olgan holda ekspert ADTT tizimiga ushbu izlarni kiritganda uning shu tomonlarini hisobga olib, turli burchak ostida hamda papilyar naqshlarining

ko'rinish darajasiga ham e'tibor qaratgan holda papilyar naqshlari tasviri eng yaxshi ko'ringan iz tanlab olinib, iz aks holatidan normaga(ayrim holatda bizning qo'limizga kelgan fotosuratning o'zi ham aks holatda kelishi mumkin, shu sababli agar shunday bo'lsa izni ikki nusxada, ya'ni ikki aksda kiritgan ma'qul) o'tkazilib, izlarni pozitiv holatga, ya'ni papilyar chiziqlar to'q rangga o'tkazilib, so'ngra tadqiqotning keyingi bosqichiga o'tish, ya'ni ADTT tizimi orqali to'g'ri kodirovka ishlari amalga oshirilib, tizim bo'yicha to'liq qidiruvga berish kerak.

Shundan so'ng, ADTT tizimi shu barmoq iziga mos keliuvchi indeksi eng baland bo'lgan nomzodlar ro'yxatini taqdim qiladi hamda operator bo'lgan ekspert-kriminalist ushbu izlarni umumiy va xususiy belgilariغا ko'ra birma-bir taqqoslab chiqadi. Fototasvirdagi qo'l barmoq izlari bilan gumon qilinuvchi shaxsnинг mos kelgan qo'l barmoq papilyar naqshlarining xususiy belgilarini taqqoslash va belgilash daktiloskopik ekspertizasi uslub va uslubiyatiga monand bo'ladi.



**2-fotosurat.** Fototasvirdagi qo'l barmoq izi hamda mos kelgan gumon qilinuvchining qo'l barmoq izlarining xususiy belgilari belgilangan ko'rinishi.

Jinoyatchilik olamidagi o‘zgarishlar, yangi jinoyat turlarining paydo bo‘lishi yoki ularning zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan foydalanishi hamda sodir etish usullarining takomillashib ketishi kabi holatlar ekspertlar oldiga bu masalalarni ilmiy asoslangan holda yechish uchun ularni o‘rganib, to‘g‘ri yangi yondashuvlarni qo‘llab tadqiq etish kabi yuksak vazifalarni qo‘yadi.

Hozir ham daktiloskopik ekspertiza va tadqiqot axborot texnologiyalari sohasida sodir etilgan jinoyatlar bo‘yicha shaxslarni identifikasiya qilish, jinoyatlarni ochishda eng ishonchi va aniq ekspertiza va tadqiqoti turi sifatida o‘zini namoyon etmoqda.

Xulosa tariqasida shuni ta’kidlash joizki, ekspert-kriminalistika xizmati xodimlari o‘z ustida tinimsiz ishlashi, zamon rivojlanishiga monand ravishda o‘zgarib borayotgan jinoyatchilik olamidagi yangiliklarni to‘liq anglab yetishi, bilim va ilmiy salohiyat jihatidan ulardan bir qadam oldinda bo‘lishi, “izsiz jinoyat bo‘lmaydi” iborasini teran anglab, kiberjinoyatchilikning ham “issiq izi”dan ochilishini ta’minlashi, odil sudlovni amalga oshirishda ashyoviy dalillarni aniqlash, olish hamda ularni mustahkamlash tizimida ilmiy asoslantirilgan holda yangi ekspertiza va tadqiqot turlarini ishlab chiqishi, mavjud bo‘lgan ekspertiza va tadqiqot turlarini esa takomillashtirishi, ularning istiqbolli tendensiylarini ishlab chiqishi kerak bo‘ladi.



**ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Sud ekspertizasi to‘g‘risidagi qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmon.
6. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi darsligi – Daktiloskopik ekspertiza;
7. <http://utube.uz/>(Ta’lim videoportali).
8. <http://my.gov.uz/>(Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali).
9. <http://ziyonet.uz/>(Ta’lim portali).
10. <http://lex.uz>(O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi).
11. <http://wikipedia.org>/(Ochiq ensiklopediya).
- 12.<http://akadmvd.uz>(O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi).
13. <http://www.academy.uz>(O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi).
14. <http://www.nuu.uz>(Mirzo Ulug‘bek nomidagi Uzbekiston Milliy universiteti).
15. <http://www.tuit.uz>(Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti).
16. <http://195.158.18.42>/(Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi milliy nashrlarning elektron arxiv).
17. <http://www.uzscience.uz>(O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar agentligi).
18. <http://eduportal.uz> (Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining axborot-ta’lim portali).
19. <http://gov.uz>(O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali).

## ANNOTATSIYA

# SUD EKSPERTIZASINING YANGI TURKUMLARI VA TURLARINI EKSPERTLIK PROGNOZLASH MASALALARI

**MANSUROVA**  
*Shohista Zohidjonovna,  
 Tovarshunoslik ekspertizasi  
 bo'limi yetakchi eksperti*

Maqolada ekspertlik prognozlashning hozirgi holati ko'rib chiqilgan, ushbu yo'naliш ishlab chiqilmaganligi holatining nazariy va amaliy sabablari aniqlangan. Ekspertlik prognozlashning nazariy asoslari va sud ekspertizasi umumiy nazariyasi predmeti o'rtasida o'zaro bog'liqlik qayd etilgan. Ilmiy prognozlashning birinchi bosqichi va har qanday prognozni tuzishning eng muhim bosqichlaridan biri – bu prognozlash obyektini aniqlash hisoblanishi asoslangan hamda prognozlash obyekti sifatida sud ekspertizalarining yangi turkumlari va turlarini shakllantirish hamda rivojlantirish jarayonlarini ko'rib chiqish taklif qilingan. Raqamlashtirish sharoittlarini hisobga olgan holda, sud ekspertizalari turkumlari va turlarining kelajakdagи holatini, shu jumladan ularni tasniflashda yangi tarkibiy bo'linmalar ning shakllanishini belgilaydigan aniq texnologik yo'naliшlar taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** sud ekspertizasi umumiy nazariyasi, ekspertlik prognozlash, prognozlash obyektlari, ekspertizaning yangi turkumlari va turlari, raqamlashtirish.

## АННОТАЦИЯ

В статье рассмотрено современное состояние судебно-экспертного прогнозирования, определены теоретические и практические причины неразработанности этого направления. Отмечена тесная связь между теоретическими основами судебно-экспертного прогнозирования и предметом общей теории судебной экспертизы. Обосновывается, что первым этапом научного прогнозирования и одним из наиболее значимых шагов для построения любого прогноза выступает определение объекта прогнозирования, в качестве которого предложено рассматривать процессы формирования и развития новых родов и видов экспертиз. С учетом условия цифровизации предложены конкретные технологические направления, которые будут определять будущее состояние родов и видов судебных экспертиз, в том числе образование новых структурных единиц в их классификации.

**Ключевые слова:** общая теория судебной экспертизы, судебно-экспертное прогнозиро-

вание, объекты прогнозирования, новые роды и виды экспертиз, цифровизация.

## ANNOTATION

The article considers the current state of forensic forecasting, defines theoretical and practical reasons for the lack of development of this area. A close connection between the theoretical foundations of forensic forecasting and the subject of the general theory of forensic examination is noted. It is substantiated that the first stage of scientific forecasting and one of the most significant steps for building any forecast is the definition of the forecasting object, which is proposed to be considered as the processes of formation and development of new genera and types of examinations. Taking into account the conditions of digitalization, specific technological directions are proposed that will determine the future state of genera and types of forensic examinations, including the formation of new structural units in their classification.

**Key words:** general theory of forensic examination, forensic forecasting, forecasting objects, new genera and types of examinations, digitalization.

Oldindan mavjud bo'lgan ma'lumotlar va fanlarning erishilgan takomillashish darajasi asosida har qanday obyekt, jarayon, tizimning rivojlanish yo'nalishlarini prognozlash (bashorat qilish) dolzarbdir va yanada ilg'or bilimlarni olishga imkon beradi. Umuman olganda, prognozlash, voqelikdagi hodisalarni tavsiflash va tushuntirish bilan bir qatorda, har qanday fanning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi.

Prognozlash terminining etimologik ta'rifiga kelsak, prognoz so'zi grekcha so'z bo'lib, "prognoziya" so'zidan olingan, "oldindan ko'rish", ya'ni oldindan ilmiy bashorat qilish ma'nosini beradi<sup>1</sup>.

Sud-ekspertlik faoliyati quyidagi bir qator sabablarga ko'ra prognostik tadqiqotlarning markazida joylashishi kerak: *birinchidan*, sud protsessining har xil turlari doirasida, ayniqsa jinoyat protsessida, isbotlash jarayonining ajralmas elementi sifatida, chunki ushbu jarayonlarda maxsus bilimlarning yuqori roli qonunchlik hujjatlarida belgilab qo'yilgan, kerakli harakatlarga mutaxassislarni jalg qilish, shuningdek, sud ekspertizalarini tayinlash to'g'risidagi to'g'ridan to'g'ri belgilangan holatlar bilan aniqlanadi. *Ikkinchidan*, bu soha ilm-fanni talab qiladigan, yangi texnologiyalarni rivojlantirish va joriy etishga juda sezgir bo'lgan sohadir. Jinoyatlarning yangi turlari paydo bo'lishi va "an'anaviy" deb hisoblanadigan jinoyatlarning o'zgarishi, huquqni muhofaza qilish amaliyatiga bo'lgan ehtiyojni shakllantirib, jinoyatlarni ochish va tergov qilishning kriminalistik usullariga tabiiy ravishda yangi talablarni qo'yadi, bu esa sud-ekspertlik faoliyatiga, xususan yangi ekspertiza uslublarini yaratish zarurligiga ta'sir qiladi, albatta. Muqarrar ravishda o'zgarib turadigan obyektlar va vazifalarga moslashish zarurati sud-ekspertlik faoliyatini umuman va uning alohida tarkibiy qismlarini rivojlantirish istiqbollarini aniqlashga qaratilgan prognostik xarakterdagи tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Chunki, bunday ma'lumotga ega bo'lмаган holda, sud ekspertizasi fani nazariy va amaliy jihatdan o'z qobig'iga o'ralib qolishi xavfi

mavjud bo'ladi.

Fanlar amaliyot uchun zarurat sababli bунyodga kelib, bir qator rivojlanish bosqichlarini bosib o'tadi, boshqa fanlar asosida takomillashib va shakllanib, alohida guruh sifatida ajralib chiqadi. Ana shu murakkab jarayon kriminalistika faniga ham tegishlidir. Unda ham turli nazariy qarashlar, tushunchalar, usullar, aloqalar, ta'riflar, atamalar tizimli ravishda yaratilib kelingan.

Uning umumiylazariyasi asosan dalillar, ya'ni turli harakatlardan natijasida hosil bo'ladigan izlarning shakllanishi, ularni qidirish, topish va yig'ish, tadqiq etish, baholash va ularga oid faktik ma'lumotlardan foydalanish qonuniyatlarini to'g'risida ta'limot o'rinni o'rganish.

"Ana shu umumnazariyasi ta'limot asosida bir qator kriminalistik juz'iy ta'limotlar shakllangan va rivojlangan. Ular jumlasiga:

- identifikatsiya nazariyasi;
- ko'nikmalar haqida ta'limot;
- jinoyatni sodir etish usullari haqida ta'limot;
- izlarning bунyodga kelish mexanizmi haqida ta'limot;
- daliliy ma'lumotlarni aks ettirish, ishga ilova qilish qoidalari;
- turli obyektlarning belgilari (alomatlari) haqidagi ta'limot;
- jinoyatlarni ro'yxatga olish usullari;
- ekspert tadqiqotlarini o'tkazish uslublari;
- tergov versiyalari va rejalashtirish qoidalari;
- kriminalistik bashorat qilish nazariyasi kiradi"<sup>2</sup>.

Sud-ekspert faoliyati sohasidagi prognozlashga oid tadqiqotlarning nazariy asosi ekspertlik prognozlash deb ataladi. Sud ekspertizasining xususiy nazariyalari tizimiga nisbatan kriminalistika va sud ekspertizasiga oid fanlarda mavjud yondashuvga rioya qilgan holda, ekspertlik prognozlash identifikatsiya, diagnostika va profilaktika bilan bir qatorda, sud ekspertshunosligi umumiylazariyasi tashkil etuvchi nazariyalar qatoriga kiritilgan. Biroq ushbu xususiy nazariyalarni tizimida ajratilgan o'rniga qaramay, ekspertlik prognozlash eng kam o'rganilgan yo'naliishlardan biri bo'lib qolmoqda. Masalan, ekspertlik prognozlash nazariyasi deb atalib, ko'p yillar davomida

<sup>2</sup> Kriminalistika: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. Mualliflar: F. Abdumajidov va boshq. – T.: "Adolat", 2003. – 6.21-22. – 362 b.

o'ziga xos bo'lgan elementlarning aniq to'plamiga, jumladan, o'ziga xos predmeti, obyektlari, maqsadlari va vazifalariga ega emas edi.

Ekspert prognozlashning nazariy jihatdan rivojlanmaganligini bir qator omillar bilan izohlash mumkin.

**Birinchidan**, sud ekspertizasi nazariyasi nisbatan prognozlash yoki bashorat qilish masalalari ancha chuqr o'rganilgan kriminalistika, kriminologiya va jinoiy-huquqiy siklning boshqa fanlariga nisbatan yangiligidir (kriminalistik prognozlash nazariyasining asosiy qoidalari R.S. Belkin, G.L. Granovskiy, G.L. Gorshenin va boshqa olimlar tomonidan XX asrning ikkinchi yarmida ishlab chiqilgan va rivojlantirilgan). Darhaqiqat, sud ekspertizasining nazariyasi o'zining atamalari va kategoriyalari, shuningdek, asosiy uslublarini – ekstrapolyatsiya<sup>3</sup>, modellashtirish, ekspertlik baholash uslubini asosan kriminalistika fanidan oladi, kriminalistika esa o'z navbatida ushbu uslublarni o'z vaqtida prognozlash nuqtayi nazaridan rivojlangan kriminologiya fanidan olib borilgan. Ekspertlik prognozlash nazariyasi va amaliyotini har tomonlama ko'rib chiqishga, ushbu xususiy nazariyaning mohiyati va tarkibiy elementlarini aniqlashga bag'ishlangan birinchi dissertatsiya tadqiqotlari I.V. Ustinova tomonidan 2021-yilda olib borilgan<sup>4</sup>.

**Ikkinchidan**, ekspertlik prognozlashning nazariy asoslari sud ekspertizasining umumiylazariyasi mavzusi bilan chambarchas bog'liq – bu esa o'z navbatida bahstalab masaladir, chunki bu holat ma'lum darajada sud-ekspertlik faoliyati sohasida prognozlash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan qonuniyatlar doirasini aniqlashga turli olimlarning turlicha yondashishlariga sabab bo'ladi. R.S. Belkin kriminalistik prognozlash obyektlariga nisbatan ta'kidlaganidek, ushbu fan predmeti qamrab olmaydigan hodisalar va jarayonlarning kriminalistik prognozlash obyektlari deb hisoblanishiga qarshilik qilish kerak<sup>5</sup>. Bu

<sup>3</sup> Ekstrapolyatsiya (lot. ekstra-tez, poliosilliqlayman, to'g'rilayman) – biror hodisaning alohida qismini kuzatish natijasida olingan xulosani shunga o'xshash hodisaning boshqa bir qismiga, boshqa hududiga (manzilga, joyga) tatbiq etish usuli.

<sup>4</sup> Устинова И.В. Судебно-экспертное прогнозирование: теоретические и прикладные аспекты: дис. канд. юрид. наук / И.В.Устинова. Тула, 2021. - 256 с.

<sup>5</sup> Белкин Р.С. Курс криминалистики: Кримина-

fikrlar ekspertlik prognozlashiga ham tegishli. Ekspertiza prognozlashining umumiyligi predmetini aniqlash bo'yicha bahsga kirishmasdan, sud ekspertshunosligining predmeti sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirishning nazariy, huquqiy va tashkiliy qonuniyatlarini qamrab olishi kerak degan qarashlarga rioya qilishni ta'kidlaymiz.

Yuqoridagilar sud ekspertizasining fanlararo maqomiga va uning odil sudlovnning barcha turlaridagi roliga, davlat sud-ekspertiza muassasalari hamda nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyati tizimlarini tashkil etish, shuningdek, ushbu faoliyatning o'ziga xos xususiyatlariga va unga yangi raqamli texnologiyalarning ta'siriga eng ko'p darajada mos keladi.

Sud ekspertshunosligining predmeti umuman sud-ekspertiza faoliyatini amalga oshirishning nazariy, huquqiy va tashkiliy qonuniyatlarini ekanligiga asoslanamiz, ya'ni: sud ekspertizasining sinflari, turkumlari va turlarining paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlarini, ularning yagona uslubiyot, atamalar va tushunchalar apparati asosida hamda sud-ekspertizaga oid bilimlarning doimiy yangilanishi va takomillashishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan xususiy nazariyalar, yuqoridagi qonuniyatlarini o'rganish asosida ishlab chiqilgan yagona ekspert texnologiyalari, ekspertizaga oid malaka va vakolatlar standartlari hamda sertifikatlangan ekspertiza bo'linmalari, sud-ekspertlik faoliyatining yagona huquqiy va tashkiliy ta'minoti hisoblanadi<sup>6</sup>.

Fikrimizcha, ushbu ta'rif biroz murakkab ekanligiga qaramay, u ekspertlik prognozlashning mumkin bo'lgan yo'nalishlarini nisbatan to'liq belgilashga, shuningdek, bu kabi prognozlashdan tashqarida bo'lgan hodisalarini istisno qilishga imkon beradi. Masalan, maxsus adabiyotlarda ekspertlik prognozlash obyektlari qatoriga ayrim turdag'i jinoyatlar kiritilishiga, ilmiy-texnik taraqqiyot va texnologiyalar rivojlanishi hisobiga jinoyatlarning yangi usullarining vujudga kelishiga va boshqa shu kabi fikrlarga qo'shilib

листические средства, приемы и рекомендации: в 3-х томах. Т. 3. / Р.С.Белкин. М., 1997. – С.286. - 480 с.

<sup>6</sup> Россинская Е.Р. Теория судебной экспертизы (судебная экспертология): учебник / Е.Р.Россинская, Е.И.Галяшина, А.М.Зинин. 2 е изд. перераб. и доп. М., 2023. С.41-48. - 368 с.

bo'lmaydi<sup>7</sup>.

Fikrimizcha, eng umumiyligi shaklda ekspertlik prognozlashning predmeti – sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq jarayonlar va hodisalarini rivojlantirish istiqbollari hamda uning nazariy, huquqiy va tashkiliy qonuniyatlarini bo'lgan maxsus ilmiy tadqiqot sifatida ta'riflash mumkin.

Yuqoridagilarga asoslanib, ikki muhim holatni ta'kidlaymiz:

a) sud ekspertshunosligi doirasida prognoz (bashorat) qilish faqat sud ekspertshunosligi fani (boshqa fanlar emas) o'rganadigan qonuniyatlar qismida mumkin. Ekspertlik prognozlashi sud-ekspertlik faoliyati hodisalari va jarayonlariga yo'naltirilgan bo'lganda, sud ekspertizasi nazariyasi va amaliyoti ma'lumotlariga asoslangan holdagina ekspertlik prognozlashi hisoblanadi;

b) bu umumiyligi nazariy darajadagi ilmiy tadqiqot bo'lib, ekspertiza tadqiqotining aniq bir vazifasini hal qilish bilan cheklanmaydi. Tadqiqotlarni o'tkazish davomida turli xil ekspertiza vazifalarini hal qilishdan iborat bo'lgan ekspertlik amaliyoti, albatta, qimmatli empirik umumlashma vazifasini bajarishi mumkin (va kerak).

Nafaqat nazariy tadqiqot va izlanishlarning (sud-ekspertlik) faoliyatining muayyan sohalarining rivojlanish an'analarini to'g'ridan to'g'ri prognoz qilishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar, odatda, alohida o'tkazilmaydi hamda prognozlash vositalariga murojaat qilinmaydi) yetishmasligi, balki ushbu tadqiqotlarni o'tkazishning amaliy qiyinchiliklari ekspertlik prognozlashining rivojlanishini qiyinlashtiradi.

Fikrimizcha, bu quyidagi ikki omil bilan bog'liq:

**Birinchidan**, sud-ekspertlik faoliyati sohasida markazlashgan huquqiy va boshqa statistik ma'lumotlar yo'qligi. Amaliy faoliyatga oid ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish ham murakkab jarayon – bu sud ekspertizasining murakkab va fanlararo tabiat, ushbu institutning turli sud jarayonlari doirasidagi rivojlanishining turlichaligi, shuningdek, davlat sud ekspertiza

<sup>7</sup> Устинова И.В. Судебно-экспертное прогнозирование: теоретические и прикладные аспекты: дис. канд. юрид. наук / И.В.Устинова. Тула, 2021. – С.49. - 256 с.

muassasalari va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq.

Ta'kidlash joizki, sud-ekspertlik faoliyatida ma'lum an'analarning (masalan, raqamlashtirish) miqdoriy ko'rsatkichlaridan ko'ra ko'proq sifat ko'ratkichlari ustunlik qiladi. Shu nuqtayi nazardan, yetarli nazariy prognozlash obyektiga oid umumlashmalar va bu obyektlarga bog'liq qonuniyatlarga ega bo'lish o'ta muhimdir.

Huquqiy prognozlash sohasidagi yirik mutaxassis hisoblangan K.V. Agamirov ta'kidlaganidek: "Huquqiy prognozlash – bu ikkita dalilning funksiyasi (yoki ikkita dalildan kelib chiqadi): nazariy bilim va empirik ma'lumotlar; huquqiy prognozlash ularsiz huquqiy hodisalar va jarayonlarni bashorat qilish mumkin bo'lmagan ijtimoiy-huquqiy qonunlar tizimi va ular bilan bog'liq sharoitlar to'g'risidagi bilimlar bilan ishlab chiqiladi. Huquqiy prognozda tuzilishning nazariy elementi (ijtimoiy-huquqiy qonuniyatlar to'g'risidagi bilim) asosiy hisoblanadi. Empirik g'oyalar va qarashlar, ya'ni ijtimoiy-huquqiy qonuniyatlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan aniq bilimlar empirik ma'lumotlarga bog'liq"<sup>8</sup>.

Fikrimizcha, ushu sohaning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan ***ikkinchchi omil*** – bu ilmiy prognozlash (bashorat qilish) faoliyat tizimli tahliliy ishlarni o'tkazishni, sud ekspertshunosligi va unga bog'liq sohalar bo'yicha keng qamrovli ma'lumotlar to'plashni talab qilishi holatidir. Shubhasiz, bunday tadqiqotlarni o'tkazish sud ekspertlari mutaxassislarining katta ish yuklamasidan iborat bo'lgan, ya'ni sud ekspertizalarini tashkil etish, o'tkazish, ilmiy-uslubiy ta'minlash, tergov va sud harakatlarida ishtirok etish va boshqalar bilan bog'liq bo'lgan kundalik amaliy faoliyatidan tashqariga chiqib ketadi.

Ilmiy prognozlashning dastlabki bosqichi va har qanday prognozni shakllantirishning eng muhim bosqichlaridan biri bu prognozlash obyektining o'zi – hodisa yoki holat, ularning rivojlanish dinamikasi, sifat va (yoki) miqdoriy xususiyatlari, shuningdek, oldindan taxmin

<sup>8</sup> Агамиров К.В. Юридическое прогнозирование как фактор совершенствования российской правовой системы / К.В.Агамиров // Журнал российского права. 2018. № 8 (260). – С.29. – С.25-36.

qilingan (kutilgan) prognozlashning vujudga kelishidir.

Yuqorida ko'rsatilgan yondashuvga asoslanib, prognozlashning eng dolzarb obyektlaridan biri sud ekspertizalarining yangi turkumlari va turlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari ekanligini ta'kidlash mumkin.

Prognozlashning ushu yo'naliشining istiqbollari quyidagi sabablarga ko'ra yuqori hisoblanadi:

***Birinchidan***, sud ekspertizalarining ilmiy tasnifi u yoki bu obyektlar tadqiqotlarini o'tkazish uchun maxsus bilimlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlariga nisbatan mavjud nazariy umumlashmalarining yetukligi va barqarorligining hamda bu jarayonda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish va buning uchun zarur bo'lgan uslub va uslubiyotlar majmuasi uchun muhim ko'rsatkichdir. Ilgari ta'kidlanganidek, yuqoridagi sababga oid qonuniyatlar sud ekspertshunosligi predmetining bir qismidir, bundan tashqari ular batafsil ishlab chiqilgan va mustahkam ilmiy asosga ega<sup>9</sup>.

Sud-ekspertlik faoliyatining rivojlanish tarixidan bir necha bor maxsus bilimlardan foydalanishning muayyan sohalari o'zgarib borishiga misollar topish mumkin. Bu kabi o'zgarishlarning obyektiv ifodalanishi (aks etishi) sud ekspertizalarining idoraviy klassifikatorlarida va ularda mavjud tegishli ekspertiza mutaxassisliklari ro'yxatlarida, sud ekspertizalariga oid davlat standartlarida aniq ko'rsatilgan. Ushbu holatlardan bilimlarni ekstrapolyatsiya qilish uchun foydalanish mumkin.

***Ikkinchidan***, sud ekspertizalarining yangi turkumlari va turlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari amaliy faoliyatga bevosita ta'sir ko'rsatadi: ular sud ekspertlarini qayta tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazishda, muayyan sud ekspertizalarini tayinlash va o'tkazish masalalarida aks etadi, ekspertlarning malakalari va ekspertiza didaktikasi muammolarini kuchaytiradi. Shunday qilib, ushu sohadagi prognozlash murakkab, amaliy

<sup>9</sup> Неретина Н.С. Методологические, правовые и организационные аспекты формирования и развития новых родов и видов судебных экспертиз: дис. ... канд. юрид. наук / Н.С.Неретина. – М., 2016. – С.43-56. - 204 с.

yo‘nalishdagi xususiyatga ega bo‘lib, ekspertiza baholash uslubini qo‘llash, maxsus bilinga ega shaxslar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining e’tiborini bu sohaga qaratishga imkon beradi.

**Va niyoyat,** sud-ekspertlik faoliyatini raqamlashtirish sud ekspertining oldida turgan vazifalar dinamikasining juda yuqori darajasini hamda amaliy faoliyatda tadqiq qilinadigan obyektlarning o‘zgarishini belgilaydi, natijada zamonaviy sud ekspertshunosligi rivojlanishining ajralmas elementlaridan biri sifatida prognozlashga nisbatan yondashuvlarni tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Sud ekspertizalarining yangi turkumlari va turlarining shakllanishi va rivojlanishini prognozlash istiqbollari ekspertizaning tadqiqot obyektlarining raqamli o‘zgarishi va ushbu o‘zgarishlardan kelib chiqadigan ekspertiza vazifalari bilan bevosita bog‘liqdir.

Prognozlash istiqbollarining ekspertlik amaliyotiga ko‘rsatadigan ta’sirining bir qator ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan eng dolzarb yo‘nalishlari orasidan quyidagi asosiy yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

– sun’iy intellekt texnologiyalarining, birinchi

navbatda generativ (Generative AI) rivojlanishi, xususan, matnli yoki audiovizual mahsulotlarning sintezi va boshqalar;

– blokcheyn texnologiyalarini rivojlantirish hamda bu bilan bog‘liq bo‘lgan raqamlı moliyaviy aktivlarning yaratilishi va aylanmasi, smart-shartnomalardan foydalanish istiqbollari;

– 3 D texnologiyalarini rivojlanish va ulardan foydalanish istiqbollari (skannerlash, modellashtirish, chop qilish va boshq.);

– shaxsni aniqlash va autentifikatsiya qilishning biometrik usullari va texnologiyalarini rivojlanish.

Jamiyatni raqamlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan ushbu yo‘nalishlarni, albatta, to‘liq deb hisoblash mumkin emas. Fikrimizcha, aynan ular sud ekspertizasining turkumlari va turlarining kelajakdagi holatiga, shu jumladan ularning tasnifida yangi tarkibiy bo‘linmalarning shakllanishiga bevosita ta’sir qiladi va binobarin, ushbu sohada ekspertlik prognozlashini amalgaloshirishda albatta hisobga olinishi kerak.

## ADABIYOTLAR

1. Устинова И.В. Судебно-экспертное прогнозирование: теоретические и прикладные аспекты: дис. канд. юрид. наук / И.В.Устинова. - Тула, 2021. - 256 с.
2. Белкин Р.С. Курс криминалистики: Криминалистические средства, приемы и рекомендации: в 3-х томах. Т. 3. / Р.С.Белкин. - М., 1997. - 480 с.
3. Россинская Е.Р. Теория судебной экспертизы (судебная экспертология): учебник / Е.Р.Россинская, Е.И.Галяшина, А.М.Зинин. 2 е изд. перераб. и доп. - М., 2023. - 368 с.
4. Агамиров К.В. Юридическое прогнозирование как фактор совершенствования российской правовой системы / К.В.Агамиров // Журнал российского права. 2018. № 8 (260). – С.25-36.
5. Неретина Н.С. Методологические, правовые и организационные аспекты формирования и развития новых родов и видов судебных экспертиз: дис. ... канд. юрид. наук / Н.С.Неретина. - М., 2016. - 204 с.

# LINGVISTIK EKSPERTIZADA SIYOSIY NUTQ VA UNING SOTSIAL XUSUSIYATLARI

**MUSULMONOVA**

**Kamola,**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent  
davlat o'zbek tili va adabiyoti  
universiteti katta o'qituvchisi,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD)*

## ANNOTATSIYA

Siyosatsunoslik hamda siyosiy lingvistikada siyosiy nutqlar asosiy tahlil obyekti sanaladi. Ushbu sohalarda siyosiy nutqning o'ziga xos rasmiy xususiyatlari, pragmatik mohiyati tahlil etiladi. Shuningdek, omma oldida e'lom qilingan siyosiy nutqning ta'sirchanlik koefitsiyenti baholalanadi. Ayrim hollarda siyosiy nutqlar omma orasida keskin noroziliklar, ixtiloflarga sabab bo'ladi. Bu esa siyosiy nutqning asl mohiyatini anglamaslik oqibatida yuz berishi mumkin. Shuningdek, siyosiy nutqda salbiy da'vat mazmunini aniqlash bo'yicha ham aniq bir mexanizm mayjud emas. Maqolada siyosiy nutq lingvistik ekspertiza obyekti sifatida tahlil qilinadi. Siyosiy nutqqa xos sotsial xususiyatlar aniqlanadi.

**Kalit so'zlar:** lingvistik ekspertiza, nutq, siyosiy nutq, siyosatshunoslik, siyosiy arbob, deklarativlik, ijtimoiy-siyosiy, ommaviylik.

## АННОТАЦИЯ

В политологии и политической лингвистике главным объектом анализа считаются политические речи. В этих сферах анализируются специфические формальные особенности и pragmaticальная сущность политической речи. Также оценивается коэффициент эффективности речи перед публикой. В ряде случаев политические выступления вызывают резкие протесты и разногласия среди масс. Это может произойти в результате непонимания истинной сути политической речи. Также не существует четкого механизма определения содержания негативных обращений в политической речи. В статье анализируется политическая речь как объект лингвистической экспертизы. Выявляются социальные характеристики политической речи.

**Ключевые слова:** лингвистическая экспертиза, речь, политическая речь, политология, политический деятель, декларативность, общественно-политическая, общественная.

## ANNOTATION

In political science and political linguistics, political speeches are considered the main object of analysis. In these areas, the specific formal features and pragmatic essence of political speech are analyzed. Also, the coefficient of effectiveness of the political speech announced in front of the public is evaluated. In some cases, political speeches cause sharp protests and disagreements among the masses. This may happen as a result of not understanding the true essence of political speech. Also, there is no clear mechanism for determining the content of negative appeals in political speech. The article analyzes political speech as an object of linguistic expertise. Social characteristics of political speech are identified.

**Key words:** linguistic expertise, speech, political speech, political science, political figure, declarativeness, socio-political, public.

**Kirish.** Siyosiy nutq tushunchasi keng ko‘lamli mohiyat kasb etadi. Siyosiy nutq turli fan sohalarining obyekti bo‘lishi mumkin. Mediakontekstda siyosiy nutqning doim asosiy e‘tiborda bo‘ladi. Shu bois siyosiy nutqlar asosan oldindan rejalahtirilgan, maxsus tayyorlangan jumlalar asosida paydo bo‘ladi. Ushbu tipdagi nutqning eng xarakterli jihatlaridan biri ommaga qaratilganligidir. Garchi intervyular, shaxsiy munosabat tarzidagi postlar ko‘rinishida bo‘lmasin, siyosiy nutq, eng avvalo, ommaga mo‘ljallangan keng qamrovli nutq sanaladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili** (literature review). Y.N.Martishko fikricha: "Siyosiy nutq — budolzar siyosiy masalalarga bag'ishlangan va ommaviy auditoriyaga qaratilgan nutqdir, degan ta'riflar ham mavjud. Siyosiy muammolar vakolatlarni taqsimlash va qayta ko'rib chiqish, siyosiy hokimiyatni egallash bilan bog'liq muammolarini o'z ichiga olishi kerak; jamiyatning siyosiy tuzilishi, hokimiyat tuzilishi, jamiyatning siyosiy boshqaruvi va boshqalarga aloqador nutqlar siyosiy nutq sifatida baholanishi mumkin"[1]. Siyosiy nutq tadqiqotchilarining qayd etishicha, bu turdag'i nutqning mazmunli xususiyati unda muayyan siyosiy birlashma, masalan, partiya, boshqa jamoat tashkilotlari, davlat hokimiyati organlari, partiya yetakchilari va siyosiy faollar faoliyatining aks etishidir. Bu faoliyat muayyan g'oyalarni ilgari surish orqali siyosiy vaziyatga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan. Siyosiy nutq to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita "siyosiy hokimiyatni taqsimlash va undan foydalanan masalalariga" qaratilgan[2].

**Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology).** Siyosiy nutqlar lingvistik ekspertizasi sud-siyosatshunoslik ekspertizasidan farq qiladi. Sud siyosatshunoslik ekspertizasi O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz, O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz, millatlar, elatlar o'rtasida irqiy, etnik nizolarni qo'zg'atish, urush va ekstremistik g'oyalarni targ'ib qilish bo'yicha amalga oshirilsa, siyosiy nutq lingvistik ekspertizasi yirik davlat arboblari, mansabdar shaxslar nutqini zarurat tug'ilganda lingvistik ekspertizadan o'tkazishga qaratiladi. Darhaqiqat, sud-siyosatshunoslik ekspertizasi mohiyatida ham lingvistik ekspertiza mavjud va sud-siyosatshunoslik ekspertizasining obyekti bo'lgan materiallar bevosita lingvistik ekspertizada ham obyekt vazifasini bajara oladi. Xususan, konstitutsiyaviy tuzumga tajovuz, davlat xavfsizligiga daxl qiluvchi turli yozishmalar, SMS-xabarnomalar, ijtimoiy tarmoq postlari bevosita til bilan aloqador. "Siyosiy nutqlar lingvistik ekspertizasi ham nutq aktining pragmatik yo'nalishini aniqlashga, jamoatchilik e'tiborini to'g'ri

yo'naltirishga yordam beradi. Masalan, keyingi vaqtarda siyosiy partiyalar o'rtasidagi raqobat aksar hollarda sog'lom raqobat muhitidan xoli ko'rindi. Partiya yetakchi rahbarlari nutqini lingvistik ekspertiza qilish esa ziddiyatli vaziyat bor yoki yo'qligini asoslaydi. Mansabdor shaxslar nutqi keng jamoatchilik tomonidan e'tiroz va muhokamalarga sabab bo'lgan holatlarda, lingvistik ekspertiza tayinlash lozim bo'ladi”[3].

#### **Tahlil vsa natijalar (Analysis and results).**

Darhaqiqat siyosiy nutqlar ham lingvistik ekspertiza obyekti bo'lishi mumkin. Siyosiy nutqlar sirasida mansabdar shaxslar nutqi va unga jamoatchilik munosabati masalasi keyingi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokamalar markazida bo'lib kelmoqda. Odatda biror rahbar xodimning nutqi ijtimoiy tarmoq platformalarida e'lon qilinganida ikki taraf yaqqol ajralib turadi. Birinchi taraf mansabdar shaxsnинг fikrini qo'llab-quvvatlab, unga xayrixohlikni ifodalasa, ikkinchi tarafda keskin norozilik, ishonchsizlik kayfiyati hukm suradi. Siyosiy nutqlarni lingvistik ekspertiza qilishda quyidagi komponentlarni inobatga olish lozim:

Siyosiy nutqda yashirin agressiya, separatizm, populizmning mavjud/mavjud emasligi;

- siyosiy nutqda yakka/guruh manfaatlarini ustun qo'yishga harakatning mavjud/mavjud emasligi;
  - siyosiy nutqda ijtimoiy ahvolga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi gaplarning mavjud/mavjud emasligi;
  - siyosiy nutqda xalqning milliy, etnik o'ziga xosligiga daxl qiluvchi, xalq mentalitetiga nomufovifq gaplarning mavjud/mavjud emasligi;
  - siyosiy nutqda qonunga qarshi xatti-harakatlarga undash mazmunining mavjud/mavjud emasligi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli bandlarida siyosiy jihatdan xavfli, ijtimoiy xavfsizlikka daxl qiluvchi holatlar ekspertizasi masalasiga izoh berilgan. Biroq keng jamoatchilikning keskin e'tirozlari, hukumatga nisbatan ishonch sizlikning oshishiga sabab bo'luvchi rahbarlar nutqini ekspertiza qilish masalasi xususida bandlar mavjud emas. Ijtimoiy tarmoqlarda ayrim siyosiy nutqlarga bildirilayotgan fikrlar oqimi aggressivlikka moyilligini ko'p kuzatish mumkin. Shu bois siyosiy nutqlarni lingvistik ekspertiza qilish bo'yicha tizimli ishlarni yo'lga qo'yishda yuqorida ta'kidlangan komponentlarni alohida inobatga olish muhim va dolzarb masala sanaladi.

Siyosiy nutqlarning funksiyasini bu bilan chegaralab bo‘lmaydi. Ta‘kidlash joizki, har qanday siyosiy nutqda muallifning muayyan kommunikativ maqsadi yashiringan bo‘ladi. Ushbu kommunikativ maqsadga yo‘naltirilgan holda siyosiy nutq bajaradigan funksiya ko‘lami ham kengayadi. Shu sabab yuqorida keltirilgan fikrlarni inkor etmagan holda qo‘srimcha qilib aytish mumkinki, siyosiy nutqlar quyidagi funksiyalarini ham bajarishi mumkin:

- 1) diqqatni jalb qilish. Ko‘pchilik auditoriyani o‘ziga qaratish. Fikr oqimiga bo‘ysundirishga harakat qilish;

- 2) mafkuraviy funksiya (vaziyatni baholash yoki o‘zgartirish: qanday muammolarni hal qilish kerak va ularni hal qilish yo‘llari. Yoki salbiy mazmunda salbiy informatsiya tashish va tarqatish, mafkuraviy bo‘ysundirish);

- tinglovchilarni qo'yilgan muammolarning to'g'riliqiga va ularni hal qilishning taklif etilayotgan yo'llariga ishontirish;
- tinglovchilarni muallifning takliflarini qo'llab-quvvatlashga safarbar etish.

Har qanday siyosiy nutq siyosiy vaziyatni ijobjiy yoki aksincha tarafga o'zgartirishga turtki bo'la oladi. Siyosiy nutqning vazifalari reklama va shiorlar, varaqalar, siyosiy nutqlar va maqolalar, siyosiy nashrlarda juda aniq namoyon bo'ladi.

Konfliktli holatlarga sabab bo'luvchi siyosiy nutqlarni lingvistik ekspertiza qilishda quyidagi murojaatlar sonining ko'payganligiga guvoh bo'lish mumkin:

Siyosiy doiradagi shaxslar nutqining pragmatik mazmunini aniqlash va baholash.

Turli siyosiy arboblarnutqida shaxsni obro'sizlantirish elementlarining mavjud/mavjud emasligini aniqlash.

Ijtimoiy tarmoqlarda siyosiy jihatdan tahdid, da'vat ko'renishidagi nutqlarning semantik-stilistik mohiyatini o'rganish, tajovuzkorlik va aggressivlik xususiyatini baholash.

Konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan og'zaki va yozma ko'renishidagi nutqlarni lingvistik ekspertizaga tortish.

Shunday qilib, siyosiy nutqning sotsial xususiyatlarini tavsiflashga harakat qilganda X. Maeder quyidagilarni ta'kidlaydi [4]:

- Nutqda deklarativlik (e'lon qilish, ovoza qilish) uslubining ustunligi: *Sizga shuni ma'lum qilamizki, mammuniyat bilan ma'lum qilamiz, tantanali ravishda e'lon qilamiz, Sizga aniq va ravshan bayonot beriladi, ta'kidlaymizki.*

Da'vat va tashviqot xarakterining ustunligi: *to'dalarga qo'shilmaning, soxta (seyk) xabarlarga ishonmang, partiyamizga ovoz bering, saylovlarda faol ishtirok eting. Tilimiz uchun birdek mas'ulmiz.*

Bo'rttirilgan mavhumlik, rasmiy uslub ustunligi: *Biz ma'nani, ruhan va jismonan jiddiy jarohatlangan millatmiz; Biz birqalikda katta islohotlarni amalgaloshiramiz.*

Tanqid qilishning ustuvorligi: *Atrof-muhitni asrasjih borasidagi ishlarning samarasini ko'rinnmayabti, energetika vazirligi muammoni oldindan ko'ra bilishi zarur edi, ta'limda biz ancha oqsamoqdamiz.*

Shiorlarga diqqat qaratish: *Jamiyat o'zgarishi uchun inson o'zgarishi kerak, islohotlarni o'zimizdan boshlaymiz, biz katta kuchmiz.*

Fikrning mutlaq haqiqat ekanligiga da'vo qilish: *Bu borada siz haqsiz, mutlaq ishonchimiz komil, komil ishonch bilan aytishimiz mumkinki...*

Bu xususiyatlardan odadta siyosiy nutq va uni boshqa nutq turlaridan farqlashda o'ziga xos bo'lgan siyosiy tabiatni namoyish etadi. Shuning uchun ham ba'zi qarashlar tarafдорлари томонидан ijobjiy baholangan atamalar boshqalar томонидан salbiy, hatto to'g'ridan to'g'ri haqorat sifatida qabul qilinadi (Masalan: populist, egoist).

Siyosiy nutqda aniq yoki yashirin tarzda ifodalangan baholarni, masalan, quyidagi bayonotlar guruhlarini tahlil qilish orqali aniqlash mumkin:

- xulosalar va harakat qilish bo'yicha ko'rsatmalar;
- savollar shaklida taqdim etilgan yashirin bayonotlar;
- tanlangan savollarga javoblar (bu nutq qaysi

savollarga javob berishini va qaysi savollarni javobsiz qoldirishini aniqlash orqali);

- muammolarni izohlash va tavsiflash;

- jamiyat oldida turgan muammolarni hal qilishning tavsifi: ijobjiy ma'noda ("biz buni va buni qilishimiz kerak") yoki salbiy ("bu va bu bizga mos kelmaydi", "biz bunday yashay olmaymiz");

- muallif innovatsion deb hisoblagan g'oyalarni shakllantirish;

- umumiy haqiqatlarni bildiruvchi bayonotlar, bunda diniy iqtiboslar, xalq e'tiqodi nuqtayi nazaridan yondashuvga alohida e'tibor qaratiladi.

- davlat mansabdor shaxslariga qo'yiladigan so'rovlar va talablar;

- ma'lum bir qaror va yordam taklifiga hissa qo'shishga chaqiriqlar va boshqalar.

Siyosatchi nutqi (ba'zi istisnolardan tashqari) ramzlar bilan ishlaydi va uning muvaffaqiyati bu belgilarning ommaviy ongga bilan qanchalik uyg'un ekanligi bilan belgilanadi: siyosatchi bu ongdagi to'g'ri markaziy nishonga urishga harakat qiladi; Siyosatchining bayonotlari uning mulohazalari, siyosiy nutq "iste'molchilar"ning fikrlari va baholariga mos kelishi kerak. Bunday taklif har doim ham argumentga o'xshamaydi: tinglovchilarni o'z tomoniga jalb qilishga urinishda, ular har doim ham mantiqiy izchil dalillarga murojaat qilishmaydi. Ba'zan tarafдор томонидан ma'qullangan pozitsiya adresatning manfaatlari doirasida ekanligini shunchaki aniq ko'rsatish kifoya. Ushbu manfaatlarni himoya qilish orqali siyosatchi histuyg'ularga ta'sir qilishi, burch hissi va boshqa axloqiy ko'rsatmalarni ifodalashi mumkin.

Odamlar har doim suhbatdoshlarining nutqidan nimanidir kutishadi. Chunki bu ma'ruzachining taklif qilingan nuqtayi nazarlarni qabul qilish yoki rad etishiga ta'sir qiladi.

Taklifni passiv idrok etish bilan, qabul qiluvchilar qo'rquv darajasi, ta'sirlangan fikrlarning chuqurligi va og'zaki taklifning intensivligi normaga mos kelishini kutishadi. Ko'proq ishonchga ega bo'lgan odamlar, keyinchalik ta'sirni tezlashtirish zarur bo'lgan holatlar uchun kuchliroq vositalarni saqlab, past intensiv vositalardan foydalananishlari mumkin.

Siyosatchilar, xususan, deputatlar nutqida o'z fikriga ishontirishga urinishning o'ziga xos va umumiy jihat quyidagilarda ko'rinadi:

"Men gaplashmoqchi bo'lganim uchun emas, balki zarurligi uchun gapiryapman" motiviga asoslanadi;

- bu fikr qaysi partiya, fraksiya yoki guruh nomidan bildirilganligini ko'rsatgan holda nutqida "vakilligi"ni ta'kidlash;

- ko'pchilik nomidan gapirish. Bunda ko'pincha hamfikrlarning qo'llab quvvatlovchi harakatlari taqdim etiladi;

- shaxsiy motivlar va niyatlarning namoyon bo'lishidan qochish, keyin ijtimoiy ahamiyat va mas'uliyat ta'kidlanadi, nutqning ijtimoiy jalb etilishi "Biz butun jamiyat manfaatlarini himoyalash tarafdomiz" motividir.

Deputatlar oddiy jumlalarni, so'zlarni takrorlashni, bir xil yakunlarni va yangi jumlalarning boshlanishini bir xil maqsadda – tinglovchilar ongida taqdim etilayotgan ma'lumotlarni mustahkam tarzda o'rnatish

uchun muntazam ravishda ishlatajilar. Buning sababi, odatda, deputatlar turli darajadagi idrok bilan, katta auditoriya bilan bog'lanadi. Boshqacha aytganda, siyosatchining nutqi aholining barcha qatlamlari uchun ochiq bo'lishi kerak. Biroq bu bayonot tor professional jargon va rasmiy tilning yuqori uslubini qo'llash talab qilinadigan muayyan siyosiy voqealar doirasiga tegishli emas. Yuqoridagi barcha vositalar siyosiy nutq uchun qo'yiladigan talablarni bajarishga imkon beradi, xususan:

- ixchamilik;
- axborot mazmuni;
- motivatsiya;
- ifodali til vositalardan foydalanish orqali o'ziga xoslik[5].

Deputatlar nutqida o'ziga xos leksik belgilari mavjud. Tahlillarga ko'ra, ushbu darajadagi ekspressivlikni yaratishga quyidagilar yordam beradi:

a) emotsiyonal va baholovchi ma'noli so'zlardan foydalanish. Hissiy lug'atning bir qismi sifatida quyidagi guruhlarni ajratish mumkin:

1) odamlarning aniq tavsifini beradigan belgilari, faktlar va hodisalarning bahosini o'z ichiga olgan jonli konnotativ ma'noga ega so'zlar: *ilhomlantiruvchi, yoqimli, beqiyos, taqdirlri, mas'uliyatsiz, iqtidorli, mas'uliyati*

2) asosiy ma'nosida betaraflik bilan ajralib turadigan, lekin ko'chma ma'noda qo'llanganda sifat jihatidan hissiy ma'noga ega bo'lgan polisemantik so'zlar;

3) subyektiv baholash qo'shimchalari bo'lgan so'zlar, ular orqali his-tuyg'ularning turli ko'rinishlari uzatiladi. Ularning baholovchi ma'nolari nominativ xossalari bilan emas, balki so'z yasalishi bilan belgilanadi;

b) kuchaytirish (kengaytirish) – semantikasi kuchaygan so'zlarni qo'llash natijasida hissiy ta'sirga erishiladigan usul – masalan, katta – muhim – katta – ulkan – ulkan – bahaybat va boshqalar;

d) deputat uchun sifat va baholovchi antonimlar ham muhim bo'lib, "siyosiy yetakchi, muvaffaqiyatli siyosatchi"ni "yomon"lardan ajratish imkonini beradi;

e) sifatlarning qiyoslash darajalarini qo'llash;

f) jargon, qisqartirilgan va so'zlashuv shakllaridan foydalanish. Ular tinglovchilarga yaqinlashish uchun nutqning so'zlashuv turiga yaqinlashish usuli sifatida ishlataladi (dozalarda va faqat ma'lum sharoitlarda qo'llaniladi);

j) professionalizmlardan ham faol foydalaniladi. Buning sababi, ushbu leksik to'plam siyosatchining yanada "haqiqiy" qiyofasini yaratish uchun ishlatalishi bilan izohlanadi. Bunday leksemalar tomoshabin va tinglovchi tomonidan yaxshi qabul qilinadi. Keng ommaga tanish bo'lмаган ба'zi kasbiy mahorat maxsus nashrlar va dasturlarda, masalan, siyosiy axborotnomalarda va konferentsiyalarda qo'llaniladi.

h) frazeologik birliklar – ma'ruzachi nutqiga semantik yuk olib, uni yanada dinamik va jonli qiladi;

i) xronologiya – siyosatchilar "o'tmisht" g'oyasidan, tomoshabinlarning ilgari hamma narsa yaxshiroq, sifatlari bo'lgan degan g'oyasidan juda ijodiy foydalanadilar. [5].

Siyosiy nutqda ko'proq ekspressivlikka erishish uchun ko'pincha semantik (troplar) qo'llaniladi.

Deyarli barcha siyosiy chiqishlar siyosatchining obro'sini oshirishga, aniq siyosiy maqsadlarga erishishga (prezidentlik saylovlarida g'alaba qozonish) qaratilganligi sababli, manipulyatsiya usullarini ham ko'rsatish tavsiya etiladi:

- evfemizatsiya, ya'ni salbiy semantikaga ega bo'lgan so'z ijobjiy yoki neytral bilan almashtiriladi;

- tushunchalarini almashtirish – taniqli tushuncha salbiy yoki ijobjiy tushuncha bilan bir qatorga qo'yiladi, natijada salbiy yoki ijobjiy ma'no kasb etadi;

- qayta fikrlash – taniqli voqealari muallif uchun qulay bo'lgan yangi ma'noga ega bo'ladi;

- implikatura – bu xabarda ma'lumot mavjud bo'lmasa, lekin stereotiplar tufayli u auditoriya tomonidan oson tushuniladi va idrok qilinadi;

- sukulat – fikrlarni to'liq ifoda etmaslik, buning natijasida

- bayonotda ifodali tanaffus mavjud bo'lib, tinglovchiga/tomoshabinga aytilmagan narsani to'liq tushunish imkoniyatini beradi.

Siyosatchilar, ayniqsa, "biz" olmoshini ishlatalish kabi manipulyatsiya vositalardan faol foydalanishadi. Birinchidan, bu tinglovchida jarayonga aralashish illyuziyasini yaratadi. Ikkinchidan, bu ma'ruzachining tinglovchilar bilan teng ekanligi hissini yaratadi (demokratik davlatlar uchun eng mos keladi, ammo bu uslub totalitar va hatto fashistik liderlarning nutqlarida ham faol qo'llaniladi)[6]. Ushbu uslub, shuningdek, siyosiy harakatlar birgalikda amalga oshirilishi kerakligini ta'kidlaydi. Biroq, bu ta'sir "xavfli" bo'lib, ba'zida elektorat davlat boshqaruvi muammolarini o'z zimmasiga olamasdan, o'z mas'uliyatini, kuchini, vakolatini namoyish etish uchun "I-format"da so'zlashi kerak bo'ladi. Ekspressiv vositalar va troplar nutqning hissiy boyligi uchun juda faol qo'llaniladi. Masalan:

Inversiyalardan foydalanish, ya'ni ularni ta'kidlash uchun so'zlarni ataylab o'zgartirish:

"Kelajagingiz uchun ovoz bering";

– ma'lum bir kontekstda eng muhim bo'lgan ma'lum bir jumлага e'tiborni jalb qilish uchun undov va savollardan foydalanish. Ritorik savollar, shuningdek, tinglovchilar qo'yilgan muammoning jiddiyligini tushunishlari uchun pauza texnikasi bilan qo'llaniladi: "Bunday qotilliklar haqida.... Ochig'i, nima ham deyish mumkin?"

Takrorlash texnikasi ham hissiyot, ifoda va shijoat ta'sirini sezilarli darajada oshiradi:

*Elimiz uchun, yurtimiz uchun, odamlarimiz uchun....*

**Xulosa va takliflar (Conclusion and recommendations).** Shunday qilib, odamlar ongini manipulyatsiya qilishning yuqori darajasiga erishish va so'zlovchining zarur siyosiy qiyofasini shakllantirish uchun siyosiy nutqqa ifoda va emotsiyonallik bag'ishlashning ko'plab og'zaki usullari mavjud bo'lib bu siyosiy nutqni xarakterlovchi o'ziga xos sotsial jihatni ifodalaydi.

**ADABIYOTLAR**

1. Мартишко Н.Ю. Смысловая модификация терминов в современном законодательном дискурсе. Атореф. дис. канд. филол. наук. – Уфа, 2015. – 14 с.
2. Kraus, S. and R. M. PerloV (eds.).. Mass Media and Political Thought. Beverly Hills CA: – Sage. 1985. – p 89
3. Musulmonova K.X. O‘zbek tili yozma nutqlarini lingvistik ekspertiza qilish jarayoni, bosqichlari va metodlari: Filol. fan bo‘yicha fals.dokt. (Phd)... diss. – Qo‘qon, 2022. – 132 b.
4. Кругликова Л.Е. Структура лексического и фразеологического значения / Л.Е. Кругликова. – М.: изд-во МГПИ, 1988. – 83 с.
5. Ейгер Г.В., Юхт В.Л. К построению типологии текстов // Лингвистика текста: Материалы научной конференции при МГПИИ им. М.Тореза. Ч.I. – М., 1974. – 89 с.
6. Eades B.D. Lnguage in evidence: Linguistic and legal perspectives in Multicultural Australia, Sydney: University of New South Wales Press, 2006. – 175 p.
7. Грачёв М.А. Судебно-лингвистическая экспертиза. – Москва: изд-во Флинта, Наука, 2016. – 357 с.
8. Аблин М.В. Теоретико-методологическое обоснование лингвистической экспертизы по делам об экстремизме. Атореф. дисс. ... канд. фил. наук. – УФА, 2016. – 162 с.
9. Александров А.С. Юридическая техника – судебная лингвистика – грамматика права // Проблемы юридической техники. Сборник статей. Под. ред. В.М.Баранова. – Нижний Новгород, 2000. – С. 37-48.Голев Н.Д. Взял для себя все // Юрислингвистика-5 Юридические аспекты права и лингвистические аспекты языка Сб. научных трудов / Под ред. Н.Д.Голева. – Барнаул: изд-во Алт.ун-та, 2004. – С. 246-251.

**ANNOTATSIYA**

## ZAMONAVIY SUD EKSPERTIZA METODLARI

**MUXAMEDJANOVA**  
*Madina Maxkamjanovna,  
X. Sulaymonova nomidagi  
Respublika sud ekspertizasi  
markazi Sud ballistika va trasologiya  
ekspertizasi laboratoriysi eksperti*

Maqolada ekspertiza tadqiqotlarining zamonaviy metodologiyasi, ekspertning uslubiy bilimlari darajasini farqlash kabi omillar batafsil ko'rib chiqiladi. Sud ekspertizalarining o'ta xilma-xilligi bilan bog'liq uslubiy muammolarni bartaraf etish yo'llari ko'rsatilgan. Har bir ekspertiza tegishli fanning bir qismi bo'lib, ularni o'zaro farqlash sud ekspertizalarini tegishli sinflarga ajratadi. Maqolada ekspertiza tadqiqotlari metodologiyasining darajalari farqlanadi: falsafiy – bilishning umumiy tamoyillari va kategorik tuzilma, tadqiqotning umumilmiy tamoyillari va shakllari, keng ko'lamli uslubiy vazifalarni hal qilish bo'yicha ishlanmalar va nazariyalar, shuningdek, sud ekspertizasida qo'llaniladigan uslublar, usullar va tadqiqot jarayonlari (tartibi) to'plami sifatida aniq-ilmiy uslubiyot. Uslubiyotning so'nggi darajasi – bu empirik materialning taqqoslanishi va ishonchliligin, uning qayta ishlanishi va umumiy bilimlar qatorida hisobga olishni ta'minlaydigan jarayonlar (tartiblar) to'plamini olgan tadqiqot metodologiyasi va texnikasining o'zi hisoblanadi. Tadqiqot uslubiyoti sobiq sho'ro va zamonaviy davrlarning doktrinal manbalarini huquq nazariyasi va kriminalistikating umumiy metodologiyasi nuqtayi nazaridan jalg qilishga asoslangan. Tadqiqotning asosiy xulosalari quyidagilardan iborat: umumilmiy yondashuvlar bilan analoglarni berilgan ketma-ketlikda aniqlash: falsafiy metodologiya, tadqiqotning umumilmiy tamoyillari va shakllari, aniq-ilmiy uslubiyot, aniq ekspertiza uslublari va texnikasi. Sud ekspertiza tadqiqotlari uslubiyotining, ekspertizaning uslublari, vositalari, tuzilishi va mantiqiy tashkil etilishi haqidagi ilmiy ta'limot sifatidagi mualliflik tus-hunchasi berilgan. Tadqiqotning yangiligi, shuningdek, uslubiy bilimlarning o'ziga xos darajasida – tadqiqot metodologiyasi va texnikasi darajasida joylashgan sud ekspertizalarini o'tkazishning predmet uslublarini saralashdan iborat. Maqolada sud ekspertizasining xususiy ilmiy uslublari tizimlari taqqoslangan.

**Kalit so'zlar:** ekspertiza, ekspertlik faoliyati, ekspertiza uslublari, sud ekspertizasi, ekspertiza nazariyasi, sud eksperti, sud ekspertizasi tadqiqotlari, tadqiqot, uslublar guruhi, kriminalistika.

## АННОТАЦИЯ

В статье подробно рассматриваются современная методология экспертных исследований, дифференциация уровней методологического экспертного знания. Указаны пути преодоления методологических проблем, связанных с чрезвычайным многообразием судебных экспертиз - каждая экспертиза является частью соответствующей науки, дифференциация которых делит и соответствующие классы судебных экспертиз. В статье дифференцированы уровни методологии экспертного исследования: философский – общие принципы познания и категориальный строй, общенаучные принципы и формы исследования, формальные разработки и теории по решению широкого круга методологических задач, а также конкретно-научная методология как совокупность методов, приемов и исследовательских процедур, применимых в криминалистике. Последний уровень методологии – сами методика и техника исследования, включающие набор процедур, обеспечивающих сопоставимость и достоверность эмпирического материала, его обработку и учет в общем массиве знания. Методология исследования основана на привлечении доктринальных источников советского и современного периодов с позиции общей методологии теории права и криминалистики. Основными выводами проведения исследования являются: выявление аналогий с общенаучными подходами, с последовательностью: философская методология, общенаучные принципы и формы исследования, конкретно-научная методология, методики и техники конкретных экспертиз. Дано авторское понимание методологии судебно-экспертного исследования как научного учения о методах, средствах, структуре и логической организации экспертизы. Новизна в исследовании заключается также в ранжировании предметных методик производства судебных экспертиз, которые расположены на ином, специфическом уровне методологического знания – уровень методики и техники исследования. В статье сопоставлены системы частности научных методов судебных экспертиз.

**Ключевые слова:** экспертиза, экспертная деятельность, методы экспертизы, судебная экспертиза, теория экспертизы, судебный экс-

перт, судебно-экспертное исследование, групп методов, криминалистика.

## ANNOTATION:

The article examines in detail such aspects as the modern methodology of expert research, differentiation of levels of methodological expertise. The ways of overcoming methodological problems associated with the extreme diversity of forensic examinations are indicated, despite the fact that each examination is part of the relevant science, the differentiation of which divides the corresponding classes of forensic examinations. The article differentiates the levels of methodology of expert research: philosophical - general principles of cognition and categorical structure, general scientific principles and forms of research, formal developments and theories for solving a wide range of methodological problems, as well as specific scientific methodology as a set of methods, techniques and research procedures applicable in criminology. The last level of methodology is the methodology and technique of research itself, which includes a set of procedures that ensure the comparability and reliability of empirical material, its processing and accounting in the general body of knowledge. The methodology of the research is based on the involvement of doctrinal sources of the Soviet and modern periods from the standpoint of the general methodology of the theory of law and criminology. The main conclusions of the research are: identification of analogies with general scientific approaches, with a sequence: philosophical methodology, general scientific principles and forms of research, concrete scientific methodology, methods and techniques of specific examinations. The author's understanding of the methodology of forensic research as a scientific teaching on the methods, means, structure and logical organization of expertise is given. The novelty of the study also lies in the ranking of subject methods of forensic examination, which are located at a different, specific level of methodological knowledge - the level of research methodology and technique. The article compares the systems of particular scientific methods of forensic examinations.

**Key words:** Expertise, expert activity, methods of expertise, forensic examination, theory of expertise, forensic expert, forensic expert, research, group of methods, criminalistics.

Sud ekspertizasining umumiyligi metodologiyasi sud ekspertizasi umumiyligi nazariyasining ajralmas qismi sifatida so'nggi yillarda tadqiqotchilar e'tiboridan biroz chetda qolmoqda. Umuman olganda, sud-ekspert tadqiqotlari metodologiyasi jinoiy, ma'muriy yoki fuqarolik ishi holatlari to'g'risida yangi bilimlarni yaratish jarayoni degan fikrlar mavjud [1, b.77].

Metodlarni tahlil qilish sud ekspertizalari juda xilma-xilligi sababli juda murakkab masala, undan tashqari, har bir sud ekspertizasi muayyan bir fanning alohida tarkibiy qismi bo'lib, ularning farqlanishi sud ekspertizalarining tegishli sinflarini ham o'zaro ajratadi. Shu sababli, sud-ekspertiza tadqiqotlarining mazmuni ham sezilarli darajada farqlanadi. Xususan, tadqiqotlarning metodlari va vositalarida ham farqlar (shuningdek, o'xshashliklar) mavjud. O'zaro farqlar mavjudligiga qaramay, sud-ekspertiza tadqiqotlarining umumiyligi metodologiyasi haqida fikr yuritish mumkin.

Bu masalada D.O.Siypkinning ekspertning xulosasi o'zining barcha elementlarida, albatta, o'rganish va baholash uchun ochiq bo'lgan uslubiy asosga asoslangan degan fikrlariga qo'shilish mumkin. Ushbu asos (baza) tadqiqotlar natijalarining to'liq tekshirilishi va takrorlanishini, shuningdek, ekspertning yakuniy javoblari (xulosalar)ning bir xilligini kafolatlashi kerak. Shuningdek, majburiy shartlarga ekspertiza tadqiqotining xolisligi va shaffofligi ham kiradi. Bularning barchasi tadqiqotlarning, tadqiqot obyektlarini tavsiflash va tahlil qilish, tuzilishi bilan birgalidagi batafsil va qat'iy birlashtirilgan tuzilishi va mantig'isiz mavjud bo'lmaydi [2, b.4].

Ta'kidlash joizki, metodlarning yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlarining mavjudligi ekspert xulosasini "yakuniy bosqichdagi haqiqat"ga, o'zgarmas kategoriyaga aylantirmaydi. Ekspertiza tadqiqotlari sohasidagi masalalar bo'yicha har qanday darajadagi ekspertning xulosasi, agar u yuqoridagi parametrlarga to'liq mos kelmasa (100 foiz muvofiqlikni ta'minlash juda qiyin), tekshirish va isbotlash talab etiladigan vakolatlari, ammo subyektiv fikr sifatida ko'rib chiqili-

shi mumkin. Shu sababli, ekspert xulosasining to'liqligi va xolisligi deyarli har doim shubha ostiga olinadi.

Ekspertiza tadqiqotlari metodologiyasini uslubiy bilimlar darajasiga muvofiqlashtirish odatiy hol hisoblangan, fanlarning umumiyligi metodologiyasi nuqtayi nazaridan baholash maqsadga muvofiqlikdir. Falsafiy metodologiya har doim birinchi o'rinda turadi, undan keyin esa tadqiqotlar metodlari va texnikasi uchun asos bo'lgan, aniq-ilmiy metodologiyalarda amalga oshiriladigan umumilmiy tamoyillar va tadqiqot shakllari keladi [3, b.67].

Falsafiy metodologiyaning eng yuqori darajadagi mazmuni bilishning umumiyligi tamoyillari va fanning kategorik tuzilishini tashkil etadi. Bu holda, falsafiy daraja barcha uslubiy bilimlarning mazmunli asosidir.

Tadqiqotning umumilmiy tamoyillari va shakllari keyingi darajani tashkil etadi, bu yerda uslubiy funksiyalarni bajaradigan, muqarrar ravishda bir vaqtning o'zida fundamental fanlarning barchasiga yoki ularning muhim qismiga ta'sir ko'rsatadigan umumilmiy tushunchalar mavjuddir.

Undan keyin esa, yuqorida aytilganidek, keng doiradagi uslubiy muammolarni hal qilish uchun rasmiy ishlanmalar va nazariyalar maydonga chiqadi. Keyingi darajada yoki bosqichda esa aniq-ilmiy metodologiya alohida fan doirasida qo'llaniladigan metodlar, usullar va tadqiqot jarayonlari to'plamini shakllantiradi.

Metodologiyaning so'nggi darajasida mavjud (oltingan) empirik materiallarni taqqoslash imkoniyatini va ishonchlilikini, bu materiallarni qayta ishslash va bilimlarning umumiyligi to'plamida hisobga olinishini ta'minlaydigan jarayonlar majmuyidan iborat bo'lgan tadqiqot metodologiyasi va texnikasi turadi. Bu holda gap ilmiy faoliyatni tartibga solish funksiyasini hisobga olgan holda aniq belgilangan me'yoriy xususiyatga ega bo'lgan uslubiy bilimlarning yuqori darajasi haqida bormoqda.

Yuqorida keltirilgan tasnidda sud-ekspertiza tadqiqotlarining metodologiyasi aniq-ilmiy metodologiya darajasida va qatorida joylashgan. Sud ekspertizasi umumiyligi nazariyasining bir qismi hisoblanib va yanada "yuqori" darajadagi metodologiya sifatida uning metodologiyasining bir qismini o'z ichiga olgan holda, sud ekspertizasi-

ning metodologiyasi har qanday turdag'i sud ekspertizasining umumiy asoslarini belgilaydi.

Shu bilan birga, sud-ekspertiza tadqiqotlari ning metodologiyasi sud ekspertizasi umumiy nazariyasining, umumilmiy tamoyillarining va tadqiqot shakllarining "yuqori" metodologiyalarini, shuningdek, qoidalari aniq (predmetli) talqin qilinadigan falsafiy metodologiyalarni bevosita tarzda (mexanik ravishda) o'z darajasiga kiritmaydi. Bu holat boshqa turdosh fanlarning sud-ekspert tadqiqotlari metodologiyasiga kiritilgan qoidalariga nisbatan ham tegishli bo'ladi.

Umuman olganda, sud-ekspertiza tadqiqotlaring metodologiyasi deganda uning metodlari, vositalari, tuzilishi va mantiqiy tashkil etilishi haqidagi ilmiy ta'limot tushuniladi. Sud ekspertizalarini o'tkazishning predmetli uslubiyotlari metodologik bilimlarning boshqa – tadqiqotlarning uslubiyoti va texnikasi darajasida joylashadi.

Ekspertiza uslubiyoti – ekspertiza vazifalarini hal qilish uchun metodlar va vositalarni belgilangan (tartibga solingan, muvofiqlashtirilgan) tartibda va sharoitlarda tanlash va qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar tizimidir [4, b.222]. Bunday holda, ekspertiza uslubiyotining qoidalari kamroq umumiy, biroq yanada aniqroq xususiyatga ega. Sud-ekspertiza tadqiqotlaring metodologiyasi ekspertiza metodlari yig'indisini mexanik ravishda birlashtirmaydi va ularning o'rnini bosmaydi, balki har qanday ekspertizaning o'ziga xos belgilari umumiyligini keltirib chiqaradi(sintez).

Sud ekspertizasiga oid adabiyotlarda sud-ekspertiza tadqiqotlari metodologiyasining bilish jarayoni sifatidagi eng muhim qismi sifatida, tadqiqot metodlari to'g'risidagi ta'limot asoslangan holda ajratib ko'rsatilgan [1, b.78], chunki aynan tadqiqot metodlari (vositalar ham) ekspertlik vazifalarini hal qilish vositalari (instrument) hisoblanadi.

"Metod" va "metodologiya" tushunchalarini o'zaro taqqoslashning xolis va aniq asoslarini topish qiyin, chunki odatda "metod"ni (uslub) [yun. metodos – bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot] – voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l-yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli sifatida tushuniadi[5].

Biror ishni bajarish metodini egallagan kishi shu ishni boshqalarga nisbatan oson, tez va soz bajara oladi. Metod o'z mazmuni jihatidan amaliy yoki nazariy shaklda bo'lishi mumkin. Insонning amaliy faoliyatiga oid metodlar ham voqelikka xos bo'lgan qonuniyatlarni anglab yetish, bilib olishga borib taqaladi.

Fan metodlarning asosiy mazmunini amaliyotda sinalgan ilmiy nazariyalar tashkil etadi. Har qanday ilmiy nazariya mohiyati jihatidan metod funksiyasiga egadir. Metod, o'z navbatida, yangi ilmiy nazariyalar va qonuniyatlarning ochilishiga vosita bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan metod bilan ilmiy nazariya funksiyasiga ko'ra, bir-biridan farq qiluvchi ilmiy amal hisoblanadi.

Bilish metodlari voqelikni qamrab olishi jihatidan 3 turga bo'linadi: *yalpi umumiy bilish metodlari* – hamma fanlarda va bilishning barcha bosqichlarida qo'llaniladigan umumiy va universal metodlar – metodologiya; *umumiy bilish metodlari* – bir qancha yoki barcha fanlarda qo'llaniladigan va bilishning muayyan bosqichi (empirik, nazariy yoki empirik bosqichdan nazariy bosqichga o'tish chegarasi)da qo'llaniladigan bilish metodlari; *xususiy yoki maxsus metodlar* – ayrim fan doirasida qo'llaniladigan bilish metodlari.

Shu bilan birga, sud-ekspertiza tadqiqotlari metodologiyasi ekspertiza tadqiqotlari obyektlarini o'rganishda (bilish) qo'llaniladigan ilmiy bilish usullari, tadqiqot jarayonlarida qo'llaniladigan usullar, ekspertiza tadqiqotlarning obyektlarini o'rganish (bilish) usullarining mazmuni hamda ekspertiza tadqiqotlari obyektlarini o'rganishdagi usullarning o'zaro bog'liqligi to'g'risidagi bilimlar to'plamini o'z ichiga oladi.

Sud ekspertizalari tegishli fanlarning ajralmas qismi ekanligidan kelib chiqib, sud ekspertizasi tadqiqotlaring metodlari ilmiytadqiqot metodlariga qaraganda kamroq xilma-xil bo'lishini tasavvur qilish qiyin.

Sud ekspertizasida har bir tadqiqot metodi o'ziga xos hamda ular tadqiqotning maqsad va vazifalari bilan aniqlanadi. Eng avvalo, bu tarkibiga sud ekspertizalari kiradigan tegishli fanlarning metodlariga tegishli. Umumilmiy usullar ham ushbu metodlarni amalga oshirishning quyidagi tarkibiy elementlarining o'ziga xosligi bilan belgilanadigan xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin:

metodlarni qo'llash subyekti – maxsus bilimlarga hamda maxsus protsessual maqomga ega bo'lgan sud eksperti; ta'sir ko'rsatish obyektlari – sud ekspertizalarining maxsus huquqiy maqomga ega bo'lgan obyektlari.

Metodlarni qo'llash shartlari qonun bilan mustahkamlanadi va sud ekspertizasini o'tkazish tartibiga bo'yusunadi; metodlarni amalga oshirish vositalari – sud ekspertizasini o'tkazish ruxsat etilgan uskunalar, vositalar.

Sud ekspertizasi tadqiqotlarining metodologiyasi bilish jarayoni sifatida qaralgani sababli, sud ekspertizasining muayyan turlarini o'tkazishning ekspertiza uslubiyoti va metodlari – sud ekspertizasi maqsadlariga erishish va vazifalarni hal qilish uchun yaratilgan yaxlit tizimni tashkil etishi bilan bog'liq. Har qanday tizim singari, ushbu metodologiya ham takomillashtirilishi kerak.

Xususan, V.I.Sharovning "empirik darajadagi metodlarni sud ekspertizasida faol ravishda moslashtirish va aniqlashtirish kerak, chunki muayyan bilim sohasida qandaydir bir metodni, shu jumladan umumilmiy metodni qo'llashda, predmet sohasining o'ziga xos xususiyatlari paydo bo'lmashligi mumkin emas, bu esa ushbu metodni muqarrar ravishda muvofiqlashtirishni talab qiladi. Shunday qilib, metodlar tizimini ma'lum bir bilimga, shuningdek, amaliy vazifaga moslashtirish kerak" degan fikrlariga qo'shilish mumkin [6, b.269].

Muayyan metodlardan foydalanish ularni ma'lum bir fan yoki amaliy faoliyat sohasining o'ziga xos metodlariga kiritishga imkon bermaydi [7, b.1]. Amalda, bir fanning boshqa fanda qo'llaniladigan metodi o'zgartiriladi va ushbu metodda mavjud bo'lmanan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, sud ekspertizasini asosiy tashkil etuvchi fanlardan biri bo'lgan kriminalistika fanida ushbu masalalarga katta e'tibor berilgan. Adabiyotlarda jinoyatlarni ochish va tergov qilish amaliyotiga umumilmiy metodlarni aniqlashtirgan holda qo'llashga oid misollar yetarli. Bunday ilmiy asarlarning ahamiyati umumilmiy eksperimental metod – tergov eksperimenti asosida ishlab chiqilishi mumkinligi ko'rindi.

Sud ekspertlik faoliyatining o'ziga xosligi, shuningdek, uning vazifalarining xilma-xilligi va murakkabligi, ekspert eksperimentini detallash-

tirish imkoniyatini qiyinlashtiradi, chunki sud ekspertizalarining har bir turi uchun eksperimental harakatlar o'zaro sezilarli darajada farq qiladi.

Shu bilan birga, bu kabi metodlarni, ayniqsa o'qitish maqsadlarida aniqlashtirish va muvofiqlashtirish zarur. V.I.Sharovning ta'kidlashicha, "Sud-ekspertlik faoliyatining tabiiy-ilmiy metodlari" o'quv kursida sud-ekspertlik faoliyatining umumiyligi elementlariga nisbatan metodlarni aniqlashtiradigan uyg'unlashtiruvchi (integratsiyaviy) ishlar mavjud emas [6, b.271]. Misol tariqasida, sud-ekspertlik faoliyatida keng qo'llaniladigan, shu bilan birga amaliy faoliyat metodi hamda metrologiya fanining bir bo'limi bo'lgan o'lchash metodini keltirish mumkin, ushbu metod ekspertizadan farqli o'laroq, tadqiqotlar o'lchov natijalarini matematik baholash bilan cheklanadi [8, b.62].

Umuman olganda, ilmiy nazariyalarni loyihalash metodlari kamdan-kam hollarda sud ekspertizasi nazariyasida tahlil qilinadi. Masalan, ekspertiza nazariyasining shakllanish yo'llarini tahlil qilib, bir qator mualliflar aksiomatik metodni ushbu maqsadlar uchun qo'llab bo'lmaydi deb hisoblashadi, chunki sud ekspertizasining umumiyligi nazariyasi – o'zining qurilishi boshlang'ich bazasi ko'rinishidagi aksiomalar to'plamiga ega emas va shunga mos ravishda qat'iy formallashtirilishi mumkin bo'lmaydi.

Shu munosabat bilan bir qator mualliflar voqelikni mumkin bo'lgan darajadagi aniqlik bilan aks ettiruvchi gnoseologik (falsafiy), mazmunli nazariya modeliga moyildirlar [9, b.26-28].

Yuqoridaq qarashlar juda qat'iy va o'zgarishlarni nazarda tutmaydi, bu esa uni muhokama qilishni talab etadi. Xususan, ekspertiza nazariyasining asosida yotuvchi identifikatsiya nazariyasi ham qat'iy, ammo formallashtirilgan nazariyalarning xususiyatlariga mos keladi.

Agar ekspertizada ma'lum bir umumiyligi nazariya tan olinishini faraz qilsak, unda muqarrar ravishda o'zining tadqiqot obyektlarini o'rganish metodlari to'plamini o'ziga qamrab olgan ko'plab turdag'i ekspertizalarning xususiy nazariyalari to'plamini ham tan olish kerak bo'ladi.

Bunday nazariyalarga havolalar adabiyotda formal nazariyalar sifatida uchrab turadi. Ularning formallashtirilgan metodlari, odatda,

tabiiy fanlardan olingan hamda bunday metodlarni qo'llash eksperiment elementlarini istisno qilmaydi, ammo ular formal tartiblarni tashkil qiladi.

Umuman olganda, zamonaviy kriminalistika fanida formallashtirilgan metodlar to'plamidan foydalanishga parallel ravishda o'sib boruvchi formallashtirishga intilish mavjud. Bunday istak-intilishni amalga oshirish uchun sud ekspertizasining xususiy-ilmiy metodlarini tizimlashtirish foydalidir.

Bu kabi tizimni yaratishga urinishlarda ikkita yondashuv mavjud, ulardan birinchisi kriminalistika fanida, ilmiy-texnik mezonlar bo'yicha taklif qilingan. Jumladan [10, b.23; 11, b.15-18]:

Umumilmiy uslublar: kuzatish, tasvirlash, o'lhash, taqqoslash, eksperiment, modellashtirish, prognoz qilish, matematik uslublar hamda evristik uslublar: tahlil, sintez, induksiya, deduksiya va boshq.;

Maxsus uslublar – boshqa fanlardan olingan uslublar: fizikaviy, kimyoviy, biologik, antropologik, statistik, sotsiologik va boshqa uslublar;

Kriminalistikaning xususiy uslublari: sud fotografiyasi, trasologiya, ballistika, xatshunoslik va kriminalistik texnikaning boshqa sohalarida qo'llaniladigan uslublar.

Bugungi kunda sud ekspertiza nazariyasida ushbu tizim quyidagicha tuzilishga ega:

Sud-ekspertizalarini o'tkazishda bajariladigan vazifalarning kengligi va xilma-xilligi, tadqiqotlar jarayonida metodlar majmuyidan foydalanishni taqozo qiladi. Bu metodlar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

**1. Bilishning umumiy dialektik-materialistik metodlari:** aynanlik, o'xshashlik, qarama-qarshilik va uchinchini inkor etish, mantiqiy qonunlardan: analiz, sintez, induksiya, deduksiya, analogiya, gipoteza va xulosa chiqarish kabi usullar;

Kriminalistikaning umumilmiy metodlari: kuzatish yoki ko'zdan kechirish; o'lhash; ta'riflash; qayd etish; taqqoslash; eksperiment (tajriba), **modellashtirish, prognoz qilish, matematik uslublar va h.k.**

**2. Umumiy (umumilmiy) metodlar:** kuzatish (ko'zdan kechirish), o'lhash, tafsivlash (ta'riflab yozish), eksperiment, modellashtirish, taqqoslash, rekonstruksiya (qayta tiklash), an'anaviy mantiqiy metodlar va h.k.

**3. Xususiy instrumental va yordamchitexnik metodlar:** *fizikaviy metodlar* (ya'ni, mikroskopiya, lyuminessent tahlil, elektron-optik o'zgartirgich va televizion texnika yordamidagi tadqiqotlar, spektral tahlil, nam nusxalash, adsorbsion-lyuminessent metod va boshqalar); *fizikaviy-kimyoviy metodlar* (sud-tadqiqot fotografiyasi – fotografik reproduksiya, makrofotosuratga olish, mikrofotosuratga olish, ultrabinafsha fotografiya, infraqizil fotografiya, raqamli fotografiya; yupqa qatlamlı xromatografiya; diffuzion-nusxalash metodi; yuqori chastotali elektr tokida suratga olish va boshq.); *kimyoviy metodlar* (miqdoriy va sifatiy kimyoviy reaksiyalardan foydalanishga asoslangan metodlar).

**4. Maxsus metodlar:** har bir aniq turdag'i sud ekspertizasi tadqiqotlarida qo'llaniladigan metodlar. Masalan, *sud-ballistika ekspertizasida*: taqqoslash mikroskopiysi, rentgen nurlari bilan tekshirish, profilografik metod, diffuzion-kontaktli metod, xromatografik metod, spektral tahlil (emission-spektral tahlil, absorbsion tahlil – to'lqin uzunligi o'zgaruvchan monoxromatik nurlanish hosil qiluvchi modda molekulalarini tekshiruvchi kombinatsion sochilgan spektrlar bo'yicha tahlil; lyuminessent tahlil; rentgen tahlili), skanerlovchi elektron mikroskopiya. Yoki *sud-xatshunoslik ekspertizasida*: tizimli-strukturali tahlil; raqamli farqlovchi diagnostika; grafik metodlar; instrumental metodlar; miqdoriy metodlar; kibernetik metodlar; sifatiy-ta'riflash metodlari; kompleks metodlar va boshq. Shuningdek, *hujjatlarning texnik-kriminalistik tadqiqotlarida*: rastri mikroskopiya metodi; aks etuvchi mikroskopiya metodi yoki "replikalar metodi"; qaytuvchi ultrabinafsha va infraqizil nurlardagi tadqiqotlar; lyuminessent tahlil; spektral tahlil metodlari; emission-spektral tahlil; rentgenli tahlil; rentgen-strukturali tahlil; radioaktivatsion tahlil; ultrabinafsha, ko'rinuvchi va infraqizil spektroskopiya; nam nusxalash metodi; adsorbsion-lyuminessent tahlil (ALT); makro- va mikrosuratga olish, kontrastni kuchaytirish, spektrning ko'rinuvchi sohasida fotosuratga olish, lyuminessensiya hodisasini fotosuratga olish; yuqori chastotali toklar maydonidagi tadqiqotlar; diffuzion-nusxalash metodi (DNM); xromatografik metodlar, kimyoviy metodlar va h.k.

Ushbu yo'nalishlar, keskin farqlar bo'l-maganda, adabiyotlarda ashyoviy dalillarni o'rganishning umumiyligi ekspertiza metodlari deb ataladi. Bunday umumiyligi metodlar axborot mezonlari bo'yicha tizimlashtirilgan va tahlil metodlarining besh guruhiga taqsimlangan:

1) moddalar, materiallar va mahsulotlarning morfologiyasi; 2) moddalar va materiallarning tarkibi; 3) moddalar, materiallar va mahsulotlarning tuzilishi; 4) moddalar, materiallar va mahsulotlarning fizikaviy, kimyoviy va boshqa xususiyatlari; 5) matematik [12, b.149].

Bu holda, tasniflash asoslari umumiyligini baholashdan axborotning predmeti va xususiyatiga o'tish orqali o'zgartirilgan, bu esa umumiyligi tasniflash tamoyillaridan tashqariga chiqadi. Shu bilan birga, ekspert faoliyati uchun foydalilik nuqtayi nazaridan kiritilgan asoslar

voqelikka juda mos, chunki ular o'rganilayotgan obyektning tegishli xususiyatlarini o'rganish uchun mo'ljallangan metodlarni guruhlashga imkon beradi.

Tegishli harakatlarning mohiyatini ochib berish uchun taklif qilingan metodlarning har bir guruhini ekspertizada foydalanish uchun jalb qilingan bilim sohalaridan olingan mavjud va tushunarli tushunchalar orqali izohlash kerak. Shuningdek, ayrim metodlarni o'zaro aralashtirish ham muqarrar ko'rindi, chunki bir xil metodlarni qo'llash natijasida turli xil ma'lumotlar olish mumkin.

Yuqorida gilarning barchasi hal qilinayotgan vazifalar ko'lamining kattaligi va turlichaligidan dalolat beradi hamda ekspertiza metodlarining keng majmuyini formal emas, balki mazmun jihatidan tizimlashtirish dolzarb bo'lib qolaveradi.

## ADABIYOTLAR

1. Плесовских Ю.Г. Судебно-экспертное исследование: методология, методика, метод// Известия ИГЭА. 2005. №3-4. – С.77-79.
2. Цыпкин Д.О. Несколько предварительных замечаний о единстве экспертной науки и о проблемах современного источниковедения// Фотография. Изображение. Документ. 2012. №3 (3). – С.3-7.
3. Юдин Э.Г. Методология науки. Системность. Деятельность. – М., 1997. - 444 с.
4. Энциклопедия судебной экспертизы. – М., 1999. – 552 с.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. M harfi. / Tahrir hay'ati: E.Begmatov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, T.Mirzayev (rahbar), N.To'xliyev, E.Umarov, D.Xudoyberganova, A.Hojiyev. A.Madvaliyev tahr. ost. – Т.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2013. // [https://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20F.pdf](https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20F.pdf).
6. Шаров В.И. Система методов судебной экспертизы// Вестник ННГУ. 2014. №3-2. – С.269-272.
7. Пещак Я. Общетеоретические проблемы криминалистики. – М., 1977. – 229 с.
8. Виноградова Н.И., Матвиенко Е.А. Естественнонаучные методы судебно-экспертных исследований. Курс лекций. – М.: Щит-М, 2013. - 416 с.
9. Алиев И.А., Аверьянова Т.В. Концептуальные основы общей теории судебной экспертизы. - Баку: Гянджлик, 1992. - 186 с.
10. Kriminalistika: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / Mualliflar: F.Abdumajidov va boshq. – Т.: "Adolat", 2003 - 362 b. (- B.23).
11. Криминалистика: Учебник. / Закурлаев А., Базарова Д. и др. – Т.: ТГЮУ, 2016. – 528 с. (С.15-18).
12. Россинская Е.Р. Судебная экспертиза в гражданском, арбитражном, административном и уголовном процессе. – М., 2009. - 656 с.

# QALBAKI BANKNOTALAR VA ULARNING SOXTAKORLARI BILAN KURASHISH TARIXI

**FAZIROVA**  
*Nodira Sabirovna,  
X. Sulaymonova nomidagi  
Respublika sud ekspertiza  
markazining Samarqand viloyat  
bo‘limi yetakchi eksperti*

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqola pullarni qalbakilashtirishning tarixiy jihatlari, ularning haqiqiyligini aniqlash va soxta banknotalarga qarshi kurashish bo‘yicha jahon tajribasiga bag‘ishlangan.

**Kalit so‘zlar:** qalbakilashtirish, soxta pul belgilari, banknota, dollar, yevro, uskunalar, belgilar.

## АННОТАЦИЯ

Статья посвящена историческим аспектам фальшивомонетничества, определению подлинности денежных знаков и мировому опыту борьбы с поддельными денежными знаками.

**Ключевые слова:** фальшивомонетничество, подделка, денежные знаки, купюры, доллары, евро, оборудование, признаки.

## ANNOTATION

The article is devoted to the historical aspects of counterfeiting, determining the authenticity of banknotes and world experience in combating counterfeit banknotes. The article is devoted to the.

**Key words:** counterfeiting, fake, banknotes, bills, dollars, euro, equipment, signs.

Dunyo bo'yicha eng ko'p uchraydigan iqtisodiy jinoyatlardan biri bu muomaladagi qalbaki pullardir. Ushbu jinoyat qadim zamonlardan beri ma'lum va keng tarqalgan bo'lib, pul muomallasining ilk bor vujudga kelishi bilan uzlusiz bog'liq.

Hozirgi zamonda pulsiz hayot kechirishni tasavvur qilib bo'lmaydi. Pullar, tanga yoki banknota ko'rinishida bo'lishidan qat'i nazar, doimo muomalada. Pul qalbakilashtirishning rivojlanishi endigina boshlangan, jinoyatchilar soxta banknotalar ishlab chiqarish bo'yicha turli murakkab usullarga qo'l urgan qadimgi davrlarga qaraganda, hozirgi paytda ishlab chiqarish texnologiyasining rivojlanishi tufayli pullarni qalbakilashtirish imkoniyati osonlashdi. Ayni paytda soxtakorlar qalbaki banknotalar ishlab chiqarishningshundayusullarini qo'llashmoqdaki, bu qalbaki kupyurani aslidan farqlay olishni ancha qiyinlashtiradi.

Muomaladagi valyutalar orasida AQSH dollarini qalbakilashtirish keng tarqalgan.

Pul inson tomonidan ishlab chiqilgan eng katta ixtirodir. Pulning paydo bo'lishi tufayli sivilizatsiya iqtisodiy va xo'jalik sohalarida faol rivojlandi. Pul universal mahsulot bo'lib, uning paydo bo'lishi turli tovarlar va inson mehnati qiyamatini ekvivalent tarzda hisoblash imkonini yaratdi.

Pulning paydo bo'lishi inson tarixida alohida o'ringa ega bo'lib, mahsulot ishlab chiqarishning vujudga kelishi boshlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Qadimgi davrlardan beri juda ko'p o'zgarishlar bo'ldi, ammo pul insoniyatga xizmat qilishni davom ettirmoqda va davom ettiradi.

Tarixiy faktlarga asoslanib shuni ta'kidlash kerakki, soxta banknotalar ishlab chiqarishga qarshi kurashish qonunini birinchi bo'lib afinalik siyosatchi va qonun chiqaruvchi Solon kiritgan. U e.o. 594-yilda Afina hukmdori bo'lgach, ushbu jinoyat uchun o'lim jazosini joriy etish choralarini ko'rди. Hukmdorning ushbu qarorga kelishiga davlatning iqtisodiy pasayishi sabab bo'lgan. Bungi kungacha saqlanib qolgan marmar plitalar-

ga "muqaddas mulk"ka tajovuz qilganlarga, ya'ni mis tangalarni qonunga zid ravishda zarb etganlarga qattiq jazo qo'llansin deb o'yib yozilgan.

Tarixiy davrlar jarayonida tanga pullar ma'lum shakl, vazn va qiymatga ega bo'lib, metall quymasidan iborat bo'lgan aylana shaklidagi ikki tomonlama zarblangan ko'rinishda ishlab chiqarilgan.

Qadimgi Rimda qalbaki pul soxtakorini olovda yondirishgan, yoki amfiteatrda o'tkaziladigan tomoshalar vaqtida sherlar changaliga tashlashgan. Soxtakorlar haqida ma'lumot yetkazgan qullar huquqiy ozodlikka ega bo'lib, umrlarining oxirigacha soliqlardan ozod etilgan.

Qalbaki pul soxtakorlarining jazolanishi bilan bog'liq "achinarli tushunmovchiliklar"ni tarix ham biladi. Masalan, XII asr boshida Angliya qiroli Genri I deyarli 94 ta pul soxtakorlarining qo'llarini kesib tashlashni buyurgan. Ular kumush tangalar ishlab chiqarishda qotishmaga juda ko'p qalay qo'shganlikda ayblangan. Ancha vaqt o'tib, hozirgi davrda bu tangalarning kimyoviy tarkibi chuqur tahlil qilingan. Natija shohning xatoga yo'l qo'yganligini ko'rsatdi – tangalardagi qalay tarkibi belgilangan normadan kamroq edi. Zarb qilganlar o'limidan keyin oqlandi.

Lekin soxta tangasozlik bilan nafaqat oddiy odamlar shug'ullangan, miloddan avvalgi 1-asrda imperator Neron birinchilardan bo'lib "boshqa qo'shilmalar" bilan tanga ishlab chiqarishga rasman ruxsat berdi. Natijada bu juda tez fursatda rim tangalari tarkibida kumush deyarli qo'shilmasligiga olib keldi.

"Chiroyli" laqabi bilan tarixga kirgan Fransiya qiroli Filipp IV ning yana bir – "soxtakor" degan taxallusi ham bor edi. U urushlar payti talon-toroj qilingan oltin pullarni o'zgartirishga ruxsat berdi. Parijda sovrinli tangalarni obdon qirib, so'ngra qirindilaridan yangi tangalar zarblangan. Ishlab chiqarish shaxsan Fransiya qiroli tomonidan nazorat qilingan.

Angliya qiroli Genri VI mis tangalarni simob bilan qoplab, ularni kumush tanga sifatida yashirincha muomalaga chiqarishga ruxsat berган. Uning avlodи Genri VIII esa yanada zo'r soxtakor bo'lib chiqdi. Xazinani to'ldirish uchun sof misdan "kumush shillinglar" ishlab chiqarishni buyurdi. Tanganing tarkibida kumush deyarli yo'q edi – u ingichka sirt qatlami shaklida

qo‘llanilgan. Natijada muomaladagi tangalarning bo‘rtma qismlari tezda yeyilib, ularning kumush bo‘lмаган тарқибини фош qildi.

1832-yilda Fransiyada nikel tangalar besh franklik nominallarda chiqarilgan. Tez orada bozor besh franklik soxta tangalar bilan to‘lib-toshgan. Politsiya bir guruh jinoyatchilarni fosh etishga muvaffaq bo‘ldi. Biroq sudda ulardan biri aybiga iqror bo‘lishdan bosh tortgan. U hakamlarga Fransiya qonunchiligi faqat oltin, kumush, bronza va mis tangalarni soxtalashtirishni taqiqlagani, soxta nikel tangalarni zarblashni taqiqlovchi qonun yo‘qligini vaj qilib ko‘rsatdi va natijada sud oqlov qarorini chiqardi. Joriy qonunchilikka darhol tegishli o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritildi.

Ispaniyada qirol barcha platinani yo‘q qilish to‘g‘risida farmon chiqardi, chunki platina o‘sha paytda eng arzon metallardan biri edi va soxta tangasozlar uni oltin tangalar ishlab chiqarishda ishlata boshladilar. Qirol farmoni bilan platina daryolarga cho‘ktirilgan.

Rossiyada birinchi marta “Novgorod xronikasi”da soxta tangasozlar eslatib o‘tiladi: 1447-yilda “ayg‘ir” laqabli Vasiliy, qimmatbahod metallarni quyuvchi va o‘lchovchi, past navli tangalar – grivenlar ishlab chiqarib tirikchilik o‘tkazdi.

Bizning zamonomizda, Toshkentdan uncha uzoq bo‘lmanan joyda bundan olti yuz yil muqaddam mavjud bo‘lgan kumush dirhamlar ishlab chiqarish bo‘yicha qadimiy ustaxona topildi. Uskunalar mahalliy muzeyga va qadimiy pullar davlat tasarrufiga o‘tkazildi. Tekshiruv natijalarida topilmalar yuza qismi yupqa kumush bilan qoplangan, asosiy qismi esa misdan iborat bo‘lgan soxta “kumush tangalar” ekanligini aniqlandi.

Fransiyaning Nitsa shahrida Interpol shtab-kvartirasida muzey tashkil etilgan. Unda butun dunyoda qo'llaniladigan banknota va qimmatli qog'ozlarni soxtalashtirishning o'n mingdan ortiq usullari to'g'risida turli ma'lumotlar mavjud. Bu yerda siz chizmachilik asosida ishlangan banknotalarning oddiy nusxalarini ham, yuqori aniqlikdagi zamонавиу texnologiya yordamida tayyorlangan yuqori sifatli soxta banknotalarni ham ko'rishingiz mumkin.

Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlardan xulosal qilishimiz mumkinki, soxta pul ishlab chiqarish

rivojlanishning uzoq davrini bosib o'tgan, ya'ni  
oltin bilan qoplangan qo'rg'oshin tangalardan asl  
nuxxalaridan butunlay farq qilmaydigan soxta  
cheklar va banknotalargacha. Banknotalarni  
soxtalashtirish hamma davrlarda butun dunyodagi  
eng og'ir davlat jinoyati hisoblangan.

Soxta pul mablag'larini sotish bozor iqtisodiyotining shakllanishi sharoitida ommaviy xavfni kuchaytiradi, ichki valyutaning barqarorligiga ta'sir qiladi va pul aylanmasini tartibga solishni murakkablashtiradi.

Mamlakatimizda banknotalarni noqonuniy ishlab chiqarish qarindoshlik yoki etnik aloqlar bo'yicha bir-biri bilan yaqin aloqada bo'lgan yoki jinoyatlarda bирgalikda ishtirok etган aholining kichik doirasi tomonidan amalga oshiriladi. Yakka holda pullarni soxtalashtirish bilan shug'ullangan shaxslar kamdan-kam uchraydi.

Bunday jinoyatchilar ko‘pincha kimyo va matbaa sohasida zarur bilim, yuqori texnik ko‘nikmalarga ega bo‘lgan va o‘rta yoshdagilardan erkaklardan iborat shaxslarni o‘z ichiga oladi. Ayollar, agar ular bunday jinoyatlarni sodir etsalar, buni sheriklar sifatida, marketing yoki zarur xomashyo bilan ta’minlovchi sifatida amalga oshiradilar.

Tegishli ilmiy adabiyotlarni o‘rganib chiqib, tegishli ma’lumotlarga ega bo‘lgan jinoyatchi jinoiy niyatini amalga oshirish uchun asbob- uskunalarni qidira boshlaydi. Soxta banknotalarni yasash jinoyati bir kunda amalga oshirilmaydi, balkim bunga haqiqiy banknotaga o‘xshatish ustida ko‘plab tajribalar olib borish natijasida erishiladi.

Banknotalarni soxtalashtirishda soxtakorlar ko‘p vaqt va mehnat sarflaydi. Banknotalarni to‘liq va qisman soxtalashtirish mumkin. Soxtalashtirishning eng qo‘pol turi dastlabki banknotada qisman o‘zgarishlarni joriy etishdir. Odatda, nominal qiymatini oshirish maqsadida chipta qiymatini belgilaydigan raqam va matn-larga o‘zgartirishlar kiritiladi.

Soxta vositani tanib olish faqat banknota yuzasini chuqur o'rganish bilan amalga oshiriladi. Pul bilan ishlaydigan tajribali xodimga soxta pullarni aniqlash qiyin bo'lmaydi, chunki odatda, pulni hisobga olayotganda asosiy e'tibor davlat arbobi portretiga va belgilangan nominalga emas, balki ma'lum bir nominalning banknotiga mos keladigan boshqa xususiyatlarga qaratiladi.

Pullarni qalbakilashtirishning juda mashhur usuli – bu banknotalarning suratini chizish. Bu oddiy ko'rinishi mumkin, chunki murakkab qurilmalarni talab qilmaydi. Biroq, bu usul faqat rassomchilik, grafik bezash va buyuk badiiy iste'dodning yuqori texnikasiga ega bo'lgan shaxslarga tegishli imkoniyatdir.

Ko'pincha soxtakorlar nusxa ko'chirishning turli usullaridan foydalanadilar, bu esa banknotaning siyohini yumshatish va qog'ozda iz qoldirish bilan bog'liq. Ushbu operatsiya bir necha bosqichda amalga oshiriladi: bo'yoq yumshatilgandan so'ng chiptaning rangli tasviri oldindan tayyorlangan yuzaga o'tkaziladi. Olingan dastlabki banknotaning oynaviy tasviri qog'ozga ko'chiriladi. Ushbu maqsadlar uchun maishiy organik erituvchilari: skipidar, benzin, uait spirit va fenolik guruhga oid boshqa moddalar: kreozot, kreolin, yopishqoq massa bilan qoplangan qog'oz, tekislash uchun valik, press va dazmol qo'llaniladi.

Soxta banknotalarni fotosurat vositalari bilan ham ishlab chiqarish mumkin. Asosiy bosqichlar: asl banknotani tasvirga tushirish, negativlarni chiqarish; retush, foto qog'ozda ijobjiy tasvirlarni aks ettirish; old va orqa tomonni yopishtirish; chiptaning seriya raqamini bo'yash va qo'llashdan iboratdir.

Soxta banknotalarning aksariyati umumiy

dizaynni takrorlaydigan va faqat haqiqiylikning ma'lum belgilariiga taqlid qiladigan sodda-lashtirilgan texnologiyalar yordamida tayyorlanadi, tasvirlarni takrorlashning reprografik usullari esa keng qo'llaniladi, ulardan biri oqimli bosma usuli. Umuman olganda, bu usullar juda ko'p va xilma-xildir, ammo ular bitta umumiy xususiyat – rasmlarni tasvirlashda bosma shakllarning yo'qligi bilan hamohang. Ko'paytirishning eng mashhur reprografik usullari elektrofotografiya, oqimli bosma, bo'yojni termo uzatish va boshqalardir. Aslida, soxta banknota haqiqiy nusxani takrorlaydi.

Ammo qo'lbola qurilmalarda va hattoki sanoat poligrafik uskunalarida bajarilgan xavfli soxta pullar uchraydi.

Ular bosma shakllarni ishlab chiqarish va ulardan izlar olishdan iborat, bu usullar professional soxtakorlar tomonidan qo'llaniladi. Ushbu usul, asl nusxa bilan o'xshashlik xususiyatini oshirib soxta banknotalarni cheksiz ko'paytirib chiqarish imkoniyatini beradi.

Soxta pullarni ko'paytirishning boshqa poligrafik turlari ham ma'lum: yuqori bosma shakllardan, chuqr bosma shakllardan, operativ poligrafik vositalar yordamida chop etish.

Rang jozibasini ko'paytirish uchun jinoyatchilar "Orlovcha yozuv usuli"ga imitatasiya qiladilar.



Banknotalarni yaratishning kombinatsiya-langan usuli juda keng tarqagan. Shu bilan birga, asosiy tasvirlarni poligrafik usulda, bank tafsilotlari va seriya raqamlari esa lazer yoki oqimli printerlarda chop etiladi.

Offset usuli hozir eng keng tarqagan. Xorijiy valyutalarning 80% gacha qismi offset usuli orqali ishlab chiqariladi. Metallografik muhr imitatsiyasi maxsus tayyorlangan shtamp yordamida qog'ozni burmalash natijasida kupyura yuzasida relyef namoyon bo'lishi bilan amalga oshiriladi. AQSH dollarini ko'pincha magnit kukuni bilan changlantiriladi. Ma'lum bir qurilma bilan tekshirishda qiyinchiliklar paydo bo'ladi, indikator bunday banknotalarni asl nusxa deb qabul qiladi. Soxta dollardagi himoya tolalari ko'pincha ofsetda chop etiladi.

Shunday qilib, pul qalbakilashtiruvchilar ishlatgan jihozlarni uch guruhga bo'lish mumkin: nusxa ko'chirish va ko'paytirish mashinalari hamda kompyuterlar (printerlar) uchun bosma uskunalar; qo'lbola tayyorlangan matbaa uskunalar; sanoat poligrafik bosma mashinalari.

Vaqt o'tgan sari pul qalbakilashtiruvchilarning faoliyati yanada takomillashtib bormoqda va professional guruhlarda kompyuterlarda ishlovchi

professional dizaynerlar ham faoliyat yuritmoqda.

Har bir mamlakatning soxta banknota yasash usuli bir-biridan farq qiladi.

Rossiya rubli va o'zbek so'mini soxtalashtirishda tasvirlarni qo'llashning reprografik usuli ustunlik qiladi – taxminan 90%. Asosan, oqimli va lazerli printerlar, rangli nusxa ko'chirish vositalari (turli kompaniyalarning nusxa ko'chirish va takrorlash mashinalari) va ularning turli kombinatsiyalari ishlatiladi.

Soxta AQSH dollarida tasvirlarning poligrafik bosma usullari – 40% dan ortiq. Soxta yevrolarga kelsak, bu holat soxta AQSH dollariga teng. Tasvirlarni aks ettirishda poligrafik usullar ustunlik qiladi – 53% hamda poligrafik va reprografik usullarning kombinatsiyalari, kompyuter printerlari yordamida – 38%.

Hozirgi paytda dunyoda pul ishlab chiqarish usullari har xil bo'lib, ularni takomillashtirishda doimiy izlanishlar olib borilmoqda. Jahan iqtisodiyoti pul ishlab chiqarishning o'xshash usullari va turli uslublariga ham ega.

Pul ishlab chiqarishda dizaynning doimiy ravishda o'zgarishi va himoya usullarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.



AQSH dollarining haqiqiyligini aniqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tizimi va AQSH maxfiy xizmati mutaxassislari banknotalarda quyidagi o'ziga xos xususiyatlar mavjudligini tekshirishni tavsiya qiladilar:

- 1) Rangni o'zgartiruvchi bosma siyoh;
- 2) Suv belgilari. Suv belgilari qog'ozga bosilmagani, balki banknota ichida joylashganligi sababli, ular har ikki tomonidan bir xil ko'rindi;

3) Himoya chizig‘i. Bu polimer chiziq bo‘lib, aslida qog‘ozga bosilmagan, balki uning ichiga joylashtirilgan. Chiziq faqat yorug‘likda ko‘rinadi va “AQSH” yozuvi, nominal raqami va bayrog‘i banknotaning har ikki tomonida ko‘rinadi. Ultrabinafsha nurda chiziq 50 dollarlik banknotalarda – sariq, 100 dollarlik banknotalarda esa qizil ko‘rinadi;

4) ingichka konsentrik chiziqlar;

5) mikrobosma – portretda va xavfsizlik chizig‘ida kichik “USA” yozuvi va raqami yoki “The United States of America” so‘zlaridan iborat. Rom ichida 50 dollarlik kupyura loyihasi uchun “Fifty” so‘zi, 100 dollarlik kupyuraning pastki chap burchagida esa “USA 100” yozuvi takrorlanadi.

2013-yil oktabr oyida 100 dollarlik yangi banknotalar muomalaga chiqarildi. Yangi 100 dollarlik kupyura loyihasining yangi xavfsizlik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1) kengligi 6 mm bo‘lgan “Motion” TM xavfsizlik xususiyatiga ega uch o‘lchovli himoya lentasi. Qo‘ng‘iroqlar tasvirlangan 100 dollarlik kupyuraning old tomonidagi ko‘k lenta va “100” raqamlari;

2) “Siyoh idishidagi qo‘ng‘iroqcha” tasviri optik o‘zgaruvchan bo‘yoq bilan ishlangan.

Banknotaning old tomonida tasvirlangan mis siyohdondagi qo‘ng‘iroqchaning rangi burilganda yashil rangga o‘zgaradi.

100 dollarlik banknotaning yangi dizayni avvalgi banknotada qo‘llaniladigan samarali himoya xususiyatlarini saqlab qolgan;

3) portret shaklidagi suv belgisi – portretning o‘ng tomonida Benjamin Franklinning surati tasvirlangan. Tasvir banknotaning ikki tomonidan ham ko‘rinadi;

4) himoya ipi – portretning chap tomonida vertikal himoya ipi qog‘oz tarkibiga joylashtirilgan. Unda “USA” yozuvi va “100” raqami ketma-ketlikda portretning chap tomonida himoya ipining vertikal holatda butun uzunligi bo‘yicha joylashtirilib, banknotoning ikki tomonidan ko‘rinadi. Himoya ipi ultrabinafsha nurlarda pushti rangda tovlanadi;

5) rangi o‘zgaruvchan “100” raqami, pul belgisining turli burchaklarida, raqam rangini mis rangidan yashilga o‘zgartiradi.

Banknotaning teskari tomonida “100” nominalining kengaytirilgan rasmi – ko‘zi ojizlar uchun belgidir.

2002-yil yanvar oyidan boshlab Yevropa Ittifoqi davlatlari yangi yagona valyuta – yevroga ega bo‘ldi.



Yevro pullar ko‘zga ko‘rinmaydigan xavfsizlik xususiyatlariga ega (ultrabinafsha va infraqizil himoya, mikrobosma, magnit tagliklar va boshqalar). Ularning ba’zilari soxtakorlardan himoya qilish uchun qo‘shimcha tekshiruvni ta’minlaydigan mashinalar bilan o‘qiladi. Aholining qulayligi uchun yevro banknotalarning asosiy himoya xususiyatlarini tekshirish juda oson:

1) yevro banknotalar asosan paxta tolasidan tayyorlangan maxsus banknota qog'oziga bosiladi. Yumshoq yoki mumli emas, teginganda qirsillashini his qilish mumkin;

2) metallografik usul relyefni his qilish xususiyatini hosil qiladi va bu ko'zi ojizlar uchun juda muhimdir. Yevro banknotalarida Yevropa Markaziy bankining "bosh harflari"ni (ya'ni BCE, ECB, EZB, EKT, EKP) his etish mumkin; banknotaning nominalni ko'rsatuvchi raqamlar; deraza va darvozalar rasmlari;

3) suv belgisi muhrlanmagan maydonning ikki tomonida (kupon maydoni), asosiy me'moriy ko'rinish va nominal raqami shaklida tayyorlangan. Ichkarida suv belgisi yaratilgan bo'lib, yasash jarayonida qog'oz qalinligi o'zgaradi;

4) xavfsizlik ipi ham ishlab chiqarish jarayonida qog'ozga kiritilgan. Banknotalar yorug'likda kuzatilsa, uning to'liq kengligi bo'ylab ko'k rangli chiziq kuzatiladi. Yorug'likda nominal raqamlari bilan birga "EURO" so'zini ham ko'rish mumkin. Bundan tashqari, hajmi 0,8 mm bo'lgan yakka tartibdagi raqam bilan harflar (mini-bosma) hamda 0,2 mm o'lchamli juft raqamlar (mikro-bosma) ham mavjud;

5) bir-biriga yondosh tasvirlar. Ushbu himoya xususiyati banknotaning old tomonining yuqori chap burchagida joylashgan. Banknotaning old va orqa tomonida bosilgan nostandart maxsus yorqliqlar birlashtirilib, to'liq nominal raqamini yaratadi;

6) gologramma – folganing o'ng tomonida past nominalli (5, 10 va 20 yevro) banknotalarning old tomonida joylashgan. Banknotani u yoki bu tomonga burish orqali, yorqin rangli yevro belgisini va nominal raqamini (5, 10 yoki 20) ko'rish mumkin. Yuqori nominaldagisi (50, 100, 200 va 500 evro) banknotalarning old tomonida folga yorlig'iда yanada murakkab gologramma mavjud. Banknota yorug'likka qaratib kuzatilganda yorqin rangli raqam va me'moriy ko'rinish tasvirini ko'rish mumkin;

7) rangni o'zgartiruvchi siyoh (OVI) – bu xususiyat to'rtta yuqori nominaldagisi banknotalarda ham mavjud. Bu to'rt nominaldagisi banknotalarning orqa tomonining pastki o'ng burchagidagi nominal raqamlarini chop etishda qo'llaniladigan siyohdir. Raqamlar to'g'ri burchakda binafsharangda ko'rindi, ammo turli

burchaklardan kuzatilganda zaytun, yashil va hatto jigarrangga o'zgaradi.

Banknotalarning pastroq nominallarining (5, 10 va 20) orqa tomonida himoya sifatidagi tuslanuvchi chiziq mavjud. Chiziq yorqin nur ostida porlaydi va yevro ramzlarini undagi nominal raqamlari bilan birga yaqqol ko'rishingiz mumkin.

2013-yil boshida Yevropada 5 yevro nominaldagisi yangi banknota muomalaga kiritildi.

Yangi banknotada Yevropaning yunon mifologiyasi qahramoni tasviri aks ettirilgan gologramma paydo bo'ldi. Bundan tashqari, 5 raqamining o'zi rangni o'zgartiruvchi texnologiya yordamida zumrad yashildan to'q ko'k ranggacha tuslanadi. Shuningdek, banknota ko'rish qobiliyati past bo'lgan odamlarga uni tanib olishni osonlashtiradigan belgilari bilan jihozlangan.

Shunday qilib, shuni ta'kidlash kerakki, turli xil nominallarda AQSH dollari va yevro kabi valyutalarni ishlab chiqarish usuliga alohida e'tibor qaratilmoqda. Himoya usullari doimiy ravishda takomillashib bormoqda. Ma'lum bir banknotalarning haqiqiyligini aniqlash uchun ularning o'ziga xos bo'lgan ayrim xususiyatlari mavjudligini tekshirish tavsidi etiladi.

Pullarni qalbakilashtirishning bir mamlakatda tarqalishi butun jahon iqtisodiyotiga nojo'ya ta'sir ko'rsatishi, xalqaro munosabatlar doirasida zarar yetkazishi mumkin. Ushbu jinoyat alohida davlat uchun ham, butun jahon hamjamiyati uchun ham xavfni oshiradi. Shu sabab pullarni qalbakilashtirish 1927-yilda jinoyat qonunchiligini birlashtirish bo'yicha birinchi Xalqaro konferensiyada (Varshava) xalqaro jinoyat sifatida tasniflangan.

Xalqaro jinoyat sifatida pullarni qalbakilashtirish tobora keng tarqalmoqda. Bu nafaqat ushbu holatning xalqaro miqyosda kengayishi, balki yaqinda transmilliy xarakterga ega bo'lgan soxtakorlar guruhlarining ortishidan darak beradi.

Butun dunyoda qalbaki pullarni ishlab chiqarishga qarshi kurash 1929-yilda Jenevada qabul qilingan xalqaro konvensiyaga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu Konvensiyaga ko'ra, ishtirokchi davlatlar milliy va chet el valyutasini qalbakilashtirish o'rtasida hech qanday farq yo'qligi va qarshi kurashda aybdorlarni teng

jiddiylik bilan jazolashni o'z zimmalarga olganlar.

Pullarni qalbakilashtirish xalqaro jinoyat deb e'lon qilindi va shuning uchun Konvensiyaning barcha ishtirokchi davlatlari ishlab chiqaruvchini, banknotalarni sotuvchini yoki chet elga qochib ketgan sheriklarini qidirish va qaytarishda tegishli davlatlarga yordam berishlari kerak.

Xalqaro jinoyat politsiyasi tashkiloti (qisqartirilgan nomi, 1956-yildan beri "INTERPOL") qalbaki pullar tarqalishiga qarshi turishi uchun davlatlar hamkorligi alohida o'rinn egallaydi.

1931-yilda "Valyutalarni qalbakilashtirish" xalqaro konferensiysi bo'lib o'tdi. Xalqaro politsiya tashkiloti ushbu jinoyatga qarshi global kurashning koordinatori va mas'uliyatli ijrochisi bo'lishiga kelishib olindi.

Soxtalashtirish bo'yicha ikkinchi xalqaro konferensiya 1935-yil iyuniда Kopengagenda Interpol rahbarligida tashkil etilgan. Konferensiya INTERPOL ushbu turdag'i jinoyat-chilikka qarshi kurashish bo'yicha markaziy axborot idorasi sifatida yanada samarali harakat qilishi uchun qalbakilashtirish holatlari haqida xabar berishni takomillashtirish zarurligi ta'kidlandi.

Jeneva kelishivi matnida soxtakorlarni dunyo mamlakatlari bo'yicha izlash muhimligi ta'kidlandi. Uning asosiy shartlaridan biri jinoyatchi ushlangan har qanday davlatning sud organlariga uning boshqa davlatlardagi jinoiy faoliyati to'g'risida ma'lumot berilishi kerak, shunda sudlar uni umumiy jinoyatlari bo'yicha ayblashlari mumkin, hatto uning jinoyati u ushlangan mamlakatda birinchi marta sodir etilgan va ahamiyatsiz bo'lsada. Konferensiya bu yana bir bor ta'kidlandi.

Interpol haqiqiy va qalbaki banknotalarni tan olish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishda ham o'z faoliyati davomida soxta pullarni aniqlash bo'yicha texnik tajriba vositalarini ishlab chiqishda davom etdi.

ICPO maxsus bo'limi ichida F guruhi tashkil etildi va uning ishi butunlay soxtalashtirishga qarshi kurashish masalalariga qaratilgan.

Boshqa xususiyatlar orasida, ushbu guruhda soxtalashtirish bo'yicha sud ishlarida guvohlik berishga malakali bo'lgan ichki ekspertlar ham bor. Ekspertlardan foydalanish ko'pincha valyutasi qalbakilashtirilgan mamlakatga qarashli

amaldorlarni taklif qilishdan ko'ra samaraliroq bo'ladi. Chunki ba'zi davlatlar, aslida, o'z valyutasini chop etmaydi, balki boshqa mamlakatlarning davlat va xususiy muassasalaridan foydalanadilar, shuning uchun, ba'zi davlatlarda haqiqiy ekspert sifatida malakaga ega bo'lgan amaldorlar yo'q.

XX asrning oxirgi uch qismlari qalbakilashtirilgan valyutalar sonining miqdoriy va sifatli o'sishi bilan ajralib turadi: masalan, 1960-yilda yarim milliondan ortiq soxta AQSH dollari, 1970-yilda – 19 million dollar, 1972-yilda qiymati 25 million dollarga teng soxta pullar topilgan bo'lsa, keyingi yillar va o'nyilliklarda bu raqam yuz millionlarga borib yetdi, qalbaki pullar ishlab chiqarilgan va dunyoning o'nlab mamlakatlarida tarqatilgan. Shuni ta'kidlash mumkinki, bir qator davlatlar yoki yirik tashkilotlar AQSH dollari ta'sirini pasaytirish bo'yicha doimiy siyosat olib bormoqda. Turli manbalarga ko'ra, "Super soxta" deb atalgan davlatlarga Eron, Iraq va Falastin kiradi.

1990-yillarda Yaqin Sharq, Chexiya, Ukraina va Rossiyada ko'p sonli qalbaki 100 dollarlik pullar paydo bo'ldi. 1992-yilda AQSH Kongressining terrorizm bo'yicha ishchi guruhi Eronda yuqori sifatli qalbaki pullar ommaviy chop etilayotgani, Suriya va Livanga, u yerdan esa uchinchi mamlakatlarga jo'natilayotgani to'g'risidagi hisobotni e'lon qildi. "The New Yorker" ma'lumotlariga ko'ra, AQSHdan tashqarida aylanayotgan 100 dollarlik valyutaning 20 foizi qalbaki.

2012-yilning ikkinchi yarmida dunyo bo'ylab 280 ming qalbaki yevro banknotasi musodara qilindi. 2013-yilning dastlabki olti oyida 16 million yevro qiymatidagi 317 mingga yaqin qalbaki banknotalar mavjud edi. Yevropa Markaziy banki (ECB) ma'lumot bergenidek, bu raqam 2010-yildan keyingi davrdagi eng yuqori ko'rsatkichdir. Yevro hududidagi har 10 ming kishiga o'rtacha 19 ta qalbaki pul to'g'ri keladi. 2013-yilda 20 yevrolik qalbaki pullar eng ko'p tarqalgan bo'lsa, ikkinchi o'rinni 50 yevrolik banknotalar egalladi.

2013-yilning birinchi yarmida Belgiyada 21 mingdan ortiq va Niderlandiyada 19 ming qalbaki pullar, Germaniyada esa bir milliondan ortiq qalbaki yevro banknotalar musodara qilingan.

Jinoiy guruhlar o'rtaida noqonuniy tovarlar va xizmatlar "o'zaro kelishivi" uchun qalbaki banknotalardan foydalanish deyarli odatiy holga aylangan.

Ko'pincha 20 dollar va 100 dollarlik banknotalar qalbakilashtirilyapti – ular barcha soxta pullarning taxminan 70 foizini tashkil etadi. Agar dunyoda Amerika dollari qalbaki pullar reytingida uchinchi o'rinni egallasa, MDH mamlakatlarida 10 yil oldin, taxminan 220 million dollar haqiqiylik sinovidan o'ta olmagan bo'lsa, bugungi kunda ular global pul muomalasida deyarli 2 baravar ko'p.

Masalan, Rossiyada o'tgan yil boshida 6000 dan ortiq qalbaki banknotalar (asosan yevro, dollar va yuan) aniqlangan bo'lsa, undan oldingi yil davomida esa faqatgina 1730 ta qalbaki banknota aniqlangan. Ushbu raqamning 98% dan

ortig'i AQSH dollari bo'lib, ko'pincha 2013-yil seriyali 50 dollarlik banknotalardir.

O'zbekistonda ham boshqa davlatlar kabi qalbaki pullar muomalada ko'p uchrab turadi, masalan oxirgi yillarda, ya'ni:

2020-yil oktabr oyida Samarqand viloyatida deyarli 30 ming qalbaki dollar musodara qilindi.

2023-yili poytaxtning Sergeli tumanida Davlat xavfsizlik xizmatining Toshkent shahar bo'limi xodimlari Bosh prokuratura qoshidagi Departament bilan birgalikda operativ tadbir o'tkazib, 4 fuqaro 100,000 AQSH dollarini 70,000 AQSH dollariga sotmoqchi bo'lganlarda jinoyat ustida ushlandi va hibsga olinganlardan birining uyidan yana 10 950 soxta AQSH dollari musodara qilindi;

2024-yil avgust oyida poytaxtning Yunusobod tumanida qalbaki pullarni sotuvchilar qalbaki



10 000 AQSH dollarini 7 200 AQSH dollariga sotmoqchi bo‘lgan payti hibsga olindi.

Yuqorida qayd etilgan misollar muomaladagi qalbaki dollar banknotalari haqidagi ma’lumotning bir qismigina xolos.

O‘zbekistonda nafaqat qalbaki dollar banknotalarini, balki o‘zbek valyutasini ham qalbakilashtirish holatlari uchraydi.

Markaziy bank Samarcand viloyati bosh-qarmasining bank tizimida aniqlangan soxta banknotalar to‘g‘risidagi ma’lumotlariga ko‘ra, 2018–2024-yillarda soxta o‘zbek so‘midagi banknotalarning 30 dan ortiq holati aniqlangan.

Shunday qilib, universal xarakterdagи xalqaro shartnomaga asosida amalga oshirilgan qalbakilashtirishga qarshi kurashdagi hamkorlik inkor etib bo‘lmaydigan afzallikka ega, chunki ushbu faoliyatga iloji boricha ko‘proq davlatlarni jalg qilishga qaratilgan bo‘lib, bu davlatlar tomonlarga ushbu jinoyatga qarshi kurashda 1929-yilgi Konvensiyaning mavjud xalqaro tajribasidan maksimal darajada foydalanish imkonini beradi.

Qalbaki pullarning tarqalishiga davlat tomonidan ko‘p e’tiborsizlik bilan qaralayotgani haqiqiy xavfdir. Uning ta’siri aholi va butun mamlakat iqtisodiy salohiyatining pasayishida namoyon bo‘ladi. Qalbaki pul ishlab chiqarishga qarshi ko‘rilayotgan samarali choralar va choratadbirlarning yaratilishi xalqaro darajadagi global o‘lchamlarga ega bo‘lishi kerak.

Soxta pul yoki qimmatli qog‘ozlarni ishlab chiqarish, saqlash, tashish yoki sotish bilan bog‘liq jinoyat ishlarini tekshirish uchun o‘tkazilgan ekspertiza natijalari muhim ahamiyatga ega. Banknotalar va qimmatli qog‘ozlarni tekshirish, qoida tariqasida, suddan oldingi (suddan tashqari) va sud jarayonida bo‘lishi mumkin. Suddan oldingi ekspertiza mutaxassis fikrini tayyorlash

bilan jismoniy va yuridik shaxslarning iltimosiga binoan amalga oshiriladi. Sud ekspertizasi sud qarori, dastlabki so‘rovni o‘tkazayotgan tergovchi yoki shaxsning qarori, undan keyin ekspert xulosasi tayyorlash asosida buyuriladi va amalga oshiriladi. Qalbaki banknotalar va qimmatli qog‘ozlarni ishlab chiqarish bilan bog‘liq hollarda, izshunoslik ekspertizasi tayinlanishi mumkin.

Bunday holda, uning obyektlari soxta banknotalar va qimmatli qog‘ozlarni ishlab chiqarilgan materiallar, qurilmalar, qurilmalarning izlari bo‘lishi mumkin. Soxta banknotalar va qimmatli qog‘ozlarni ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq holatlarni tekshirishda qo‘l bilan yozilgan matn yoki imzoni ijro etgan shaxsni aniqlash maqsadida xatshunoslik ekspertizasi tayinlanishi mumkin. Bu gumonlanuvchining qo‘l bilan yozilgan hujjatlari, yozuvlari, xatlari borligi aniqlangan taqdirda amalga oshiriladi. Hujjatlarni texnik ekspertizadan o‘tkazish – hujjatni yaratish usulini, unda o‘zgarishlar mavjudligini va ularni amalga oshirish usullarini belgilash, ko‘rinmas yozuvlarni aniqlash, hujjatni ishlab chiqarishda ishlatiladigan obyektlar va materiallarni aniqlash sud ekspertiza turi. Hujjatlarni texnik-sud ekspertizasi, odatda, banknota va qimmatli qog‘ozlarni tekshirish vaqtida tayinlanadi. Masalaning texnik tomonini o‘rganadi va ushbu soxta pul maxsus texnika va materiallar yordamida yuqori texnologiyali bosma uskunalarda chop etilganmi, degan savolga javob beradi.

Ushbu ekspertiza negizida shunday vosita va usullar borki, ular kriminalistika tomonidan ishlab chiqilgan hamda kimyo, fizika, matbaa, tabiiy va texnika fanlaridan foydalangan holda rivojlanib kelmoqda.

**ADABIYOTLAR**

1. Гюльметова А.Р. Особенности проведения экспертизы денежных знаков и ценных бумаг / А.Р.Гюльметова, З.А.Джумагишиева. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2021. - № 50 (392). – С. 188-191. – URL: <https://moluch.ru/archive/392/86409/> – Дата обращения: 28.02.2024.
2. Международная конвенция по борьбе с подделкой денежных знаков (Вместе с “Протоколом”) (Заключена в г. Женеве 20.04.1929) // Конвенция ратифицирована ЦИК Союза ССР 03.05.1931, ратификационная грамота сдана на хранение 13.07.1931.
3. Авдошин В.В. Определение подлинности и платежеспособности денежных знаков / Методич. пособ. - М.: Интер. Крим-пресс, 2017. – 216 с.
4. Белоусов А.Г. Денежные билеты, бланки ценных бумаг и документов. Определение подлинности / Учеб.-методич. пособ. – М.: Интер.Крим-пресс, 2016. – 128 с.
5. Ионов В.М. Технологии обработки денежной наличности / Бизнес-энциклопедия. – М.: Московский финансово-промышленный университет «Синергия», ЦПСиР, 2012. – 544 с.
6. Кулев В.К. История фальшивомонетничества : науч. статья. – Пенза: Пензенский государственный университет, 2014. – Т. 2. – С. 296-298.
7. Пономарева Н.С. Современное фальшивомонетничество требует совершенствования международно-правовых документов // Международное уголовное право и международная юстиция. – М.: Юрист, 2015, № 4. - С. 24-27.
8. Прокофьева М.А. Мировой опыт борьбы с поддельными денежными знаками: статья в журнале “Новая наука: от идеи к результату”. – Уфа: ООО “Агентство международных исследований”, 2016. - № 12-1. – С. 38-40.
9. Суриков И.Е. Где были помещены законы Солона : науч. статья: журнал “Вестник древней истории”. – М.: Федеральное государственное унитарное предприятие “Академический научно-издательский, производственно-полиграфический и книгораспространительский центр “Наука”, 2016. - Т. 76. - № 4. – С. 889-901
10. Фортунатов В.В. История / Учеб. пособ. - СПб.: Питер, 2012. - 464с.
11. Шаталов А.С. Фальсификация, подделка, подлог / Шаталов А.С., Ваксян А.З. – М.: Лига Разум, 1999. – 158 с.

# JINOYATLARNI PROGNOZLASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI SHARHI

**YESHMURATOV**  
*Sherali Baxitovich,*  
**Yakkasaroy tumani IIO FMB**  
**Ekspert-kriminalistika bo‘limi**  
**katta eksperti, podpolkovnik**

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ichki ishlar organlari faoliyatida muhim bo‘lmish jinoyatlarni oldindan taxmin qilish, ya’ni prognozlashtirish masalalari muhokama etiladi hamda xorijiy yutuqlar ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** Dejaview, RSM, jinoyat, metod, prognoz.

## АННОТАЦИЯ

В статье обсуждаются вопросы прогнозирования преступлений, которые важны в деятельности органов внутренних дел, а также рассматриваются зарубежные достижения.

**Ключевые слова:** Dejaview, RSM, преступление, метод, прогноз.

## ANNOTATION

This article discusses the issues of predicting and forecasting crimes, which are crucial in the activities of internal affairs bodies, and examines foreign achievements in this field.

**Key words:** Dejaview, RSM, crime, method, forecast.

## KIRISH

*Jinoyatchilikni bashorat qilish* – jinoyatchilikning kelajakdagi holatini ifodalovchi eng umumiy ko‘rsatkichlarni aniqlash hamda jinoyatchilik, shuningdek, unga qarshi chorallarning turli tomonlarini aniqlash; jinoyatchilik sabablari va shartlarini kerakli yo‘nalishga tomon o‘zgartirish usullarini ishlab chiqish. Jinoyatchilik bilan kurash olib borishni barqarorlashtirish usullarini ishlab chiqib, kelgusida qanday, xususan qancha jinoyat sodir bo‘lishini bashorat qilishni nazarda tutadi. Umuman olganda, bashorat qilish – bu dastlabki parametrlar (tajriba, aniqlangan naqshlar, tendensiyalar, munosabatlar, mumkin bo‘lgan istiqbollar va boshqalar) asosida kelajakni oldindan belgilash jarayonidir. Ilmiy asosda bashorat inson hayotining turli sohalarida qo‘llaniladi: iqtisodiyot, sotsiologiya, demografiya, siyosatshunoslik, meteorologiya, genetika va boshqa ko‘plab sohalarda. Insonning kundalik hayotida bashorat qilishni qo‘llashning eng yorqin namunasi – ob-havo ma’lumoti. O‘z navbatida, prognozlardan ilmiy asosda samarali foydalanish ma’lum metodlarni, shu jumladan bir qator bashorat qilish usullarini qo‘llashni talab qiladi. Kriminologiyada prognozlar tayyorlash alohida qiziqish uyg‘otadi, bunda jinoyatchilikning kelajakdagi holati, uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar kriminalistik proqnoz ishlab chiqiladi. Bu jinoyatchilikning kelajakda rivojlanishini (o‘zgarishini) tavsiflovchi eng umumiy ko‘rsatkichlarni belgilash, shu asosda nomaqbtlar tendensiyalar va qonuniyatlarni aniqlash, ularni to‘g‘ri yo‘nalishga o‘zgartirish yo‘llarini topish imkonini beradi.

Kriminologik prognozlashning bir necha turi mavjud: jinoyat, jinoyatchi shaxsi, jinoyat omillari va oqibatlari, jinoyatchilikka qarshi kurash chorallari. Shuningdek, ular kriminologiya fanining rivojlanishini bashorat qilish, jinoyatni bashorat qilish va individual jinoiy xatti-harakatni bashorat qilishni ajratib turadi. Ijtimoiy-iqtisodiy prognozlash jamiyat taraqqiyoti strategiyasi

va taktikasida muhim ilmiy omil hisoblanadi. Binobarin, tadqiqot savollari va prognozlash usullari juda dolzarbdir. Prognozlashning dolzarbligi muammosi mintaqaviy boshqaruv, inventarizatsiyani nazorat qilish, ishlab chiqarishni rejalashtirish, moliyaviy rejalashtirish va boshqa sohalarda qaror qabul qilishda xavf darajasi (masalan, moliyaviy risklar) bilan belgilanadi.

## ASOSIY QISM

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika faoliyatini zamonaviy ilm-fan yutuqlarini keng joriy etgan holda yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 8-fevraldagagi PQ-122-sون qarori va Vazirlar Mahkamasining “Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida” 2023-yil 21-fevraldagagi 73-сон qaroriga muvofiq [1], shuningdek, ekspert-kriminalistika faoliyatini takomillashtirish, huquqbazarliklarga qarshi kurashning texnik-kriminalistik ta’minoti samaradorligini oshirish va jinoyatlarni “issiq” izidan ochish, so‘nggi yillarda mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga, shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, uning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish hamda ushbu sohada xalqaro standartlar va ilg‘or xorijiy tajribani joriy etish, jinoyat sodir etishda zamonaviy texnologiyalar va usullarni qo‘llash butun dunyoda tobora ommalashib borayotganligini inobatga olib, shaxsning ijtimoiy xavfli qilmish uchun aybliligin sudda ilmiy-texnik jihatdan asoslangan ishonchli dalillar bilan isbotlash jarayonlarini yanada takomillashtirish, shuningdek, zamonaviy fan va texnikaning ilg‘or yutuqlarini, raqamli texnologiyalarni, kriminalistikaning yangi ilmiy usul va vositalarini qo‘llash mexanizmlarini joriy etish, zamon talablariga mos avtomatlashtirilgan kriminalistik axborot-qidiruv tizimlari va axborot bazalarini yaratish, axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan huquqbazarliklar bo‘yicha raqamli ekspertizaning imkoniyatlaridan keng foydalanish, bu borada kriminalistik hisoblarni yuritish; shaxsga doir biometrik ma’lumotlar (genomga oid axborot, yuz qiyofasi,

qo'l barmoqizlari) asosida avtomatlashtirilgan identifikasiya tizimlarini qo'llash sohasini muvofiqlashtirish mexanizmlarini tahlil qilish belgilandi.

Janubiy Koreyalik tadqiqotchilar guruhi sun'iy intellekt va real vaqt rejimida videokamera yozuvlari va ma'lumotlaridan foydalangan holda jinoiy harakatlarni aniqlash va bashorat qila oladigan eng yangi texnologiyani yaratdi. Yangi tizim videokameralarining an'anaviy rolini sezilarli darajada kengaytirib, ularni nafaqat kuzatuv vositasi, balki huquqbazarliklar profilaktikasining samarali vositasiga aylantiradi.

Elektron va kommunikatsiyalar ilmiytadqiqot instituti(ETRI) yaqinda "Dejaview" potensial jinoyatlar signallarini aniqlash va ularning sodir bo'lish ehtimollarini bashorat qilish uchun videotasvirlar va videoyozuvlar, jinoyatlar statistikasi va joylashuv texnologiyalaridan foydalanadigan texnologiyaga barham bermoqda.

"Dejaview" tizimining asosiy yondashuvi jinoyatlarning ko'pincha ma'lum bir belgilari bo'yicha – turi, joyi, vaqt va sodir etilish usullari bo'yicha takrorlanishiga asoslanadi. Ushbu yangi tizimni yaratish payti mazkur takrorlanadigan belgilarni aniqlashga e'tibor qaratiladi. Mazkur

yangi tizim jinoyat sodir bo'lish ehtimolini bashorat qilish uchun mavjud sharoitlarni oldingi voqealar ma'lumotlari bilan taqqoslaydi. "Dejaview" texnologiyasini qo'llash maqsadi va tahlil qilish usuliga qarab ikkita asosiy guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh – bu vaqt va makonga e'tibor qaratadigan jinoyatlarni bashorat qilish texnologiyasi. U vaqt va joyga qarab jinoiy faoliyatning yuzaga kelish ehtimolini tahlil qiladi. Misol uchun, agar oldin tunda jinoyat sodir etilgan uzoq va tinch hududda shunga o'xshash holatlar bo'lsa, tizim hodisaning takrorlanish xavfi yuqori ekanligini aniqlaydi. Shunday qilib, bunday joylarda xavfsizlik choralarini kuchaytirish orqali jinoyatlarning oldini olishga yordam beradi.

Janubiy Koreyaning Seul shahri Sechigu tumani ma'muriyati bilan institut hamkorligida Jinoyatni bashorat qilish xaritasi (RSM) ishlab chiqildi. Uni yaratish uchun 2018-yildan to hozirgi davrgacha sodir bo'lgan turli hodisalar qayd etilgan 32 mingdan ziyod video tahlil qilindi. Mazkur xarita jinoyat sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hududlarni aniqlash uchun vaqt, joy va hodisa turiga qarab zonalarga bo'lingan. Har bir zona uchun xavf darajasi real vaqt rejimida ko'rsatiladi, bu esa videokuzatuv operatorlariga



## XULOSA

eng xavfli hududlarga e’tibor qaratish imkonini beradi.

RSMdan aniqlangan ma’lumotlarni tekshirish va tahlil qilish natijasida jinoyatlarni oldindan bashorat qilish aniqligi 82.8%ni tashkil qildi.

“Dejaview” tizimining ikkinchi guruhining asosiy texnologiyasi retsidiv jinoyatlarni bashorat qilishga qaratilgan. Bu nazorat ostidagi shaxslarning harakati va xulq-atvorini tahlil qilish asosida qayta jinoyat sodir etish xavfini baholash imkonini beradi. Hozirgi paytda elektron monitoring tizimi faqat joylashuv ma’lumotlariga asoslanib, bunday shaxslarning harakatini buzish holatlarini qayd etadi. ETRI texnologiyasi nafaqat insonning harakatini kuzatish, balki uning xulq-atvorini tahlil qilish imkoniyatiga ega, bu esa unga takrorlanish xavfini aniqroq aytish imkonini yaratadi.

Kelajakda ETRI “Dejaview”ni turli xil xavfsizlik tizimlariga integratsiyalash uchun yaxshilash rejalashirilmoqda. Rejalarda aeroportlar, energetika va ishlab chiqarish korxonalarini kabi asosiy infratuzilmalarni himoya qilish uchun maxsus yechimlarni ishlab chiqish, shuningdek, yirik tadbirlar va shaxsiy himoya xizmatlari uchun xavfsizlik tizimlarini yaratish yo‘lga qo‘yiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, real vaqt rejimida videokuzatuv kameralaridan keladigan vizual ma’lumotlarni aniq tahlil qila oladigan axborot texnologiyalarini yanada rivojlantirish talab etiladi. Yig‘ilgan ma’lumotlar asosida xavfli vaziyatlarning oldini olish va jinoyatlarning oldini olish imkonini beruvchi tizimlar yaratiladi. Nazorat ostidagi shaxslarning xulq-atvorini nazorat qilish uchun elektron monitoring tizimi ishlab chiqish ham rejalashtirilgan. “Dejaview” texnologiyasidan tijorat maqsadlarida foydalanish kelasi yil oxirlariga rejalashtirilgan. ETRIning sun’iy intellekt va xavfsizlik konversiyasi bo‘limi katta ilmiy xodimi Kim Gunning so‘zlariga ko‘ra, institut jinoyatlarning oldini olish uchun videokuzatuv kameralari ma’lumotlaridan foydalanadigan video xavfsizlik texnologiyasini yaratdi. Kelajakda bu tizim nafaqat jinoyatlarning proqnozi, balki jamoat xavfsizligi tizimini nazorat qilishda muhim o‘rin tutadi.

Shuningdek, ushbu texnologiyani joriy etish bilan bir vaqtida jinoyatlarni aniqlash va uning sodir etilishini bashorat qilish uchun mahalliy hokimiyat va tashkilotlar bilan hamkorlik ta’milnadi.

## ADABIYOTLAR

1. Vazirlar Mahkamasining “Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida” 2023-yil 21-fevraldaggi 73-son qarori.
2. “Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonun// 2014.
3. “Huquqbazarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta’minalash sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarori // 2019.
4. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hay’atining kengaytirilgan yig‘ilishidagi Prezident Shavkat Mirziyoyevning nutqi // 2021.
5. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

## ANNOTATSIYA

**JINOYAT ISHLARI  
BO'YICHA MAXSUS  
BILIMLARDAN  
FOYDALANISHNING  
SUD EKSPERTIZAGA OID  
JIHATLARI**

*MANSUROV  
Oybek Olim o'g'li,  
X.Sulaymonova nomidagi  
Respublika sud ekspertiza markazi  
Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti  
tayanch doktoranti*

Jinoyatni aniqlash va unga qarshi kurashda davlat va jamiyat foydalanadigan turli vosa va usullar orasida eng samaradori bu maxsus bilimlarni qo'llash, sud ekspertizasi imkoniyatlaridan keng foydalanish huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** ekspert, maxsus bilim, xatshunoslik, ballistik, trasologik, psixologik, matn, imzo, dalil, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudyu.

## АННОТАЦИЯ

Среди различных средств и методов, используемых государством и обществом в выявлении и борьбе с преступностью, наиболее эффективным является применение специальных знаний. Широкое использование возможностей судебной экспертизы является одним из важных факторов повышения эффективности деятельности правоохранительных органов и судов.

**Ключевые слова:** эксперт, специальные знания, почерк, баллистика, трассология, психология, текст, подпись, доказательство, дознаватель, следователь, прокурор, судья.

## ANNOTATION

Among the various means and methods used by the state and society in the detection and fight against crime, the most effective is the application of special knowledge, the widespread use of forensic expertise opportunities, which is one of the important factors in increasing the effectiveness of law enforcement agencies and courts.

**Key words:** expert, special knowledge, handwriting, ballistic, traceological, psychological, text, signature, evidence, investigator, prosecutor, judge.

Avvalambor “maxsus bilim” tushunchasi haqida ma'lumot bersak, maxsus bilim – bu jinoyat ishini qo'zg'atish, dastlabki tergov va sud muhokamasi maqsadlari uchun qo'llaniladigan va jinoyatga aloqador faktik ma'lumotlar, dalillarni zamonaviy tadqiqot usullari orqali topish, toplash, baholashni amalga oshirishda foydalaniladigan fan, texnika, kasb-hunar sohasidagi, ya'ni tor sohadagi professional bilimdir.

V.K.Lisichenko, V.V.Sirkalilarning ta'kidlashicha, “maxsus bilimlar – bu mutaxassis sifatida jalb qilingan shaxsning kasbiy tayyorgarligi yoki ma'lum bir mutaxassislik bo'yicha ishlashi natijasida olingan, umuman olganda, yuridik jarayonda ma'lum bo'lмаган ilmiy, texnik va amaliy bilimlar” deb hisoblanadi<sup>1</sup>.

Maxsus bilimlar – subyektning tegishli sohadagi nazariy bilimlar tizimiga asoslanib, amaliy faoliyat jarayonida maxsus tayyorgarlik yoki kasbiy tajriba orqali egallagan bilimlardir<sup>2</sup>.

Sud ekspertizasi texnologiyalarning vositalari, usullari va tabiiy ilmiy hamda texnik bilimlarga asoslanib ifodalanganligi bois, yuridik kasbga ega bo'lgan shaxslar ushbu ma'lumotlarga ega bo'lmasisligi mumkin. Shuning uchun sud ekspertiza texnologiyalari haqidagi bilimlar, albatta maxsus toifaga kiradi.

Bilamizki, maxsus tekshirishlar orasida yetakchi o'rinni so'zsiz sud ekspertizasi egallaydi.

Jinoyatlarning ijtimoiy xavfli qilmishiga qarshi kurashda odatiy bo'lgan xatshunoslik, ballistik, trasologik, psixologik, tibbiy ekspertizalardan ushbu yo'nalihsidagi maxsus bilimlardan samarali foydalanilsa-da, insoniyat xavfsizligi yo'lida ularning yangi ko'rinishlari DNK, siyosatsunoslik-lingvistik, odorolik, ekologik, kompyuter ekspertizalari ham jinoyatlarni fosh etishning muhim usuliga aylanib ulgurdi.

<sup>1</sup> Лисиченко В.К., Циркаль В.В. Использование специальных знаний в следственной и судебной практике. – Киев, 1987. – С.22.

<sup>2</sup> Криминалистика: Учебник для вузов / Под.ред. Р.С.Белкина. 2-е изд., перераб. – М., 2003. – С.399.

Avvalambor, maxsus bilimlardan foydalananishning turli shakllari orasida faqat ekspert xulosasi protsessual qonunlarda alohida mustaqil dalil manbayi sifatida tan olinadi, bularni Jinoyat protsessual kodeksi, Fuqarolik protsessual kodeksi, Iqtisodiy protsessual kodekslarda ko'rish mumkin.

Bugungi kunda fan va texnikaning zamonaviy yutuqlaridan keng foydalanmasdan turib odil sudlovni ta'minlovchi idoralarning samarali faoliyatini amalga oshirish qiyin hisoblanadi.

Ushbu holatni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksida ekspertizaga oid, ekspert tushunchalarining to'rtadan biri aynan maxsus bilimlarga oid element mavjud bo'lgan normalardan tashkil topgan.

Ushbu holat esa maxsus bilimlarga oid normalarni tadqiq etishni taqozo qiladi. Qolaversa, birgina ekspertiza institutining jinoyat protsessi maqsadlari uchun 100 ga yaqin turidan O'zbekistonda foydalanish imkoniyati mayjudligi bu yo'nalihsining istiqbolidan darak beradi.

Ekspert xulosalari ilmiy ma'lumotlar va ilg'or texnika yutuqlariga asoslangandir. Shu sababli, ular tekshirilayotgan voqeа holatlarini baholashda boshqa turdagи dalillarga nisbatan ma'lum ustunlikka ega. Ekspert xulosalari boshqa dalillardan o'zining xolisligi, ashyoviy dalillar tahlili chuqur va har tomonlama olib borilishi, olingan natjalarni qayta tekshirish imkoniyati bilan ajralib turadi.

Sodir bo'lgan jinoyatni tergov qilish jarayonida, shuningdek, sud muhokamasida tekshiruv vaqtida ish uchun ahamiyatlil bo'lgan qator holatlar yuzasidan maxsus bilim, ya'ni fantexnika, san'at yoki o'z kasbini qo'llab tekshiruv o'tkazish va shu asosda tegishli ma'lumotlarni olish zarur. Bunday tekshiruvlar maxsus bilimga ega bo'lgan shaxslar tomonidan o'tkaziladi.

O'zbekistan Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 172-moddasida “Ish uchun ahamiyatlil holatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni fan, texnika, san'at yoki kasb sohasi bo'yicha bilimi bo'lgan shaxs o'tkazadigan maxsus tekshirish orqali olish mumkin bo'lganda ekspertiza tayinlanadi”<sup>3</sup>, deya ta'kidlab o'tilgan. Misol tariqasida oladigan bo'lsak, jinoyat sodir bo'lgan joyda topilgan qo'l barmoq izi kim tomonidan qoldirilganligi, otilgan o'q yoki gilza qanday

<sup>3</sup> <https://lex.uz/docs/-111460>

o'q otish qurolidan otilganligi, ashayoviy dalil bo'lgan hujjatning qo'lyozma matni, imzolari, kim tomonidan yozilganligi kabi masalalarni hal qilishga to'g'ri keladi.

**Ekspert** (lot. expertus – tajribali; ing. expert) – qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sud eksperti sifatida tayinlangan, xulosa berish uchun fan, texnika, san'at yoki kasb sohasi bo'yicha maxsus bilimga ega bo'lgan jismoniy shaxs<sup>4</sup>. Protsessual qonunlarda ekspertizaning asoslari va shartlari, ekspertning huquq va majburyatlari sud ekspertizasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunida ko'rsatib o'tilgan<sup>5</sup>.

Yuridik adabiyotlarda va ensiklopediyalarda maxsus bilimlardan foydalanish, maxsus bilim tushunchalari yoritilmagan bo'lib, ushbu holat amaliyot vakillari uchun maxsus bilim tushunchasini anglashda ayrim qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Maxsus bilim tushunchasi hozirgi kunda ma'lum bir sohani chuqur tushunish va ushbu yo'nalishda faoliyat yuritish imkoniyatini beradigan bilim hisoblanadi. Maxsus bilim umumiylaridan farqlanib, ma'lum bir yo'nalishda faqatgina cheklangan insonlar ega bo'lgan bilim doirasidir. Nazariyada maxsus bilim tushunchasi aniq yoritilmaganligi bois amaliyotda ekspertiza tayinlash va mutaxassisni jalb qilish masalasida turli xil yondashuv kuzatiladi<sup>6</sup>.

Maxsus bilimlar ko'lamli, tuzilishi, xarakteri ekspertiza turlarini belgilashda va ularning imkoniyatlarini yaxshi bilish, ekspertlarning faoliyati chegaralarini aniqlash imkoniyatini bergani bois ushbu tushunchani to'liq, kengroq bayon etish lozim.

O'zbek tilining izohli lug'atida "maxsus" tushunchasi (arabcha – alohida, o'zgacha, biror sohaga oid) biror ish yoki narsaga xos bo'lgan, biror ish yoki maqsad uchun belgilangan" sifatida ta'riflangan.

Maxsus deganda – faqatgina ma'lum bir yo'nalish, tor soha doirasidagi chuqur bilim, uzoq yillik tajriba, tor mutaxassislikdagi ma'lumotni keng anglash tushuniladi. Ya'ni maxsus bilim egasi olamni o'zining maxsus mutaxassislik yo'nalishi, bilimi va tajribasi orqali filtrdan

<sup>4</sup> O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. – Toshkent: Adolat, 2009.

<sup>5</sup> <https://lex.uz/acts/-1633102>

<sup>6</sup> Kriminalistika va ekspertiza. Darslik. – Toshkent, 2020.

o'tkazadi. Ya'ni umumiylidandan maxsusga va maxsusdan umumiya qarab tadqiqot o'tkazadi.

Ta'kidlash lozimki, jinoyat ishlari bo'yicha ekspertiza alohida maqomga ega bo'lgan ekspertiza turi bo'lib, u maxsus bilimlarga asoslangan tadqiqotda namoyon bo'lishi bilan ham e'tiborlidir. Jinoyat ishlari bo'yicha ekspertiza boshqa turdag'i ekspertizalardan o'zining tayinlanish va o'tkazish tartibi, Jinoyat-protsessual kodeksida qat'iy va aniq belgilanganligi bilan farqlanadi.

Maxsus bilim belgilari, mezonlari masalasi ham o'rganilishi lozim bo'lgan yo'nalishlardan biri bo'lib, quyidagilar maxsus bilim mezonlari hisoblanadi: 1) maxsus ta'lim olish jarayonida olingan bilimlar; 3) bilim, ko'nikma, qobiliyat majmuasi; 4) Jinoyat protsessual qonunchilik talablaridan kelib chiqib, HMQOlар faoliyatiga yordam berish uchun qo'llaniladigan bilimlar.

Maxsus bilimlarga quyidagilar kirmaydi:  
1) umumfoydalanishdagi, hammaga ma'lum ma'lumotlar; 2) metodologik ma'lumotlar, ya'ni fanning nazariy asoslarini tashkil qiluvchi bazaviy tushunchalar; 3) surishtiruvchi, tergovchi, sud biladigan bilim.

Sud-tibbiy ekspertizalari O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligining Sud-tibbiy ekspertizasi Bosh byurosi va uning bo'limlari, Mudofaa vazirligiga qarashli sud-tibbiy ekspertizasi laboratoriyasida, insonlarning ruhiy holatini aniqlash, ularning o'z xattiharakatlarini tushunishi va ularga javob berish imkonii masalasida o'tkaziladigan sud-psixiatrik ekspertizalar Sog'lijni saqlash vazirligi tizimiga kiruvchi psixiatrik davolash muassasalarida bajariladi<sup>7</sup>.

Xususan, sud ekspertizalari turli ashayoviy dalillarni tekshirish, ish holatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati tizimidagi ekspertiza muassasalarida bajariladi.

Hozir fan va texnika yutuqlariga asoslangan sud ekspertizaning rivojlanish darajasi turli ashayoviy dalillarni tekshirish orqali ish uchun muhim ahamiyatga ega holatlarni va aniq ma'lumotlarni olishga yo'l ochib beradi. X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazida bugungi kunda 54 ta ekspert

<sup>7</sup> Psixiatriya yordami to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni 12.05.2021-yildagi O'RQ-690-son <https://lex.uz/docs/-5422209>

mutaxassisligi bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish tashkil qilingan.

Ushbu tadqiqotlar asosida voqeа joyidan topilgan izlar, ashyoviy dalillar, qonunbuzarlik bilan bog'liq bo'lган boshqa obyekt va hujjatlar bo'yicha jinoyat obyekti, u sodir etilgan vaqt, joyi, jinoyatchining harakatlari, shaxsi, jinoiy harakat natijasida keltirilgan zarar, jinoyatni sodir etishga imkon yaratgan shart-sharoitlar haqida aniq ma'lumotlarni olish mumkin. Shuni ham aytib o'tish joizki, ko'p vaziyatlarda, ayniqsa, xufyona, guvohsiz sodir etilgan qonunbuzarliklar yuzasidan ekspert xulosalari ish bo'yicha asosiy dalil vazifasini bajaradi.

Masalan, O'zbekistonda 2000-yilda O'rta Osiyoda birinchi bo'lib tashkil qilingan odam DNKsi sud biologik ekspertizasi yordamida shu vaqtgacha yechilishi muammo bo'lган otalikni belgilash masalasini deyarli 100 foiz ishonchlilik bilan hal etishga erishildi. Bu yuqori texnologik tadqiqotlar eng og'ir jinoyatlar: qotillik, zo'rlash, terrorchilikni ochishda katta ahamiyat kasb etmoqda<sup>8</sup>.

Huquqiy tartibga solish nuqtayi nazaridan, maxsus bilimlar ikki shaklda qo'llanilishi mumkin, bunda protsessual hamda protsessual bo'lmanan, Protsessual – Jinoyat protsessual kodeksi bilan tartibga solinadigan va ularning natijalariga bog'liq bo'lган ishlarda.

**Protsessual bo'lmanan** – Jinoyat protsessual kodeksi bilan tartibga solinmagan, natijalari dalil maqomiga ega bo'lmanan arizalar, shunga o'xshagan ishlarda.

<sup>8</sup> <https://sudex.uz/?p=6973>

Jinoyat ishi uchun muhim bo'lgan ma'lumotlar deganda, qonuniy manbalardan olingan, jinoyat hodisasi haqida xabar beruvchi, jinoyat ishida dalil sifatida foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumotlar.

Jinoyat ishlari bo'yicha ekspertiza o'tkazishda maxsus tekshirish deganda, fan, texnika, san'at va kasb-hunar sohalarida uzoq vaqt davomida mashg'ul bo'lish natijasida hosil bo'lgan ko'nikmalarga tayanadigan faoliyat tushuniladi.

Har qanday maxsus bilimlarga tayangan tadqiqot ham ekspertiza maqomini olavermaydi, aksincha, faqatgina jinoyat ishi yurituviga aloqador va ma'lum bir yuridik maqsadlarni ko'zlagan tadqiqotlarga ekspertiza maqomini olishi mumkin.

Ekspertiza ikki xil xususiyatga ega bo'lib, ya'ni u bir tomonidan ilmiy (texnik yoki boshqa turdag'i) tadqiqot, ikkinchi tomonidan esa daliliy faktlarni aniqlashga qaratilgan protsessual harakatdir.

Ushbu tergov harakatining o'ziga xosligi, ekspertiza tayinlash tergovchi yoki suda vakolatiga taalluqli bo'lsa, ekspertiza tekshiruvini o'tkazish va xulosa berish ekspert zimmasiga yuklatilgan, uning xulosasini baholab, undan foydalanish masalasini hal etish esa, yana tegishinchha tergovchi yoki sud ixtiyoridaligidadir.

Ekspertizaning quyidagi xususiyatlarini alohida ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq: jinoyat ishi bo'yicha taqdim etilgan ma'lum bir obyekt yoki predmetni tadqiq qilishda maxsus bilimlarning qo'llanilishi; tadqiqotning vakolatli shaxs (surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, suda) qarori yoki ajrimiga muvofiq maxsus subyekt, ya'ni ekspert tomonidan amalga oshiriladi.

## ADABIYOTLAR

- Лисиченко В.К., Циркаль В.В. Использование специальных познаний в следственной и судебной практике. – Киев, 1987. – С.22.
- Криминалистика: Учебник для вузов / Под.ред. Р.С.Белкина. 2-е изд., перераб. – М., 2003. – С.399.
- <https://lex.uz/docs/-111460>
- O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. – Toshkent: Adolat, 2009.
- <https://lex.uz/acts/-1633102>
- Kriminalistika va ekspertiza. Darslik. – Toshkent, 2020.
- Psixiatriya yordami to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni 12.05.2021-yildagi O'RQ-690-son <https://lex.uz/docs/-5422209>
- <https://sudex.uz/?p=6973>

# ICHKI ISHLAR ORGANI XODIMINING QONUNIY TALABIGA BO'YSUNMAGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNI BELGILOVCHI QOIDA VA NORMALARNING RETROSPEKTIV TAHLILI

NASILLOYEV  
*Abdullo Abror o'g'li,*  
*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar  
vazirligi Akademiyasi*  
*"Ma'muriy huquq" kafedrasi katta  
o'qituvchisi*

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kunda ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya va jamoat xavfsizligini ta'minlovchi boshqa tarkibiy tuzilmalar xodimlari va harbiy xizmatchilarining talablariga o'ysunmaganlik yoki ularga qarshilik ko'rsatganlik uchun javobgarlik masalalarining tarixiy shakllanishi va uning hozirgi kundagi ahvoli, shuningdek, javobgarlikni belgilovchi mazkur normalarni takomillashtirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ichki ishlar organlari, bo'ysunmaslik, javobgarlik, qonuniy talab, jazo choralar, kodeks.

## АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается история формирования вопросов ответственности за неповиновение или сопротивление требованиям сотрудников органов внутренних дел, Национальной гвардии и других структур, обеспечивающих общественную безопасность, а также их текущее состояние. Также обсуждаются вопросы совершенствования норм, устанавливающих данную ответственность.

**Ключевые слова:** органы внутренних дел, неповиновение, ответственность, законные требования, меры наказания, кодекс.

## ANNOTATION:

This article discusses the historical formation of liability issues for non-compliance or resistance against the requirements of employees of internal affairs agencies, the National Guard, and other public safety structures, as well as their current state. It also addresses the improvement of the norms that establish this liability.

**Key words:** internal affairs agencies, non-compliance, liability, legal requirements, punitive measures, code.

Ichki ishlar organi xodimining qonuniy talabiga bo'yusunmaslik, shuningdek, uning faoliyatiga qarshilik ko'rsatish uchun javobgarlikni belgilovchi qoida va normalarning O'zbekiston hududida tarixiy shakllanishini ko'plab olimlar ushbu tuzilmaning tarkib topishi va shakllana borishiga ko'ra turli davrlarga bo'lib o'rganishgan. Soha olimlaridan B.A.Matlyubov [1, b. 22] va M.T.Turg'unovlar [2, b. 3-9] mazkur normalar paydo bo'lishini miloddan avvalgi II mingyllik oxiri – I mingyllik boshlarida yurtimiz hududida tarqala boshlagan zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi Avestoga bog'lashadi. A.A.Ermetov esa hozirgi ko'rinishdagi ichki ishlar organlarining huquq va vakolatlari 1924-yil oxirlarida O'rta Osiyo respublikalarida o'tkazilgan milliy hududiy chegaralanishdan so'ng tartibga solingeninini ta'kidlaydi [3, b. 14]. Tarixchi olim Q.B.Qodirov esa, O'zbekistonning mustaqillik davridagi ichki ishlar organlari faoliyati va uni tartibga soluvchi qonun hujjatlarini alohida davrlarga bo'lib o'rganish lozimligini ta'kidlaydi [4, b. 10]. Mazkur olimlarning fikrlarini o'rganish natijasida ichki ishlar organi xodimining qonuniy talabiga bo'yusunmaslik, shuningdek, uning faoliyatiga qarshilik ko'rsatish uchun javobgarlikni belgilovchi qoida va normalarning O'zbekiston hududida tarixiy shakllanish davrini quyidagi beshta bosqichga ajratgan holda tadqiq etish maqsadga muvofiq degan xulosaga kelindi.

1. Islom dini va shariat qoidalari kirib kelgungacha bo'lgan davr. Bu davr hozirgi O'zbekiston hududida ilk davlatlar (Yunon-Baqtriya, Xorazm va Parfiya va b.) tashkil topgan davrdan boshlab islam dini yoyilishi va shariat qonun-qoidalari joriy etilgungacha bo'lgan vaqtini o'z ichiga oladi. Bu davr ba'zi manbalarda zoroastrizm davri deb ham atalib, mazkur davrning asosiy huquqiy manbasi bo'lgan Avestoda jinoyatlarni tasniflashga oid qoidalari keltilrilgan.

Huquqshunos olim H.Boboyevning ta'kidlashicha, O'zbekiston hududida islam dini kirib kelib, shariat qoidalari o'rnatilgunicha jinoyat va jazo masalalari Avesto kitobida tartibga solingenan [5, b. 51]. Masalan, Avestoning Vandidot qismida jinoyat (huquqbuzarlik)larni sodir etgan shaxslarga nisbatan jazo chorasini qo'llash masalalari ham tartibga solingenan. Jumladan, Avestodan zardushtiylik ta'lilotida quyidagi jazo tizimi bo'lganligini ko'rish mumkin:

- a) o'lim jazosi; b) qamoq; d) tan jazosi; e)

gunohini yuvish; f) xun olish [5, b. 52].

Shuningdek, Avestoda zardushtiylar aqidasi bo'yicha shaxsga qarshi huquqbuzarliklar uchun jazo tayinlashda darra urish jazosidan keng foydalilanigan. Xususan, Avestoning Vandidot bo'limi 4-fargard (bob)ida kimda-kim birovni uring, unga shikast yetkazsa, ushbu kishi birinchi bor o'ttiz marta qamchi bilan, o'ttiz marta xipchin (xivich) bilan savalanishi, ikkinchi bor ellik marta qamchi bilan, ellik marta xipchin bilan savalanishi, uchinchi bor yetmish marta qamchi bilan, yetmish marta xipchin bilan savalanishi ko'rsatilgan.

Shu bilan birga, zardushtiylar aqidasi bo'yicha shaxsga jazo tayinlashda Oliy sud – Zardushtiy oqsoqollar kengashi ham alohida nufuzga ega bo'lib, qadimgi Sopollitepada sakkizta oqsoqol birligidan iborat bo'lgan Oqsoqollar kengashi qabul qilgan qarorlar xavfsizlik va huquq-tartibotni ta'minlashda muhim o'rinn tutgan [6, b. 9].

Avestoni o'rganish natijasida shunday xulosalarga kelish mumkinki, qadimgi davrlarda hozirgi O'zbekiston hududidagi davlatlarda zo'ravonlik, kohinlar va davlat amaldorlarini haqoratlash, ularga tan jarohati yetkazish og'ir jinoyat hisoblangan. Jinoyatchilarga o'lim, tan jazosi, mol-mulkini musodara qilish, jarima, qamoq jazolari qo'llanilgan.

Tarixiy manbalarda qadimda O'zbekiston hududida vujudga kelgan davlatlarda "soqchi", "qorovul", "chokar", "shixna", kabi lavozimlar bo'lib, ular hukmdor qarorgohi, qal'alar va boshqa inshootlarni qo'riqlash, qishloq va shaharlardagi osoyishtalik va jamoat tartibini saqlash, aholi xavfsizligini ta'minlash va aybdorlarni aniqlash, topish va jazolash kabi vazifalarni bajarganligi keltilrib o'tilgan [7]. Masalan, V–VII asrlarga oid manbalarda O'rta Osiyo hududida hukmronlik qilgan G'arbiy turk xoqonligida maxsus jangovar guruhlar tashkil qilinib, ularning zimmasiga harbiy ish bilan bir qatorda boshqa, ya'ni shaharni qo'riqlash, asrash, himoya qilish kabi funksiyalar ham yuklatilganligi qayd etilgan [8, b. 43]. So'g'dda ular "chokarlar" deb atalib, So'g'd va unga tutash hududlarda karvon yo'llari, aholi hamda hududiy xavfsizlikni ta'minlash kabi vazifalarni bajarishgan.

Manbalarda ko'rsatilishicha, G'arbiy turk xoqonligi tarkibiga kiruvchi shaharlarning hukmdor va aslzodalari saflari bir necha yuztadan bir necha mingtagacha etuvchi maxsus qo'shin – chokarlarga ega bo'lishgan. E'tiborlisi shundaki, ushbu jangovar tuzilmaning faoliyati nafaqat harbiy maqsad-

larga balki soliqlarni yig'ish va yig'ilgan soliqlarni xazinaga topshirish, karvonlarni qo'riqlash, manzilga yetkazishda xavf-xatarlardan muhofaza qilish vazifalariga yo'naltirilgan [9, b. 13]. Shu tufayli ular tinchlik, osoyishtalik, xavfsizlik garovi hisoblanib, chokarlar faoliyatiga qarshi harakatlar uchun qattiq jazo choralar tayinlangan. Jamoat tartibini saqlash vazifasini bajargan ushbu subyektlarning faoliyatiga tajovuz (karvonlarni tunash, isyon ko'tarish) qilgan yoki ularga bo'ysunmagan (soliqlarni to'lashdan bosh tortish, shahar hududiga noqonuniy ravishda kirish va b.) shaxslarga nisbatan aynabning og'irlilik darajasiga qarab jazolar tayinlangan. Chokarlar o'zlariga hujum qilgan yoki buyruqlarini bajarmagan fuqarolarga nisbatan qat'iy choralar ko'rish huquqiga ega bo'lgan. Hokimiyatni saqlab turish maqsadida ularga hujum qilgan shaxsga og'ir jazolar, shu jumladan yetkazilgan zararni o'n barobar qilib to'lash, jarohat yetkazgani yoxud mayib qilgani uchun mol-mulk tarzida tovon to'lash, qizi, xotinini qullikka berish, suyagini sindirganlik uchun esa ot berish yo'li bilan jazolangan [10, b. 428-439 ].

2. Markaziy Osiyoga islom dini kirib kelgan va shariat normalari joriy etilgan davr. Islom dini vujudga kelib, hozirgi O'zbekiston hududlarida ham islom dinining keng yoyilishi natijasida islom huquqshunosligi, shariat qonun-qoidalalarining ushbu hududlarda amal qilish jarayoni boshlangan. Shariat normalariga asosan sodir etilgan qilmish uchun jazo belgilash avvalo Qur'oni karimga asoslangan holda amalga oshirilgan.

M.Rajabova Qur'oni karimga asosan shaxsga sodir etgan qilmishi uchun jazo tayinlashni aniq jazo belgilangan va aniq jazo belgilanmagan jinoyatlar kabi ikki guruhga bo'lib o'rganish mumkinligini qayd etadi [11, b. 182].

Shuningdek, islom huquqshunoslari tomonidan fiqhga oid asarlar yaratilib, ular ham qozi va miftiyalar uchun fatvo to'plamlari sifatida dasturulamal bo'lib xizmat qilgan. Ular ichida Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya" asari Movarounnahr hududida katta shuhrat qozonib, davlat mahkamalarida amaliy qo'llanma sifatida foydalanilgan. "Hidoya" asari (to'liq nomi "Hidoya fi furu' al-fiqh" — "Fiqh sohalari bo'yicha yo'llanma")ning 4-jildida merosni taqsimlash, vasiyat, garovga berish masalalari bilan birgalikda shaxsga, uning hayotiga tajovuz qilish, davlatning oliv organi tomonidan chiqarilgan qonun-qoidalarga rioya etmaslik kabi qilmishlarga jazo tayinlash kabi masalalar ham yoritilgan [12, b. 48].

Shu bilan birga, bu davrda ma'lum vaqt davomida hozirgi O'zbekiston hududiga mo'g'ullar bosqini natijasida Chingizzxonning Yasoq qonunlari amalda bo'lib, ko'pgina ayb uchun qat'iy o'lim ja-zosi belgilangan. Masalan, mo'g'ul askari davlatning ichida xizmat safarida payti istalgan fuqaroning uyida tunab qolishi, fuqaro esa, uni yotoqjoy, yegulik bilan ta'minlashi lozim bo'lgan. Bundan bosh tortgan fuqaro o'lim jazosiga hukm qilingan.

Shuningdek, huquq-tartibotni ta'minlash haqidagi fikr va g'oyalarni ma'lum tizimga mujassamlashtirish Temuriylar davrida ham amalgalashirilgan. Amir Temur o'z tuzuklarida davlatni boshqarishda huquq-tartibotni saqlash, qonunbzarlik, adolatsizlik va axloqsizlikning oldini olishning ahamiyati haqida juda boy va hozirgi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan fikr va g'oyalarni bildirgan holda buni davlat boshqaruvida ham bevosita tatbiq etgan. "Temur tuzuklari"da ichki ishlar organlariga o'xshash bevosita tuzilmalar tilga olinmagan bo'lsa-da, harbiy tuzilmalar tarkibida faoliyat yo'nalishlari, funksiya va vazifalari jihatidan ularga yaqin bo'lgan maxsus bo'linmalar mavjud bo'lganligini kuzatish mumkin [13, b. 95]. Xususan, Sh.O'ljayevaning ta'kidlashicha, Amir Temur saltanatida politsiya mahkamasini "yasag'liq" deb atalib, ular davlat ichidagi tartib- intizomni saqlashga mas'ul, jamoat tartibini buzgan kishilarni tekshirish, so'roq qilish va jazolash vakolatlariga ega bo'lganlar [14, b. 25]. Ularga bo'ysunmagan shaxslarga jazo tayinlash ham qat'iy belgilangan tartib qoidalarga asosan, ya'ni javobgar shaxsning, yasag'liq askari yoki zabitining, shuningdek, hodisa guvohlarining bergen ko'rsatuvlari qozi tomonidan tinglangach yakuniy qaror qabul qilingan. Davlat ma'muriga bo'ysunmagan shaxslarga jazo tayinlashda ular sodir etgan qilmishning og'irlilik darajasiga va aybdorning qilmishidan pushaymonligi (afv tilash ko'rinishidagi)ga ham e'tibor qaratilgan.

Tarixiy adabiyotlarda yozilishicha, xonliklar davriga kelib hozirgi ichki ishlar tuzilmalariga o'xshash va uning ayrim funksiyalarini bajaruvchi dastlabki, o'z nomiga ega bo'lgan maxsus bo'linmalar – mirshabliklar tashkil etilgan. Markaziy Osiyoda xonliklar davrida huquq-tartibotni saqlash, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash tarixini ma'muriy lavozim egasi hisoblangan mirshablar faoliyatini bilan bog'lash mumkin [15, b. 658].

Mirshablar shahar muhofazasiga mas'ul bo'lib, aholi turar joylarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, shariat qoidalari buzilishining oldini olish, davlatning mahbuslarini saqlash, ya'ni zindon-

ga hukm qilinganlarni saqlash va qo'riqlash ishlari bilan shug'ullanishgan.

Manbalarda qayd etilishicha, kechki soat sak-kizdan keyin shahar ko'chalarida tabiblar, doyalar va shabgardlardan tashqari barchanening yurishi ta-qilangan. Shabgardlar – tungi soqchilar kechasi yurganlarni ushlab, mirshabxonaga keltirgan. Mirshab erta tongda ularga jazo tariqasida ko'cha suputrib, hammom tozalatishni buyurgan. Mirshablar faoliyatiga qarshilik ko'rsatgan yoki huquqbazarlikni davom ettirgan shaxslar ushlanib mahkamaga olib kelingan. Ish qozi tomonidan ko'rib chiqilguncha shu yerda hibsda saqlangan. Mazkur shaxslarga huquqbazarlik darajasiga qarab jarima, darra urish, xalq oldida sazoyi qilish, qamoq kabi jazolar tayinlangan [16, b. 653-654].

Mazkur davrning o'ziga xos xususiyati shundaki, jamoat tartibini saqlovchi subyektlar faoliyatiga to'sqinlik qilganlik yoki ularga bo'ysunmaganlik uchun jazolar qabilalar ittifoqidagi oqsoqollar kengashi tomonidan kollegiyal tartibda chiqarilgan qaror asosida emas, balki diniy mahkama (qozixona) da islam qonunchiligi asosida qozi tomonidan tayinlangan.

3. Rus imperiyasi (Chor Rossiyasi) qonunchiligi amal qilgan davr. O'zbekiston davlati va huquqi tarixida bu davr XIX asrning 60-yillardan davlat boshqaruvi Sovet hukumati qo'liga o'tguniga qadar davom etgan vaqtini o'z ichiga oladi. Bu davrda Turkistonda jamoat tartibini saqlash borasida politsiya-mirshablik tizimi joriy etilgan bo'lib, unga ko'ra imperianing boshqa yerlaridan ko'chirib keltirilgan va asosan ruslar istiqomat qilgan hududda politsiya nozirlik bo'linmalari tashkil etilgan bo'lsa, mahalliy aholi yashaydigan hududda mirshablik faoliyatni uezd, volost boshlig'i bo'ysun-dirilgan holda faoliyat yuritgan. I.Sharipovaning ta'kidlashicha, Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida Toshkent bozorlaridagi tosh-tarozi, oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini nazorat qilish ham politsiya zimmasiga topshirilgan [17, b. 39]. Shu davrda birgina Toshkent shahrining o'zida "Toshkent shahar politsiya boshqarmasi", "Toshkent temir yo'llar politsiya boshqarmasi", "Turkiston rayon politsiya bo'limi" hamda "Toshkent shahri qidiruv bo'limi" kabi ma'muriy-harbiy boshqaruv idoralari faoliyat yuritgan [18, b. 73].

Ayrim manbalarda Toshkent shahrida politsiya Yangi shahar va Eski shahar politsiya boshqarmaliga bo'lingani va ularning shtati 307 kishidan iborat bo'lgani keltiriladi [19]. Toshkentda oktabr to'ntarishigacha mirshablar – tungi shahar soqchisi,

mirshabxona boshlig'i – qo'rboshi deyilgan. Toshkentning 4 dasasida 10 tadan mirshab, bir mirshab-boshi bo'lган. 1892-yilgacha mirshab katta oqsoqolga, keyinchalik Eski shahar polismeysteriga bo'ysungan [20].

Turkistonda joriy etilgan politsiya-mirshablik tizimi aholining tinchligini ta'minlash, jamoat xavfsizligi hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish bilan birga, mahalliy aholining harakatini nazorat qilish, xalq ozodlik harakatlari vujudga kelishining oldini olish va unga qarshi kurashishda harbiy bo'linmalarga ko'maklashish vazifalarini bajarish faoliyati bilan ham shug'ullangan. Chor hukumatinning mustamlakachilik siyosatini amalga oshirish jarayonida shakllangan munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asosi sifatida 1865-yilning 6-avgustida Rossiya imperatori tomonidan tasdiqlangan "Turkiston viloyatini boshqarish haqidagi Muvaqqat Nizom", shuningdek, keyinchalik ishlab chiqilgan "Yettisuv va Sirdaryo viloyatlarini boshqarish haqidagi Nizom" Turkiston o'lkasida amal qilgan. Ushbu Nizomga muvofiq viloyatlar ma'muriy-hududiy jihatdan uyezdlarga bo'lingan bo'lib, ular ma'muriy va politsiya hokimiyatini amalga oshiruvchi uyezd boshlig'i tomonidan boshqarilgan [21, b. 225-229]. Uyezd sudyalari esa Rossiya imperatori tomonidan tasdiqlangan 1865-yil 11-oktyabrdagi "Sud qoidalari" asosida ochiqdan-ochiq hokimiyat vakiliga qarshilik ko'rsatish yoki unga bo'ysunmaslik kabi huquqbazarliklarni ko'rib chiqishgan bo'lib, bu kabi huquqbazarliklarning og'irlilik darajasiga qarab jarima yoki 3 yildan 10 yilgacha bo'lган muddatga imperianing chekka hududlariga surgun qilish, ularga nisbatan qurolli qarshilik ko'rsatilganda esa o'lim jazosi tayinlangan [22].

Xulosa qilib aytganda, ushbu davr yurtimiz hududida jamoat tartibini saqlash borasda politsiya-mirshablik tizimi joriy etilganligi, shuningdek, politsiya (mirshab)ga bo'ysunmaganlik uchun javobgarlikni belgilash masalalari jinoyat sudlarida, harbiy holat sharoitida harbiy dala sudlarida ko'rib chiqilganligi bilan yuqorida davrlardan farq qiladi.

4. Sovet hukumati qonunlari amal qilgan davr. Bu davrda ichki ishlar organlari dastlab "ish-chi-dehqon militsiyasi", keyinchalik esa "militsiya organlari" deb yuritila boshlangan [23, b. 72]. 1917-yil 28-oktabr (10-noyabr)dagi oktabr inqilobi natijasida Turkistonda hokimiyat sovetlar qo'liga o'tgach, yangi ko'rinishdagi militsiyani tashkil etish bo'yicha birinchi normativ hujjat Rossiya ichki

ishlar bo'yicha xalq komissarining inqilobdan uch kun o'tib chiqargan "Ishchi miliitsiya to'g'risida"-gi buyrug'i edi. Shundan so'ng Rossiya sovet respublikasining boshqa hududlarida bo'lgani kabi Turkistonda ham "ishchi miliitsiyalar" tashkil etila boshladi. Xiva xonligi va Buxoro amirligi hududlarida sovet hukumati o'rnatilgach, bu hududlarda ham ichki ishlar idoralari tuzildi. 1921-924-yillarda O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy hududi chegaralanishdan so'ng Turkiston ASSR, BSSR va XSSR hududlarida faoliyat yuritgan ichki ishlar organlari O'zbekiston SSR miliitsiyasi tasarrufiga o'tkazildi [24, b. 75-76].

Qayta tashkil etilgan ichki ishlar organlarining faoliyatini takomillashtirish maqsadida Ichki ishlar xalq komissarligi tomonidan 1925-yilning 1-dekabrida "O'zbekiston SSRning Sovet ishchi-dehqon miliitsiyasi haqida Nizom" [25, b. 31-37] qabul qilinib, mazkur nizomda ham ishchi-dehqon miliitsiyasiga ijroiya hokimiyatida ko'plab vakolatlar berildi.

Bundan tashqari, bu davr ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan sodir etiladigan huquqbazarliklar uchun javobgarlik masalasi kodekslashtirilgan qonun normalari bilan tartibga solinganligi bilan ham boshqa davrlardan ajralib turadi. Jumladan, O'zbekiston SSRning 1985-yil 13-dekabrdagi qilingan Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi kodeksining 187-moddasida miliitsiya xodimining yoki xalq nazoratchisining jamoat tartibini muhofaza qilish bo'yicha o'z vazifalarini bajarishda qonuniy buyrug'i yoki talabiga qasddan bo'ysunmaslik o'n rubldan ellik rublgacha jarima solishga yoki ish haqining yigirma foizini ushlab qolgan holda bir oydan ikki oygacha bo'lgan muddatga axloq tuzatish ishlariga olib kelishi, agar ishning holati hamda huquqbuzarning shaxsini hisobga olgan holda, ushbu choralarни qo'llash yetarli emas deb topilsa, 15 sutkagacha ma'muriy qamoq jazosi qo'llanilishi ko'rsatib o'tilgan [26].

5. Mustaqil O'zbekistondagi milliy qonunchilik davri. 1991-yilning 31-avgust kuni O'zbekiston SSR Oliy Kengashining 6-sessiyasida mamlakat Mustaqilligi e'lon qilingan paytdan boshlab respublikada fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash demokratik huquqiy davlat barpo etishning asosiy vazifalaridan biri etib belgilandi. Davlat boshqaruvining belgilangan tartibi, xususan ichki ishlar organlari xodimlarining qonuniy faoliyati hamda ularning farmoyish va talablariga bo'ysunmaganlik uchun javobgarlik mustaqilli-

kning dastlabki yillarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti tomonidan 1985-yil 13-dekabrdagi qabul qilingan O'zbekiston SSRning (O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 30-sentabrdagi 364-XII-son qonuniga [27] asosan "O'zbekiston SSR" degan so'zlar "O'zbekiston Respublikasi" degan so'zlar bilan almashtirilgan) Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi kodeksiga asosan belgilangan bo'lsada, xodimlarning huquqiy himoyasini ta'minlovchi qonun normalari keyingi yillarda milliy islohotlarga mos ravishda takomillashib bordi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1992-yil 19-iyunda qabul qilingan "Miliitsiya xodimlari va boshqa shaxslarning jinoyatchilikka qarshi kurash va jamoat tartibini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini qo'riqlash bilan bog'liq vazifalarini bajarishda ularning hayoti, sog'lig'i, qadr-qimmati va boshqa huquqiy manfaatlariga qilingan tajovuzlar uchun javobgarlik haqidagi qonunning sudlar tomonidan qo'llanishi to'g'risida"gi 5/2-PL-92-son qarori orqali:

a) miliitsiya xodimlari tushunchasiga huquqiy ta'rif berilib, unga ko'ra Ichki ishlar vazirligining intizomiy Ustavi qo'llaniladigan va vazifasiga jinoyatchilikka qarshi kurash, jamoat tartibi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini qo'riqlash kiradigan oddiy, kichik, o'rta va oliy boshliqlardan iborat miliitsiya tarkibi kirishi;

b) miliitsiya xodimlari hamda boshqa shaxslar tomonidan jamoat tartibini qo'riqlash bo'yicha vazifasini ijro etish deganda ular ko'cha va boshqa jamoat joylarida, sport musobaqalarida, tomoshalar va boshqa ommaviy tadbirdorda soqchilik yoki patrullik xizmatini o'tash, turli xil halokatlar va tabiiy ofatlarning oqibatlarini tugatishda, huquqqa qarshi tajovuzlarning oldini olish yoki tugatishda ishtiroy etishlari tushunilishi lozimligi;

c) jinoyatchilikka qarshi kurashish vazifasini bajarish deganda jinoyatlarni oldini olish va uni sodir qilgan shaxslarni ushslashga qaratilgan harakatlarni amalga oshirish, tezkor-qidiruvga xos va tergov harakatlari kabi dastlabki tergov davomidagi harakatlari (qamash, tintuv, tanib olish va boshqalar) ham kirishi;

d) fuqarolarning huquq va erkinliklarini qo'riqlash bo'yicha boshqa burchlarni bajarish deganda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan kafolatlangan fuqarolarning shaxsiy daxlsizligi, boshqa huquqlari va erkinliklariga qarshi qaratilgan tajovuzlarning oldini olishdan iborat har qanday harakatlar tushunilishi;

f) O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy

huquqbuzarlik to‘g‘risidagi kodeksining 187-moddasida nazarda tutilgan militsiya xodimi yoki xalq drujinachisining qonuniy farmoyishi yoki talabiga takror aytganda ham qasddan bo‘ysunmaslik, jamoat tartibini qo‘riqllovchi organlarga yaqqol humatsizlik ko‘rsatilganini tasdiqllovchi holat sifatida baholanishi lozimligi aniq belgilab qo‘yildi [28].

1994-yilga kelib, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks o‘zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga, demokratiya va ijtimoiy adolat prinsiplariga tayanib, xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan qoidalarini inobatga olgan holda zamon ruhiga mos ravishda yangidan ishlab chiqildi va ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik hamda ularning o‘z xizmat burchlarini bajarishlariga qarshilik ko‘rsatish huquqbuzarliklari uchun javobgarlik masalalari O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat (219-modda) hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks (194,195-moddalar)larida aniq belgilab qo‘yildi. 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda “militsiya” atamasidan voz kechilmaganligi tufayli 194-modda Militsiya xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik deya nomalanib, moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik uchun – eng kam ish haqining ikkidan bir qismidan ikki baravarigacha miqdorda jarima, ikkinchi qismida, ya’ni xuddi shunday huquqbuzarlik ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilganligi uchun – eng kam ish haqining ikki baravidan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o‘n besh sutkagacha muddatga ma’muriy qamoqqa olish ma’muriy jazosi qo‘llanilishi belgilandi. Mamlakatimizda huquqiy munosabatlар takomillashib borishi natijasida O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 194-moddasiga jami uch marotaba o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 23-mayda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jinoyat protsesi ishtirokchilarining huquqlari himoya qilinishini

ta’minlash bilan bog‘liq o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-542-sonli qonuning asosan 194-moddaning nomidagi “Militsiya xodimining” degan so‘zlar “Ichki ishlar organlari xodimining” degan so‘zlar bilan almashtirildi [29]. O‘sha yilning 3-dekabrida qabul qilingan “Mehnatga haq to‘lash, pensiyalar va boshqa to‘lovlari miqdorlarini aniqlash tartibi takomillashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-586-son qonun bilan sanksiya qismidagi “eng kam ish haqining” degan so‘zlar “bazaviy hisoblash miqdorining” degan so‘zlar bilan almashtirildi [30].

O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 194-moddasiga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar ichki ishlar organlari xodimlarining huquqiy maqomini mustahkamlashga, shuningdek, ularning qonuniy talablarini bajarmaganlik uchun javobgarlikni belgilashda muhim omil sifatida xizmat qilayotgan bo‘lsa-da, mazkur huquqbuzarlikka doir ishlarning holatini o‘z vaqtida, har tomonlama, to‘la va obyektiv ravishda aniqlash, shuningdek, ma’muriy huquqbuzarlik sodir etish sabablari va bunga olib kelgan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish hamda qonuniy talablarni bajarmagan shaxslarga jazo choralarini qo‘llash samaradorligi va ta’sirchanligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni uzlusiz amalga oshirib borish zarurati yuzaga kelmoqda.

Ichki ishlar organlari xodimlarining qonuniy talablarini bajarmaslik huquqbuzarligining soni yildan yilga oshib borayotganligi, mazkur huquqbuzarlikka doir ishlarni yuritish davomida dalillarni to‘plash va ularga baho berishda muammolarga duch kelinayotganligi, ichki ishlar organlari faoliyatiga yangi ilm-fan, texnika va texnologiyalarning joriy etilishi natijasida ichki ishlar organlari va fuqarolar o‘rtasida vujudga keluvchi ma’muriy-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi ma’muriy-huquqiy normalarni takomillashtirish lozimligi o‘z isbotini topmoqda.

## ADABIYOTLAR

1. Matlyubov B.A. O‘zbekistonda jamoat tartibi va xavfsizlikni ta’minlash tarixi (Ichki ishlar organlari misolida): Monografiya / – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. – 648 b.
2. Turg‘unov M.T. “Avesto”da shaxsga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari // “Yosh olimlar axborotnomasi”, 2024. – T. 2. – №. 2. – B. 3-9.
3. Yermetov A. O‘zbekiston ichki ishlar organlari xodimlarining milliy tarkibi xususida (1925-1985-yillar) // Farg‘ona davlat universiteti, 2021. – №. 1. – B.12-19.
4. Qodirov Q. Ichki ishlar organlari faoliyati tarixi: O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020. – 68 b.
5. Boboev H. O‘zbek davlatchiligi tarixi. 1 kitob. Toshkent // O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti. 2004-y.
6. G‘ulomov M. Mahalla – fuqarolik jamiyatining asosi. – T.: “Adolat”, 2003.
7. IIV.uz rasmiy sayti. Elektron manba: <https://qriev.uz/uz/menu/iiv-tarishi#> (murojaat vaqt: 22.02.2023).
8. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. – Т.3. – М., 1950.
9. Abdusamatovna M.Z. Turk xoqonligida davlat boshqaruvi //Samarali ta’lim va barqaror innovatsiyalar jurnali. – 2024. – T. 1. – №. 6.
10. Rajabova M. Islom huquqi: jinoyat va jazo. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2021.
11. Mahmud Hasaniy. “Al-Marg‘inoniyning “Hidoya” asari va unga yozilgan sharhlar”. – T., 2000.
12. O‘zbekistonda harbiy ish tarixidan (qadimgi davrdan hozirgacha) / Mas’ul muharri D.X. Ziyaeva. – T.: “Sharq”, 2012.
13. O‘ljaeva Sh. Saltanatning xos tuzugi // Huquq va burch. – 2014. - № 4.
14. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.5. – T., 2003.
15. O‘zbekiston SSR tarixi. 4 томлик. – T. 1. Qadimiy davrlardan XIX asrning birinchi yarmigacha. – T., 1970.
16. Sharipova I. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida eski Toshkent//Jamiyat va boshqaruv. – 2004. – № 2.
17. Bo‘riyeva X. Toshkkent shahrining tarixiy toponimiysi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari): Monografiya. – T., 2009.
18. Elektron manba: [https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston\\_milliy\\_ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20T%20harfi.pdf/](https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20T%20harfi.pdf/) (murojaat vaqt: 18.12.2024).
19. Elektron manba: [https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston\\_milliy\\_ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20T%20harfi.pdf/](https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20T%20harfi.pdf/) (murojaat vaqt: 18.12.2024).
20. Евтеков Р.А. Законодательная база деятельности городской полиции в XVIII - начале XX века. // Вестник Бурятского государственного университета. Философия. – 2015. – №. 7.
21. Elektron manba: <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/huquqshunoslik/chor-rossiyasi-hukmronligi-davrida-turkiston-davlati-va-huquqi> (murojaat vaqt: 24.09.2023).
22. Matlyubov B.A. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi Akademiyasining shakllanishi va rivojlanish tarixi (1-kitob) – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019.
23. Andijon viloyati davlat arxivi 46-fond, 1-ro‘yxat, 89-ish.
24. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi arxivi 76-fond, ro‘yxat, 915-nsh.
25. O‘zbekiston Respublikasining 1985-yil 13-dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi kodeksini tasdiqlash haqida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining Vedomostlari, 1985-yil, № 35 185-modda Elektron manba: <https://lex.uz/acts/-102252> (murojaat vaqt: 12.08.2024).
26. O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 30-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi kodeksiga hamda O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o‘zgartishlar va qo‘srimchalar kiritish haqida”gi 364-XII-son qonuni // Elektron manba: [https://kadrovik.uz/en/doc?id=209758\\_&prodid=1\\_vse\\_zakonodatelstvo\\_uzbekistana](https://kadrovik.uz/en/doc?id=209758_&prodid=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana) (murojaat vaqt: 12.08.2024).
27. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 19.06.1992-yildagi 5/2-PL-92-son qarori // Elektron manba: <https://lex.uz/docs/2640977> (murojaat qilingan vaqt: 12.08.2024).
28. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 23-mayda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlari himoya qilinishini ta’minlash bilan bog‘liq o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-542-sonli qonuning 10-moddasining 4-band // Elektron manba: <https://lex.uz/docs/4349703> (murojaat vaqt: 12.08.2024).
29. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda qabul qilingan “Mehnatga haq to‘lash, pensiyalar va boshqa to‘lovlar miqdorlarini aniqlash tartibi takomillashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-586-sonli qonuning 18-moddasining 59-band. // Elektron manba: <https://lex.uz/docs/4625125> (murojaat vaqt: 12.08.2024).

# O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHLARI

**SIROJOV**  
*Oybek Ochilovich,  
siyosiy fanlar doktori,  
professor*

## ANNOTATSIYA

Keyingi yillarda O'zbekiston tashqi siyosati sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, mamlakatimizning xalqaro maydondagi salohiyatini kengaytirish va xorijiy davlatlar bilan keng qamrovli hamda o'zaro manfaatli aloqalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ilgari surilayotgan strategiyamiz va xalqaro maydondagi jo'shqin geosiyosiy jarayonlardan kelib chiqib tashqi siyosatimizning ustuvor yo'nalishlari ham takomillashib bormoqda. Ushbu maqolada O'zbekiston tashqi siyosatining keyingi yillardagi ustuvor yo'nalishlari, undagi o'zgarishlar, o'ziga xoslik tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston tashqi siyosati, islohotlar, mintaqqa, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, xalqaro maydon, o'zaro manfaatli aloqlar, strategiya, geosiyosiy jarayon, ustuvor yo'nalishlar, tamoyillar, suveren tenglik, kuch ishlatmaslik, diplomatik aloqlar.

## АННОТАЦИЯ

Реализуемые в последние годы реформы в сфере внешней политики Узбекистана служат укреплению мира и стабильности в нашем регионе, расширению потенциала нашей страны на международной арене, развитию всесторонних и взаимовыгодных отношений с другими странами. Приоритеты нашей внешней политики также улучшаются на основе дальновидной стратегии и динамичных геополитических процессов на международной арене. В статье анализируются приоритетные направления внешней политики Узбекистана в последующие годы, ее изменения и уникальность.

**Ключевые слова:** внешняя политика Узбекистана, реформы, регион, укрепление мира и стабильности, международная арена, взаимовыгодные отношения, стратегия, геополитический процесс, приоритеты, принципы, суверенное равенство, неприменение силы, дипломатические отношения.

**ANNOTATION**

Reforms implemented in the sphere of foreign policy of Uzbekistan in recent years have served to strengthen peace and stability in our region, expand the potential of our country in the international arena, and develop comprehensive and mutually beneficial relations with foreign countries. Based on our strategy being promoted and the dynamic geopolitical processes in the international arena, the priority directions of our foreign policy are also improving. This article analyzes the priority directions of Uzbekistan's foreign policy in recent years, its changes, and its specifics.

**Key words:** Foreign policy of Uzbekistan, reforms, region, strengthening peace and stability, international arena, mutually beneficial relations, strategy, geopolitical process, priority directions, principles, sovereign equality, non-use of force, diplomatic relations.

Milliy xavfsizlikni ta'minlash, barqaror taraqqiyot uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, aholi farovonligini oshirish, konstitutsion tuzum asoslarini mustahkamlash, millatlararo totuvlik va xalqlar do'stligini ta'minlash, inson erkinligi hamda haq-huquqlarini muhofaza qilish mamlakatimiz tashqi siyosatining asosiy maqsadlari hisoblanadi.

Davlatimiz Konstitutsiyasi Tashqi siyosat bobining 17-moddasida "O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalari va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi. Respublika davlatning, xalqning oliv manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin" deb belgilangan.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi dunyoning 137 davlati bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan. Toshkentda 44 ta chet el elchixonalari, 2 ta bosh konsullik, 8 ta faxriy konsullar, 17 ta xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari, 13 ta xorijiy xalqaro hukumatlararo va hukumat tashkilotlari vakolatxonalari, 1 ta diplomatik maqomga ega savdo vakolatxonasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda va xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasining 55 ta diplomatik va konsullik vakolatxonalari mavjud. O'zbekiston 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlarning a'zosi bo'lib, mamlakatimiz turli xil ko'p tomonlama hamkorlik tuzilmalari bilan o'zaro sherikchilik aloqalarini rivojlantiradi. O'zbekiston Respublikasi o'z milliy manfaatlariga asoslangan holda ochiq, o'zaro manfaatlari va konstruktiv tashqi siyosat olib boradi. Respublikaning zamonaviy tashqi siyosiy kursi dunyoda va mintaqada shiddat bilan o'zgarayotgan vaziyat hamda mamlakatning

ichidagi keng ko'lamli o'zgarishlarga asoslanib shakllanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda xalqaro institutsional hamkorlikka, xususan, BMT va uning ixtisoslashgan tashkilotlari, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Islom Hamkorlik Tashkiloti, Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida ko'p tomonlama aloqalarni mustahkamlashga ham ustuvor ahamiyat berilmoqda.

O'zbekiston mazkur xalqaro institutlar doirasida qabul qilingan transport va logistika, intellektual mulk huquqi, mehnat huquqi, atrof-muhitni muhofaza qilish, huquqiy yordam ko'rsatish, madaniyat sohalarida universal va mintaqaviy ahamiyatdagi ko'p tomonlama xalqaro shartnomalarning ishtirokchisiga aylandi.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati Konstitutsiyaga, mamlakat qo'shilgan xalqaro konvensiyalar va shartnomalar hamda "Tashqi siyosat konsepsiysi to'g'risida"[5], "Xalqaro shartnomalar to'g'risida"gi qonunlarga va davlatning boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga asoslanadi[6].

Qonunning "to'g'ridan to'g'ri amal qilishi"ni ta'minlash maqsadida avval amalda bo'lgan 5 ta normativ-huquqiy hujjat – 2 ta qonun va 3 ta qonunchilik hujjati unga birlashtirildi.

Qabul qilingan yangi qonun o'z xususiyatiga ko'ra dunyoning 116 davlati ishtirokchi hisoblangan 1969-yildagi Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasining implementatsiya qilingan akti sifatida namoyon bo'ladi[7].

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon milliy manfaatlarga asoslangan har tomonlama muvozanatli tashqi siyosat olib bormoqda, bu jahon hamjamiyatida keng e'tirofga sazovor bo'ldi hamda mamlakatning dunyodagi obro'sini, mintaqaviy va xalqaro ishlarda uning o'rni va ahamiyatini mustahkamladi.

O'zbekistonning zamonaviy tashqi siyosati XXI asrning dinamik o'zgarib borayotgan xalqaro siyosiy voqeliklarini hisobga olgan holda qurilgan bo'lib, tashqi siyosatning faol va pragmatik yo'nalishini amalga oshirishni, paydo bo'layotgan muammolarga o'z vaqtida va munosib javob berishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy maqsadlari – davlat mustaqilligi va suverenitetini yanada mustahkamlash, mamlakatning xalqaro siyosatdagi o'rni va rolini kuchaytirish, milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish, barqaror va dinamik milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, ochiq demokratik davlat qurish yo'lida oldinga siljishni davom ettirish, dunyoning rivojlangan davlatlari qatoriga qo'shilish hisoblanadi.

O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilar hisoblanadi:

- milliy manfaatlaridan kelib chiqib, ochiq, pragmatik va muvozanatli tashqi siyosat yuritish;
- suverenitetni hurmat qilish, hududiy yaxlitlik va ichki ishlarga aralashmaslik, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish, kuch ishlatmaslik yoki kuch tahdidi, umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlar va tamoyillar asosida boshqa davlatlar bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish.

Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi davlatlar, xalqlar, ularning farovonligi va xavfsizligi manfaatlarini hisobga olgan holda ittifoq tuzish, hamdo'stlik va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

O'zbekiston tinchlikparvar siyosat yuritadi va harbiy-siyosiy bloklarda qatnashmaydi, har qanday davlatlararo tuzilmalar harbiy-siyosiy blokka aylangan taqdirda undan chiqish huquqini o'zida saqlab qoladi.

O'zbekiston Respublikasi qo'shni davlatlardagi qurolli to'qnashuvlar va keskinlik o'choqlariga aralashmaslik uchun siyosiy, iqtisodiy va boshqa choralarini ko'radi, shuningdek, o'z hududida xorijiy harbiy bazalar va obyektlar joylashtirilishiga yo'l qo'yaydi.

Tashqi siyosiy faoliyatning asosiy va birinchi darajali vazifalaridan biri bu 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini samarali amalga oshirishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun tashqi siyosat idorasi oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan edi:

- mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik islohotlarni hamda jamiyat va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning jadal jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun

mumkin qadar qulay tashqi siyosiy shart-sharoitlarni shakllantirish;

- Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash hamda mustahkamlash, mintaqani xavfsizlik va barqaror taraqqiyot hududiga aylantirish;

- jahonning yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan strategik hamkorlik qilishning mutanosib, ko'p qirrali tizimini shakllantirish;

- O'zbekistonning mintaqasi va jahon siyosatidagi muhim yo'nalişlar bo'yicha xalqaro tashabbuslarini ilgari surish;

- mahalliy mahsulotlarning eksport hajmini oshirish va eksport geografiyasini kengaytirish borasida ko'maklashish;

- milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va ilg'or texnologiyalarni jalb etishda faol ko'mak berish;

- mamlakatimizga turistlarni jalb qilish hamda turistik infratuzilmani rivojlantirish borasida amaliy yordam ko'rsatish;

- transport va tranzit sohasidagi hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirishda hamda xalqaro transport kommunikatsiyalari va logistik infratuzilmalarning rivojlanishiga ko'maklashish;

- xorijdagi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslari huquq va manfaatlarining har tomonlama himoya qilinishini ta'minlash;

- xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash [8].

Bugungi kunda mamlakatning xalqaro huquqiy hujjatlari doirasi sezilarli darajada kengayib, yildan-yilga salmog'i ham tobora ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining shartnomaviy-huquqiy bazasini 4 ming 200 dan ortiq hujjat tashkil qilib, ulardan 500 ga yaqini universal va mintaqaviy xarakterga ega ko'p tomonlama xalqaro shartnomalardir. 3 ming 700 dan ortig'i esa ikki tomonlama xalqaro hujjatlar hisoblanadi.

Xususan, oxirgi besh yil davomida xorijiy hamkorlar bilan 781 ta xalqaro hujjatlar imzolandi, shuningdek, O'zbekiston 26 ta universal xalqaro shartnomalarning a'zosiga aylandi.

Ushbu xalqaro shartnomalar asosan investitsiyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoya qilish, savdo-iqtisodiy, harbiy-texnikaviy, moliyaviy, madaniy-gumanitar, ilmiy-texnikaviy hamkorlik, soliq, mehnat, transport, energetika,

atrof-muhitni muhofaza qilish, huquqiy yordam ko'rsatish, jinoyatchilikka qarshi kurashish kabi sohalarga oiddir.

Shu o'rinda mamlakatimizning yaqin qo'shni va boshqa hamkor davlatlar bilan strategik sheriklik munosabatlari aynan ikki tomonlama hujjatlar bilan tartibga solinishini alohida ta'kidlash joiz[8].

Xususan, so'nggi yillarda Turkmaniston (2017), Qirg'iziston (2017), Turkiya (2017), Tojikiston (2018), Vengriya (2021), Pokiston (2021) bilan munosabatlari strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi va avval strategik sheriklik munosabatlari o'rnatilgan AQSH, Yaponiya, Ozarboyjon, Rossiya, Janubiy Koreya, Hindiston, Xitoy, Qozog'iston davlatlari bilan bunday munosabatlarning yanada mustahkamlanishida xalqaro hujjatlar huquqiy tayanch vazifasini bajarib kelmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan, Tashqi siyosiy faoliyatimizning ustuvor tamoyillaridan biri deb, birinchi navbatda, mintaqamizda, xususan, qo'shni Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston Respublikalari va Turkmaniston bilan hamda jahonning yetakchi mamlakatlari (Rossiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Xitoy, shuningdek, Osiyo, Yevropa va Yaqin Sharqdagi qator davlatlar) bilan ochiq, pragmatik va amaliy yondashuv asosida, ikki hamda ko'ptomonlama, barcha yo'naliшlarda муносабатларимизни rivojlantirish va kengaytirish belgilangan.

Tashqi siyosatimizning bosh ustuvor yo'naliшhi Markaziy Osiyo mintaqasidir. O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi siyosati mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga, mintaqaviy xavfsizlikning muhim muammolarini hal etishga, shu jumladan, Afg'onistonidagi vaziyatni hal qilishga ko'maklashishga qaratilgan. O'zbekiston mintaqaviy savdo-iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash, mintaqaning transport va tranzit infratuzilmasini rivojlantirish, Markaziy Osiyo transchegaraviy daryolarining suv-energetika resurslaridan oqilona va kompleks foydalanish hamda mintaqaning ekologik barqarorligini ta'minlash, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonini yakuniga yetkazish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshiradi.

Ma'lumki, mintaqasi markazida joylashgan O'zbekiston Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari bilan umumiyl chegaraga ega. Uning

uzunligi 7000 kilometrdan ziyod, jumladan, Qozog'iston bilan – 2356,31, Qirg'iziston bilan – 1476,12, Tojikiston bilan – 1296,9, Turkmaniston bilan – 1831,49, Afg'oniston bilan – 143 kilometrni tashkil etadi. Keyingi yillarda O'zbekistonning xorijiy davlatlar bilan hamkorligi faollashishi barobarida, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalari bo'yicha muzokaralar jarayoni muntazamlik kasb etdi. 2016-yil avgust oyidan 2018-yil avgust oyiga qadar O'zbekiston hukumati delegatsiyasi qo'shni mamlakatlar hukumat delegatsiyalari bilan jami 65, jumladan, Qozog'iston bilan 18, Qirg'iziston bilan 28, Tojikiston bilan 9, Turkmaniston bilan 9, Afg'oniston bilan 1 uch rashuv o'tkazdi.

O'zbekiston mintaqqa davlatlari bilan do'stona va ahil qo'shnichilik munosabatlarni mustahkamlashdan, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirishdan, parlamentlar, chegara hududlari, jamoat tashkilotlari va oddiy fuqarolar o'rtasidagi aloqlarni kuchaytirishdan manfaatdor.

So'nggi yillarda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan mintaqaning barcha mamlakatlariiga yuqori darajadagi tashriflar amalga oshirildi. Mazkur tashriflar davomida Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun o'zaro manfaatli bo'lgan xavfsizlik, iqtisodiyot, investitsiya, madaniyat va ekologiya masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilindi.

Buning natijasi o'laroq tarixan qisqa vaqt ichida O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlarning yaxshi tomonga burilishiga sabab bo'lgan ulkan o'zgarishlar ro'y berdi.

Mintaqada mutlaqo yangi, o'zaro ishonch va hurmatga asoslangan siyosiy muhit va geosiyosiy reallik shakllandi.

Markaziy Osiyo davlatlari yuzaga keladigan har qanday muammolarni tinchlik yo'li bilan, muzokaralar asosida va o'zaro manfaatli tarzda hal qilish mumkinligini butun dunyoga namoyon etdilar. Bunday yutuqning asosida, tabiiyki, mintaqqa davlatlari rahbarlari o'rtasidagi siyosiy muloqot va o'zaro ishonch yotadi.

O'zbekiston Afg'oniston bilan aloqlarni kengaytirishni, mazkur mamlakatdagi vaziyatni tinch yo'l bilan hal etishga qaratilgan xalqaro sa'y-harakatlarda faol ishtirok etishni davom ettiradi.

O'zbekiston tomoni Afg'oniston iqtisodiyotining qayta tiklanishiga, uning transport, ishlab chiqarish, energetik va ijtimoiy infratuzilmalarini rivojlantirishga ko'mak berishda davom etadi. Barqaror va ravnaq topayotgan Afg'oniston Markaziy Osiyodagi mintaqaviy xavfsizlikning kafolatidir.

MDH mamlakatlari bilan hamkorlik ham O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Mazkur davlatlar bilan respublikamiz tarixan shakllangan siyosiy, iqtisodiy, transport-kommunikatsion va boshqa aloqalarga ega. O'zbekiston Hamdo'stlik mamlakatlari bilan tenglik, o'zaro foydalilik, bir-birining manfaatlarini hurmat qilish va e'tiborga olish tamoyillari asosida ikki tomonlama hamkorlik munosabatlarni qurishda davom etadi.

O'zbekiston Rossiya bilan 2004-yil 16-iyunda imzolangan Strategik hamkorlik, 2005-yil 14-noyabrdagi Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomalar hamda 2012-yil 4-iyunda imzolangan O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtaida Strategik hamkorlikni chuqurlashtirish to'g'risidagi deklaratsiya asosida do'stona munosabatlarni har tomonlama mustahkamlash va tadrijiy rivojlantirishi ikki mamlakat manfaatlariga to'liq mos keladi hamda mintaqadagi tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ikki tomonlama munosabatlarning eng muhim vazifalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yili Rossiyaga davlat tashrifi hamda Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V.V.Putinning 2024-yil 26-28-mayda O'zbekistonga davlat tashrifi chog'ida erishilgan kelishuvlar to'liq amalga oshirilishini ta'minlashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi global muammolarni hal etishda muhim rol o'ynaydigan, yaqin mintaqaviy qo'shni Xitoy bilan strategik hamkorlikni kuchaytirish tarafdoi. Xitoy bilan munosabatlarni rivojlantirish 2012-yil 6-iyundagi Strategik hamkorlikni o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya, 2013-yil 9-sentabrdagi ikki tomonlama strategik hamkorlikni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risidagi deklaratsiya hamda 2017-yil 12-maydag'i Har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarni yanada chuqurlashtirish to'g'risida qo'shma

bayonotga asoslangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2019-yil 24–27-aprelda “Bir makon, bir yo'l” Ikkinchilik xalqaro forum doirasida ilgari surgan tashabbus va takliflarni to'liq va o'z vaqtida amalga oshirish ikki mamlakat manfaatlariga mos keladi.

O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri, Amerika Qo'shma Shtatlari bilan 2002-yil 12-mart oyida imzolangan O'zbekiston va AQSH o'rtaida Strategik sherikchilik va hamkorlikning asoslari to'g'risidagi deklaratsiya asnosida o'zaro manfaatli va konstruktiv hamkorlikni har tomonlama rivojlantirishdan iboratdir. O'zbekiston AQSH bilan mamlakatda amalga oshirilayotgan fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlash va xalq turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan modernizatsiya jarayoni va islohotlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy-texnologik va madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaatdor. Ikki tomonlama hamkorlikning muhim yo'nalishlari Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, transmilliy tahdid va xatarlarga qarshi kurashga ko'maklashishdan iboratdir.

O'zbekiston Yevropa Ittifoqi va Yevropa davlatlari bilan har taraflama manfaatli hamkorlikka muhim ahamiyat beradi. Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlikning asosiy sohalari savdo-sotiqliki rivojlantirish, investitsiya va moliya, zamonaviy texnologiyalar transferi, ilm-fan, texnika, ta'lim, ekologiya, sog'liqni saqlash, madaniyat va mintaqaviy xavfsizlik kabilalar hisoblanadi. O'zbekiston asosiy e'tiborini Yevropaning ilg'or davlatlari, xususan Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Italiya, Ispaniya, Latviya va boshqa davlatlar bilan ikki tomonlama hamkorlikni yanada yuqori darajaga chiqarishga alohida e'tibor beradi.

Respublikamiz ko'p asrlik umumiy tarix, yagona til va din, umumiy qadriyatlar va o'xshash urf-odatlarga ega bo'lgan Turkiya davlati bilan do'stlik va hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan siyosatni izchil davom ettiradi. Mamlakatimiz Turkiya bilan har taraflama manfaatli hamkorlikni, jumladan savdo-sotiqlik, investitsiya va turizm kabi sohalarda rivojlantiradi. O'zbekiston Prezidentining 2024-yil 5-6-iyun kunlari Turkiyaga rasmiy tashrifida

ham ikki davlat o'rtaсидаги strategik hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi qo'yildi.

O'zbekiston Janubi-sharqiy Osiyodagi mamlakatlar – Malayziya, Indoneziya, Singapur, Vietnam kabi davlatlar bilan hamkorligini rivojlantiradi.

O'zbekiston Janubiy Osiyo mamlakatlari, xususan Hindiston va Pokiston bilan savdo-sotiqlik, transport-kommunikatsiya, turizm kabi sohalarda har taraflama va o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydi.

O'zbekiston muslimon dunyosi davlatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalarni iqtisodiyot, transport kommunikatsiyasi, moliya, investitsiya va sayyohlik sohalarida, shu jumladan Islom hamkorlik tashkiloti va Islom taraqqiyot banki doirasida faol rivojlantirish va mustahkamlashdan manfaatdor hisoblanadi.

Mamlakatimiz Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti, Shaxxay Hamkorlik Tashkiloti va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashkilotlari bilan ushu tuzilmalarning mexanizmlaridan zamonaviy muammolar va tahdidlarga qarshi kurashishda, ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirishda samarali foydalanish maqsadida o'zaro sherikchilikni yanada rivojlantiradi.

O'zbekiston xalqaro moliya institutlari bilan, shu jumladan, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki va Yevropa investitsiya banklari bilan energetika, transport, qishloq xo'jaligi, uy-joy qurilishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha yangi loyihalarni amalga oshirishda hamkorlikni faollashtirish uchun barcha sa'y-harakatlarni olib boradi.

Mamlakatimizning vatandoshlar bilan ishslash sohasida olib borayotgan ishlari o'quvchilarni qiziqitirishi tabiiy. Shu bois mazkur yo'nalishga alohida to'xtalib o'tsak.

Ayni shu yo'nalishda hukumatimiz tomonidan qator hujjatlar qabul qilindi. Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiysi ishlab chiqilib tasdiqlandi.

Muhtaram Prezidentimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Vatandoshlar” jamg'armasini tuzish taklifi bildirilganidan yaxshi xabareringiz

bor. Bu tashabbus xorijdagi hamyurtlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular bilan hamkorlikni hamda aloqalarni yanada mustahkamlashga, rivojlantirishga qaratilgan. Ayni paytda jamg'arma faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha ishlar davom ettirilmoqda.

Keyingi yillarda ko'plab vatandoshlarimiz yurtimizga qaytib, turli sohalar rivojiga o'z hissalarini qo'shamoqda. Hozir ularning 150 nafardan ortig'i rahbarlik hamda mas'ul lavozimlarda faoliyat yuritib kelmoqda.

Bundan tashqari, xorijdagi vatandoshlar orasidan salohiyatlari investorlar, malakali mutaxassislar, xalqaro tashkilotlar vakillari, olim hamda iqtidorli talabalardan iborat 30 dan ziyod xorij davlatlarida istiqomat qilayotgan 480 dan ortiq vatandoshlar ro'yxati shakllantirildi.

Bugungi kunda Orolbo'yı mintaqasida inson xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ko'p tomonlama Trast fondi doirasidagi amaliy ishlarni yanada kuchaytirish bo'yicha ko'rيلayotgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonning tashqi siyosat sohasidagi muhim ustuvor yo'nalishi dunyoning yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlari bilan strategik sheriklik hamda hamkorlikning muvozanatlangan tizimini shakllantirishdan iborat. Bunday yondashuv iqtisodiyotni modernizatsiyalash, barqarorlik va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash, Markaziy Osiyoda hamkorlik uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish vazifalarining samarali hal qilinishini ta'minlashga qaratilgan.

Tarixiy o'lchovlar bo'yicha nisbatan qisqa muddatda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti obro'li, nufuzli xalqaro tuzilma sifatida shakllandi. O'zbekiston Shanxay Hamkorlik Tashkilotini terrorizm va ekstremizmga, narkotik va qurolning noqonuniy aylanmasiga, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashishda hamkorlik uchun vosita sifatida baholaydi.

O'zbekiston uchun Shanxay Hamkorlik Tashkilotining iqtisodiyot, jumladan, transport kommunikatsiyalarini qurish va qayta tiklash sohasidagi faoliyatini ham faollashtirish, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti bilan hamkorlikdan

manfaatdor boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni rivojlantirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Islom hamkorlik tashkiloti bilan ham izchil o'zaro hamkorlikni rivojlantirmoqda va uni muqaddas islom qadriyatlarni saqlash hamda rivojlantirish, musulmon xalqlar o'rtaqidagi birdamlikni mustahkamlash, ularning taraqqiyoti va ravnaqiga ko'maklashishga qaratilgan samarali forum sifatida baholaydi. O'zbekiston Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlarning ta'lif va ma'rifat, fan va texnikani rivojlantirish, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni joriy qilish sohasida faol o'zaro hamkorligi tarafdiridir.

Xullas, tashqi siyosatimizning ustuvor yo'nalishi Markaziy Osiyo mintaqasidir. O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi siyosati mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, mintaqaviy xavfsizlikning muhim muammolarini hal etishga, shu jumladan, Afg'onistondagi vaziyatni hal qilishga ko'maklashishga qaratilgan. O'zbekiston mintaqaviy savdo-iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash, mintaqaning transport va tranzit infratuzilmasini rivojlantirish, Markaziy Osiyo transchegaraviy daryolarining suv-energetika resurslaridan oqilona va kompleks foydalanish hamda mintaqaning ekologik barqarorligini ta'minlash, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonini yakuniga yetkazishdan manfaatdor. O'zbekiston mintaqqa davlatlari bilan do'stona va ahil qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirishdan, parlamentlar, chegara hududlari, jamoat tashkilotlari va oddiy fuqarolar o'rtaqidagi aloqalarni kuchaytirishdan manfaatdor. O'zbekiston Afg'oniston bilan aloqalarni kengaytirish, mazkur mamlakatdagi vaziyatni tinch yo'l bilan hal etishga qaratilgan xalqaro sa'y-harakatlarda faol ishtiroy etishni davom ettirishdan manfaatdor hisoblanadi. Ana shu manfaatlar O'zbekiston tashqi siyosatining yaqin istiqboldagi ustuvor yo'nalishlarini tashkil etadi.

**ADABIYOTLAR**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – T.: O‘zbekiston, 2022. – 440 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. – T.: O‘zbekiston, 2018. – 501 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. – T.: Adolat, 2017. – 112 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. – T.: O‘zbekiston, 2016. – 56 b.
6. <https://lex.uz/docs/39149>
7. <https://lex.uz/docs/4193761?query=%>
8. [https://aza.uz/uz/posts/yangi-ozbekiston-zamonaviy-tashqi-siyosatining-xalqaro-huquqiy-asoslari-mustahkamlanmoqda\\_288375](https://aza.uz/uz/posts/yangi-ozbekiston-zamonaviy-tashqi-siyosatining-xalqaro-huquqiy-asoslari-mustahkamlanmoqda_288375)
9. [https://aza.uz/uz/posts/yangi-ozbekiston-zamonaviy-tashqi-siyosatining-xalqaro-huquqiy-asoslari-mustahkamlanmoqda\\_288375](https://aza.uz/uz/posts/yangi-ozbekiston-zamonaviy-tashqi-siyosatining-xalqaro-huquqiy-asoslari-mustahkamlanmoqda_288375)

# SIYOSIY YETAKCHI IMIJINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

*QOLQANOV  
Nuriddin Tashpulatovich,  
siyosiy fanlar bo'yicha  
falsafa doktori, dotsent,  
2-darajali yurist*

## ANNOTATSIYA

Maqolada siyosiy yetakchi imijining shakllanishi va takomillashishiga xizmat qiladigan pozitsiyalash, manipulyatsiya, mifologizatsiya, emotsiionalizatsiya, identifikatsiya va arxaizatsiya kabi usullar tahliliga e'tibor qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** siyosiy yetakchi, imij, pozitsiyalash, manipulyatsiya, mifologizatsiya, emotsiionalizatsiya, identifikatsiya, arxaizatsiya.

## АННОТАЦИЯ

В статье основное внимание уделяется анализу таких методов, как позиционирование, манипуляция, мифологизация, эмоционализация, идентификация и архаизация, служащих формированию и совершенствованию имиджа политического лидера.

**Ключевые слова:** политический лидер, имидж, позиционирование, манипуляция, мифологизация, эмоционализация, идентификация, архаизм.

## ANNOTATION

This article focuses on analyzing methods that contribute to shaping and enhancing the image of a political leader, such as positioning, manipulation, mythologization, emotionalization, identification, and archaization.

**Key words:** political leader, image, positioning, manipulation, mythologization, emotionalization, identification, archaization.

Siyosiy yetakchi imijini shakllantirish va takomillashtirish – bir tomondan murakkab, ikkinchi tomondan esa uzoq muddatli jarayon bo'lib, bir qator bosqichlarni o'z ichiga oladi. Siyosiy yetakchi imijini shakllantirish va takomillashtirish uchun imij kampaniyasining maqsad va vazifalari aniq belgilab olingach, ijtimoiy-psixologik va siyosiy monitoring natijalari asosida qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan imij xususiyatlari aniqlanadi. Shundan so'ng, ushbu xususiyatlarni aholi va saylovchilar ommaviy ongiga singdirish va ularni qabul qildirish uchun eng maqbul va samarali usullarni topish zarur bo'ladi.

Maqolamizda jahon siyosiy amaliyotda ilmiy jihatdan asoslangan va ko'p marotaba sinovdan o'tgan siyosiy yetakchi imijini shakllantiruvchi va takomillashishiga xizmat qiluvchi asosiy usullardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz.

**1. Pozitsiyalash** (inglizcha position – holat, joylashuv, pozitsiya va boshqalar) – bu siyosiy obyekt (partiya, harakat, jamoat tashkiloti yoki alohida siyosiy yetakchi) uchun optimal "o'rinn" yaratish jarayoni bo'lib, u o'ziga xos farqli xususiyatlarga ega va siyosiy bozorning ma'lum bir segmenti ehtiyojlarini aks ettiradi.

Pozitsiyalash jarayonlari mamlakat yoki mintaqadagi siyosiy bozor mazmuni va xususiyatlarini aniqlashdan boshlanadi. Ushbu bozorda saylovchilar ovozi va e'tiborini qozonish uchun siyosiy partiyalar, harakatlar va taniqli yoki endi yetishib chiqayotgan siyosiy yetakchilar raqobatlashadi. Avvalo, bozorning hali hech bir partiya yoki harakat tomonidan ifodalanmagan bo'sh segmentini aniqlash zarur. Ammo odatda siyosiy bozor bo'sh segmentlarga ega emas. Shu sababli, siyosiy reklama, PR va tashviqot yordamida bunday segment yaratish, auditoriyani ushbu partiya aynan shu ijtimoiy guruhning asosiy manfaatlarini tushunish, samarali ifodalash va himoya qilishga qodir ekaniga ishontirish kerak.

Pozitsiyalash siyosiy yetakchi yoki partiyaga quyidagilarni amalga oshirish imkonini beradi:

- o'z obrazini saylovchilar orzu qilgan siyosiy yetakchi yoki partiya haqidagi tasavvurlar bilan solishtirish;
- o'z obrazini raqibning obraziga nisbatan maqsadli auditoriyalar nigohida taqqoslash;
- alternativ pozitsiyalarning ijobjiy va salbiy tomonlarini o'rganish;
- siyosiy yetakchi yoki partiyani eng samarali ajratib ko'rsatadigan pozitsiyalarni tanlash.

Pozitsiyalash quyidagilarni nazarda tutadi:

- ushbu partiya yoki siyosiy yetakchining asl qiyofasini to'liq tahlil qilish;
- u qaysi manfaatlarni ifodalaydi va himoya qiladi;
muvaffaqiyati yoki samaradorligi birinchi galda, shaxsning oilada, guruhda, jamoada, tashkilotda, ma'lum bir mintaqaga yoki mamlakatda obyektga nisbatan ta'sir ko'rsata olish, ular bilan barqaror munosabatlarni o'rnata olish va liderlik xususiyatlarini namoyon qila olishga bog'liq.

Bugungi kunda jahondagi davlat va hukumat rahbarlarining umumiyligi soni taxminan 28 nafarni tashkil qiladi. Shuningdek, jahon miqyosidagi parlament vakillarining taxminan 26 foizini, vazirlarning esa 21 foizini xotin-qizlar tashkil qiladi. Tan olish kerak, bu – o'tgan asrga nisbatan katta o'zgarish. Lekin gender tenglik uchun hali nihoyatda kam [2]. O'zbekiston misolida aytadigan bo'lsak, "Masalan, siyosiy sohani olsak, saylov kodeksimizda deputatlikka nomzodlarning kamida 40 foizi yoki har 5 nafaridan 2 nafari ayol kishi bo'lishi zarurligi belgilangan. Hozirgi vaqtida xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 2017-yildagi 27 foizdan 35 foizga oshgan.

Xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ular o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha ham salmoqli natijalarga erishilmoqda. So'nggi 5 yil ichida O'zbekistonda ishbilarmon ayollar safi ikki baravar kengayib, o'z biznesini yo'lda qo'ygan tadbirkor xotin-qizlar soni 205 mingdan oshdi. Shuningdek, 200 mingga yaqin ayollar kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitildi. 400 mingdan ko'pi ish bilan ta'minlandi" [3].

Shu bilan birga, bugun jinslarning hokimiyatga intilishi, ularda samarali ustunlikni ta'minlay olishi, rivojlanishi borasida aniq bir metodologik xususiyatlar ham mavjudki, biz ularni bir qancha oddiy va xulq-atvor bilan bog'langan, kerak bo'lsa, shartlangan omillarda ko'rishimiz hamda aniqlashimiz mumkin. Ular ichida biologik, psixologik va ijtimoiy darajalardagi farqlar bo'lib, xotin-qizlar va erkaklar siyosiy liderligida barqaror tarzda aks etadi. Masalan:

**Biologik daraja.** Ma'lumki, erkak kishi xotin-qizlarga nisbatan jismoniy kuchliligi hamda quvvatliligi bilan ajralib turadi. Bu holat uning turli bosimlarga chidamliligi, favqulodda vaziyatlarda siyosatda faollik ko'rsata olishi, siyosiy qarorlar qabul qilishda jinsiy mantiqlarga ko'proq tayanishida, atrof-muhitda sodir bo'layotgan vogeliklardan yanada aniqroq va ko'proq xabardorligida, oila ishlariga o'ralashib qolmaganligini ro'kach qilib ko'rsata olish imkoniyatlari va hokazolarda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, erkaklarning xotin-qizlarga nisbatan siyosatdagi ishtirokiga ustunlik beradigan yana bir omil – bu ulardag'i testosterone

ekanligi ham ba'zi mutaxassislar tomonidan e'tirof etilgan [4]. Yana bir omil sifatida – diniy qarashlarning ham siyosat, ijtimoiy va ma'naviy hayotda xotin-qizlarga nisbatan erkaklarni asosiy subyekt sifatida e'tirof etishidir. Jahan dinlarining aksariyatida xotin-qizlardan payg'ambar yoki avliyolar chiqmaganligi, ularning jang-u jadallarda keng ishtirok eta olmasligi sababli ularga ko'proq maishiy vazifalar topshirilishi maqsadga muvofiq deb hisoblanganligi ko'pchiligidimizga sir emas.

**Psixologik daraja.** Ushbu daraja siyosiy liderlik sohasining muhim elementlarini, ya'nikim iroda, hissiyot, xotira, siyosiy xulq-atvorga ta'sir ko'rsatadigan xarakter kabilardan iborat. Ular ichida, birinchi, ya'ni **iroda** shaxs tomonidan chuqur anglab yetilgan psixologik element hisoblanadi. Ushbu element insonning, shaxsnинг maqsadga qaratilgan xatti-harakatlarni amalga oshirishda o'z xulq-atvorini boshqarish salohiyati, qobiliyatini o'zida aks ettiradi. Xotin-qizlarning liderligi esa erkaklar liderligidan keskin farq qiladi. Chunki, xotin-qizlar o'z siyosiy faoliyatida ko'plab stereotiplarni, jamiyatning qarshiligini, ijtimoiy xususiyatdagi tashqi to'siqlarni, o'z shaxsiy xususiyatlari bilan shartlanadigan ichki to'siqlarni yengib o'tishiga to'g'ri keladi. Dunyo tajribasidan, shuningdek, milliy xususiyatlarimizdan kelib chiqadigan bo'lsak, aytilish mumkinki, bunday "kurashlarda toblangan" xotin-qizlar esa siyosatda nafaqat erkaklardan kam emas, balki ba'zi jihatlari bilan ulardan ustunlikni ham namoyon qila oladi.

Shuningdek, siyosatda hissiyot ham muhim rol o'ynaydi. Zero, siyosiy lider xarakterida mavjud bo'lgan hissiyot uning yon-atrofiga tarqaladigan, chuqur ta'sir qiladigan, minglab odamlar ruhiyatiga kirib boradigan saohiyatdir. Ba'zan esa siyosiy lider tomonidan o'z hissiyotlarini boshqara olmaslik, uning qarorlar qabul qilishiga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa erkak siyosiy liderlarga qaraganda lider xotin-qizlarga ko'proq xosdir. Chunki, odatda, xotin-qizlarning har qanday muammoga nisbatan yondashuvni hissiyot bilan ro'y beradi. Shuningdek, xotin-qizlar odamlarni, jamoani boshqarishda emotional signallardan foydalanish asosida erkaklarga qaraganda bir mucha samarali ishlashi ko'plab misollar yordamida isbotlangan. Bunda jamoani ilhomlantira olishi, ularni faol harakatlarga unday olishi, vaziyatni his qila olishi va jamoadagi muhitni sog'lomlashtira olishi kabilar namoyon bo'ladi.

Erkaklar esa odatda, bir tomonidan, erishishgan muvaffaqiyatlarini o'zlarining shaxsiy sifatlari, qandaydir ustunliklari, mehnatsevarligi, uddabu-

ronligi bilan bog'lab maqtanishni yaxshi ko'rsalar, loyihalardagi, yoki biror-bir ishdagi muvaffaqiyatsizlikning sabablarini esa o'ziga bog'liq bo'limgan holatlar bilan izohlashga moyil bo'ladilar. Xotin qizlar esa bu holatga bir mucha teskari bo'lib, o'z muvaffaqiyatlarini omadli holatlar bilan, muvaffaqiyatsizliklarni esa o'z qobiliyatlaridagi kamchiliklar bilan izohlaydilar. Xotin-qizlar o'z xatolarini tan ola biladilar va keyingi ishlarida unday xatolarni takrorlamaslikka va qarorlar qabul qilishda ularni, albatta, hisobga olishga harakat qiladilar.

Ta'kidlash o'tishimiz lozim bo'lgan yana bir holat – bu erkak va ayol liderlarning qarorlarni qabul qilishdagi risklarga tayyorligi va unga borishi masalasidir. Masalan, erkak liderlar uchun risk bu foyda yoki zarar, g'alaba yoki mag'lubiyat, imkoniyat yoki xavf-xatar demak. Lider xotin-qizlar uchun esa bu kompaniyaning, oilaning, jamiyatning, xalqning, kerak bo'lsa, davlatning taqdiri sifatida qabul qilinadi va bu borada o'ta ehtiyojkorlik bilan qarorlar qabul qilinadi.

Va nihoyat, biz ko'rib chiqadigan so'nggi daraja – bu **ijtimoiy daraja**. Ushbu daraja jamiyatda o'rnatalgan stereotiplar, qonuniyatlar, qadriyatlar, maqsadlar va dunyoqarash bilan belgilanadi. O'tgan asrning ikkinchi yarmida, aniqrog'i 50–60-yillarda amerikalik olim Robert Stoller tomonidan ilmiy sohaga gender termini kiritilgan edi [5]. Shu yo'l bilan olim ikki tushunchani, ya'ni biologik jihatdan **jinsni** va ijtimoiy jihatdan **genderni** hayotga tatbiq qila olgan edi. Shundan so'ng gender erkak va ayollarning xulq-atvori, mental jihatlari va hissiy xususiyatlariga tayangan holda o'ynaydigan rollaridagi farqlar shakllanishining sotsiomadaniy jarayonlarini anglatma boshlagan edi. Chunki, insonning siyosatga kirib kelishi siyosiy madaniyat me'yorlari va qadriyatlarini sekin-asta o'zlashtirishni, siyosatda ma'lum bir rollarni o'ziga olishni talab qiladi. Bu jarayon esa ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning muhim institutsional jarayoni bo'lib, u siyosiy ijtimoiylashuvni keltirib chiqaradi. Shu nuqtayi nazardan ham ba'zi mutaxassislar xotin-qizlarning siyosatdagi ishtiroki erkaklarnikiga qaraganda, birmuncha ustun deya e'tirof etadilar [6].

Erkak va ayol liderlarning siyosatdagi roli gender xususiyatlar asosida turli xil strategiyalarni talab qiladi. Masalan, erkaklarning siyosatdagi ishtirokiга deyarli monelik yo'q bo'lib, ular ko'plab ijtimoiy muammolardan holi hisoblanadi va shu nuqtayi nazardan ham professional asosda rivojlanish imkoniyatlariga ega hisoblanadi. Xotin-qizlar esa aksariyat jamiyatlarda, siyosiy karyeradan ko'ra oilani tan-

laydilar, yoki siyosatda ishtirok etsalarda, birinchi galda oilaning tinchligi va farovonligi mas'uliyati ostida ishslashga majbur bo'ladi. Bu holat esa siyosiy liderlar o'rtasida notenglik raqobatini, pozitsiyasini shakllantiradi va farqlanishni tabiiy ravishda kuchaytiradi. Misol uchun, garchi, dunyo miqyosida eng demokratik davlat hisoblanishiga qaramasdan AQSHda hanuzgacha ayol Prezident bo'limganligini, bir necha saylovlarda ishtirokchi nomzod sifatida ishtirok etganligiga qaramasdan (Donald Tramp bilan mamlakat Prezidentiligi uchun kurashgan ikki ayol Xillari Clinton va Kamala Xarrisni misol sifatida keltirishimiz mumkin) ayol siyosatchilarning yutqazganligi barchamizga ma'lum. Bunday noteng ijtimoiy pozitsiya sharoitida erkaklar aksariyat holarda ustunlikka ega bo'ladilar.

Yana bir muhim jihat, ya'ni turli jamiyatlarning mental xususiyatlarini hisobga olgan holda, qayd etish lozimki, erkak va ayol siyosatchilarning ma'naviy prinsiplari ham bir-birlaridan keskin farqlanadi hamda ularning qadriyatları ham turlichcha bo'ladi. Buni bolalarning yoshlikdan tarbiya jarayonida asosiy rolni ayol kishi tomonidan bajarilayotganligini kuzatishlari, asosiy uy ishlarini bajaruvchi, oilaning, shuningdek, uy ishlarining asosiy mas'uliyatini o'z gardaniga oluvchi shaxs sifatida gavdalanganligi bilan bog'liq psixologik omillar ta'sirini aytib o'tish lozim.

Sharq-musulmon jamiyatlaridagi vaziyat ham barchamizga ayonki, xotin-qizlarning siyosatga kirib kelishi va unda faol, mas'uliyat bilan muvafqaqiyatli ishtirok etishi nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, xotin-qizlar ko'plab to'siqlarni yengib o'tishlari, oiladagi muammolarni, farzand tarbiyasi ni, katta yoshlilar va boshqa ko'plab munosabatlarni tartibga solishi talab etaladi. Shuningdek, ba'zi jamiyatlarda xotin-qizlarga o'z liderlik sifatlarini to'liq namoyon qilishlari, ularning siyosatdagi ishtirokiga doir ba'zi diniy ulamolar yoki siyosiy arboblar tomonidan turli salbiy qarashlarning ifoda etilishi bu borada ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham xotin-qizlarning siyosatdagi, mamlakat ijtimoiy va madaniy hayotidagi faol ishtirokini ta'minlashning asosiy ma'nnaviy muammoysi – bu jamiyatda qarashlarni o'zgartirish, huquqiy shart-sharoitlarni yaratish ekanligi bugun barchamizga ma'lum.

Xulosa tarzida aytish mumkinki, bugun yuksak darajadagi taraqqiyotga erishgan ko'plab mamlakatlarning tajribasining ko'rsatishicha, xotin-qizlarning siyosatdagi ishtiroki, davlat hokimiyatidagi faoliyati davlat siyosatining ko'proq ijtimoiy muammolarni hal qilish tomonga transformatsiyalashuviga olib keladi. Bu esa davlat va jamiyat hayotining farovonligi ortishining garovi deyish mumkin.

## ADABIYOTLAR

Shavkat Mirziyoyev: Inson qadrini ulug'lash avvalo azizu mukarrama ayollarni ulug'lashdan boshlanadi. 07.03.2024. <https://president.uz/uz/lists/view/7077>

Женщины-лидеры способны изменить к лучшему ситуацию в мире. – <https://news.un.org/ru/story/2022/09/1431911>

Shavkat Mirziyoyev: Inson қadrini uluflash avvalo azizu mukarrama ayollarni ulug'lashdan boshlanadi. 07.03.2024. <https://president.uz/uz/lists/view/7077>

Dabbs J.M. Testosterone and the concept of dominance // Behavioral & Brain Sciences, vol. 21, № 3, 1998, p. 370-371

Гендер как социально-культурный феномен. –[https://online.zakon.kz/Document/?doc\\_id=38174728&pos=6;-106#pos=6;-106](https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=38174728&pos=6;-106#pos=6;-106)

Denmark F.L. The older woman: myth and realities about ageing and death // International Journal of Psychology. – Stockholm, 2022, p. 221

# ADVOKATNING IQTISODIY, FUQAROLIK VA MA'MURIY SUD ISHLARINI YURITISHDAGI ISHTIROKI

**MURODULLAYEVA**  
*Narsis Alisher qizi,  
 Toshkent davlat yuridik  
 universiteti magistranti*

## ANNOTATSIYA

Advokatning sud ishlaridagi ishtiroki fuqarolar va tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish, qonuniy manfaatlарини ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy, fuqarolik va ma'muriy sud ishlari turli huquqiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lib, advokatning ushbu sohalarda faol ishtirok etishi jarayonning qonuniy, tezkor va adolatli kechishini ta'minlashga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** mediatsiya, korporativ nizolar, sud protsessi, advokat kasb etikasi.

## АННОТАЦИЯ

Участие адвоката в судебных делах имеет важное значение для защиты прав граждан и предпринимателей, обеспечения их законных интересов. Хозяйственные, гражданские и административные судебные дела связаны с различными правоотношениями, и активное участие юриста в этих сферах помогает обеспечить законность, скорость и справедливость процесса.

**Ключевые слова:** медиация, корпоративные споры, судебное разбирательство, юридическая этика.

## ANNOTATION

The participation of a lawyer in court cases is of great importance in protecting the rights and legitimate interests of citizens and entrepreneurs. Economic, civil and administrative court cases are related to various legal relations, and the active participation of a lawyer in these areas helps to ensure the legal, prompt and fair conduct of the process.

**Key words:** mediation, corporate disputes, litigation, legal ethics

Advokat – bu shaxslarning huquq hamda manfaatlarini qonun doirasida himoyalovchi shaxs. Kishilar ma'lum muammoli vaziyatlarda huquqiy yordam olish uchun advokatga murojaat qiladi. Advokatlar, shuningdek, kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini olish uchun ham huquqiy yordam ko'rsatadi. Bir so'z bilan aytganda, advokat shaxslarning har qanday holatda, qonuniy ravishda haq evaziga xizmat asosida kishilarning manfaatlarini himoyasi ostiga oladi.

Advokat davlat himoyasida, uning xavfsizligi va manfaatlarini davlat o'z himoyasiga olgan. Avvalo, mazkur huquqlarini o'zi amalga oshiradi, ya'ni, boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bilan birga, o'zining huquq va manfaatlarini ham himoya qiladi. Advokatlarda daxlsizlik huquqi mavjud emas.

Advokat manfaatini himoya qiluvchi shaxs, ya'ni mijozining manfaatlarini sudda, huquqni himoya qiluvchi organlarda va boshqa hollar da himoya qilishga haqli. Bunda mijoz advokatning qay hollarda himoya qilishini xohlasa, o'sha vaziyatda himoya qiladi. Advokat va mijoz o'zaro tuzilgan shartnomasida aynan advokat mijozning qaysi huquqlarini, manfaatlarini amalga oshirishini aynan keltirib o'tishi kerak. Chunki advokatning himoya qilish davomidagi vakolat doirasi aynan shartnomaga asosan belgilanadi.

Advokatlar ijtimoiy ahamiyatga ega shaxslar sirasiga kiradi. Bunda ular adolat va qonuniylik uchun xizmat qiladi. Ular jamiyatda huquqbazarlik, huquqiy ongsizlik hamdaadolatsizliklarga qarshi kurashib, kishilarga o'z haq-huquqlarini, manfaatlarini himoya qilishda yordam beradi. Shuningdek, advokatlar mediativ harakatlarni amalga oshirish orqali, kishilar o'rtasida huquqiy savodxonlikni oshirish, odamlarning huquqiy bilimlari va madaniyatini yuksaltirishda ham katta yordam beradi.

Advokatning ijtimoiy ahamiyati yana shundan iboratki, ular odamlarni qonuniy yo'l bilan o'z haqlarini himoya qilishga o'rgatishadi va qonunchilikka bo'lgan ishonchni mustahkamlashadi.

Hech bir qonunchilik normalari inson huquqlariga zid kelmasligini tushuntiradi. Huquqlaridan foydalanish, ularni tegishli organlar hamda shaxslardan talab etish haqida tushuncha berishadi. Natijada jamiyatda huquqiy madaniyat shakllanadi va har bir shaxs o'z haq-huquqlarini to'g'ri anglaydi va himoya qila oladi.

Demak, advokat o'z vazifasini iqtisodiy, fuqarolik, ma'muriy hamda jinoiy sudlarda amalga oshirishi mumkin. Iqtisodiy, fuqarolik, ma'muriy sudlarda advokat alohida tartibda amalga os-hiradi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotga ko'ra, advokat va mijoz o'rtasidagi shartnomada aynan qaysi huquqlaridan foydalanishi masalasi aynan mana shu toifadagi sudlar uchun nisbatan ko'proq qo'llaniladi.

Fuqarolik, ma'muriy hamda iqtisodiy sud ishlarida advokat fuqarolarning, shuningdek, yuridik shaxslarning huquqlarini himoya qilishda, odil sudlovga erishishda muhim vazifalarni amalga oshiradi. Advokatning asosiy vazifalari va advokatning ahamiyati quyidagicha:

Fuqarolik sud ishlarida:

Fuqarolik ishlari advokat fuqarolik huquqi obyekti doirasidagi ishlar, odatda shaxsiy huquq doirasi, masalan, mulk, oilaviy nizolar, shartnomaviy nizolar, shuningdek, mehnat nizolari kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Fuqarolik sud ishlarida advokat:

- shaxslarga sudda o'z huquq va manfaatlarini himoya qilishga yordam beradi;
- sud protsesslarida mijizi nomidan yoki birgalikda ishtiroy etadi;
- dalillarni isbotlash, hujjatlarni toplash, yuridik hujjatlar tayyorlash va sudga taqdim etish kabi masalalarda yordam beradi;
- sud majlisida asosli dalillarni keltiradi va savollar bilan ishlarni huquqiy tomondan asoslaydi, narigi tarafga savollar bilan murojaat etishi mumkin.

Fuqarolik protsessida advokat mijozini himoya qilishi davomida, protsessual harakatlari bilan mijoziga nisbatan bevosita huquqiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin. Amaliy yuridik yordam ko'rsatish jarayonida advokat ishonch bildiruvchining, ya'ni mijozining huquq va manfaatlari qanday vositalar bilan himoya qilinishining eng samarali usulini aniq belgilaydi. Bunda barcha xatti-harakatlar qonun doirasida bo'lishi kerak. Qonun doirasidan chetga chiqish

har qanday sabab bo'lmasin javobgarlikka olib keladi.

#### Iqtisodiy sud ishlarida:

Iqtisodiy ishlar ko'pincha yuridik shaxslar, kompaniyalar va tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi nizolar bilan bog'liq bo'lib, mulk huquqi, shartnoma shartlarining buzilishi va boshqa moliyaviy masalalar, korporativ nizolarni qamrab oladi. Iqtisodiy sud ishlarida advokat:

- sud protsessida mijozning manfaatlarini himoya qiladi. Asosan iqtisodiy ishlarda taraflar yuridik shaxs bo'lganligi uchun, mizojning nomidan ishtirok etadi;

- kompaniyalarga (yuridik shaxslarga) o'z moliyaviy manfaatlarini himoya qilishda huquqiy va amaliy yordam beradi;

- shartnoma huquqiga oid masalalar, korporativ nizolar, kredit va qarzlarni qaytarish, shuningdek, soliq doirasidagi ayrim masalalar bilan bog'liq ishlarni olib boradi;

- ishni hal qilishda mediatsiya, kelishuv va boshqa nizolarni hal qilishning muqobil usullarini qo'llaydi, bu orqali nizolarni tez va samarali hal qilishga yordam beradi;

- dalillarni yig'adi, huquqiy hujjatlar tayyorlash masalalarini amalga oshiradi;

- iqtisodiy sud ishlarida sud majlisida ovoz yozib olish huquqini amalga oshirishi mumkin.

#### Ma'muriy sud ishlarida:

Ma'muriy ishlar davlat organlari va shaxslar yoki yuridik shaxslar o'rtasidagi nizolarni qamrab oladi. Bu, masalan, davlat organlarining qarorlari, jarimalar, soliq organlari bilan bog'liq nizolarni o'z ichiga oladi. Ma'muriy sud ishlarida advokat:

- davlat organlari tomonidan qilingan harakat yoki harakatsizlik, shuningdek, qarorlarining qonuniyligini tahlil qiladi;

- mijozining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun ariza, shikoyat va boshqa zaruriy hujjatlarni tayyorlaydi.

- ma'muriy sud ishlarida davlat organi tomon bo'lмаган ikkinchi taraf huquqlarini va manfaatlarini amalga oshiradi.

Iqtisodiy, fuqarolik va ma'muriy sud ishlarida advokat faoliyatining ahamiyati quyidagicha:

- huquqiy maslahat; mijozga o'z huquqiy pozitsiyasi, huquq va manfaatlarini himoya qilishi, shu bilan birga kelajakda kelib chiqishi mumkin bo'lgan, huquq va manfaatlariga daxl qilishi mumkin bo'lgan holatlarning oldini olish

masalalarida huquqiy va amaliy maslahat berish orqali huquqiy xatolarga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashadi;

- vakillik; sudda mijoz nomidan ishtirok etadi va uning manfaatlarini himoya qiladi. Bu shartnomaviy vakillik sanaladi.

- ishni tayyorlash va olib borish; sud jarayonida dalillarni keltirib, ularni asoslash, qonuniy pozitsiyani mustahkamlash, ishni ochiqlash uchun narigi tarafga asoslantiruvchi savollar berish va boshqa turdag'i holatlarda huquqiy yordam ko'rsatadi.

Umuman olganda, xulosa qilib aytadigan bo'lsak, fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy sud ishlarida advokatning ishtiroki odil sudlovga erishishni ta'minlaydi, fuqaro va tadbirkorlarning qonuniy huquqlarini himoya qilishga yordam beradi hamda nizolarni qonuniy va samarali hal qilishni osonlashtiradi.

Advokatlar mazkur uch yo'nalishda o'zining huquqiy bilimlari va tajribasidan foydalangan holda himoyasi ostidagi shaxslar uchun optimal yechimlarni taqdim etadi va huquqiy jarayonlar orqali adolat va qonuniylikni qaror toptirishga yordam beradi.

Advokatning iqtisodiy, ma'muriy va fuqarolik sud ishlaridagi ishtiroki jamiyatda huquqiy himoya va adolatni ta'minlash uchun tayanch vosita hisoblanadi. Bu orqali advokatlar:

Sud jarayonlarining adolatli va qonuniy o'tishini talab etadi. Ular qonuniy hujjatlar va dalillar asosida mijozlar huquq va manfaatini himoya qiladi, shuningdek, sudda adolatli qarorlar qabul qilinishiga yordam beradi.

Fuqarolar va tadbirkorlarning (jismoniy va yuridik shaxslarning) huquqlarini himoya qiladi. Advokatlar fuqarolik va iqtisodiy nizolarda jismoniy va yuridik shaxslarning qonuniy manfaatlarini himoya qilib, ularning huquqlarini tiklashda muhim o'r'in egallaydi.

Davlat va jamiyat o'rtasidagi huquqiy barqarorlik, tenglik va qonuniylikni mustahkamlashga yordam beradi. Ma'muriy sudlarda advokatlar davlat organlari bilan yuzaga kelgan nizolarni qonuniy asosda, asosan mediativ usulda hal etishda ishtirok etadi. Bu bilan davlat va jamiyat o'rtasidagi huquqiy hamjihatlikni mustahkamlashga ko'maklashadi.

Xulosa o'rniда, advokatlar mazkur uch yo'nalishda maqbul yakunga erishish uchun

avvalo bilim va tajribaga ega bo'lishi kerak. Ayrim farqli jihatlarni inobatga olmaganda uchala sud protsessida ham deyarli bir xil pozitsiyada, bir xil huquqda va deyarli bir xil ishlarni amalga oshiradi.

Dalillarni yig'ishda, mijozlarning huquqlarini himoya qilish usullari ishlarning turiga qarab farq qiladi. Masalan, oilaviy munosabatlardagi nizolarda, fuqarolik sudi uchun oilaviy nizo doirasidagi dalillar hamda hujjatlarni yig'adi. Iqtisodiy ishlarda esa, iqtisodiy nizo doirasidagi ma'lumot va hujjatlar qonuniy sanaladi. Nizo doirasidan chetga chiqishi, nizoga aloqasi yo'q bo'lgan ma'lumotlar yig'ish advokatning kasb etika qoidalariga zid sanaladi.

Yuqorida aytganimizdek, iqtisodiy sud protsessida advokat ovoz yozib olish qurilmasidan foydalanishi mumkin. Bu boshqa sud protsesslaridan ajralib turadigan farqli jihatni.

Fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy ishlardan doirasidagi barcha huquq, majburiyat va vakolatlar qonunchilik normalariga ko'ra birga yozilgan. Bunga ko'ra qonunchilikda aynan uchala turdag'i sud protsesslarining farqli jihatlarini emas, balki o'xhash jihatlarini ko'rshimiz mumkin. Ma'muriy sud ishlarida advokatlik faoliyatining ajralib turadigan bir jihatni, advokat boshqa turdag'i sud ishlariga qaraganda ma'muriy sud ishlarida sudgacha bo'lgan protsessda kerakli hujjatlarni tayyorlashi, ko'rileyotgan ishga taalluqli bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni to'liq o'rganib chiqishi, davlat organi bo'lgan narigi tarafning ichki reglamenti va unga taalluqli bo'lgan hujjatlar bilan tanishib chiqishi kerak bo'ladi. Bu narigi taraf davlat organi ekanligini unutmagan holda ishni o'z foydasiga hal etishning garovi hisoblanadi.

Advokatlikning jamiyatdag'i roli uning faqat bir qismiga xizmat qiladigan kasb emas, balki davlat va xalq o'rtasida adolatni ta'minlashga yordam beruvchi shaxs ekanligini ko'rsatadi.

Ma'muriy, iqtisodiy va fuqarolik sud ishlarida advokatlarning ishtiroki har bir davlatda turlicha, ba'zi xorijiy davlatlarda advokatlarning mazkur sohalardagi o'rni hamda vakolatlari davlat huquqiy tizimi samaradorligini oshirishga katta yordam beradi. Quyida AQSH, Germaniya va Yaponiya davlatlari tajribasiga ko'ra, ularning ijtimoiy-huquqiy ahvoli va ahamiyatining o'xhash hamda farqli jihatlarini ko'rib chiqamiz:

1. AQSH tajribasiga ko'ra advokatlar fuqarolik, ma'muriy va iqtisodiy sud ishlarida katta rol o'ynaydi. Ushbu davlatda advokatlar uchun himoyasi ostidagi shaxslarga sudda vakillik qilishda keng imkoniyatlar bor. Masalan:

- fuqarolik ishlarida: advokatlar odatda sudda barcha jarayonlarni o'zları olib boradi. Sud protsessi asosan hakamlar hay'ati tartibida o'tkaziladi, shu sababli advokatlarning mijoz pozitsiyasini himoya qilishi hamda hakamlar hay'ati oldida dalillarni taqdim etishi juda muhim;

- iqtisodiy ishlarda: iqtisodiy nizolarni hal qilishda advokatlar shartnoma huquqi, bankrotlik va soliqqa oid murakkab tusdagi masalalarda huquqiy yordam ko'rsatadi. Shuningdek, mediat-siya va arbitraj kabi nizolarni hal qilishning muqobil yo'llaridan keng foydalanadi. Shu o'rinda o'zimizning qonunchiligidan bilan taqqoslaganda, bizda advokatlar jinoyat doirasidan tashqari barcha holatlarda mediat-siya amalga oshirishi mumkin, AQSHda esa faqat iqtisodiy ishlarda amalga oshirishi mumkin;

- ma'muriy ishlarda: advokatlar ma'muriy sudlarda davlat organlarining qarorlari va harakatlariga qarshi shikoyat berish, davlat huquqini himoya qilishga ko'ra katta rol o'ynaydi. Ma'muriy sudda vakillik qilish orqali advokatlar fuqaro va kompaniyalarning davlat idoralariga qarshi huquq va manfaatlarini himoya qilishda muvaffaqiyatli ishlashi uchun yordam beradi.

2. Germaniya tajribasiga ko'ra, advokatlar huquqiy tizimning ajralmas qismi bo'lib, sud ishlari va mediat-siya jarayonlarida faol ishtirok etishadi:

- fuqarolik ishlarida: advokatlar odatda sud jarayonida mijozning manfaatlarini himoya qiladi, ammo aksariyat hollarda mediat-siya orqali nizolarning muqobil hal etilishiga harakat qilishadi. Mediat-siya sud tizimiga kirmaydi, biroq advokatlar vositachilik qiladi hamda bu bilan vaqt va mablag'ni tejashta erishishadi. Demak, Germaniyada rasmiy sud tizimidan ko'ra mediatsiyani ustun qo'yishadi;

- iqtisodiy ishlarda: iqtisodiy sud ishlari, ayniqsa kompaniyalar va tadbirkorlar bilan yuzaga keladigan nizolar, odatda korporativ huquq va shartnoma huquqiga asosan amalga oshiriladi. Advokatlar biznes huquqida chuqr bilim va tajribaga ega bo'lishi, tadbirkorlarning qonuniy

manfaatlarini himoya qilishda ko‘maklashishi kerak;

– ma’muriy ishlarda: ma’muriy sud ishlarida advokatlar davlat organlariga nisbatan shikoyat arizalarini o‘rganadi va tayyorlaydi, ularning harakatlari qonuniyligiga huquqiy baho beradi. Advokatlarning davlat idoralariga nisbatan mustaqil pozitsiyasi davlat xizmatlarining yanada ochiq, shaffof va samarali ishlashiga yordam beradi.

3. Yaponiya tajribasiga ko‘ra, advokatlar fuqarolik va iqtisodiy nizolarda ishtirok etish bilan birga, ma’muriy ishlarda ham muhim vazifalarni amalga oshiradi. Ammo Yaponiya tajribasi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi;

– fuqarolik ishlarda: Yaponiya huquqiy tizimida advokatlar ishni sudga olib chiqishdan ko‘ra, sudgacha bo‘lgan muqobil usullarda hal etishni afzalroq ko‘radi. 90% ishlar sudgacha hal bo‘ladi. Sud ishlarini sudgacha hal qilish odatiy hol hisoblanadi va advokatlar bu jarayonda faollik bilan ishtirok etadi;

– iqtisodiy ishlarda: iqtisodiy nizolarda advokatlar kompaniyalarga sud jarayonlaridan qochish va nizolarni oldindan bartaraf etishga yordam berish uchun huquqiy maslahatlar beradi, kelishmovchiliklarni hal etishda amaliy yordam ko‘rsatadi. Korporativ va tijorat nizolarini arbitraj orqali hal qilish ko‘p uchraydi;

– ma’muriy ishlarda: Yaponiyada davlat boshqaruvi tizimi ancha shaffof va ishonchli

bo‘lib, ma’muriy sudlarga murojaat qilish kam uchraydi. Biroq zaruriy hollarda advokatlar davlat idoralariga nisbatan fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlarini himoya qilishda, shikoyat va arizalar berishda ishtirok etadi. Ammo bunday holatlar juda kam uchraydi.

Mazkur uchala davlat tajribalari shuni ko‘rsatadiki, advokatlar faqat mijozning manfaatlarini himoya qilibgina qolmay, ularni sudgacha kelishtirish usullarini amalga oshirar ekan. Barchaga ma’lumki, mazkur sanab o‘tilgan davlatlar ijtimoiy-siyosiy holatiga ko‘ra, davlat sudida ko‘riladigan ishlar hajmi ko‘p emas. Shu orqali ular har bir sud ishining sifatli, adolatli ko‘rilishini ta’minlaydi. Bunga eng katta yordam ko‘rsatuvchi shaxslar advokatlar hisoblanadi. Ular nizolarni sudgacha hal etish choralarini ko‘radi, mediatsiya, arbitraj kabi ishlarda ko‘maklashadi. Bu orqali shaxslarning ixtiyoriy ongli ravishdagi muqobil kelishuvlarga erishishida ko‘maklashadi. Bu huquqiy ong oshganligining yaqqol misoli. Ushbu uchala davlat tajribasi advokatlar rolining huquqiy tizimga qanday ta’sir ko‘rsatishi hamda ularning fuqarolik, iqtisodiy va ma’muriy sud ishlaridagi ishtirokini samarali tashkil etish mumkinligini isbotlaydi.

Advokatning iqtisodiy, fuqarolik va ma’muriy sud ishlaridagi ahamiyati, roli kabi jihatlarni ko‘plab olimlar ilmiy, nazariy o‘rganishgan hamda ayrim fikrlarni keltirib o‘tgan.



Q.To‘raqulov “Fuqarolik protsessual huquqi” nomli asarida advokatning fuqarolik sudsidagi ishtirokining ahamiyati va vazifalarini yoritib bergan. Q.To‘raqulovning nazariyasiga ko‘ra, advokatlar fuqarolik ishlari bo‘yicha sudda himoya qilish orqali fuqaroning huquq, erkinlik hamda manfaatlarini ta’minlashda muhim o‘ringa ega. Ularning ishtiroki vakillikka asoslangan bo‘lib,adolatli sudslovga erishishning asosiy elementlaridan biri sanaladi.

Sh. M. Mirziyoyev (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti) o‘z nutqlaridan birida fuqarolik va iqtisodiy sudsida adolatni ta’minlashga yordam berishda advokatlarning roli va ahamiyatini ta’kidlagan edi. Ayniqsa, iqtisodiy sudsida advokatlarning huquqiy savodxonligi va tajribasi tadbirkorlarning manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etishini alohida keltirib o‘tgan. Yangitdan qabul qilingan Konstitutsiyamizda ham advokatlik haqida alohida bob mavjud ekanligi, advokatlarning talabi, kafolati va boshqa zaruriy jihatlar yuzasidan muhim norma ekanligi fikrimiz dalilidir.

T. Madrahimov va O. Xusanov o‘zlarining “Iqtisodiy sud islohotlari va advokatlarning o‘rnii” maqolasida iqtisodiy sudsida advokatlarning vakolatlari va sud islohoti jarayonida ularning roli haqida fikr bildirganlar. Ularning ta’kidlashiga ko‘ra, iqtisodiy sudsida advokatlarning himoya funksiyalari tadbirkorlar, umumiy qilib aytganda, yuridik shaxslarning huquqiy manfaatlarini himoyalash uchun zarurdir. Bunda advokatlar yuridik shaxslarning yuzaga kelgan hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizoli holatlarini aniqlash va bartaraf etishda yordam berish vazifasini bajaradi. Shaxsiy fikrimga ko‘ra, barcha turdagli sud jarayonlarida advokatlarga ehtiyoj mavjud. Ko‘pgina hollarda iqtisodiy ishlarda tomonlar advokat yoki yuridik shaxslarning yuristi bo‘ladi. Bunda sud muhokamasi tez, asosli, ortiqcha tushuntirishlar talab etmagan holda bo‘lib o‘tadi. Chunki taraflarning yuridik mutaxassislikda ekanligi ishni osonlashtiradi. Agar taraflardan biri o‘z advokati yoki tashkilot yuristi bilan ishtirok etsa, ikkinchi taraf ishni o‘z foydasiga hal qilishda ancha qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shu sababdan, asosan, iqtisodiy ishlarning taraflarini advokatlar yoki tashkilot yuristlari tashkil etadi deb hisoblayman.

G.Ashurova “Ma’muriy protsessual huquqi asoslari” nomli kitobida advokatlarning ma’muriy sud jarayonlarida ishtiroki to‘g‘risida batafsil to‘xtalib o‘tgan. Uning fikriga binoan, advokatlar ma’muriy sudsida davlat organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar va harakatlarga qarshi murojaat etishda fuqarolar manfaatlarini himoya qilishning asosiy vakillari hisoblanishini ta’kidlagan hamda sohada kamchiliklarmavjudligi va uni yanada rivojlantirish uchun takliflar ishlab chiqish zaruriyatini mavjudligini keltirgan. Fikrimga ko‘ra advokatlarning vakolatini yanada mustahkamlash kerak. Amaliyotda ular o‘z vazifasini to‘liq amalga oshirishi uchun yetarli vakolatga ega emas.

Mazkur adapiyotlarda advokatlarning turli sud organlaridagi vazifalari, ishtiroki va umuman olganda ahamiyati yoritilgan hamda O‘zbekiston sud-huquq tizimidagi islohotlarning asosiy vazifalari aks ettirilgan. Mazkur olimlar O‘zbekistonning huquqiy tizimini yanada rivojlantirish va mustahkamlashda advokatlarning hissasini ko‘rsatadi. Konstitutsianing advokatlikka oid bandiga ko‘ra jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik xizmat ko‘rsatish – advokatura vakolatiga tegishli. Demak, bu o‘z-o‘zidan jamiyatda yetarlicha miqdorda, yetarlicha bilim hamda tajribaga ega malakali advokatlar salmog‘ini oshirishni talab etadi. Amaliyotda advokatlik xizmati ko‘rsatish sifati oshganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin, ammo advokatlar soni O‘zbekiston aholi soniga nisbatan ancha kam. Asosan, Toshkent shahrida advokatlar soni ko‘p, boshqa viloyatlarda esa bu ko‘rsatkich ancha past.

Amerikalik huquqshunos va sotsiolog Richard L. Abel advokatlik instituti, advokatning jamiyat va sud tizimidagi o‘rnini o‘rganib, ularning sud jarayonlaridagi vazifalarini keng tahlil qilgan. Uning fikriga ko‘ra, advokatlar fuqarolik va iqtisodiy sud jarayonlarida mijozlarning huquqiy manfaatlarini himoya qilish bilan birga, nizolarni hal qilishning muqobil yo‘llarini izlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, advokatlar orqali nizolar mediatsiya yoki arbitraj orqali hal qilinsa, sud jarayonlari soddalashadi va sifatli, tez bo‘ladi, Abel, advokatlar faoliyati va ularning jamiyatdagi o‘rnini sotsiologik jihatdan o‘rganib, sud tizimi uchun advokatlar zarurligi, shuningdek, ular jamiyatda huquqiy

madaniyatni oshirishda katta ta’sirga ega ekanligini ta’kidlaydi. U, shuningdek, ma’muriy ishlar bo‘yicha advokatlarning davlat va fuqaro munosabatlarini muvozanatda saqlashda muhim vazifalarni bajarishini qayd etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, olimlarning fikrlari advokatlarning huquqiy tizimdagi rolini chuqur o‘rganishga asos yaratib beradi hamda nizolarni hal etishda advokat ishtirokining kishilar uchun huquqiy adolatga erishishda zarur omil ekanligini ko‘rsatadi. Umumiylasaga ko‘ra, jahon tajribasida ko‘plab davlatlarda ish sudgacha hal etilishi holatlari ko‘p uchraydi. Demak, bunda asosiy nizolarni muqobil hal etishga yo‘naltiruvchi shaxslar – advokatlar. Shuningdek, ko‘plab davlatlarda ish sudga taqdim etilganda, sud dastlab muqobil hal etishni taklif qiladi. Advokatlar esa mazkur holatni anglagan holda dastlab ongli ravishdagi ixtiyoriy kelishuvga asoslangan mediatsiya yoki arbitrajni tavsiya etadi. Olimlarning advokatlik faoliyatiga

oid nazariy fikrlari jahon tajribasida amaliyotga tatbiq etilgan. Bu holatni o‘zimizning davlat misolida qaraydigan bo‘lsak, afsuski, bizda advokatlar mediatsiya, arbitraj yoki hakamlik svididan ko‘ra ko‘proq davlat svidida ish ko‘rishi afzal deb bilishadi. Bizda advokatlar ongiga mediatsiya usulida nizoni muqobil hal etish eng afzal usul ekanligi singdirilmaydi, aniqroq qilib aytganda, ularga tushuntirilmaydi va talab ham etilmaydi. Bundan kelib chiqadiki, jamiyatda insonlar huquq va manfaatlarini himoya etuvchi shaxslar buni tushunmasa, qolgan kishilar qanday tushunchaga ega bo‘lishi mumkin? Kishilar o‘rtasidagi nizolarni muqobil usulda hal etish usulini yanada kengaytirish va tatbiq etishni tavsiya qilaman. Advokatlar faqat sudda mijozning manfaatini himoya qilishi emas, balki mediatsiyada yoki arbitrajda ham manfaatlarini himoya qilishi mumkin.

**Taklif.** Fuqarolik ishlaridagi nizolarni dastlab mediatsiya tartibida ko‘rish majburiy etib belgilanishi lozim.

## ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Advokatura to‘g‘risida”gi qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi.
5. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi.
6. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy protsessual kodeksi.
7. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

**ANNOTATSIYA**

# SUDYALAR MUSTAQILLIGI INSTITUTINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

**ATAJANOV**  
*Azizbek Abdimalikovich,  
yuridik fanlari bo'yicha falsafa  
doktori(PhD)*

Ushbu maqolada sudyalar mustaqilligi instituting tarixiy shakllanishi va rivojlanishi tahlil qilinadi. Qadimgi Bobil, Yunon, Rim va Islom huquq tizimlarida sudyalar mustaqilligining asosiy tamoyillari va amaliy misollari ko'rib chiqiladi. Maqolada XVIII–XIX asrlarda demokratik islohotlar natijasida mustaqil sud tizimlarining shakllanishi, shu jumladan AQSH va Fransiya misolida hamda xalqaro standartlar asosida zamonaviy sud tizimlarining rivojlanishi haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** Sudyalar mustaqilligi, qonun ustuvorligi, xalqaro standartlar, sud hokimiysi, adolat, sud jarayonlari, konstitutsiyaviy huquq, huquqiy tizimlar.

**АННОТАЦИЯ**

В статье анализируется историческое формирование и развитие института независимости судей. Рассматриваются ключевые принципы и практические примеры обеспечения независимости судей в правовых системах Древнего Вавилона, Греции, Рима и исламского права. Особое внимание уделяется демократическим реформам XVIII–XIX веков, приведшим к созданию независимых судебных систем, в том числе на примере США и Франции, а также развитию современных судебных систем на основе международных стандартов.

**Ключевые слова:** независимость судей, верховенство закона, демократические реформы, историческое развитие, международные стандарты, судебная власть, справедливость, судебные процессы, конституционное право, правовые системы.

**ANNOTATION**

This article analyzes the historical formation and development of judicial independence. It examines key principles and practical examples of judicial independence in the legal systems of Ancient Babylon, Greece, Rome, and Islamic law. Particular emphasis is placed on the democratic reforms of the 18th-19th centuries that led to the establishment of independent judicial systems, including the examples of the United States and France, as well as the development of modern judicial systems based on international standards.

**Key words:** Judicial independence, rule of law, democratic reforms, historical development, international standards, judiciary, justice, judicial processes, constitutional law, legal systems.

Sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlashga bo'lgan harakatlar yer yuzidagi dastlabki sivilizatsiyalar davridan shakllana boshlagan bo'lsa-da, mazkur konsepsiyanı sezilarli darajada qo'llab-quvvatlanishi o'rta asrlar Yevropasida, xususan, uyg'onish davrida kuzatildi. Aynan shu davrda Monteskyo(Sharl-Lui Sekonda) "Qonunlar ruhi haqida" asarida hokimiyatning bo'linishi haqidagi nazariyani ilgari surdi<sup>1</sup>.

Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, Mesopotamiya va Misr kabi qadimgi davlatlarda hukmdorlar nizolarni hal qilish va amaldagi qonunlar va urf-odatlarga muvofiq odil sudlovni amalga oshirish uchun sudyalarini tayinlashgan. Biroq o'sha davrdagi sud mustaqilligi tushunchasi hozirgi mavjud sudlar mustaqilligi tushunchasidan mutlaqo farq qilib ushbu davlatlarda sudyalar hukmdorlarning xohish-irodasiga butkul bo'ysunishgan.

Sudyalar mustaqilligiga oid ilk manbalarni qadimgi Bobil davlatining huquq tizimida ko'rish mumkin. Bobil hukmdori Xammurapi(miloddan avvalgi XVIII asrda hukmronlik qilgan) tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan qonunlar to'plami bu boradagi ilk to'laqonli huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Xammurapi qonunlari jamiyatda adolatni ta'minlash, ijtimoiy tartibni mustahkamlashga qaratilgan edi.

Xammurapi qonunlarining ba'zi bandlarida sud jarayonlari va sudyalar faoliyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur qonunlar sud qarorlarining adolatli va xolis bo'lishiga qaratilgan normalarni o'zida mujassam etgan. Masalan, suda tomonidan qabul qilingan qarorlar qonunlarni buzmasligi va sud jarayonidagi barcha ishtirokchilarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lishi kerak edi. Agar suda tomonidan qilingan xatolar yoki nohaq qarorlar aniqlansa, unga nisbatan jazo choralar qo'llanilgan, bu esa sudyalarning adolatli va qonunlarga amal qilgan holda ish yuritishini rag'batlantirgan.

Xamurappi qonunlarida aynan sudyalarni mustaqilligini ta'minlash bo'yicha moddalar kiritilgan. Xususan, Bobil sudyalari ko'pincha o'z mansabini suiiste'mol qilgan. Buni Xammurapi qonunlarining 5-moddasi tasdiqlaydi, u yerda suda o'z qarorini maxsus hujjatga, ya'ni loy

<sup>1</sup> Монтескье III. О духе законов. Кн. 10-19. – Москва: Директ-Медиа, 2011.

taxtaga muhr bilan yozib bo'lgandan keyin uni o'zgartirgani uchun jazo ko'zda tutilgan. E'tiborlisi shundaki, bunday noqonuniy harakatda aybdor deb topilgan suda o'z vazifasidan chetlashtirilib, sud ishlarini yuritish huquqidan mahrum qilingan. Diqqatga sazovor jihatni bunday jazo podshoh tomonidan emas, balki jamoa yig'ilishi tomonidan berilgan<sup>2</sup>.

Qadimgi Yunoniston huquqiy tizimi va undagi sud jarayonlari sudyalar mustaqilligiga oid qoidalarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Yunonistonning demokratik davlat sifatidagi shakllanishi va uning huquqiy madaniyati jahon tarixida sudyalar faoliyatining mustaqilligi va adolatlilikini ta'minlashga qaratilgan dastlabki konsepsiyalardan birini joriy etgan.

Afina sud tizimidagi eng mashhur shakllardan biri gelieya(Heliaia) bo'lgan. Gelieya sudlari demokratik yo'l bilan tashkil etilgan bo'lib, fuqarolar tomonidan saylangan sudyalardan iborat edi. Sudyalarning adolatli va xolis qaror qabul qilishi juda muhim bo'lib, ularning faoliyatini jamiyat oldida shaffof bo'lishi lozim edi. Sud jarayonlarida ayblov va himoya taraflari o'z pozitsiyasini erkin bildirishlari mumkin bo'lgan va bu jarayonlarda sudyalar har qanday tashqi ta'sirlardan xoli bo'lishi talab qilingan<sup>3</sup>.

Yunonistonda sud jarayonlari "qonun ustuvorligi" tamoyiliga asoslangan edi. Qonunlar yunonlar uchun muqaddas hisoblangan va sudyalar qarorlar qabul qilishda faqat qonun va adolatga asoslanishi shart edi. Sud jarayonlari odatda jamoatchilik ishtirokida o'tkazilgan, bu esa sudyalar ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlagan. Demokratik Afina sud tizimida sudyalarning mustaqilligi va adolatli qarorlar qabul qilish majburiyati yuksak baholangan.

Qadimgi Yunonistonda sudyalarning mustaqilligi, ularga hokimiyat vakillari va jamiyat ta'sirini ko'rish uchun biringa faylasuf Suqrot ustidan o'tkazilgan sud jarayonini o'rganish kifoya qiladi. Suqrotni ayblovchilar uni jamiyatning e'tiqodlariga zid fikrlar bildirish va yoshlarni buzg'unchilikka chaqirishda ayblagan. Suqrot sudi ko'p jihatdan qadimgi Yunonistondagi sudyalar mustaqilligi va adolat prinsiplarining

<sup>2</sup> Законы царя Хаммурапи / Методические указания по изучению первоисточника в курсе "История государства и права зарубежных стран" для студентов специальности "Юриспруденция" всех форм обучения. – <https://clck.ru/3E8QYB>

<sup>3</sup> Кудрявцева Т.В. Народный суд в демократических Афинах. – М.: Изд-во "Алетея", 2008. – 464 с.

murakkab tarafiga ishora qiladi. Ushbu sud jarayoni sudyalar ustidan tashqi ta'sirlar bo'lishi mumkinligini ko'rsatgan, chunki Suqrot ustidan o'tkazilgan sud Afina jamoatchilik fikri bilan chambarchas bog'langan edi. Bunda sudyalarning mustaqil qaror qabul qilish imkoniyati cheklangan, chunki jamoatchilik fikri sud jarayoniga katta ta'sir ko'rsatgan<sup>4</sup>.

Qadimgi Yunonistonda sudyalar mustaqilligi jamiyat uchun adolatlilik va qonuniylikni ta'minlashda muhim rol o'ynagan. Sud jarayonlari ochiq va shaffof bo'lishi, sudyalarning har qanday tashqi bosimlardan himoyalanishi talab qilingan. Afina demokratiyasida sud tizimining fuqarolar tomonidan nazorat qilinishi ham sudyalarning adolatli qarorlar qabul qilishida muhim omillardan biri bo'lgan.

Bundan tashqari, Yunonistonda sudyalar mustaqilligi nafaqat qonun ustuvorligini ta'minlash, balki jamiyatdagi ijtimoiy adolat va ishonch muhitini saqlab qolish uchun ham muhim bo'lgan. Sud tizimidagi har qanday adolatsizlik jamiyatda tartibsizlikka olib kelishi mumkinligi ayon edi.

Rim Respublikasi(mil.avv. 509-27-yillar) davrida Rim huquqi rivojlandi va sud jarayonlarida adolatlilikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etdi. Pretorlar (yuqori sud mansabdlari) va boshqa magistratlar sud jarayonlarini olib borishgan va ular fuqarolar manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o'ynashgan. Sudyalar mustaqilligiga bo'lgan ehtiyoj ortib, sud tizimida ayrim mustaqillik elementlari paydo bo'la boshladi. Pretorlar sud jarayonida fuqarolar manfaatlarini himoya qilish uchun maxsus vakolatlarga ega bo'lishgan. Pretorlar o'z faoliyatida qonunlarni adolatli va xolis qo'llashlari shart bo'lgan. ular fuqarolar manfaatlarini himoya qilishda tashqi ta'sirlardan himoyalangan holda ish yuritgan<sup>5</sup>.

Respublika davridan boshlab Rim davlati sudyalarni tasodify tanlash asosida maxsus sud organlarini tuzishga murojaat qila boshladi. Bu sud organlari jinoiy ishlar bo'yicha doimiy sud komissiyalari(lot. quaestiones perpetuae) edi. Ushbu sud organlari respublika davrida ham, keyinchalik imperiya davrida ham boshqa kollegial va yakka tartibdagi sud organlari bilan

4 Печников Г.А. и другие. Судебный процесс над Сократом как борьба софистики и диалектики. Logos et Praxis. 2021. Vol. 20. No. 3. sudebnyy-protsess-nad-sokratom-kak-borba-sofistiki-i-dialektiki.pdf

5 Маркин А.Н. Претура как сакральный и правовой институт в древнем Риме. – Вестник Удмуртского университета. – 2008. Вып. 2. – <http://surl.li/vqykld>

birga faoliyat yuritib, yaxlit sud tizimini organik tarzda to'ldirib turgan<sup>6</sup>.

Respublika va imperiya davrida sudyalar ko'pincha elita vakillari, jumladan, senatorlar va magistratlar orasidan tayinlanan edi. Sudyalar mustaqilligi siyosiy tuzilmalar va davlat jarayonlariga ta'sir o'tkazadigan shaxslarga bog'liq bo'lib, bu sudyalar mustaqilligini qisman bo'lsa-da ta'minlagan. Garchi sudyalar qaror qabul qilishda formal mustaqillikka ega bo'lsalarda, amalda ular muayyan siyosiy va jamoat manfaatlariga bog'liq bo'lib, qonundan ko'ra tayinlovchi shaxs yoki guruhning manfaatlarini hisobga olishlari kerak edi. Bu, o'z navbatida, ularning haqiqatan mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini cheklangan.

Rimda sudyalar orasida korrupsiya muammosi mayjud edi. Lex Acilia de Repetundis(mil.avv. II asrda qabul qilingan) kabi qonunlar sudyalar va boshqa mansabdlor shaxslar tomonidan korrupsiya va suiiste'mollarga qarshi kurashish maqsadida qabul qilingan, bu sudyalar mustaqilligining ko'pincha buzilishiga ishora qiladi<sup>7</sup>.

Lex Acilia qonunida, agar sudyalar o'z vakolatlarini suiiste'mol qilsa yoki qasddan adolatsiz qarorlar chiqarsa, ularning jazoga tortilishi belgilab qo'yilgan. Bu sud tizimining shaffofligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etgan. Qonun, shuningdek, sudyalarni har qanday tashqi ta'sirlardan himoya qilishni ham nazarda tutgan. Sudyalar faqat qonunlarga bo'ysunishlari va qarorlarini tashqi bosimlarsiz qabul qilishlari lozim edi. Bu qonun Rim huquq tizimida sudyalar mustaqilligining kafolati sifatida xizmat qilgan.

Musulmon huquqida sudyalar mustaqilligiga katta ahamiyat qaratilgan, chunki adolat Islomning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Sudyalar(qozi) qonunlarga va Islomning axloqiy normalariga to'liq rioya qilgan holda, har qanday tashqi ta'sirlardan himoyalangan holda qaror qabul qilishlari lozim. Bu masalada Payg'ambar Muhammad(sollallohu alayhi vasallam)ning hadislari muhim manba bo'lib, sudyalarning faoliyatidagi mas'uliyat va adolatga rioya qilish bo'yicha ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi.

Tarixda ilk bor "Qozi al-quzzot"(buyuk qozi) nomiga sazovor bo'lgan Abu Yusufning(113–182

6 Руденко В.Н. Quaestiones perpetuae, или древнеримский опыт правосудия без коррупции. – URL: <http://quaestiones-perpetuae-ili-drevnerimskii-opt-pavosudiya-bez-korruptsii.pdf>.

7 Judicial Accountability and Immunity in Roman Law. Joseph Plescia. American Journal of Legal History, Volume 45, Issue 1, January 2001, Pages 51–70 <https://doi.org/10.2307/3185349>

hijriy/731–798 milodiy) islom huquqi va jinoyat va jazoga oid dastlabki manba hisoblangan “Xiroj” kitobida dalillar nazariyasi hamda aybsizlik prezumpsiyasi (xabeas korpus), bir necha jinoyatlar uchun jazo masalasi, qozilarga davlat xazinasidan maosh to‘lanishi haqidagi prinsipial qoidalar yoritilgan. U o‘z faoliyati davomida orttirgan tajribalari va ilmiga asoslanib, qozilik odobi va vazifalariga bag‘ishlangan ilk kitob “Adab-ul Qozi” asarini yozgan<sup>8</sup>.

Qozilik uchun asosiy qo‘llanma “Umar ibn Xattobning Abu Muso Ash’oriyga maktubi” hisoblangan. Umar roziyallohu anhuning xalifalik davrida Abu Muso Ash’ariy roziyallohu anhu viloyatlardan birida qozi bo‘lgan. Ushbu maktub keyinchalik qozilik ishlari dasturiga aylangan. Yevropa tillariga tarjima qilinib, qozilik mahkamalarida keng qo‘llanilgan, o‘quv yurtlarida darslik sifatida o‘rganilgan. Ushbu mashhur maktubda qozilar uchun muhim qoidalar o‘z aksini topgan: “Qachon senga biror hujjat keltirilsa, uni yaxshilab fahmlab ol. Haq ravshan bo‘lgan holda uni yuzaga chiqar... Ikki taraf orasida yuzing, majlising vaadolating bir xil qilgin. Toinki, sening javring (yon bosishing) ga sharaf (tomon) tama’ qilib qolmasin va zaif (tomon) sening adolatingdan noumid bo‘lib qolmasin”. Bu qoidalar keyinchalik zamoniy sud ishlarini yuritish prinsiplari sifatida qonunchilikda mustahkamlangani bejiz emas. Bulardan tashqari qozi mustahkam xotira, o‘tkir sezgi va zehnga ham ega bo‘lishi talab qilingan<sup>9</sup>.

XVII–XVIII asrlarga kelib “ma’rifatparvarlik” davri demokratik boshqaruva va qonun ustuvorligiga qiziqishning qayta “o‘yg‘onish” davriga aylandi. Jon Lokk, Monteskyo va Jan-Jak Russo kabi faylasuflar erkinlik, tenglik va adolat tamoyillarini himoya qilib, hukmron qatlam zulmining oldini olish va shaxs huquqlarini himoya qilish vositasi sifatida hokimiyatlarning bo‘linish prinsipini ilgari surdilar. Monteskyo o‘zining shoh asari bo‘lmish “Qonunlar ruhi haqida” asarida ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyat tarmoqlarini boshqarish vositasi sifatida mustaqil sud tizimining mavjud bo‘lishi muhimligini ilgari surdi<sup>10</sup>.

XVIII asrdagi Amerika va Fransiya inqiloblari nafaqat siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlarni, balki huquqiy tizimlarni ham tubdan o‘zgartirdi. Bu

8 Синдаров К., Киличев Б. Қозилик одоблари. Odillik mezoni журнали. 2023 йил, 11-сон.

9 ‘Umar’s instruction to the Judge <http://surl.li/tbhtmj>

10 Монтескье Ш. О духе законов. Кн. 10-19. – М.: Директ-Медиа, 2011.

inqiloblar natijasida sud hokimiyatining ijro va qonun chiqaruvchi hokimiyatlardan alohida bo‘lishi konsepsiysi rivojlandi va mustaqil sud tizimlari konstitutsion darajada mustahkamlandi. Ushbu davrda sudyalar mustaqilligi nafaqat qonun ustuvorligini ta’minalashning asosiy omili sifatida, balki davlat boshqaruvining barqarorligini saqlashda ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Hammamizga ma’lumki, AQSH Konstitutsiyasi 1787-yil qabul qilindi va unda sud hokimiyatining ijro va qonun chiqaruvchi hokimiyatlardan alohidaligi ochiq-oydin belgilandi.

AQSh Konstitutsiyasining 3-moddasiga muvofiq “Sud hokimiyati AQSH Oliy sudiga va Kongress tomonidan ta’sis etilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri sudlarga topshiriladi”<sup>11</sup>.

Bu modda sud hokimiyatining ijro va qonun chiqaruvchi hokimiyatlardan mustaqil bo‘lishini kafolatlaydi. Sudyalar mustaqil faoliyat yuritib, faqat Konstitutsiya va federal qonunlarga amal qilishlari shart. Har qanday tashqi bosimlar yoki siyosiy ta’sirlardan himoya qilinishi kafolatlanadi.

AQSh tarixida sud tizimining ijro hokimiyatidan mustaqil ravishda ish yuritishi va qonun ustuvorligini ta’minalashda hal qiluvchi o‘ringa ega ekanligini belgilab beruvchi “Marberi va Medison”<sup>12</sup> ishi bo‘yicha qaror 1803-yilda AQSH Oliy sudi tomonidan ko‘rib chiqilgan bo‘lib, uning asosiy mohiyati sud, qonunlarning konstitutsiyaga muvofiqligini nazorat qilish vakolatini aniqlashda edi. Marberi suda lavozimiga tayinlangan edi, ammo yangi davlat kotibi Medison tayinlov hujjatlarini topshirishdan bosh tortgan. Oliy sud raisi Jon Marshall sud hokimiyati to‘g‘risidagi qonunning ayrim qismlarini konstitutsiyaga zid deb topdi, shu bilan birga, sudning qonunlarni konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish huquqini mustahkamladi.

Kontinental Yevropada ham aynan shu davrda, to‘g‘riroq‘i 1789-yilda Fransiyada “Inson va fuqarolar huquqlari deklaratsiyasi” qabul qilindi. Deklaratsiyaning 16-moddasida “Huquqlarning kafolati ta’minalmagan va hokimiyatlar alohida bo‘ligan jamiyatda konstitutsiya mavjud emas” degan jumlalar keltirib o‘tilgan.

Bu moddaga ko‘ra, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo‘linishi har bir huquqiy davlatning asosiy shartlaridan biri ekanligi belgilangan. Sud hokimiyati ijro va qonun chiqaruvchi

11 Constitution of the United States of America – 1787 <http://surl.li/wvqwth>

12 Marbury v. Madison (1803) <http://surl.li/poytdi>

hokimiyatlardan mustaqil bo‘lishi kerakligi qonun ustuvorligi va adolatni ta’minlashda muhim deb qaralgan.

Shubhasiz XVIII asr Amerika va Fransiyada mustaqil sud tizimlarining shakllanishi davri bo‘ldi.

XIX–XX asrlar konstitutsiyaviy tartiblar, Qonunchilik islohotlari va xalqaro konvensiyalar qabul qilinishi orqali sud hokimiyati mustaqilligining institutsianallashuviga guvoh bo‘ldi. Dunyo mamlakatlari sud tizim faoliyatiga siyosiy aralashuvlar oldini olish hamda odil sudlovni amalga oshirish maqsadida sud kengashlari, egalik huquqini himoya qilish va boshqa himoya choralarini ishlab chiqdi.

1985-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan “Sud organlarining mustaqilligiga oid asosiy tamoyillari”(Basic Principles on the Independence of the Judiciary) sudyalar mustaqilligini mustahkamlashga qaratilgan xalqaro standartlarning eng muhim hujjatlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Mazkur prinsiplar xalqaro huquqning muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, ular sud hokimiyatining mustaqilligini ta’minlash va adolatli sudlovni mustahkamlashga qaratilgan. Bu prinsiplar nafaqat xalqaro huquqni mustahkamlaydi, balki milliy qonunchilikka ham jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘plab mamlakatlar ushbu prinsiplar asosida o‘z sud tizimini isloq qilib, sudyalarning ishlash sharoitlarini yaxshilashga va ularning tashqi ta’sirlardan himoya qilishga qaratilgan choralar ko‘rishmoqda.

Shuningdek, bu prinsiplar sudyalar mustaqilligini xalqaro miqyosda e’tirof etilgan standartlar sifatida belgilaydi. Ular qonun ustuvorligi va inson huquqlarini himoya qilishda muhim huquqiy kafolatlarni yaratadi. Sudyalar faqat qonun va faktlarga tayangan holda adolatli va xolis qarorlar qabul qilishlari shart, bu esa har

bir davlatda adolatli sudlovni ta’minlaydi.

Ko‘plab mamlakatlar ushbu prinsiplar asosida sud tizimini isloq qilishni boshlab, sudyalarning tayinlanishi va lavozimdan ozod qilinishida shaffoflikni ta’minlashga qaratilgan qonunlar qabul qildi. Sudyalar faoliyatining qonuniy kafolatlanishi ularning mustaqil va xolis ishlashlarini ta’minlaydi, shu bilan birga ularning moddiy ta’minoti va ijtimoiy kafolatlari sud tizimining adolatlilagini oshiradi.

BMT va Yevropa Kengashi kabi tashkilotlar tomonidan qabul qilingan ushbu prinsiplar ko‘plab davlatlar uchun huquqiy asos sifatida xizmat qilib, ularni sudyalar mustaqilligini ta’minlashga yo‘naltirmoqda. Bu xalqaro standartlar sudyalar vakolatlarini mustahkamlash va adolatli sud jarayonlarini ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi.

Sudyalar mustaqilligining asosiy prinsiplari xalqaro huquq va milliy qonunchilik rivojlanishida yangi bosqich bo‘lib, ular sud tizimini samarali va adolatli qilishga qaratilgan. Ular sudyalarning mustaqil bo‘lishi, adolatli ish yuritishi va jamiyatning sud tizimiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga yordam beradi.

Demak, xulosa qilib aytganda, sudyalar mustaqilligi – huquqiy davlat barqarorligi va adolatli jamiyat qurishning asosiy tamoyilidir. Maqolada ta’kidlanganidek, sud tizimlarining tarixi va taraqqiyoti, qadimgi sivilizatsiyalardan boshlab zamonaviy xalqaro standartlarga qadar uzlusiz ravishda takomillashib kelgan.

Fikrimizcha, sudyalar mustaqilligini ta’minlash – qonun ustuvorligini mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish va demokratik boshqaruvning samaradorligini oshirishning asosiy omilidir. Shu boisdan, xalqaro standartlarga moslashgan sud tizimlarini shakllantirish va rivojlantirish bugungi kunda ham dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

**ADABIYOTLAR**

1. Монтескье Ш. О духе законов. Кн. 10-19. – М.: Директ-Медиа, 2011.
2. Законы царя Хаммурапи / Методические указания по изучению первоисточника в курсе “История государства и права зарубежных стран” для студентов специальности “Юриспруденция” всех форм обучения.
3. Кудрявцева Т.В. Народный суд в демократических Афинах. – М.: Изд-во “Алетейя”, 2008. – 464 с.
4. Печников Г.А. и другие. Судебный процесс над Сократом как борьба софистики и диалектики. – Logos et Praxis. 2021. Vol. 20. No. 3. sudebnyy-protsess-nad-sokratom-kak-borba-sofistiki-i-dialektiki.pdf
5. Маркин А.Н. Претура как сакральный и правовой институт в древнем Риме. – Вестник Удмуртского университета. – 2008. Вып. 2.
6. Руденко В.Н. Quaestiones perpetuae, или древнеримский опыт правосудия без коррупции. Judicial Accountability and Immunity in Roman Law. Joseph Plescia. American Journal of Legal History, Volume 45, Issue 1, January 2001, Pages 51-70
7. Синдаров К., Қиличев Б. Қозилик одоблари. Odillik mezoni журнали., 2023 йил, 11-сон. ‘Umar’s instruction to the Judge Constitution of the United States of America – 1787.
9. Marbury v. Madison (1803)

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada elektron tijorat subyektlari sifatida iste’molchilarning huquq va majburiyatlari, elektron tijoratdan foydalanishning afzallik va kamchiliklari, iste’molchilarning elektron tijoratda huquqiy munosabatlarga kirishgandagi mavjud imkoniyat va xavf-xatarlar tahlil qilinadi va ushbu muammolarni hal qilish uchun ayrim mulohaza va takliflar keltiriladi.

**Kalit so‘zlar:** Elektron tijorat, elektron tijorat subyektlari, iste’molchi, iste’molchi huquqlari, elektron tijoratning afzalliklari, firibgarlik, fishing, pul qaytarish jarayonlari.

**АНИОТАЦИЯ**

В статье анализируются права и обязанности потребителей как субъектов электронной коммерции, преимущества и недостатки ее использования, существующие возможности и риски при вступлении потребителей в правоотношения в электронной коммерции. Приводятся некоторые соображения и предложения по решению этих проблем.

**Ключевые слова:** электронная коммерция, субъекты электронной коммерции, потребитель, права потребителя, преимущества электронной коммерции, мошенничество, фишинг, процессы возврата денег.

**ANNOTATION**

This article analyzes the rights and obligations of consumers as subjects of e-commerce, the advantages and disadvantages of using e-commerce, the existing opportunities and risks of consumers entering into legal relations in e-commerce, and provides some considerations and suggestions for solving these problems.

**Key words:** e-commerce, e-commerce entities, consumer, consumer rights, e-commerce advantages, fraud, phishing, refund processes.

## ELEKTRON TIJORATDA ISTE’MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MASALALARI

**MAXAMATUMAROVA**

*Mohigul,*

*Toshkent davlat yuridik universiteti  
Biznes huquqi yo‘nalishi magistranti*

**Kirish.** So'nggi yillarda elektron tijorat global miyosda sezilarli o'sishni ko'rsatmoqda. Internet orqali savdo qilish, mobil ilovalar va raqamli platformalar orqali iste'molchilar uchun yangi imkoniyatlarni yaratilmoqda. BMTning hisobotlariga ko'ra, 2024-yilda global elektron tijorat hajmi qariyb 6 trillion dollarni tashkil etdi va bu raqam har yili sezilarli ravishda siljishni ko'rsatayapti. Iqtisodiy rivojlanish oqibatida O'zbekiston xalqaro iqtisodiyot tizimida tobora o'z mavqeyini mustahkamlab bormoqda. Bu esa o'z navbatida elektron tijorat infratuzilmasini takomillashtirish, uning jahon bozorida kuchli raqobatchi sifatida paydo bo'lishini ta'minlash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Yuqoridagi holatlar inobatga olingan holda elektron tijoratning asosini, ya'ni huquqiy bazasini takomillashtirish bo'yicha bir qancha sezilarli ishlar amalga oshirildi. Xususan, Internetda xizmatlar va tovarlarni sotib olishning ko'plab sabablari orasida eng muhim, kun bo'yvi va haftada yetti kun xarid qilish imkoniyatidir(24/7). So'rov natijalariga ko'ra, ushbu omil eng ko'p mijozlar tomonidan tanlangan sababdir. Shunday ekan, elektron tijoratda bиринчи navbatda, narxlar raqobatbardosh bo'lishi kerak. Ikkinchidan, mahsulot haqida aniq ma'lumot berish orqali potensial mijozlarning qiziqishini qondirishga harakat qilish lozim: aniq tasvirlar, so'rovlarga javoblar, demo videolar va boshqalar<sup>1</sup>. Potensial mijozga qanchalik to'liq va foydali ma'lumot berilsa, mahsulotni sotish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. Xususan, davlat tomonidan olib borilayotgan raqamli iqtisodiyot siyosati, yangi texnologiyalar va startaplar rivoji bu sohani yanada jonlantirmoqda. Research Group Central Asia keng ko'lamli tadqiqoti doirasida so'rovda qatnashgan har ikkinchi o'zbekistonlik Uzum Market milliy marketpleysi xarid qilgan, 40 foizi esa o'tgan oy davomida Uzum Marketda buyurtma bergen. Agar foydali sodiqlik dasturi xarid qilish platformasini tanlashda eng muhim mezon bo'lib qolsa, so'nggi bir necha oy ichida tanlov va to'lov qulayligining ahamiyati sezilarli darajada oshdi, bu xaridorlar orasida tajribali foydalanuvchilar sonining ko'payishini ko'rsatadi. Shuningdek, mezonlarning yuqori qismida kutilganidek tezkor yetkazib berish va arzon narxlar. Uzum Market o'z assortimenti va 1 kun ichida yetkazib berish bilan aynan shu va boshqa mezonlarga to'g'ri kelganligi sababli uning barcha yosh toifalarida o'zbekistonliklar orasida mashhurligi ortib bormoqda<sup>2</sup>. Elektron tijorat rivojlanishi bilan bir qatorda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Iste'molchilar onlayn savdo platformalaridan foydalangan holda, o'z huquqlarini bilmasliklari yoki ular haqidagi ma'lumotlarni yetarlicha olmasliklari iste'molchilarni firibgarlik, noqonuniy savdo va sifatli mahsulotlar bo'yicha muammolarga duchor etmoqda.

**Material va metodlar.** Mazkur maqolani yozish jarayonida analiz, sintez, tizimli tahlil, statistik, mantiqiy, formal yuridik metodlardan foydalanildi.

**Adabiyotlar tahlili.** Elektron tijorat (e-commerce)

– bu tovarlar va xizmatlarni onlayn platformalar orqali sotish va xarid qilish jarayonini ifodalaydi<sup>3</sup>. U internet va boshqa elektron tarmoqlar orqali amalga oshiriladigan savdo faoliyatini o'z ichiga oladi. Elektron tijorat nafaqat mahsulotlarni sotish, balki xizmatlarni taqdim etish, to'lovlarni qabul qilish va xarid qilish jarayonlarini ham o'z ichiga oladi<sup>4</sup>.

Elektron tijoratdagi huquqiy munosabatlar hamda iste'molchilarning elektron tijorat jarayonidagi statusini aniq belgilab olish masalasi muhim ahamiyatga egadir. Elektron tijorat subyektlari o'rtasidagi elektron shartnomalarni tuzish, bajarish, elektron hisob-kitoblarni amalga oshirish, nizolarni hal qilish, axborot vositachisining ishtiroti bilan bog'liq munosabatlar elektron tijorat huquqiy munosabatlarni tashkil etadi. Elektron tijorat huquqiy munosabatlar elektron tijorat huquqi normalari bilan tartibga solinadigan, mazkur huquq subyektlari o'rtasidagi elektron tijoratni amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan, shuningdek, ushbu faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq bo'lgan munosabatlardir<sup>5</sup>. "Elektron tijorat to'g'risida" gi qonunning 8-moddasiga muvofiq, elektron tijoratda tovarlarni sotuvchi, xizmatlarni yetkazib beruvchi yoki ishlarni bajaruvchi sifatida ishtirot etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxslar, shuningdek, elektron tijoratda tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning xaridori, iste'molchisi sifatida ishtirot etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxslar elektron tijorat ishtirotchilaridir<sup>6</sup>.

Iste'molchilar huquqlari masalasi esa milliy qonunchiligidizda konstitutsiya darajasida mustahkamlab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasiga ko'ra, fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakklardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarni rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste'molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi<sup>7</sup>.

Shu bilan bir qatorda, "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunda elektron tijoratning asosiy prinsiplaridan biri sifatida elektron tijorat subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishi prinsipi sanab o'tilgan<sup>8</sup>. Mazkur prinsip o'z mohiyatiga ko'ra, elektron tijorat huquqiy munosabatlarda qatnashuvchi subyektlarning huquq va manfaatlari qonun va sud orqali himoya qilinishi ta'minlanishini nazarda tutadi. Huquqiy himoya elektron tijorat subyektlarining oqilonaga faoliyat yuritishining asosiy shartidir. Huquqiy himoya maz-

<sup>3</sup> Amar Yunnas, Elektron tijorat huquqi [E-commerce laws], study guide. – T.: TSUL Publish, 2024. 6 p.

<sup>4</sup> Рузиназаров Ш.Н. Ал-Хоразмий алгоритм таълимоти ракамли хукуқ шаклланишининг гносеологик асоси // Монография. Text. – T.: "Yashil yaproq nashriyoti", 2024. 110 б.

<sup>5</sup> Рузиназаров Ш.Н. Ал-Хоразмий алгоритм таълимоти ракамли хукуқ шаклланишининг гносеологик асоси // Монография. Text. – T.: "Yashil yaproq nashriyoti", 2024. 110 б.

<sup>6</sup> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2022-y., 03/22/792/0870-son

<sup>7</sup> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son

<sup>8</sup> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2022-y., 03/22/792/0870-son

muni eng avvalo, elektron tijorat ishtirokchilarining huquqlarini himoya qiluvchi organlarning mavjudligida namoyon bo'lsa, qolaversa, ularning qonun bilan qo'riqlanadigan huquqlari buzilganda sud orqali tiklash imkoniyati yaratilganligida ifodalanadi<sup>9</sup>. O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni iste'molchilarning huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu qonunda iste'molchilarning asosiy huquqlari, shuningdek, ularga yetkazilgan zararni qoplash tartibi ko'rsatilgan<sup>10</sup>. 2022-yilda qonunchilikimizga tovarlar (ishlarni, xizmatlar)ni axborot tizimlaridan foydalangan holda realizatsiya qilishda iste'molchilarning huquqlarini himoya qilishga oid norma kiritildi. Iste'molchilarning huquqlarini to'g'ri himoya qilish elektron tijoratning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalari.** Elektron tijoratning afzalliklarini sanab o'tadigan bo'lsak, yuqorida ta'kidlab o'tganimiz – qulaylik asosiy ahamiyat kasb etadi. Elektron tijorat iste'molchilarga 24/7 mavjud bo'lgan xarid qilish imkoniyatini taqdim etadi. Xaridorlar istalgan joydan, istalgan vaqtida xarid qilishlari mumkin. Ikkinchidan, keng assortimentga ega bo'lgan onlayn do'konlar ko'pincha an'anaviy do'konlardan ko'proq mahsulot va xizmatlarni taklif qiladi. Iste'molchilar turli brendlari va

9 Рузиназаров Ш.Н. Ал-Хоразмий алгоритм таълимоти раками хукук шаклланишининг гносеологик асоси // Монография Text. – Т.: "Yashil yaproq nashriyoti", 2024. 112 б.

10 Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son

mahsulotlarni solishtirish va tanlashda erkinlikka ega. Uchinchidan, elektron tijoratda iste'molchilar bir nechta onlayn do'konlarda narxlarni tezda solishtirishlari mumkin, bu esa ularga eng yaxshi narxdagi mahsulotni topishda yordam beradi. To'rtinchidan, iste'molchilar mahsulotlar va xizmatlar haqida batafsil ma'lumotlarni tezda olishlari mumkin, jumladan sharhlar, reytinglar va boshqa xaridorlarning fikrlari orqali. Beshinchidan, elektron tijorat turli xil to'lov usullarini taklif etadi, jumladan, plastik kartalari, elektron hamyonlar va mobil to'lovlari. Bu esa xarid qilish jarayonini yanada qulaylashtiradi. Vaniyoyat, ko'plab onlayn do'konlar xaridorlarga buyurtmalarini ugya yetkazib berish xizmatini taqdim etadi, bu esa xarid qilish jarayonini osonlashtiradi<sup>11</sup>.

Shu bilan biga elektron tijoratning bir qator kamchilik va muammolari ham mayjud. Xususan:

Xavfsizlik muammolari: onlayn xaridlar davomida shaxsiy ma'lumotlar va to'lov ma'lumotlarini saqlash bilan bog'liq xavfsizlik muammolari mavjud. Firibgarlik va ma'lumotlarning o'g'irlanishi xavfi bor.

Mahsulotni ko'rmaslik: iste'molchilar mahsulotlarni shaxsan ko'rmasdan xarid qilishadi, bu esa ba'zan sifat va o'ichovga bog'liq kutilmagan natijalarga olib kelishi mumkin.

Qaytarish jarayoni: mahsulotlarni qaytarish jarayoni murakkab bo'lishi va vaqt talab qilishi mumkin.

11 Ghada Taher. [E-Commerce: Advantages and Limitations]. Article in International Journal of Academic Research in Accounting Finance and Management Sciences. 2021. Pp 164



Iste'molchilar qaytarish siyosatini yaxshi tushunmasliklari yoki qiyinchiliklar bilan duch kelishlari mumkin.

Yuzma-yuz aloqaning yo'qligi: onlayn xarid qilishda iste'molchilar sotuvchi bilan yuzma-yuz muloqotda bo'lmaydi, bu esa ba'zida xizmat sifatini nazorat qilishni qiyinlashtiradi.

Yuk tashish va yetkazib berish muammolari: Mahsulotlarni vaqtida yetkazib berish yoki yuk tashish xarajatlari bilan bog'liq muammolar bo'lishi mumkin. Bu iste'molchilarga noqulaylik tug'dirishi mumkin<sup>12</sup>.

Umuman olganda, elektron tijorat iste'molchilar uchun ko'plab afzalliklar taqdim etadi, ammo shu bilan birga xavflar ham mayjud. Iste'molchilar elektron tijoratning afzalliklaridan to'g'ri foydalanishi va xavflarini kamaytirishi uchun ehtiyojkorlik bilan harakat qilishlari zarur.

Elektron tijoratda iste'molchilar huquqlarining asosiy prinsiplariga to'xtaladigan bo'lsak, ulardan birinchisi xarid qilinayotgan tovar yoki ko'rsatilayotgan xizmat haqida ma'lumot olish huquqidir. Iste'molchilar har doim sotilayotgan mahsulot yoki xizmatlar haqida to'liq va aniq ma'lumot olish huquqiga ega. Bu mahsulotning o'lchami, sifati, tarkibi, foydalanish muddatlari va narxlar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Yana bir muhim tamoyillardan biri shuki, iste'molchilar xarid qiladigan mahsulotlar va xizmatlar xavfsiz bo'lishi kerak. Bu, o'z navbatida, mahsulotlarning salomatlik va hayotga zarar yetkazmasligini ta'minlaydi. Iste'molchilar xavfsiz va sifatli mahsulotlarni olish huquqiga ega. Shu bilan birga, iste'molchilar agar mahsulot sifatsiz bo'lsa, yoki kutilganidek bo'lmasa, uni qaytarish huquqiga ega. Bu huquq iste'molchilarni himoya qiladi va ularning xarid qilish jarayonida ishonch hosil qiladi. Yana bir asosiy tamoyil iste'molchilar har doim adolatlvi va teng muomala huquqiga ega bo'lishi kerak. Bu sotuvchilar tomonidan iste'molchilarga nisbatan adolatsiz muomalani bartaraf etish uchun muhimdir. Elektron tijoratda tuziladigan shartnomalar asosan ommaviy oferta hisoblangani bois, teng bo'lmagan muomalani milliy qonunchilik ham, xalqaro normalar ham taqiqlaydi. Shuningdek, iste'molchilar o'z huquqlarini himoya qilish va zarur hollarda qonuniy yordam olish huquqiga ega. Bu huquq iste'molchilarning o'z huquqlari buzilganda tegishli chora-tadbirlar ko'rishini ta'minlaydi<sup>13</sup>.

Elektron tijoratning rivojlanishi bilan birga iste'molchilar huquqlarini himoya qilishda bir qator muammolar paydo bo'lmoqda. Ushbu muammolar asosan xavf-xatarlar, firibgarlik va boshqa salbiy holatlardan iboratdir.

**I. Firibgarlik** – elektron tijoratda eng keng tarqalgan muammolardan biridir. Bu holatda firibgarlar iste'molchilarning shaxsiy ma'lumotlarini, plastik kartalari raqamlari va boshqa moliyaviy ma'lumotlarini o'g'irlash maqsadida turli xil usullarni qo'llaydi. Mazkur jinoyat quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

1. Onlayn do'konlar orqali firibgarlik: Firibgarlar haqiqiy bo'lmagan onlayn do'konlarni yaratib, iste'molchilarga arzon narxlarda mahsulotlar taklif qilishadi.

12 Teresa Moreira. [Consumer protection in e-commerce: the work of UNCTAD]. WTO workshop on e-commerce 1 June 2023.

13 Teresa Moreira. [Consumer protection in e-commerce: the work of UNCTAD]. WTO workshop on e-commerce 1 June 2023.

Iste'molchilar buyurtma berib, to'lovni amalga oshirgandan so'ng, mahsulotlar hech qachon yetkazilmasligi yoki sifatli bo'lmasligi holatlari mavjud.

2. Fishing: Iste'molchilarning shaxsiy ma'lumotlarini olish maqsadida firibgarlar ijtimoiy muhitda yoki elektron pochta orqali soxta xabarlar yuboradilar. Ushbu xabarlarda, bank yoki onlayn do'kondan kelgan xabardek ko'rindagidan havolalar bo'ladi.

**II. Soxta, qalbaki mahsulotlar:** Iste'molchilar ko'pincha taniqli brendlari mahsulotlarini sotib olishga harakat qilishadi, ammo soxta yoki past sifatli mahsulotlarni olishadi<sup>14</sup>.

### III. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish muammolari

Elektron tijoratda iste'molchilar shaxsiy ma'lumotlari kiritganida, bu ma'lumotlarning xavfsizligi va himoyasi doimo muammoga aylanadi. Bunda asosiy xavf-xatarlar quyidagilardan iborat:

**Ma'lumotlarning o'g'irlanishi:** Onlayn xaridlar davomida iste'molchilarning shaxsiy ma'lumotlari (manzil, telefon raqami, plastik karta ma'lumotlari) o'g'irlanishi mumkin. Iste'molchilarning ma'lumotlari sotuvchilar tomonidan noqonuniy maqsadlarda ishlatalishi yoki boshqa uchinchi shaxslarga sotilishi xavfi mayjud<sup>15</sup>.

### IV. Mahsulot va pulni qaytarish jarayonlari

Ba'zan iste'molchilar sotib olingen mahsulotlardan norozi bo'lislari yoki ularni kutilganidek topmasliklari mumkin. Bunday hollarda, qaytarish va pulni qaytarish jarayoni murakkab bo'lishi mumkin. Har bir onlayn do'konda o'zining qaytarish siyosati bo'ladi, ammo iste'molchilar ushbu siyosatni tushunmasliklari yoki murojaat qilishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Mahsulotni qaytarish uchun vaqt talab qilishi va pulni qaytarish jarayoni uzoq davom etishi mumkin, bu esa iste'molchilarni noqulay vaziyatda qoldiradi.

Ba'zi holatlarda iste'molchilar mahsulotni qaytarish uchun transport xarajatlarini o'zlar qoplashlari kerak. Bu esa xarajatlar oshishiga olib keladi. Qolaversa, iste'molchilar mahsulotni qaytarish jarayonida uning holatini saqlashi zarur. Agar mahsulot o'z holatini yo'qotgan bo'lsa, qaytarish rad etilishi mumkin. Ba'zi onlayn do'konlar qaytarish jarayoni uchun qat'iy talablar qo'yishi mumkin, masalan, mahsulot qadoqlanishi, teglar saqlanishi va hokazo. Iste'molchilar esa har doim ham bunday talablarni bajara olmaydi.

Elektron tijoratda iste'molchilar odatda onlayn xaridlar davomida o'zlarining shaxsiy ma'lumotlari(ism, manzil, telefon raqami, plastik karta ma'lumotlari)ni kiritadi. Bu ma'lumotlarning to'g'ri va xavfsiz saqlanishi muhimdir. Elektron tijoratda eng keng tarqalgan muammolardan biri – shaxsiy ma'lumotlarning o'g'irlanishi. Firibgarlar iste'molchilarning ma'lumotlarini o'g'irlaydigan dasturlar va usullarni ishlab chiqishmoqda. Ba'zi onlayn do'konlar xavfsizlik standartlariga rioya qilmaydi. Iste'molchilarning ma'lumotlarini himoya qilishda yetarlicha ehtiyojkorlik ko'rsatmaydi. Bu o'rinda

14 Kiran Javaria, [Omar Masood, Fernando Garcia. Strategies to manage the risks faced by consumers in developing e-commerce]. Insights into Regional Development, 2020, 2 (4), pp.776-p.

15 Teresa Moreira. [Consumer protection in e-commerce: the work of UNCTAD]. WTO workshop on e-commerce 1 June 2023.

iste’molchining o‘zida ham shaxsiy mas’uliyat lozim bo‘ladi. Iste’molchilar shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilishda ehtiyyotkorlik bilan yondashmasliklari, masalan, kuchli parollar tanlamasligi yoki shaxsiy ma’lumotlarni shubhali saytlarda kiritishi ham muammoni yuzaga kelтирishi mumkin.

Tadqiqot natijalari iste’molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida bir qator muhim xulosalarni ko‘rsatdi:

**Birinchidan**, iste’molchilar o‘z huquqlarini bilish darajasi past. Ko‘plab iste’molchilar o‘zlariga tegishli huquqlarni bilmaydi va bu ularning huquqlarini himoya qilish imkoniyatlarini cheklaydi.

**Ikkinchidan**, ayrim iste’molchilar sotib olingan tovarni qaytarish jarayonida qiyinchiliklarga duch keldi. Qaytarish jarayoni ko‘p hollarda noaniq va murakkab bo‘lishi mumkin, bu esa iste’molchilarning ishonchini kamaytiradi.

**Uchinchidan**, shaxsiy ma’lumotlarning xavfsizligi masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Iste’molchilar ma’lumotlarining o‘g‘irlanishi va noto‘g‘ri ishlatalishi holatlari keng tarqalmoqda.

**To‘rtinchidan**, O‘zbekistonda iste’molchilar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ular bilan bog‘liq amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ijobji bo‘lsa-da, amaliyatda bir qator muammolar mavjud. Qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlarining samaradorligi asosan huquqi qo‘llash va amalga oshirilishidagi muammolar bilan bog‘liq.

**Xulosalar**. Xulosa sifatida aytadigan bo‘lsak, iste’molchilar huquqlarini himoya qilishda yetarlicha

bilim va ma’lumotlarga ega emaslik holatlari mavjud. Sotib olingan tovarlarni qaytarish jarayonlaridagi mu'rakkablik esa iste’molchilarning ishonchini kamaytiradi. Shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi masalasida ishlar yanada takomillashtirishi zarur. Iste’molchi huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonunchilikni amaliyatda joriy qilishda ayrim kamchiliklar mavjud.

Mazkur muammolarni samarali hal etish uchun quyidagilar taklif qilinadi:

**Birinchidan**, iste’molchilar uchun huquqlarini tushuntiruvchi ta’lim dasturlarini kengaytirish. Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalarda iste’molchilar huquqlarini targ‘ib qiluvchi axborotlar orqali iste’molchilarning huquqlari to‘g‘risida xabardorligini oshirish.

**Ikkinchidan**, onlayn do‘konlar va xizmatlar tomonidan qaytarish jarayonini soddalashtirish va tushunarli qaytarish jarayonini joriy qilish.

**Uchinchidan**, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishga doir qat‘iy normativlar va xavfsizlik standartlarini ishab chiqish va ularni amaliyatda qo‘llash.

**To‘rtinchidan**, monitoring va nazoratni kuchaytirish. Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha davlat organlarining monitoring va nazorat faoliyatini kuchaytirish, shikoyatlarni tezkor ko‘rib chiqish tizimini yaratish.

Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida mavjud muammolarni hal qilish va yangi takliflarni amalga oshirish, iste’molchilarning elektron tijoratdagi ishonchini oshirishga yordam beradi. Bu esa iqtisodiy rivojlanish va barqarorlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR

1. Amar Yunnas, Elektron tijorat huquqi [E-commerce laws], study guide. – T.:TSUL Publish. 2024. -88 p.
2. Рузиназаров Ш.Н. Ал-Хоразмий алгоритм таълимоти ракамли хуқуқ шаклланишининг гносеологик асоси // Монография. Text. – Т.: “Yashil yaproq nashriyoti”, 2024. 384 б.
3. Oripova G. O‘zbekistonda elektron tijorat: asosiy muammolar va jahon tajribasini organizish dolzarbliği. Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali 3.4 (2023): 132-144.
4. Teresa Moreira. [Consumer protection in e-commerce: the work of UNCTAD]. WTO workshop on e-commerce 1 June 2023.
5. Kiran Javaria, [Omar Masood, Fernando Garcia. Strategies to manage the risks faced by consumers in developing e-commerce]. Insights into Regional Development, 2020, 2 (4), pp.774 - 783.
6. Ghada Taher. [E-Commerce: Advantages and Limitations]. Article in International Journal of Academic Research in Accounting Finance and Management Sciences. 2021. Pp 154-166
7. O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” gi 221-I-son qonuni/ Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son
8. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi O‘RQ-792-son qonuni/ Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.09.2022-y., 03/22/792/0870-ton
9. Uzum Market etakchilikni mustaҳкамlamoқда: мамлакат ахолисининг 80% дан ortigiga milliy marketpleyseни билади// <https://kun.uz/news/2023/09/25/> Uzum Market etakchilikni mustaҳкамlamoқда: мамлакат ахолисининг 80% дан ortigiga milliy marketpleyseни билади// <https://kun.uz/news/2023/09/25/>

## SUD-EKSPERTLIK FAOLIYATIDA YANGILIK VA YENGILLIKLAR

**RASULBEKOVA**  
*Risolat Rasulbek qizi,*  
*Adliya vazirligining Yuridik ta’lim va*  
*sud-ekspertiza boshqarmasi*  
*katta maslahatchisi*

Ta’kidlash joizki, qachonki sud-tergov jarayonida ish yuzasidan maxsus bilimga ega **mutaxassisning fikri** talab qilinganda **sud ekspertiga murojaat qilinadi**.

Ular bergen xulosa tergov va sud organlariga ish yuzasidan **dalillarga baho berishda** hal qiluvchi o’ringa ega bo’ladi. Bu esa, o’z navbatida, inson taqdiri, jamiyatning odil sudlovga ishonchi kabi muhim masalalarga borib taqaladi.

Barcha davlatlarda ham fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlari himoya qilinishida, jinoyatchilikning oldini olish va uni fosh etishda **sud-ekspertiza tadqiqotlari natijalarini** muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

So’ngi yillarda mamlakatimizda barcha sohalarda bo’lgani kabi **sud-ekspertlik faoliyatini takomillashtirish yuzasidan** ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bunga yaqqol misol sifatida, sohani yanada rivojlanishiga zamona viy texnologiya yutuqlarini va yangi ekspertiza turlarini joriy qilish maqsadida **Hukumating 2024-yil 18-dekabrda** qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g’risida”gi qarorini keltirish mumkin.

Ushbu **Qaror** bilan Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining tashkiliy tuzilmasi takomillashtirildi.

Xususan, Markazning **Toshkent viloyatidagi hududiy bo‘limi** va Markazda **Iste’mol mahsulotlari va ichimlik suvi tarkibini tahlil qilish laboratoriyasini** tashkil etish belgilandi.

Ta’kidlash joizki, Markazning Toshkent viloyat bo‘limi mavjud emasligi sababli, ushbu hududda faoliyat yurituvchi sud-tergov organlariga hamda aholiga sud-ekspertiza xizmatlari **Markaz tomonidan** amalga oshirilmoqda.

Bu o’z navbatida, **ularga turli qiyinchiliklar(ortiq-cha sarf-xarajat va ovoragarchilik)** tug’dirmoqda hamda ayrim holatlarda ekspertiza xulosalarini olish muddatlari uzayishiga sabab bo‘lmoqda.

Bilamizki, so’nggi paytlarda dunyoning ko‘pgina mamlakatlarining oziq-ovqat do‘konlarida, shu jumladan mamlakatimizda ham tarkibida **genetik modifikatsiyalangan organizm(GMO)lar** mavjud mahsulotlarning turi va soni ortmoqda.

Biroq, bugungi kunda **GMO mahsulotlarini tadqiq qilish bo‘yicha** amalga oshirilayotgan ishlar yetarli darajada emas. **GMO mahsulotlarini** nazoratdan o’tkazmasdan foydalanish **nafaqat aholi, balki kelajak avlod salomatligi va millat genofondiga jiddiy xavf solishi** mumkinligini alohida ta’kidlash lozim.

Shuningdek, dunyo bo‘ylab **64 ta** mamlakat, xususan, AQSH, Xitoy, Avstraliya, Yaponiya va Yevropa Ittifoqining barcha mamlakatlari **GMO oziq-ovqat mahsulotlarini etiketlashni** talab qiladi. Mazkur davlatlarga tovarlarni eksport qilish uchun mamlakatimizda



ham mahsulotlarni “GMO” yo‘qligi yuzasidan etiketlash tizimini yo‘lga qo‘yish talab etiladi.

Markazda tashkil qilinayotgan **Iste’mol mahsulotlari va ichimlik suvi tarkibini tahlil qilish laboratoriysi** vakolatli organlarning savollariga javob berish bilan birga, **tadbirkorlarga** ham **o’z mahsulotlarini eksport qilishda** yaqindan yordam ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, Qarorda Markazning Navoiy hamda Qashqadaryo viloyati bo‘limlarida Materiallar, ashyolar va buyumlar kriminalistik ekspertizasi laboratoriyasi hamda sud-xatshunoslik va hujjatlarning sud-texnikaviy ekspertizalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘limida esa sud-fonografiya, sud-yong‘in texnika va elektrotexnika ekspertizalari bosqicha-bosqich joriy etish, ushbu bo‘limlarni xalqaro standartlarga mos binolarga joylashtirish nazarda tutildi.

Markazning hududiy bo‘limlarida o‘tkaziladigan ekspertiza turlari ko‘paytirilishi orqali nafaqat aholimiz, balki, hududlarda faoliyat yurituvchi sud-tergov organlari ham qo‘srimcha qulayliklar yaratilishi maqsad qilingan.

Bundan tashqari, **Qaror** bilan bir qator yangi ekspertiza va tadqiqot turlari amaliyotga joriy qilinmoqda. Jumladan:

- sud-axloqshunoslik ekspertizasi;
- parfyumeriya sanoati mahsulotlarining kimyo-viy tarkibini aniqlash tadqiqoti;
- qurilish materiallari tadqiqotlari;
- iste’mol mahsulotlari tarkibida GMO mavjudligi aniqlash tadqiqoti;
- ichimlik suvining tarkibini aniqlash kabilar.

Yangi joriy etilishi rejalashtirilayotgan ekspertiza va tadqiqotlar turlarini yo‘lga qo‘yilishi orqali esa jamiyatimizda vujudga kelgan hamda **sud-tergov organlari tomonidan huquqiy baho berishda qiyinchiliklar tug‘ilayotgan savollarga ilmiy va asosli javob berilishiga sabab bo‘ladi.**

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, **Hukumat qarori sohaning xalq manfaati yo‘lida** yanada takomillashib borishiga hamda **sud-tergov organlari faoliyatiga yaqindan ko‘maklashishga** xizmat qiladi.

